

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«JISMONIY TARBIYA VA SPORT» KAFEDRASI

"PEDAGOGIKA"

fanidan

MA'RUZALAR MATNI

(I-qism)

Namangan - 2015

Ushbu ma'ruza matni barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan. Matn o'z ichiga mazkur o'quv yili uchun tasdiqlangan ishchi o'quv dasturi asosida foydalanish uchun tayyorlangan.

Ma'ruzalar matni «Jismoniy tarbiya va sport» kafedrasining 2015 yil 26 avgustdagi 1-sonli majlisida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Ma'ruzalar matni institut Ilmiy - uslubiy kengashining 2015 yil 29 avgustdagi 1/3-sonli yig'ilishida muhokama qilinib tasdiqlangan va chop etishga tavsiya qilingan.

T u z u v c h i:

Mullaboyeva N - katta o'qituvchi

Mas'ul muharrir:

Mullaboyeva N - katta o'qituvchi

T a q r i z c h i:

Asharova O'. - pedagogika fanlari nomzodi, NamDU dotsenti.

Kirish.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa **pedagogika** fanining maydonga kelishiga sababchi bo'lgan.

Ta'lim – tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ko'proq milliy pedagogikamizning tarixiy ildizlari va zamonaviy yutuqlarini talabalar ongiga singdirishni qay darajada olib borilganligiga bog'liq bo'lib, u barkamol avlod tarbiyasida mustahkam asos bo'ladi. Shunday asoslarda ta'lim-tarbiya berish bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarga tayyorlovchi innovatsion jarayon bo'lib, oldingi egallagan bilimlar asosida ijobiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondashuv texnologiyalarini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bu talablarni bajarish ta'lim-tarbiya jarayonini ilm-fan va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida, zamon talablarini hisobga olgan holda tashkil etish muammosi mavjudligini ta'kidlaydi.

Ta'lim-tarbiya sohasida Respublikamizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, **“Ta'lim to'g'risida”**gi Qonun, **“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”** va jahon ta'limi andozalari talablariga mos keluvchi **“Davlat ta'lim standartlari”**da davr bilan hamnafas, ya'ni **“intellektual asr”**ning faol ishtirokchilarini tayyorlash ko'zda tutilgan. XXI asrning faol ishtirokchisi esa keng ma'noda ta'lim-tarbiya va ularning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar bilan bog'langan holda barkamol shaxsni voyaga yetkazishdek innovatsion jarayonni o'zida mujassamlantiradi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan amaliyotda keng foydalanishga erishish, **“Ta'lim – fan – amaliyot”** integratsiyasining ta'lim tizimidagi samarasiga e'tibor qaratilgan. Qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning milliy modelidagi bosh muddao ham barkamol avlod tarbiyasi, mustaqil; va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasidir. Bu vazifani esa pedagogika fani asoslaridan xabarsiz kishi me'yoriga yetkaza olmasligi hech kimga sir emas.

Shu ma'noda bo'lajak o'qituvchilar zimmasiga qo'yiladigan yangi pedagogik tafakkurni shakllantirish vazifasi zamonaviy pedagogika fanining mazmun-mohiyatini tashkil etadi, shuningdek, jamiyat oldida milliy maktab modelini yaratish, milliy ta'lim tizimini, uning mazmunini jahon tajribasi mezonlariga mos davlat standartlari asosida yaratish vazifasini hal etish ham milliy pedagogikamizning zimmasiga yuklanadi.

Pedagogika fani ijtimoiy fanlar tizimiga kirib, u o'zining nazariy, milliy va amaliy asoslariga ega.

Pedagogika fanining nazariy asoslari: pedagogika fanining nazariy asoslari inson aqliy kamolotini yuksaltirishga qaratilgan, xalqimiz tomonidan yaratilgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotlarga doir nazariy va metodik manbaalarga, O'rta Osiyo va jahon ma'rifatparvar, mutafakkir olimlarining asarlariga suyanagan holda barkamol shaxsni tarbiyalash, o'qitishning qoida va umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

Pedagogika fanining milliy asoslari: pedagogika fanining milliy asosi ta'lim muassasalarini har bir millatning milliy merosi bilan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni bog'lagan holda amalga oshirishdir. Har bir millatning o'ziga xos meros va qadriyatlarga suyanagan holda tarbiyashunoslik masalalarini milliy asosda yosh avlodga yetkazishning mazmuni, shakli, metod va tamoyillarini milliy lashtirishdir.

1-mavzu: Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Reja:

1. Tarbiya-pedagogikaning predmeti sifatida.
2. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.
3. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari (tushunchalari): tarbiya, inson kamoloti, ta'lim, ma'lumot.
4. Tarbiyada milliy g'oya va milliy mafkura.
4. Pedagogikaning inson va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
5. Pedagogika fanining fanlararo bog'liqligi va fanlar tizimida tutgan o'rni.

Ta'limiy maqsad: Pedagogika fanining predmeti, maqsadi, fanning ob'yekti, vazifalari va pedagogikaning fanlar tizimida tutgan o'rni haqida umumiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad: Pedagogika fanining jamiyat va inson hayotida tutgan o'rni.

Rivojlantiruvchi maqsad: Talabalarning dunyoqarashi, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini va kasbiy qiziqishlarini o'stirish.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Pedagogika (yunon. **país**-bola, **agógos**-yetaklash, bola yetaklovchi) – tarbiya haqidagi ta'limot, tarbiyalash san'ati, tarbiya insonni shakllantirishga qaratilgan muayyan tizimli faoliyat hamda ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari haqidagi fan.

Tarbiya – aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'sir jarayoni: shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy, madaniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli amaliy pedagogik jarayon.

Ta'lim – ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishdagi ikki yoqlama (ya'ni o'qituvchi va o'quvchi faoliyati) jarayon bo'lib, u kishini shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarashlar majmuidir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'g'risidagi qonunlarida ta'lim davlatimizning ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor deb ta'kidlanishi pedagogika fani zimmasiga juda katta mas'uliyatli vazifalarni yukladi. Mutafakkir A.Avloniy ta'kidlaganidek, «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot: yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga egadir. Boshqa fanlar kabi pedagogika ham fan sifatida paydo bo'lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosidan kelib chiqadi.

Pedagogika nima? Nima bilan shug'ullanadi? Pedagogika darslarida, pedagogikaga oid qomuslarda pedagogikaning bahsi turlicha, ayrim hollarda, bir-biridan farqlanadigan darajada talqin qilinadi. Pedagogika atamasi yunoncha «pedagogos» degan so'zdan olingan bo'lib, «bola yetaklovchi» degan ma'noni bildiradi. Tarixiy manbalarni ko'rsatishicha, qadimiy yunonlarda quldorning bolasini yetaklovchi, qarovchini pedagog deb atashgan. Inson yaratilishi, paydo bo'lishi zahotiy oq ilm va tarbiyaviy sifatlarning uning yashash, hayot kechirishi uchun eng zaruriy

shart vositalar ekanligini anglab boradi. Tarbiya eng avvalo insonni o'ziga qaratilgandir. Har bir shaxs doimo ham aqliy, ham tarbiyaviy, jismonan takomillashib, shakllanib boradi.

Pedagogika fanining predmeti o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun uning metodologik asoslari, maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi. Olamning moddiy-ma'naviy tuzilishi, qurilishi, uning rivoji, insonning moddiy-ma'naviy yashash sharoiti, imkoniyatlari, uning aqliy, axloqiy, jismoniy holati bilan uzviy bog'liq.

Tarbiyaning eng avvalo insonning o'ziga qaratilganligi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan butun dunyo hamjamiyati tan olgan, qadamba-qadam amalga oshirilayotgan «o'zbek modeli»da juda to'g'ri belgilandi. Dunyoda birinchi bor insonni diqqat e'tibori uni o'zligini anglashga qaratildi. O'zligini anglash birinchidan, uning ozod, erkin, nodir, ulug' siymoligini anglash va o'zida unga amal qilish sifatlarini shakllantirib borish bo'lsa, ikkinchidan uning o'ziga xos milliy insoniy sifatlarini ochib beruvchi etnik, ma'naviy-insoniy asoslarini anglash va ularga amal qilishdan iboratdir. Yuqorida sanab o'tilgan ikki sifat komil inson sifatining asosini tashkil etadi. Bugungi hayot komil insonning to'rtta sifatini shakllantirishni taqozo etadi:

Ezgu niyat, fikr;

Ezgu so'z, xushmuomala;

Ezgu ish, ezgu faoliyat;

Ezgu sabr-toqat, ilm, sarmoyadan iboratdir.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalari, tushunchalari quyidagilardan iborat: shaxsni rivojlantirish, shakllantirish, tarbiyalash, bilim berish, o'qitish qonuniyatlari borasida tadqiqotlarni olib boradi. Shuning uchun rivojlantirish, shakllantirish, ta'lim-tarbiya ma'lumot pedagogikaning asosiy kategoriyasi hisoblanadi.

Shaxs turli omillar ta'sirida shakllanadi. Tarbiya esa shaxsni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi omillardan biridir. Katta yoshlilar turli vositalar va usullar orqali ma'lum maqsadni ko'zlab o'z tarbiyalanuvchilarida ma'lum xislatlarni hosil qilish va rivojlantirishni yuzaga chiqaradilar.

Shunday qilib, tarbiya shaxsni muayyan yo'nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ijtimoiy munosabatidir. Asosiy pedagogik tushunchalardan yana biri ta'lim, ya'ni o'qitish, bilim berish tushunchasidir. Ta'lim deganda, biz insoniyatni ilmiy bilimlar hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish qobiliyalarini o'stirish, tafakkurlarini shakllantirish jarayonini tushunamiz.

Metod (lotincha –metodos-yo'l, usul) tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari va qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi.

Pedagogika fanining metodologik asosi sifatida Jahon va Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini mujassamlashtirgan manbaalar, tasavvuf ta'limoti namoyondalarining badiiy va ilmiy asarlari, sharqona ta'lim-tarbiya vositalari va

metodlarini o'z ichiga olgan manbaalar, milliy istiqlol g'oyasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «**Ta'lim to'g'risida**»gi qonuni, «**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**», Prezidentimiz I.A. Karimovning asarlari, Oliy Majlis materiallaridir.

Pedagogika fanining ilmiy – tadqiqot metodlari. Har qanday fan fan sifatida o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi.

Hayotda va ob'yektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani o'rganish va qanday o'rganish kerak, nimani va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liqdir.

Nima qilish kerak va qanday amalga oshirish lozim degan muammolar o'rtasida dialektik birlik mavjuddir.

Pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Shu ma'noda pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari deganimizda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmuini tushunamiz.

Pedagogika o'qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatini quyidagicha o'rganish-bilishni ma'qullaydi:

1) Ularning umumiy aloqasi, bir-birini taqozo etishi va o'zaro ta'sir jarayonida bolalarni o'qitish va tarbiyalash, fan, madaniyat, axloq va san'at, ta'lim va tarbiyaning qayerda amalga oshirilishidan qat'iy nazar uzviy aloqada bo'lishi:

2) Ularning to'xtovsiz harakati, o'zgarishi va taraqqiy etishi jarayonida vujudga keladigan o'qitish va tarbiyalash vazifalari, metodlarning o'zgarishi, amalga oshirishning murakkabligi, hamma bolalarni bir xil andozada o'qitish va tarbiyalash mumkin emasligi:

3) Bolalarning o'sishida ularning o'ziga xususiyatlarini hisobga olish, aqliy va xulqiy faoliyat, so'z va ish birligi birligi mezonlariga tayanish:

4) Bolalar kamolotiga ta'sir etuvchi an'ana, urf-odatlar, ular o'rtasidagi tafovutlarni bilish, yaxshi bilan yomon, eskilik va yangilik, jamoa o'rtasida yuz beradigan nizolarni hisobga olish, o'zaro va h.k:

5) Falsafiy kategoriyalar – hodisa va mohiyat, sabab va natija, zaruriyat va tasodif, mazmun va shakl, imkoniyat va xaqiqat, tarixiy va mantiqiy, umumiy va xususiy kabilarni bilish va ularni pedagogika fani taraqqiyoti nuqtai nazaridan talqin qila olishi:

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunni yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi. Shu sababli pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlariga dogmatik yondoshish mumkin emas.

Ob'yektiv dunyoni bilish, nazariyadan nimani o'rganish va o'rgatish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqdir. Pedagogika fani o'z mazmun-mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan

usullari bilan o'rganadi. Ushbu ilmning ilmiy - tadqiqot usullari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmui tushuniladi. Pedagogika fanining ilmiy - tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri tanlansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi: ammo shuni ta'kidlamok lozimki, ilmiy -tadqiqot metodlari tizimi hali hozirgacha fanda to'la yoritilgan, hal etilgan emas.

Hozirgacha mavjud va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy-tadqiqot usullariga tayanib fikr yuritsa bo'ladi: 1) kuzatish usuli; 2) suhbat usuli; 3) bolalar ijodini o'rganish usuli; 4) test, so'rovnomalar usuli; 5) maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli; 6) eksperiment, tajriba, sinov usuli; 7) statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli; 8) matematika-kibernetika usuli.

Kuzatish usuli. Pedagogikaning mazkur usuli ta'lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat-natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu usul ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, o'qituvchi va talabalarining o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, maqsad asosidagi kuzatuv ma'lum reja asosida yig'ilgan dalillarni tahlil qilish, qiyoslash negizida tashkil etilsagina samarali bo'ladi. Kuzatishlar faqat oddiy hodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yig'ish, hisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va mukammallashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Suhbat usuli. Ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat usulidan foydalaniladi. Odatda, suhbat usuli maktab o'qituvchilari va talabalar jamoasi bilan, ota-ona va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bunda suhbat usulini tadbqiq etishdan oldin reja tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosaga kelinadi. Shuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish va uni kerakli tomonga yo'naltira olishni bilishi, suhbatdoshining ruhiy holatiga qarab suhbat ohangini moslashtirishi g'oyat muhimdir.

Bunda:

- Suhbat uchun oldindan savol tuzish;
- Vaqt va o'tkazish joyini belgilash;
- Suhbat ishtirokchilarining soni va kasblaridan xabardor bo'lishi;
- Suhbat uchun qulay sharoit va erkin gaplashish imkonini yaratish;
- Mahmadona va bachkana bo'lmaslik;
- Suhbatdoshning kimligini, xarakter xususiyatini esdan chiqarmaslik;
- Suhbat natijalarini zudlik bilan tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish, lozim bo'lsa qo'shimchalar kiritish va maktab hayotiga tadbqiq etish pedagogik jihatdan qimmatlidir.

Bolalar ijodini o'rganish usuli. Pedagogik tadqiqot usullari ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish usuli mavjud. Bunda maktab talabalarining o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil

qilinadi, muayyan xulosalar qilinadi. Maqsad mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarining tipik obrazlari va ularda ijobiy xislatlarni shakllantirishdir. Shu sababli yoshlarning turli yozma daftarlari, tutgan kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va hikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hisobotlari ular ma'naviyatini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Oqibatda, talabalar orasida etishib chiqayotgan qobiliyatli, talantli yoshlarni ertaroq aniqlash, ularning iste'dodlarini namoyon bo'lishi uchun reja va sharoitlar yaratish imkoni paydo bo'ladi. Bolalar ijodini o'rganish manbai ko'p bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi: fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha konkurslar, ko'rgazmalar, musobaqalar, sayohatlar va hokazo.

Test, so'rovnoma usuli. Pedagogik ilmiy-tadqiqot usullari ichida yetakchi usul so'rovnoma va test savollaridan foydalanishdir. So'rovnoma-anketa (frantsuzcha «tekshirish» ma'nosini bildiradi) usuli qo'llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, talabalarning fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzularini bilish. Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib test usulini maktab, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga tadbqiq etildi. Test sinovlaridan ko'zlangan asosiy maqsad istaklarni bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish.

Respublikamizda oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga aniqlash yo'lga qo'yildi. Bunda test savollari qanchalik aniqlik va aql bilan, fikrlash jarayonlariga zarar tegmaydigan qilib tuzilishi ahamiyatli ekanligini nazarda tutish lozim. Test savollarining o'rni va ularning mazmunan rang-barang qilib tuzilishi, talabalarning mustaqil fikrlarini o'stiradi, kelajakni real baholash qobiliyatini taraqqiy ettiradi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli. Maktab hujjatlari deyilganda, o'qituvchi va talabalarning soni, talabalarning shaxsiy hujjatlari, sinf jurnallari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari daftari, maktabning rejadagi pul hisobi va uning sarflanishiga doir hujjatlar, turli inventarlar daftarlar va boshqalar tushuniladi. Maktab hujjatlarini tahlil qilishda talabalarning umumiy soni, uning o'sishi yoki kamayish sabablari tavsifi, talabalarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasiga, sinfida qolishning oldini olish, rag'batlantirish va jazolash choralari turlariga, maktabning moddiy bazasiga e'tibor beriladi.

Ekspirement-tajriba-sinov usuli. «Ekspirement» so'zi lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish» ma'nosini anglatadi. Ekperiment-tajriba ishlari asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbqiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunda ham ilmiy farazlarning didaktik yoki amaliy ahamiyatiga e'tibor beriladi.

Ekspirement usuli sharoitga qarab uch xilda o'tkaziladi:

1. Tabiiy eksperiment;
2. Laboratoriya ekperimenti;
3. Amaliy tajriba.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli. Pedagogik tadqiqot statistika ma'lumotlarisiz, ularning tahlilisiz o'zligini namoyon etolmaydi. Chunki nafaqat ilmiy izlanishlar borasidagi, balki xalq ta'limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning oshirilishi, xalq ta'limi muassasalarining doimo o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab qurilishi,

xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika usuli orhali aniqlanadi.

Matematika va kibernetika usullari. «Kibernetika» grekcha «rolni bajaraman», «idora etaman» degan ma'nolarni anglatadi. Kibernetika ishlab chiqarishni, texnikani, tirik organizmlarni, kishilik faoliyatini boshharishning umumiy qoidalarini va vositalarini ishlab chiqadi. Uning mazmuni axborot berish, dasturlashtirish, algoritmlar, boshqaruvchi tizim, model yasash singari asosiy nazariyalarda o'zligini namoyon etadi. Jumladan, mazkur usulni pedagogikaga ham tadbqiq etish harakati kuchaymoqda.

O'qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetika mashinalari yordamida bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish, dasturli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, differentsial va individual ta'lim berish, maktab hisobotini mashinalar yordamida tuzish kabi jarayonlar bajarilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganlaridek, biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlod qanday tarbiya topishiga va qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak. Tarbiyada bir necha qoidalar mavjud. Ular quyidagilardir:

1. Tarbiyaning maqsadga qaratilganligi.
2. Tarbiyaning insonparvarlik va demokratiya qoidasi.
3. Tarbiyada umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi qoidasi.
4. Tarbiyada izchillik, tizimlilik – tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi, uzluksizligi qoidasi.
5. Tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish tarbiyaning, pedagogik harakatining pirovard natijasini yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunda pedagogik maqsad va vazifalar, uning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari tomonidan tan olinishi shart.

Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jarayon umumning ishi va uzluksiz bo'lsin, barcha yoshdagi bolalarni qamrab olsin, tarbiyani barcha tomonlari hamohang bo'lsin. Turli ijtimoiy jamoat va davlat institutlari va muassasalarini shaxs kamolotini shakllantirish borasidagi harakatlari mujassamlashsin.

Tarbiya ishida izchillik juda muhimdir. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zining bu talabini unutib qo'ysa yoki o'zi bu talabga xilof ish tutsa, bu hol tarbiyaga juda yomon ta'sir qiladi. O'qituvchi subutli; o'z lafziga sodiq bo'lmoqi kerak. Talabalarga birdaniga juda ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Talabalarga tarbiya va ta'lim berishda uzluksizlik va tizimlilikka rioya qilish kerak. Hamma tarbiyachilar talabaga nisbatan munosabatlarida bir-birlariga zid harakatda bo'lmasliklari, bir xil yagona talab qo'yishlari lozim. Tarbiyaviy ishda bunday izchillikka rioya etish juda ham muhim.

Talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya etish, muomalani avvalgicha davom ettirish va bir xil talab qilish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Tarbiya uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, unda ota-ona, o'qituvchi, jamoatchilik va boshqalar qatnashadilar. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya etish, talabalarning tarbiyalanganlik darajasini, tarbiya usullari va shakllarini o'z vaqtida aniqlab olish juda muhimdir. Bu qoida tarbiya

ishida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarning (oilalar va maktab, o'quvchilar va yoshlar tashkilotlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari va ishlab chiqarish jamoalarining, keng jamoatchilikning) hamjihat va bamaslahat ish ko'rishini ko'zda tutadi. Chunki tarbiyaviy ta'sirdagi tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamini qamrab olishi kerak. Aholi qatlamlarini tarbiya tizimiga jalb qilishdagi rang-barang shakl va usullari ijtimoiy – iqtisodiy ham pedagogik jihatdan, nafaqat tub aholi, balki Respublikada istiqomat qilayotgan boshqa millatlar va elatlarning etnopedagogikasi pozitsiyasi jihatdan ham ta'minlanishi kerak.

Ma'lumki, o'z hayoti, maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat g'oya va milliy mafkurasiz yashay olmaydi, o'z yo'lini topa olmaydi. Istiqlol g'oyasi va mustaqillik mafkurasini ko'p millatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-intilishlari, hayotiy ideallarini aks ettiradi, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglashga xizmat qiladi.

Mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning shonu sharafi, ornomusi, qadr-qimmatini, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir. Milliy istiqol g'oyasining mazmun-mohiyati, mustaqillik mafkurasining bosh maqsadi - xalqni buyuk kelajak, yuksak va ulug'vor maqsadlar sari etaklash, birlashtirish, Vatan baxt-saodati uchun mas'ullik hissi bilan yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaqo ilmiy-ma'naviy merosi, milliy qadriyatlarimiz va an'alarimizga munosib yuksak fazilatli, komil insonni tarbiyalash, yaratuvchanlik va shu muqaddas zamin uchun fidoiylilikni hayot mezoniga aylantirishdir. Prezident Islom Karimov sa'yi-harakatlari bilan olib borilayotgan ushbu ezgu ishda o'quv yurtlarida «Milliy istiqol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining kiritilishi o'ziga xos bosqich bo'ldi. O'zbekistonning milliy istiqol mafkurasini - jamiyatimiz barcha a'zolarining etnik mansubligi, ijtimoiy ahvoli, e'tiqodi, jinsi, yoshi, tilidan qat'iy nazar ularning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, ularni jipslashtiradigan, ularning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan boqlaydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir. Mana shu insonga xizmat qiluvchi mafkura esa: Yurtboshimiz jamiyat va xalqni birlashtiruvchi hamda safarbar etuvchi g'oyani shakllantirish borasida mulohaza yuritib, shu nuqtai nazardan bugungi dunyoni, mamalakatimizda kechayotgan voqea hodisalarni uzoqni ko'ruvchi bir mutafakkir, xalqning jonkuyar, fidoyi nigohi bilan tahlil qilib, o'z suhbat va nutqlarida ham quyidagi masalalar yuzasidan fikr yuritadi:

- 1. Milliy mafkuraning zarurligi**
- 2. Milliy mafkuraning qudrati**
- 3. Mafkurasizlikning xatarli oqibatlari**
- 4. Mafkura va milliy mustaqillik**
- 5. Milliy mafkura-g'oyalarning shakllanish negizi ekani**
- 6. Milliy mafkura va davlat siyosati**
- 7. Mafkura va ta'lim - tarbiya**

Yuqorida sanalgan jihatlarning o'zi ham bugungi kunda mafkuraning qay darajada ijtimoiy hayot uchun zarurligini ko'rsatib turibdi, yana shunisi ham borki, biz bugungi kunda murakkab dunyo bilan aloqaga kirishganmiz. Mamalakatimizga turli

yo'llar bilan har xil axborot oqimlari kirib kelmoqda: xilma-xil dinlar, mazhablar, sektalar faoliyat yuritib, o'z ta'sir doiralarini kengaytirish tarafdorlari, qavmlarini ko'paytirish payiga tushgan. Buning ustiga, kommunistik mafkura tarafdorlari ham hali qurollarini butkul tashlagani yo'q. Shimolu Janub, Sharq G'arbdan turfa oqimlar kirib kelayotgani, ekstremizm, aqidaparastlik harakatlari, uning vahobiychilik kabi zararli to'dalari jamiyatimizni ichidan turib buzish uchun qilgan o'rinishlarini ko'rib turibmiz. Shuning uchun ham yurtboshimiz xaq; mafkurada murosas bo'lishi mumkin emas. Mafkura sohasida bo'sh joy qoldimi, uning o'rnini darrov boshqa mafkura egallab olishga chog'lanadi. Begona mafkura zahirida esa hamma vaqt siyosiy va iqtisodiy manfaat yotadi, ya'niki, avval yoshlarni o'z ta'siriga olish, keyin siyosiy tuzoqqa ilintirish, so'ngra yer-mulk, boyliklarga xo'jayinlik qilish va pirovard natijada yana qullik kishanini oyoqqa solish. Ana shu jihatlarni inobatga olib, Prezidentimiz bizni har galgidek ogohlantiradi, g'aflatda qolmaslik, o'z haq-huquqini tanishga, kuchli millat, qodir va qudratli jamiyat bo'lib uyushishga da'vat etadi. Kuchli millat esa kuchli mafkura bayrog'i ostidagina shakllanadi, kamol topadi.

Bugungi dunyo taraqqiyoti shu darajaga yetdiki, endi mafkuraviy kurash, ma'naviy salohiyat yetakchi o'ringa chiqdi. Endi qurol-yaroqlar emas, balki fikrga qarshi faqat fikr, g'oyaga qarshi faqat g'oya bilan kurashib, olg'a borish mumkin. Kimning mafkurasi, milliy g'oyasi kuchli bo'lsa, o'sha yengib chiqadi. Mafkuraviy kurash bir jamiyat, mamlakat ichida ham, xalharo va dinlararo miqyosda ham davom etmoqda. I. A. Karimov aynan ana shunga asoslanib mafkura poligonlari - yadro poligonlaridan kuchlidir deydi. Shunday ekan mustaqillik millatimizga o'zini namoyon etish imkoniyatini yaratib, yoshlar ongiga yangicha yashash, yangicha fikrlash, hayotda munosib o'rinni topish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga uyg'un ma'naviy hayot barpo etib yashash imkonini berdi.

Pedagogika fanlari tizimida tarbiyalanuvchilarning yoshlariga qaratilgan tarmoq pedagogikalari mavjud. Jumladan, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, umumiy ta'lim pedagogikasi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi, pedagogik menejment, davolash pedagogikasi, gerontopedagogika, harbiy pedagogika, yangi pedagogik texnologiyalardir.

Bulardan tashqari **defektologiya** - maxsus o'quv, **surdopedagogika** kar-soqov bolalarni o'qitish va tarbiyalash, **tiflopedagogika** - ko'zi ojiz bolalarni o'qitish, **oligofrenopedagogika**-aqliy rivojlanishda ortda qolgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash, **logopediya**- nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarni o'qitish va tarbiyalash.

Keyingi yillarda, oila pedagogikasi, kasb-hunar ta'lim pedagogikasi, harbiy pedagogika, sport pedagogikasi kabilar rivojlanmoqda.

O'quv yurtlarida tarix o'qitish, matematika o'qitish, til fanlarini o'qitish kabi pedagogikaning metodika qismi o'qitilmoqda.

Pedagogika fani shaxs kamoloti masalalari bilan bog'liq muammolarni hal qilishda boshqa fanlar bilan hamkorlik qiladi. Umumiy psixologiya, yosh davrlar psixologiyasi, falsafa, etika va estetika, sotsiologiya, kabi fanlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bundan tashqari pedagogika tarix, etnografiya, folklor (xalq og'zaki ijodi) kabi fanlarning yutuqlaridan foydalanadi.

Pedagogikada jismoniy tarbiya tog'risida fikr yuritilar ekan, yoshlar fiziologiyasi va gigiyenasi tog'risidagi bilimlardan foydalanish lozim bo'ladi.

Ota-bobolarimiz komil inson tarbiyasiga alohida e'tibor berganlar. Ayniqsa, islomiy tarbiyaning ma'naviy, ma'rifiy ahamiyatiga katta e'tibor berganlar. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: «Islom dini-bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham imyon, ham axloq, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik, Alloh qalbimizda, yuragimizda».

Tarbiya haqidagi g'oyalarning shakllanishida, Imom Buxoriy, Iso at-Termiziy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqa yaqin qardosh xalqlar farzandlarining ham xizmatlari kattadir.

Mamlakatimizning yaqin o'tmishidagi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, rus va sovet imperiyasi ta'sirida o'zbek xalqi o'z tarixi, milliy urf-odati, an'ana, umuminsoniy qadriyatlarni bilish va o'rganish uchun kurashganlar. Munavvarqori, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Elbek va shularga o'xshab bir qator ilg'or pedagoglar hibsga olinib qatl qilindi. Ammo bu bilan pedagogika merosini o'rganish to'xtab qolmadi. Navoiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Imom Al-Buxoriy, Avloniylarning ijodini o'rganildi. O'zbek xalq pedagogikasi yaratildi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai-nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa - shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlarini kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. Iqtisod - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

3. Sotsiologiya - ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika - shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tadbiq etishda alohida o'rin tutadi.

5. Estetika - shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Fiziologiya - o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.

7. Gigiyena - o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

8. Psixologiya - shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarini tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. Tarix - pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

10. Madaniyatshunoslik - o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. Tibbiy fanlar - shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Pedagogika fanlari tizimi. Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ular quyidagilardir:

1. Umumiy pedagogika - maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

4. Korreksion (maxsus) pedagogika - rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

O'z navbatida korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika va psixologiyaning turli sohalari kiradi. Ular quyidagilardir:

Surdopedagogika va surdopsixologiya - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya - aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Tiflopedagogika va tiflopsixologiya - ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi - nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlar bo'lgan bolalar (ko'r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Metodika -xususiylar fanlarni o'qitish xususiyatlarini o'rganadi.

5. Pedagogika tarixi - ta'lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o'rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganadi.

6. Pedagogik texnologiya - ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

7. Pedagogik mahorat - bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

8. Ta'limni boshqarish - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilash masalalarini o'rganadi.

9. Ijtimoiy pedagogika - ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Inson tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi fan bu...
A) Psixologiya, B) Pedagogika, S) Falsafa
2. "Pedagogika" atamasining ma'nosi nimani anglatadi?
A) Bolani o'qitaman, B) Bolani yetaklayman, S) Bolani tarbiyalayman va o'qitaman
3. Qaysi olimning asarida pedagogika alohida fan maqomiga ega bo'ldi?
A) Abu Ali Ibn Sinoning "Donishnoma" asarida
B) Abu Nasr Forobiyning "Baxt-saodatga erishuv" asarida
S) Yan Amos Komenskiyning "Buyuk Didaktika" asarida
4. Zamonaviy pedagogika faniga qaysi javobda to'g'ri ta'rif berilgan?
A) Tabiatning oliy mahsuli
B) Insonning ma'naviy-ma'rifiy jihatidan yetuk bo'lib shakllanishiga, uning shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladigan fan
S) Barkamol shaxs bo'lib yetishishdagi qonuniyatlarini o'rganuvchi fan

Mavzuga oid pedagogik masala:

6 sinfda adabiyot darsi ketyapti. Dostkada Komil Isayev javob bermoqda. Uni barcha bolalar diqqat bilan tinglashmoqda. Javob beruvchi tutilib yoki bir oz adashib qoldi deguncha darrov barcha qo'llar yuqoriga ko'tariladi. Juda betoqatlari esa xatto ikkala qo'lini ham havoga silkitib ko'targani-ko'targan, ular o'z o'rtoqlarining javobini diqqat bilan tinglashayotganliklarini va uning xatosini darhol tuzatishga tayyor ekanliklarini o'qituvchilarining ko'rishini juda-juda istashadi. Komil tez-tez xatolikka yo'l qo'ya boshladi, sarosimaga tushib, gapidan adashib ketaveradi.

Bolalar o'rtog'ining javobini to'ldirishga, to'g'rirog'i, unga xalaqit berishlariga o'qituvchi dastlab qarshilik ko'rsatmadi, ammo oxirida chidab tura olmadi va bolalarning eng betoqatlariga javobni tuzatish va to'ldirish uchun ruxsat berdi. Komil endi o'z javobi bilan emas, ko'proq sinfdagi vaziyat bilan band bo'lib qolgandi. U tez-tez adashib, so'zlarni xam cho'za boshladi va tezda xafsalasi pir bo'lib, tamoman jimib qoladi.

- Xo'sh, azizim, javobni qanday yaxshi boshlagan eding, nega qo'qqisdan jimib qolding? Bolalar senga qanday yaxshi yordam berishdi. Yana darsni oxirigacha o'qimabsan-da!.

.Biologiya darsi. Iroda Kamolova javob beryapti. Sinfda jim-jitlik. Bu qanaqa sokinlik? Irodaning javobini o'rtoqlari tinglashyaptimi (ayrimlari tinglashyapti, qolganlari-chi? keling, yaxshisi sinf bolalarini bir kuzatib ko'raylik.

Mana uchta o'quvchi, ular o'qituvchining navbatdagi savolini payqab, darslikni varaqlashyapti. Bir nechtalari nigohlarini derazaga qadashgan chexralarida chuqur o'ychanlik va orzular og'ushiga cho'kishgan. Boshqalari tarix kitobini sekingina ochib, bundan keyingi darsga tayyorlana boshlashdi. Ikki qiz dars mazmunidan juda uzoq bo'lgan narsa, qandaydir buyumlar xaqida «ko'z urushtirib gaplashmoqda». Xullas, sinfdagilarning aytarlik yarmidan ko'pi o'zlari partada o'tirishgan bo'lishsa xam, xayollari allaqayerlarda sayr qilib yuribdi.

Iroda xatoga yo'l qo'ydi, ammo uni tuzatuvchi bironta ham talabgor sinfda yo'q. Balki e'tirozlar keyinroq bo'lar? Yo'q. Sinfda hech bir o'quvchi javob haqida fikr bildirishga oshiqmadi.

1. Birinchi va ikkinchi hodisadagi kabi doskaga chiqarib, og'zaki so'rashning samarasini baxolang. Bu vaziyatlar o'rtasida biror-bir umumiylik bormi? Bunda o'quvchilar xulqidagi qanday xususiyatlarni payqash mumkin? Ular nimalar tufayli paydo bo'lishi mumkin?

2. O'qituvchi birinchi va ikkinchi xodisada doskaga chiqarib individual so'rashni uyushtira turib, o'z oldiga ongli xolda qanday ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni qo'yadi?

3. O'quvchi tomonidan oldindan inobatga olinmagan qanday masalalarni o'qituvchi ifodalashi kerak? Ularni bu darslarda hal etish mumkinmi?

4. O'quvchilardan og'zaki so'rashning samaradorligini oshirish va yuqoridagi kabi vaziyatlarning oldini olish uchun biologiya o'qituvchisi qanday pedagogik usullardan foydalanishi kerak?

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Pedagogika fani nima haqida bahs yuritadi?
2. Komil inson deganda qanday shaxsni tushunasiz?
3. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligini aytib bering.
4. Pedagogika fanining bo'limlari deganda nimani tushunasiz?
5. Pedagogika fanining metodologik asosini nima tashkil etadi?
6. Intellektual avlod tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Pedagogikaning shug'ullanuvchi sohasi maqsadi va vazifalarini ifodalovchi shaklni tushuntiring.
8. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari deganda nimani tushunasiz?
9. kuzatish metodini tushuntirib bering.
10. Pedagogik eksperiment va uning turlarini izohlab bering.
11. Abdulla Avloniy tarbiyaga qanday tarif bergan?
12. Prezidentimiz I.A.Karimov o'z nutq va ma'ruzalarida milliy mafkuraga taalluqli bo'lgan qanday masalalar yuzasidan fikr yuritadilar?

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,7,10, 17,20,21,22,23

2-mavzu: Pedagogika tarixi. G'arb va Rossiya olimlarining ta'lim-tarbiya ilmidagi faoliyatlari.

Reja:

1. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va uning rivojlanish tarixi.
2. Qadimgi Rim, Yunoniston va Xitoyning ta'lim va tarbiya maktablari. Evropada ta'lim-tarbiya.
3. Rossiya olimlarining ta'lim-tarbiya ilmidagi faoliyatlari.
4. Sovet davri pedagogikasi.

Ta'limiy maqsad: Pedagogika fanining tarixiy rivojlanish bosqichlari haqida umumiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad: Pedagogika fanining jamiyat va inson hayotida tutgan o'rni.

Rivojlantiruvchi maqsad: Talabalarning dunyoqarashi, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini va kasbiy qiziqishlarini o'stirish.

Tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlariga kelib, ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnini yangi ijtimoiy formatsiya-quldorilik tuzumi egalladi. Qadimiy Sharqda birinchi sinfiy jamiyatlar paydo bo'ldi hamda moddiy hamda ma'naviy madaniyatga asos solindi. Ayniqsa, qadimgi Yunoniston (Gretsiya) xalqlari bu madaniyatni ma'lum darajada qabul qilib, uni qaytadan rivojlantirdi va butun jahon madaniyatiga, maorifiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi.

Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon madaniyatiga turlicha hissa qo'shganlar. Masalan, Xitoyda birinchi marta qog'oz ixtiro qilingan. Mesopotamiyada esa yer kurrasini graduslarga, sutkalarni soatlar, minutlar va soniyalarga bo'lish o'ylab topilgan (graduslar ham, soatlar ham hisoblashning oltilik tizimiga asoslangan).

Eramiz boshlanishidan oldin Markaziy Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo'lgan joyda O'rta dengiz bilan Hindistonni birshlashtiruvchi karvon yo'li qurilgan. So'ngra Markaziy Osiyo orqali Xitoydan O'rta dengizga tomon «Buyuk ipak yo'li» ochilgan. Natijada Markaziy Osiyo xalqaro savdo-sotiq markazi bo'lib qolgan. Bu esa o'z navbatida Markaziy Osiyo vohalarida madaniyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, qadimga Yunonistonda madaniyat, tarbiya, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa qadimiy Sharq mamlakatlariga nisbatan juda erta rivojlangan.

Yunoniston uncha katta bo'lmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan iborat mamlakat bo'lgan. Uning eng katta shaharlaridan Lakoniya (poytaxti Sparta) va Attika (poytaxti Afina) ayniqsa madaniyat markazi bo'lishi bilan o'ta mo'tabar edi. Bu shaharlarning har qaysisida tarbiyaning boshqa mamlakatlardan farqli alohida tizimi vujudga keldi. Va bu tarbiya tizimi shaharlar nomi bilan yuritilib, «Sparta» va «Afina» usulidagi tarbiya deb yuritiladigan bo'ldi. Har ikkala shaharning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotidagi ba'zi bir xususiyatlar hamda madaniyat darajasi turlicha bo'lganligi uchun har ikki tizim bir-biridan tubdan farq qilar edi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tizimi hukmron edi. Shuning uchun ham bu davlatlarda ijtimoiy tarbiya tizimi quldorlarning bolalari manfaatini ko'zlar edi.

Yunonistonda qullarni «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar. Chunki qullar barcha mamlakatlardagi kabi oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar. Lakoniya(Sparta) Peloponesning sharqi-janubiy qismidagi yerlarga joylashgan davlat bo'lib, bu viloyatlar sohilida kemalar to'xtaydigan gavanlar yo'q edi. Mamlakatda

quldorlar mehnatiga asoslangan dehqonchilik hukmron edi. Soni unchalik ko'p bo'lmagan yarim ozod va to'la huquqli bo'lmagan aholisining ko'pchiligi hunarmand edi. 9000 oiladan iborat bo'lgan quldorlar 250000dan ko'proq aholiga hukmdorlik qilar edilar. Spartada qullar shafqatsiz ta'qib ostiga olinar edilar. Shu sababli ular tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turar edilar. Bunday hol esa ularni uyushqoq bo'lib yashashga, hamisha harbiy tayyorgarlikda bo'lishga da'vat etardi. Tarbiya ishlari esa davlat ixtiyorida bo'lib, uning asosiy maqsadi spartaliklarning bolalarini baquvvat, jismonan sog'lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat bo'lish bilan birga bo'lajak quldorlarni ham tarbiyalashni nazarda tutar edi.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin «**agella**» deb ataluvchi alohida davlat tomonidan tashkil etilgan tarbiya muassasiga joylashtirilar va 18 yoshga yetguncha ularga ana shu muassasalarda ta'lim-tarbiya berilar edi. Bu muassasalarning rahbarlari davlat tomonidan obro'li, taniqli kishilardan tayin qilinardi. Bunday kishilar «**pedonom**» deb atalib, butun tarbiyaviy ishga rahbarlik qilar edi. Ayniqsa, o'smirlar tarbiyasiga alohida e'tibor berilar edi. Ular jismoniy sog'lom bo'lishi uchun turli mashqlar bilan chiniqtirilar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga, og'riqqa bardosh berishga ham o'rgatib borilar edi. Bu bilan yosh spartaliklarni yugurishdan, sakrashdan, disk va nayza ota bilishdan, kurashish va qo'l bilan jang qilish usullaridan saboq berilardi. Shuningdek, harbiy tushdagi maxsus o'yinlar ham o'rgatilardi. Spartaning kelajak vosrilari jismoniy baquvvat, hech narsadan qo'rqmaydigan, botir jangchi, o'z vatanini, xalqini har qanday ofatdan qimoya qila oladigan bo'lib etishardi.

Qadimgi Gretsiyadagi tarbiyaviy ishlar shunisi bilan o'ziga xos ediki, unda bolani nafaqat jismoniy chiniqtirishgina emas, balki ma'naviy tomondan ham barkamol bo'lishi nazarda tutilardi. Unda asosan bolalarga musiqa, ashula va diniy raqslar ham o'rgatilgan. Bu mashg'ulotlarning mazmuni jangovar hamda harbiy tushda bo'lgan.

Qadimgi grek tarixchisi, faylasuf olimi **Plutarx** Sparta maktablaridagi ta'lim-tarbiya haqida gapirib shunday deydi: «**O'qish va yozish-bolalarga faqat ularning eng zaruri o'rgatilardi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so'zsiz itoat qildirishni, chidamli bo'lishni va yengish ilmini o'rgatishni ko'zda tutadi**».

Spartada olib boriladigan ta'lim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. Shu maqsadda yoshlar «**Kreptiyalarda**», ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashtirilar edi, bunday mashqlarda yosh spartaliklar otryadlari shaharning biror mahallasini yoki shahar tashqarisidagi nohiyani qurshab olib, shubhali bo'lib ko'ringan har qanday ilotni (qulni) o'ldirar edilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o'tkazib, shu yo'l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar edilar. Bu suhbatlarning asosiy mazmuni vatan dushmanlari bilan kurashda ota-bobolarning ko'rsatgan mardligi va jasurligi haqida gapirib berish, qaxramonlar haqida hikoya qilishdan iborat edi. Bu bilan ular, bolalarda o'z vataniga, xalqiga va ota-bobolariga hamda ularning merosiga katta hurmat hissini tarbiyalashgan. Shuningdek, bolalarni savol-javob jarayonida aniq, qisqa va lo'nda qilib javob qilishga o'rgatib borilgan.

Sparta ta'lim-tarbiya tizimida bola 18-20 yoshga yetganda maxsus «**efeb**lar» (efebalar qadimgi Yunonistonda balog'atga yetgan o'spirinlar) guruhiga o'tkazilgan va harbiy xizmatni o'taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan, ya'ni ular ham harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirilib borilgan. Bundan maqsad erkak qullar qo'zg'olonini bostirmoq uchun uchurushga ketgan vaqtlarida qizlar, ayollar shaharni, uy-joyini qo'riqlash maqsadida qurollanib, qo'riqchilik vazifasini o'tar, qullarni esa itoat saqlashini ta'minlar edilar.

Qadimgi Gretsiyaning ikkinchi bosh shaharlaridan biri Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi va undagi ta'lim-tarbiya spartanikidan butunlay farq qilar edi. Chunki Afinadagi iqtisodiy hayot Spartadagi singari cheklanib qo'yilgan emas edi. qullar xususiy mulk hisoblanar edi.

Afinada eramizdan avvalgi V-IV asrlarda madaniyat barq urib o'sdi. Dunyoqarashning keyingi hamma turlari Grek falsafasining xilma-xil shakllarida kurtak holda namoyon bo'ldi. Ayniqsa, tibbiyot ilmi, matematika, tarix, san'at, ajoyib grek me'morchiligi va haykaltaroshligi taraqqiy qildi.

Afinada eng ko'rkam va barkamol inson deb ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yetuk kishini o'zlarining «ideali» deb hisoblar edilar. Tarbiya jarayonida aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya uyg'unlashgan holda olib borilar edi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, bu ideal faqatgina ijtimoiy yuqori tabaqali quldorlarga xos edi. Jismoniy mehnat esa faqat qullarning qismati deb hisoblanar edi. Ammo tabaqalanish natijasida quldorlik jamiyatining o'zida ancha kambag'al, ya'ni erkin oiladan tug'ilgan va qullikdan ozod etilgan kishilarning kattagina guruhi ajralib chiqdi, ular hunarmandchiligi bilan shug'ullanar edilar. Boy quldorlar esa ularga nafrat ko'zi bilan qarar edilar.

Afinada bolalar 7 yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar edilar. O'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona ko'magida uy-ro'zqor ishlariga o'rgatilar edilar. Afinada umuman xotin-qizlarning hayoti uy doirasidan chiqmas, asosan ichkarida o'tardi.

Afinada dastlab bolalar (7 yoshdan 13-14 yoshgacha) «**grammatist**» (grammatika mutaxassisligi demakdir, savod o'qituvchisi ma'nosida) va «**kifaris**» (grekcha musiqa demak, musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarida o'qitilar edi. Bu maktablar xususiy bo'lib, haq to'lanar edi. Shuning uchun ham puli yo'q (demos deb atalgan) fuqarolarning bolalari bu maktablarda ta'lim ololmasdi. Bu kabi maktablarda «**didaskol**» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borganlar (men o'qitaman degan ma'nodaga «didasko» so'zidan keyinroq «didaktika»-ta'lim nazariyasi kelib chiqqan). O'g'il bolalarni maktabga qullar yetaklab borgan. Bunday qullar «**pedagog**» deb atalgan («pays» bola, «atogeyn»-yetaklab borish degan so'zlardan olingan). Afinadagi grammatist maktabidagi ta'lim-tarbiyaning mazmuni o'hish, yozish va hisoblashni o'rgatishdan iborat bo'lgan.

O'qish harflarni hijjalab o'qitish usulida olib borilib, bolalar harflarning nomlarini (alfa, beta, gamma...) yodlab olar, so'ngra shu harflarni qo'shib bo'g'inlar yasalar, bo'g'inlarni qo'shib so'zlar yasalar edilar. Yozishni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalanilar edi. Bunday taxtachalarga ingichka cho'p bilan harflar yozilar edi. Barmoqlar, sopolak toshlar va sanoq taxtasi yordamida hisoblash

o'rgatilar edi. Kifarist maktabida o'g'il bolalarga adabiy bilim, estetik mazmundagi deklamatsiyalar o'rgatilar («Iliada», «Odisseya»dan parchalar o'qitilar) edi. O'g'il bolalar 13-14 yoshga yetganlaridan keyin «**polestra**» (kurash maktabi) deb atalgan o'quv yurtiga o'tar edilar. Bu o'quv yurtida ular ikki-uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanar edilar. Beshkurash deb nom olgan bu jismoniy mashqlar yugurish, sakrash, kurash tushish, disk va nayza irg'itishdan iborat bo'lib, suvda suzish ham o'rgatilar edi.

Spartadagi kabi Afina maktablarida ham o'quvchilar bilan siyosiy va axloqiy masalalarda suhbatlar o'tkazilgan. Polestrada jismoniy tarbiya va axloqiy masalalarga doir suhbatlarga eng taniqli fuqarolar bepul rahbarlik qilar edilar. Palestra maktabida o'qish tekin bo'lganligi uchun ham ko'pchilik bu maktabda o'qish bilan cheklanib qolar edilar. Ayrim badavlatroq oiladan bo'lgan bolalar palestra maktabini tugatgandan so'ng «**gimnasiy**» (qadimgi Gretsiyada jismoniy tarbiya ijtimoiy maktabi ma'nosida, gimnaziya so'zidan kelib chiqqan) ga kirib o'qir edilar.

Afinada ham 18-20 yoshga kirib, yoshlar «**efebalar**» qatoriga o'tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va o'zlarining siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar. Afinada quldorlik jamiyati ichida tabaqalanishning tarbiya sohasiga o'tkazgan ta'siri shundan iborat bo'ldiki, mukammal tarbiya olish faqat badavlat quldorlarning bolalarigina xos bo'lib qoldi. Aholining ko'pchilik qismi bolalarini maktablarda o'qita olmaganlari sababli ularga kasb-hunar o'rgatish odat tusiga kirgan edi. Ayrim xat-savodi bor otalar bolalariga o'qishni o'zlari o'rgatar edilar. Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining ham tug'ilishiga imkoniyat yaratdi. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Arastu va Demokrit asos soldilar.

Ular pedagogika sohasidagi dastlabki qarashlarini jamoat oldida so'zlagan nutqlarida, ilmiy asarlarida bayon etdilar.

Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399 y) o'zining demokratik ijtimoiy chiqishiga qaramay, konservativ zamindor aristokratlarning ideologi edi. Uning fikricha, tarbiyadan kutilgan maqsad, buyumlar tabiatini o'rganish bo'lmay, balki kishining bilib olishi, axloqni kamol toptirishi bo'lmog'i lozim edi. ham faylasuf, ham notiq Suqrot keng maydonlarda, jamoat oldida so'zga chiqib, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javoblar yo'li bilan haqiqatni o'zlari topishlariga undar, shu yo'l bilan odamlarni haqiqatga izlashga o'rgatar edi. Suhbatning bu usuli o'sha paytda «Suqrot usuli» deb atalgan. «Suqrot usuli»dan keyingi davrlar uslubiyatida suhbatni «fikir qo'zqovchi savolli usuli» nomida o'tkazish paydo bo'ldi.

Suqrot har bir fazilatning u yoki bu turdagi bilimlardan iborat ekanligini asoslab berdi: **mardlik**-qo'rquvni daf qilishni; **donoloik**-qonunlarga rioya qilishni; **mo''tadillik**-o'z hissiyotlariga erk bermaslikni; **adolat**-yaxshilikni qanday qilib amalga oshirishni o'rgatadi, deb ta'lim berdi.

Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha, axloq faqat imtiyozli «mumtoz»largagina xos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmog'i kerak deydi. «Sara» bo'lmaganlar qora xalqning hokimiyati axloqsizlik sifatida rad yetilmoqi kerak, deb ko'rsatadi.

Qadimgi Gretsiyaning mashhur faylasuflaridan yana biri **Platon (e.av.424-347 y)** idealist Suqrotning shogirdi, ob'yektiv idealizm nazariyasining asoschisi edi. U «g'oyalar dunyosi»ni birlamchi, his qiluvchi narsalar dunyosini ikkilamchi deb hisobladi. Platon tanadan tashqarida mavjud bo'lgan narsalar haqidagi nazariyani olg'a surdi va bu tanadan tashqarida bo'lgan narsalarni «tur» yoki «ideyalar» deb atadi. U odamni ikkiga bo'lib o'rgandi. Uning nazarida, narsalar ideyalar olamining soyasidir, xolos. **Tarbiya, -deydi, Platon,-davlat tomonidan tashkil etilmoqi va hukmron guruhlarining – faylasuflar va jangchilarning manfaatlarini ko'qlamoqi lozim.** Platon o'zining pedagogika tizimida Sparta va Afina tizimining ba'zi bir belgilarini birlashtirishga intilgan.

Platonning fikrcha, bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo'yilgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarda turli o'yinlar o'ynash bilan shug'ullanishlari muhim bo'lgan. Platon o'yinlarni maktabgacha tarbiya vositasida deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi. U bolalarga eng yoshlik chog'idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi.

Bolalar 7 yoshidan 12 yoshigacha davlat maktablariga qatnaydilar va bunday maktablarda ularga o'qish, yozish, hisob, musiqa va ashula o'rgatiladi. Bolalar 12 yoshidan 16 yoshgacha odatdagi badantarbiya o'rganiladigan palestra, ya'ni jismoniy tarbiya maktablarida o'qiydilar. Palestrani tamomlaganlar 18 yoshgacha hisob, geometriya va atsrnomiyani o'rganadilar, bundan ko'proq amaliy maqsadlar ko'zda tutilgan. 18 yoshdan 20 yoshgacha yigitlar «Efebiya»da tarbiyalanganlar, ya'ni harbiy gimnastika tayyorgarligini o'taydilar. Aqliy mashg'ulotga mayli bo'lmagan yigitlar 20 yoshdan boshlab jangchilar qatoriga o'tadilar. Abstrakt tafakkurga qobiliyati borligi ochiq ko'ringan yoshlar, ya'ni yigitlarning ozroq qismi 30 yoshga qadar falsafa, hisob, geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasini o'rganish bilan shug'ullanib, shu tariqa ilm olishning uchinchi, oliy bosqichini o'taydilar, ammo bunda amaliy maqsad ko'zda tutilmasdan, balki falsafa-nazariyani mukammal o'rganish ko'zda tutiladi. Ist'edodi g'oyat o'tkir ekanligi ma'lum bo'lgan va juda ozchilikni tashkil etgan yigitlar falsafa ilmini o'rganishni yana 5 yilb (35 yoshga qadar) davom ettiradilar, shundan so'ng 35dan 59 yoshgacha davlatni boshqaruvchi kishilar bo'lib qoladilar.

Platon ham xotin-qizlar tarbiyasi xususida fikr yuritib, Spartadagi usulni ma'qullaydi.

Umuman Platon tarbiya tizimining butun mazmuni va mohiyati jismoniy mehnatdan g'oyat nafratlanish ruhi bilan sug'orilgan. Platon maktabgacha tarbiya tog'risida, davlat tomonidan izchillik bilan olib borilishi lozim bo'lgan tarbiya tizimi tog'risida bir qancha muhim fikrlarni aytdi.

Platonning shogirdi bo'lgan, makedoniyalik Iskandarni tarbiyalagan, qadimgi Gretsiyaning eng yirik idealist-faylasufi va olimi **Arastu (E.av. 384-322 y)**ning pedagogika nazariyasini yaratishdagi va uni rivojlantirishdagi xizmatlari juda ulkan. Platon olamni g'oyalar dunyosi va hodisalar dunyosi deb ikkiga bo'lgan bo'lsa, uning shogirdi Arastu olamni yaxlit deb bildi va narsalarni o'zidan ajratib bo'lmaydi, dedi.

Arastu, **olamda tana va jon bor, tana bilan jon materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjuddir**, deydi. Uningcha uch xil jon bor: o'simlikdan tarkib topgan jon oziqlanishda va urchib ko'payishda namoyon bo'ladi; hayvonotdan tarkib topgan jon, o'simlik xossalaridan tashqari sezgilarda va

istaklarda namoyon bo'ladi; aqlning ifodasi bo'lgan jon, o'simlik va hayvonot xossalariidan tashqari, u tafakkur yoki bilish hislatlariga ham egadir. Uning fikricha, jonning mana shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya – jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya bo'lishi kerak. Tarbiyaning maqsadi-aql va irodani kamol toptirishdan iborat edi.

Oilaviy tarbiya bilan ijtimoiy tarbiya o'zaro bog'liq bo'lishi lozimligini uqtirib, u oilaviy tarbiyaga doir bir qancha tavsiyalar beradi. Arastu pedagogika tarixida birinchi bo'lib, odam yoshini davralarga bo'lishga urinib ko'rgan. U insonning yoshlik yillarini 3 davrga bo'ladi: 7 yoshgacha bo'lgan davr; 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan davr (jismoniy balog'at davrining boshlanishi) va jinsiy balog'at davrining boshlanishidan 21 yoshgacha bo'lgan davr. Bunday davrlarga bo'lish tabiatga mos bo'lib tushadi. Arastu o'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktabida o'qishi lozim, deb uqtiradi. Bolalarga aqliy tarbiya berilishini ta'kidlab, u o'g'il bolalar avvalo badantarbiya muallimlarining qo'lga topshirilsin, deb talab qiladi; bunda u bolalarni haddan tashqari charchatib qo'ymaslik kerakligini aytadi va ularni jismi mustahkamlanib olgunicha yengil mashqlar bilan shug'ullantirishni tavsiya etadi. Arastu jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan bog'langan, deb qaraydi. Boshlang'ich tarbiya vaqtida, badantarbiyadan tashqari, o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqa o'rgatilishi kerakligini ham alohida uqtirib o'tadi. O'smirlar maktabda jiddiy ma'lumot olishlari kerak, ular adabiyot, tarix, falsafa, hisob, falakiyot, musiqa o'rganishlari shart. Go'zallikni his qilishni o'stirish uchun musiqa o'rganmoq kerak, rasm chizish singari musiqa o'rganish ham oddiy hunarga aylanib ketmasligini kuzatib turish muhim deydi. U xotin-qizlar tarbiyasi xususida gapirib, bu erkaklarning tarbiyasiga o'xshab ketmasligini, chunki ularning tabiati mutloq erkaklarnikidan farq qilishini aytadi. Arastu Platondan farq qilib, oilani tarbiyadan chetlashtirmaydi, axloqiy tarbiya berish oilaning zimmasida ekanligini ta'kidlaydi. Arastuning qarashlari antik pedagogikaning taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazdi. Ayniqsa, uning «**Nikomax etikasi**», «**Siyosat**» asarlari axloq masalalarini nazariy ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Arastu axloqiy fazilatlar bilan birga inson uchun muhim bo'lgan aqliy fazilatlar - bilim, donishmandlik, fahmlash va boshqalarga ham katta e'tibor beradi. Ammo axloqiy fazilatlarni aqliy fazilatlariga bo'ysundirgan holda ifodalaydi.

Atomizm nazariyasini yaratgan atoqli faylasuf-materialist **Demokrit (e.av.460-370 y.)**ning qarashlari qadimgi yunon falsafasining cho'qqisidir. U tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surdi. «**Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi**» deb yozadi. Demokrit «**ta'lim mehnat asosidagina go'zal narsalarni xosil qiladi**», deb, tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta'kidlaydi. Demokritning etnik va pedagogik qarashlari diniy qobiqdan xoli edi. Shuning uchun ham o'zidan keyingi faylasuflarga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari, tarbiyaning roliga bergan katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini boyitishda asosiy zamin bo'lib xizmat qildi.

G'arbiy Yevropada quldorlik jamiyatining o'rnini olgan feodalizm V asrda paydo bo'lib, to XVIII asrlargacha davom etdi. O'sha davrda hamma ta'lim-tarbiya ishlari ruhoniylar qo'lida qurol bo'lib, batamom diniy ruh va xurofot bilan sug'orilar edi. O'rta asr G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ikki guruhga bo'lingan va etti fanni o'z ichiga olgan ta'lim dasturi vujudga keltirildi. Birinchi guruh uchta fandan iborat edi,

shu sababdan unga lotincha «**trivium**» nomi berildi. Bunga lotin tili, ritorika va dialektika kirar edi. Ikkinchi guruh to'rt fandan iborat bo'lgani uchun uni lotincha «**kvadrivium**» deyiladi. Unga arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa kirar edi. hammasi bo'lib bu ettita fanni «**etti erkin san'at**» deb atash rasm bo'lib qoldi.

Mazkur o'quv fanlari qadimgi Yunoniston ta'lim tizimidan olingan edi, biroq o'rta asrlarda ularga diniy mazmun berilib, hammasi ramz bilan diniy ma'noda tushunilar edi: grammatikani o'rganishdan maqsad - muqaddas diniy kitoblarni o'qishni bilib olish; ritorika (notiqlik san'ati nazariyasi)ni o'rganishdan maqsad - va'zxonlik qilish, xutba o'qish san'atini egallab olish; musiqa deyilganda esa diniy musiqa nazarda tutilardi (katolik cherkovida ibodat vaqtida organ musiqa asbobi chalinadi va diniy ashulalar aytiladi).

Hamma fanlarning toji deb - **teologiya** hisoblanar edi. O'rta asrlarda beriladigan ta'lim dasturi cherkov maktablari orqali amalga oshirilardi. Cherkov maktablarining asosiy turlari: prixod maktabi (ya'ni bir cherkovga qarashli), monastr maktabi va bosh cherkov yoki episkop maktablaridan iborat edi.

Prixod maktablari boshlang'ich maktablari bo'lib, unda o'g'il bolalar o'qir edilar. Ular mahalladagi cherkovlarga qarashli bo'lib, unda ruhoniylar yoki uning yordamchisi o'qituvchilik vazifasini bajarardi. Prixod maktablarida bolalar xristian dini asoslari va qoidalarini, diniy ashulalar aytishni, lotin tilida o'qish va yozishni o'rganardi edilar. Ba'zilarida bolalar boshlang'ich hisob ilmini ham o'rganardi edilar.

Monastir maktablari monastir huzuridagi maktablar bo'lgani sababli shu nom bilan atalardi. O'rta asrlar davomida Yevropadagi monastirlar faqat tarki dunyo qilgan monarxlar yashaydigan diniy maussasa bo'lib qolmay, balki ba'zi joylarda ular o'z zamonasiga munosib madaniyat markazi, ma'rifat o'choqi ham edilar. Bunday monastirlarda turli kitoblardan nusxa ko'chirish, kitobxonalar tashkil qilish bilan shug'ullanardi, ba'zi monarxlar ilmiy muammolar ustida ish olib borardi edilar. Monastir maktablarida o'qitish vazifasi uchun maxsus monarxlar tayinlanardi. Monastir maktablarining ko'pida prixod maktabi kabi «**etti erkin san'at**», ya'ni grammatika, ritorika, dialektika, arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqadan dars berilardi. Monastir maktablari o'z vaqtida ikkiga bo'lina boshladi: «**ichki maktab**»-monastir devori ichida, faqat kelgusi monaxlar uchun; «**tashqi maktab**»-monastir devori tashqarisida, hamma o'qishni istaganlar uchun maktablar tashkil bo'ldi.

Bosh cherkov yoki episkop maktablari markaziy diniy okrugdagi bosh cherkov (sobor)ga qarashli maktablar edi. Bu turdagi maktablarda faqat yer bolalari o'qir edilar va ular ham yuqoridagi kabi ikki turga bo'linib holdi. Shu bilan birga ular sxolastika asosidagi maktablar bo'lib, hayotdan butunlay ajralib qolgan edi. Bu maktablarda intizom qattiq edi: o'quvchilar har bir qilgan ayblari uchun qattiq va shafqatsiz jazolanardi (savallash, och qoldirish va h.k.).

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada xotin-qizlar, ayoniqsa, mehnatkashlarning xotin-qizlari yoppasiga savodsiz edi. Mulkdor feodal va aslzoda tabaqalariga mansub oilalarda tug'ilgan qiz bolalar xotin-qizlar monastirlari ichida yoki maxsus murabbiylar va oilaga biriktirilgan ruhoniylar qo'l ostidagi uylarda tarbiya olardi.

Ritsar tarbiyasi. Vaqt o'tishi bilan dunyoviy feodallar muhitida ritsar fazilatiga ega bo'lgan odam ideali vujudga keldi. Bu idealga muvofiq ritsar tajribali, mohir va mard jangchi, krepostnoy dehqonlarga nisbatan qattiqqo'l, shafqatsiz va ayni paytda

feodal tabaqasiga mansub kishilarga nisbatan olijanob, nazokatli, odobli, xushmuomalali, vijdonli, fidokor va sodiq odamdir. Ritsar ideali bilan bir vaqtda alohida tarbiya tizimi, ya'ni ritsar tarbiyasi ham maydonga keldi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ritsar tarbiyasi XII asrga kelib to'la tarkib topdi va rivojlandi. Ritsar tarbiyasining mazmuni, «**ritsarlarga oid ettita fazilat**»dan tashkil topdi: otda minib yurishni bilish; qilichbozlikni bilish; nayzabozlikni bilish; suza bilish; ov qila bilish; shashka (keyinchalik shaxmat) o'ynashni bilish; she'r to'qish va qo'shiq ayta bilish. Bu fazilatlardan birinchi uchtasi ritsarga berilmoqi zarur bo'lgan, harbiy tarbiyaga taalluqlidir: ritsar otliq askar, qilich va nayza esa o'sha zamon jangchisining asosiy quroli edi. Suzish va ov qilishni bilish jismoniy chiniqish, chaqqonlilik va bardoshlilikni o'stirish uchun talab qilinardi.

Ana shu ettita fazilatni egallash bilan birga, o'sha davrlarda dvoryanlar jamiyatida qabul qilingan odob va nazokat qoidalarini o'rgatish ham ritsar tarbiyasining mazmuniga kirardi.

Ritsar tarbiyasining amaliy yo'llari quyidagilardan iborati edi: feodal o'z o'g'lini 7 yoshidanoq syuzerenning saroyiga joylashtirardi; bu yerda uning o'g'li 14 yoshgacha **paj** vazifasini bajarardi, ya'ni ovqat vaqtida xizmat qilardi, syuzeren xonim, feodal boshlab va boshqa xonimlarning yumushlarini qilardi, ular bilan birga saylga chiqardi, saroydagi qabul marosimlarida hozir bo'lar, har qanday saroy bayramida va tomoshalarida ishtirok etardi va shu tufayli feodal dvoryanlar jamiyatidagi rasm va qoidalarni egallab olardi, so'ngra 14 yoshdan 21 yoshgacha u syuzerenning qurol-yarog'ini ko'tarib yurish vazifasini bajarardi, u syuzerenning qurol-yarog'ini tartibda saqlardi, syuzeren bilan birga jang va urushlarda ishtirok qilardi, u bilan birga ovga chiqardi, harbiy musobaqa va o'yinlarda, turnirlarda (ritsarlarning kuch sinash musobaqalarida) ishtirok etardi va shu tufayli harbiy bilim va harbiy san'atni egallab olardi. 21 yoshga kirganda unga katta tantana bilan ritsarlik unvoni berilardi.

Shahar maktablarining vujudga kelishi. G'arbiy Yevropada XII-XIII asrlarda hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi shaharning o'sishiga va shahar madaniyatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shaharning asosiy aholisini tashkil qiluvchi hunarmand va savdogarlar o'z bolalariga amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim berishdan manfaatdori edi. O'sha vaqtda ishlab turgan cherkovga qarashli diniy maktablar bunday bilim bermas edilar. Shu sababli sexda birlashgan hunarmandlar va gildiyalarda birlashgan savdo ishlab turgan cherkovga qarashli diniy maktablar tsex maktablari va gildiya maktablari deyilardi. Keyinroq sex va gildiya maktablari magistrat maktablariga, ya'ni shahar boshharmasi (magistrat) xarajatidagi maktablarga aylandi. Bu maktablarning mudir va o'qituvchilari tegishli tsex, gildiya va magistratura tomonidan tayinlanardi va ular cherkovga qaramas edilar. Bu maktablarda pul to'lab o'g'ilar edi.

Cherkovga qarashli diniy maktablarga nisbatan, bu maktablarda diniy rasmlar bilan bir qatorda amaliy ish uchun zarur bo'lgan xat, savod va hisob malakalarini egallashga ko'proq e'tibor berilardi. Ba'zi maktablarda esa grammatika, ritorika va geometriya o'qitilardi. Bir talay tsex, gildiya va magistrat maktablarida o'qish lotin tilidan ona tiliga ko'chirildi va lotin tili esa ayrim o'quv fani bo'lib holdi. Mazkur maktablar bilan bir qatorda xususiy maktablar ochila boshlandi. Xususiy maktablarda o'qish ona tilida borardi va o'qish uchun pul to'lanardi.

Tsex, gildiya va magistrat maktablarining vujudga kelishi, G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi maktab ishining taraqqiyotida katta yutuq edi. Asosan dunyoviy bo'lgan bu maktablarga ruhoniylar dushman ko'zi bilan qarar edilar. Chunki bu maktablar ruhoniylarning yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda ko'p yillar davom etib kelgan monopoliyasini yo'q qildilar. Ruhoniylar bu maktablarga qarshi kurash olib bordilar ularning o'sishiga yo'l qo'ymaslik uchun harakat qildilar. Biroq hayot talablariga javob beradigan shahar maktablari ruhoniylarning qarshilik ko'rsatishiga qaramay rivojlanib bordilar. XV asrga kelib bunday maktablar G'arbiy Yevropa mamlakatlarining deyarli hamma yirik shaharlarida mavjud edi.

Yevropada dastlabki universitetlar hamda Akademiyalarning tashkil topishi va ulardagi ta'lim tizimi.

Yevropada birinchi universitetlar XII asrning ikkinchi yarmida Italiyada (Bolonya shahri), Angliyada (Oksford shahri), Frantsiyada (Parij shahri)da tashkil qilindi. Bu universitetlar dastlabki professor va studentlarning mustaqil idora qilinadigan uyushmasi (korporatsiyasi)dan iborat edi. Keyinchalik XIII asrda bu korporatsiyalar o'z-o'zini idora qilish huquqini saqlab qolgan holda davlat tomonidan rasmiy tasdiqlandi. Cherkov esa universitetni tamomlagan talabalarga ilmiy daraja va o'qituvchilik huquqini berishni o'z ixtiyoriga oldi. Ana shu tariqa universitetlar rasmiy o'quv muassasiga aylanib holdi. XIV-XV asrga kelib universitetlar Yevropaning barcha mamlakatlarida ochildi.

O'rta asr universitetlari odatda to'rtta fakultetdan tuzilgan bo'lib, tayyorlov, yuridik, tibbiyot va teologiya (din) aqidalari fakultetlaridan iborat edi. Tayyorlov fakulteti talabalari yuqorida aytilgan trivium va kvadrivium tarkibiga kirgan fanlarni o'qir edilar. Tayyorlov fakultetida o'qish muddati odatda 6-7 yilgacha, asosiy fakultetlarda esa 5-6 yilgacha cho'zilar edi.

O'rta asr universitetlari cherkov nazorati ostida ishlaganliklari oqibatida sxolastika ruhidagi maktabga aylanib qolgan edilar. Bunda atrof, tevarakdagi real fakt va hodisalarni o'rganish bilan emas, balki cherkov ruhoniylar tomonidan ma'qullangan va tavsiya qilingan kitoblarni quruq yodlab olish bilan shug'ullanar edilar. Shu sababdan bunda o'qish quruq qiroatxonlikdan iborat bo'lib qoldi. Universitetlarda o'qitish metodlari ma'ruza, cherkov tomonidan tasdiqlangan darslik va asarlarni yodlash va disput (munozara)lardan iborat edi. Universitetlarda o'qish faqat lotin tilida olib borilar edi. Universitet ta'limining va undagi metodlarning sxolastik mazmunidan qat'i nazar, O'rta asr universitetlari Yevropa madaniyatining rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Ular ma'rifat tarqatish va o'sha davrdagi ma'lumotli kishilarni yetishtirishda katta xizmat qildi.

Universitetlarning vujudga kelishi va ularning rivojlanishi.

XII-XIII asrda bir qancha G'arbiy Yevropa mamlakatlarida oliy ma'lumot beradigan o'quv yurtlari sifatida universitetlar paydo bo'la boshladi. Universitetlarning vujudga kelishiga o'sha paytda ko'p yevropaliklarning arab madaniyati (tibbiyot va falsafa) bilan tanishuvi katta ta'sir ko'rsatdi. Bu madaniyat bilan tanishishga G'arbiy Yevropa feodallarining XI asr oxirida Sharqdagi arab musulmon mamlakatlariga qarshi boshlagan harbiy harakatlari sabab bo'ldi. O'sha zamon arab mamlakatlarida madaniyat va ma'rifat G'arbiy Evropa madaniyatiga nisbatan ko'p jihatdan biroz taraqqiy qilgan edi. Xususan arablar tomonidan VIII asrda istilo qilingan Ispaniyada

tashkil qilingan arab oliy o'quv yurtlari Yevropa universitetlari uchun ma'lum darajada namuna bo'ldi. Ispaniyada arablar barpo qilgan feodal musulmon davlatining poytaxti Kordova shahrida tashkil qilingan arab oliy o'quv yurtlarida falsafa, matematika, astronomiya, tibbiyot fanlari o'qitilar edi. Evropaning turli mamlakatlaridan kelgan ko'p talabalar Kordovada o'qib, oliy ma'lumot olardilar.

Shuningdek, katolik cherkov aqidalariga xilof bo'lgan turli diniy ta'limot va bid'at fikrlar ham Yevropada universitetlar tashkil qilinishiga ta'sir etdi, chunki mana shu bid'at fikrlarga qarshi kurash olib bora oladigan oliy ma'lumotli katolik ruhoniylarga ehtiyoj tug'ildi. Mavjud cherkov maktablari esa bunday xodimlar tayyorlash vazifasini bajara olmasdilar. Katolik cherkoviga xilof diniy ta'limotlarning tarqalishi va rivojlanishi munosabati bilan katolik cherkov maorif ishini o'z qo'liga batamom olishga majbur bo'ldi. Natijada katolitsizmga sodiq bo'lgan oliy malakali o'qituvchilarga ham ehtiyoj yuzaga keldi.

Universitetlarning paydo bo'lishiga yana bir sabab shu ediki, Yevropada katta davlatlar barpo qilinganligi va markazlashtirilgan monarxiya hokimiyatining kuchayganligi munosabati bilan ilmiy va yuksak madaniyatli huquqshunoslarga talab orta bordi. Mazkur sabablardan tashqari XII-XIII asrlarda G'arbiy Yevropa hayotida yuz bergan iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar, ya'ni hunar va savdoning rivojlanishi, shaharlarlarning o'sib borishi va shunga bog'liq holda dunyoviy shahar madaniyatining taraqqiy qilib borishi, xalqaro aloqalarning kengayishi yoshlar o'rtasida oliy ma'lumot olish harakatini boshlanishiga turtki bo'ldi, bu hol o'z navbatida universitetlarning paydo bo'lishi katta ta'sir ko'rsatdi.

YAN AMOS KOMENSKIYNING PEDAGOGIKA NAZARIYASI.

Chex pedagogi **Ya.A.Komenskiy(1592-1670)** «Chex qardoshlari» jamosaining yo'lboshchilaridan biri edi. Bu jamoa Leshno shahriga ko'chib keldi va Ya.A.Komenskiy gimnaziyaga aylantirilgan qardoshlik maktbiga Yana rahbar bo'lib qoldi. U 1631 yili «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» nomli darslik yozdi. Bu darslik 15 ta tilga o'girildi va turli mamlakatlarning maktablarida keng qo'llanildi. Shu yillarda u «Buyuk didaktika» asarini yozib tugatdi, bu kitob ham turli tillarga tarjima qilindi. Oradan ko'p o'tmay u «Onalar maktabi» nomli birinchi qo'llanmasini yozdi. Ya.A.Komenskiy didaktikaga asos soldi va uning g'oyalari quyidagicha ifodalandi: u olamni hislar vositasida idrok qilish asosida bilishni, realizmni, ko'rsatmali ta'lim printsiplarini ta'rif qiladi. Komenskiy umumiy ta'lim g'oyasini ilgari suradi. U boylarning ham, kambag'allarning ham, yuqori tabaqa va past tabaqalarning ham bolalari, o'g'il va qiz bolalar, shahar aholilari va qishloq joylaridagi maktab bolalarining ham o'z ona tilidagi maktabda o'qitishni talab etdi. Komenskiyning fikricha, tarbiyaning quyidagi uch bosqichi, uch vazifasi bor: **o'zini va tevarak atrofdagi olamni bilish (aqliy tarbiya), o'z-o'zini boshqarish (axloqiy tarbiya), xudoni tanish (diniy tarbiya).**

Tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi tog'risida tushuncha.

Komenskiyning pedagogikaga doir hamma asarlari («Buyuk didaktika» ham) to'g'ri tarbiyaning hamma jihati tabiatga uyg'un bo'lishi lozim, degan fikr bilan sug'orilgan.

Komenskiy inson tabiatning bir qismi va u tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy, umumiy qonunlariga bo'ysunadi, deb hisobladi. Bolaning yoshini davrlarga bo'lish. maktab sistemasi va o'qitishning mazmuni.

Yosh bo'g'inini har qaysisi 6 yoshdan bo'lgan to'rt davrga ajratadi:

Go'daklik davri – 6 yoshgacha bo'lgan davr.

Bolalik davri – 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davr.

O'smirlik davri – 12-18 yosh.

Yetuklik davri – 18-24 yosh.

Yoshni bunday davrlarga bo'lishga Komenskiy yosh xususiyatlarini asos qilib oladi: 1) go'daklikning belgisi shuki, bu davrda bola jismoniy jihatdan zo'r berib o'sadi va uning sezgi organlari rivojlanadi; 2) bolalik davrida eslash qobiliyati va xayol hamda bularning ijrochi organlari bo'lgan til va qo'l rivojlanadi; 3) o'smirlik davrida shu ko'rsatib o'tilgan sifatlardan tashqarii, tafakkur («tushunish va muhokama yuritish») ancha yuksak darajada o'sadi; 4) yetuklik davrida iroda va uyg'unlikni saqlash qobiliyati o'sadi.

Ya.A.Komenskiyning didaktik qarashlari.

Ko'rsatmalilik printsipini birinchi marta Komenskiy nazariy jihatdan isbotlab berdi. U Bu printsipni faqat ko'rsatib o'qitish usulidagina emas, balki barcha sezgi organlarini narsalar va hodisalarni eng ravshan, asosli va mustaqkam, yaxshi o'zlashtirib olishga jalb qilish vositasi tariqasida keng ma'noda va to'g'ri tushundi. U didaktikaning «**oltin qoidasi**» deb quyidagi qoidani bayon qilib berdi: **«Mumkin bo'lgan narsalarning hammasini sezgilar orqali idrok qildirmoq kerak: ko'rib bo'ladigan narsalarni ko'z vositasi bilan; eshitib bo'ladigan narsalarni eshittirish bilan; hidlarni hidlatish; ta'mni totib ko'rish; ushlab ko'rib sezilishi mumkin bo'lgan narsani ushlatib ko'rish vositasi bilan idrok qildirilsin. Agar biror narsani bir necha sezgi organlari bilan idrok qilish mumkin bo'lsa, shu narsani idrok qilish uchun bir yo'la bir necha sezgi organlari ishga solinsin».**

Komenskiy o'qitishda og'zaki yodlashga onglilik printsipini qarshi qo'ydi: **«Aql-idrok bilan yaxshi tushunib olingan narsadan boshqa hech bir narsani zo'rlab yodlatmaslik kerak».**

U ta'limni sistemali bo'lishini talab qildi, izchillik printsipti katta ahamiyatga ega ekanligini isbotlab berdi. Komenskiy o'quvchilarning kuchi etadigan narsani o'qitish kerak va asosli ravishda uqib olishlari kerak degan printsiplarni olg'a surdi.

Maktab ta'limini yo'lga qo'yilishi. Sinf - dars sistemasi.

Komenskiy maktabda o'quv yili va uni o'quv choraklariga bo'lish tog'risidagi tushunchani, ta'tilni kiritdi, o'quv kunini qanday yo'lga qo'yishni belgilab berdi (ona tili maktabida 4 o'quv soati, lotincha maktabda 6 o'quv soati), o'quv Mashg'ulotlarining sinf-dars sistemasini nazariy jihatdan ishlab chiqdi. Bu sistemaning asosiy elementlari o'sha vaqtdagi ba'zi bir ilg'or maktablarda qo'llanila boshlagan edi.

O'sha vaqtlarda Yevropa maktablarida o'quvchilar maktabga butun yil davomida turli vaqtlarda qabul qilinaverardilar; o'quvchilar garchi sinfda birga o'tirsalar ham, lekin ko'pincha sinfning hamma o'quvchilari bilan jamoa bo'lib mashg'ulot olib borilmas edi: har bir o'quvchi o'ziga berilgan darsni o'qir, maktabda har bir o'quvchi sinfdan sinfga alohida-alohida ko'chirilaverardi; o'qituvchi har bir o'quvchini alohida-alohida o'z huzuriga chaqirib, u bilan yakka tartibda shug'ullanardi.

Ya.A.Komenskiy yozgan darsliklar. Bunday darsliklardan ikkitasi eng mashhur bo'lib ketdi: «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi», «hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari». «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» nomli

darslikda Komenskiy o'zi aytgan didaktik printsiplarga muvofiq ravishda grammatik jihatdan tobora murakkablashib boradigan bir qancha gap(jumla)ni tanlab olib, bayon qildi.

«Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» nomli darslikda boshlang'ich bilimlarning bolalar uchun yozilgan suratli entsiklopediyasi deyish mumkin. Har qaysisida suratlar ham berilgan 150 ta qisqa maqolada tabiat haqida (olam haqida, geografiyaga doir, o'simliklar, hayvonlar, insonlar tanasi haqida), odamning faoliyati haqida (kasb-hunar, qishloq xo'jaligi, transport, madaniyat vash u kabilar), ijtimoiy hayot haqida (davlat boshqarmalari, sud haqida) ma'lumotlar beriladi.

Axloqiy tarbiya. Intizom. Komenskiy quyidagilarni axloqiy tarbiya vositalari deb hisoblaydi:

ota-onalar, o'qituvchilar, o'rtoqlarining namunasi;

bolalarga yo'l-yo'riq ko'rsatib turish, ular bilan suhbatlar o'tkazish;

bolalarni yaxshi xulqlarga o'rgatishda (ulara mardlik hislatlarini tarbiyalash chog'ida) ma'lum mashqlar o'tkazish; burdsizlikka, yalqovlikka, o'ylamay ish qilishga, intizomsizlikka qarshi kurash olib borish.

Jon Lokkning Pedagogika sohasidagi qarashlari.

Lokk o'zining «Inson aql-idroki tog'risidagi tajriba» nomli asosiy falsafiy asarida odamning ongida tug'ma g'oyalar va tasavvurlar yo'q, go'dakning ko'ngli bamisoli «toza taxtadir» (tabula rasa) deb hisoblashga harakat qildi. Shuning uchun ham u insonning kamolotga yetishda tarbiyaning roliga yuksak baho berdi. Lokkning bilimlar va g'oyalar hislar vositasi bilan hosil qilingan tajribadan kelib chiqqan, degan ta'limotni yoqlab chiqqan.

Lokk tasavvurlar – bizning ongimizga sezgilar orqali, sezgi organlari orqali kirib keladi; bu – olamni bilishning eng asosiy vositasidir, deydi. U o'zining pedagogikaga oid qarashlarini «Tarbiya tog'risidagi fikrlar»(1693) kitobida bayon qilib berdi.

Jentlmen tarbiyalash.

Biz ko'rib turgan hamma odamlarning o'ndan to'qqizi qanday tarbiya olganligiga qarab yaxshi yoki yovuz, foydali yoki zararli kishilar bo'lib qoladilar, odamlar o'rtasidagi juda katta tafovut mana shundan kelib chiqadi, deb ta'kidlaydi u.

Lokk jismoniy tarbiyaga juda katta ahamiyat beradi. U «sihat-salomatlik ishlarimiz va farovonligimiz uchun zarurdir. Tana sog'lom bo'lsa, uning ruhi ham sog'lom bo'ladi» deydi.

Jentlmen aqliy tarbiya olishi lozim, bu aqliy tarbiyani ham tijorat kishisiga zarur bo'lgan hislatlarni xosil qilish maqsadiga bo'ysundirishi kerak. Uning fikricha, jentlmenga berilish kerak bo'lgan ta'limning mazmuni o'sha vaqtgacha jentlmenga berilgan ta'lim mazmuniga qaraganda ancha kengroq bo'lishi kerak: o'qish, yozishni, surat olish, ona tili, frantsuz tili, latin tili, geografiya, arifmetika, geometriya, astronomiya, xronologiya, etika o'rgatilishi kerak, shuningdek, unga tarix va qonunshunoslikka, buxgalteriyaga doir asosiy ma'lumotlarni berish, uni chavandozlikka va raqslarga o'rgatish lozim.

Jan Jak Russoning pedagogik nazariyasi.

Russo 1712 yilda Jenevada (Shveytsariya) soatsoz oilasida tug'ildi. 30 yoshida Parijga keldi. 1749 yili Dijon Akademiyasining «Fan va san'atning taraqqiy qilishi xalqlarning yaxshilanishiga yordam beradimi yoki yomonlashuviga yordam beradimi?»

mavzusidagi konkursida ishtirok etib oliy mukofot sovrindori bo'ldi. 1762 yili «Ijtimoiy shartnoma» asarini yozdi. Shu yili «Emil yoki Tarbiya tog'risida» nomli roman-traktati chop etildi.

Tabiiy va erkin tarbiya.

Russoning fikricha, bolalar tabiatga muvofiq ravishda tabiiy tarbiyalanishlari lozim: «Tabiat bolalarning o'sib, katta bo'lishlaridan oldin bola taqlid bo'lishlarini istaydi», deb yozadi. Tabiatning tarbiyasi inson qobiliyatlarini «ichki» o'stirishdan iborat bo'ladi; odamlarning beradigan tarbiyasi odamni shu qobiliyatlar va organlarning o'suvidan foydalanishga o'rgatishdan iborat bo'ladi.

Bola yoshining davrlari.

Birinchi davr: bola tug'ilgandan 2 yoshgacha davri;

Ikkinchi davri: 2 yoshdan 12 yoshgacha;

Uchinchi davr: 12dan 15 yoshgacha davr;

To'rtinchi davr – 15 yoshdan balog'atga yetkunigacha davridir.

Klod-Adrian Gelvetsiyning pedagogik qarashlari(1715-1771,Frantsiya).

Uning «Aql tog'risida» kitobi 1758 yili bosmadan chiqdi, «Odam, uning aqliy qobiliyatlari va uni tarbiyalash tog'risida» asari 1773 yilda vafotidan so'ng bosmadan chiqdi.

Deni Didroning pedagogik qarashlari(1713-1784).

Didro o'zining «Ko'rlar tog'risida ko'zi ochiqdarga ibrat bo'ladigan xatlar» asarini chop ettirdi. Keyingi umrining asosiy qismini «Fanlar, san'atlar va hunarlar entsiklopediyasi»ni nashrga tayyorlashga bag'ishladi.

Didro sezgilarga katta ahamiyat berdi, lekin u bilish – sezgilarning o'zidan iborat, aql-idrokning sezgilarni qayta ishlashining bilish uchun ahamiyati katta, deb to'g'ri ko'rsatdi. U tarbiya yo'li bilan ko'p narsaga erishish mumkin, lekin tarbiya tabiatning bolaga bergan qobiliyatinigina o'stiradi, deb hisoblaydi. Tarbiya yo'li bilan bolaning yaxshi tabiiy qobiliyatlarini o'stirish va yomonlarini yo'qotish mumkin.

Didro yaxshi tabiiy xususiyatlar faqat zotli kishilargagina xos bo'lavermaydi, deb hisobladi. Aksincha, iste'dodlar zodagonlar namoyandalariga qaraganda xalqning orasida ko'proq bo'lishini isbotlab berdi.

XVIII asr burjua revolyutsiyasi davrida Pedagogika sohasidagi fikrlar va maktab

Bu davrlarda Kondorse va Lepelete loyihalari xalq maorifini qayta tashkil qilish sohasida tuzilgan eng ilg'or loyihalar edi.

Kondorse loyihasi.

Kondorse faylasuf, iqtisodchi, matematik, fizik, jirondistlar partiyasining rahbarlaridan biri edi. U o'z loyihasini qonun chiqaruvchi majlis tomonidan tashkil etilgan Ijtimoiy ta'lim qo'mitasiga taqdim etdi.

Kondorse loyihasida xalqni o'qitish davlatning asosiy burchidir, degan fikrni olg'a surdi; shu sababli hamma bosqichlardagi maktablarda o'qitish umumiy va tekin bo'lishi, har ikkala jinsdagi yoshlar uchun barobar bo'lishi lozim; din darslarini o'qitish bekor qilish lozim.

U maktab sistemasi quyidagicha bo'lishi kerak, deb taklif berdi:

1) Birlamchi (boshlang'ich) maktab. O'qish muddati 4 yil. O'quv dasturi: o'qish, yozuv, grammatika va arifmetikaga doir boshlang'ich ma'lumot, geometriyaning

boshlang'ich qismi, qishloq xo'jaligi va hunar-kasblari bilan, maktabdagi ishlab chiqarishning umumiy holati bilan tanishishdan iborat bo'ladi, ijtimoiy tuzum va axloq asoslari o'rgatiladi (aholi soni 400 kishi bo'lishi lozim).

2) Ikkinchi bosqich (ikkilamchi maktab) maktab. O'qish muddati 3 yil (aholisi 4000 kishi bo'lgan shahar yoki okrugda ochiladi). Bu maktabda boshlang'ich maktabni tamomlaganlar o'qiydi. O'quv dasturi: matematika, tabiiyot, savodga doir boshlang'ich ma'lumot berish, axloq printsiplari va ijtimoiyotdan iborat bo'ladi (barcha kabinetlarda yetarlicha ko'rgazma va asbob uskunalar ta'minlanishi lozim).

3) Institutlar. O'qish muddati 5 yil. Bu o'quv yurtida o'rta ta'lim tugallanadi, bitiruvchilar tegishli kasblarni o'rganib chiqadilar. Kondorse butun mamlakatda faqat 110 ta institut ochishni taklif qildi.

4) Litseylar – (butun Frantsiyada hammasi bo'lib 11 ta) – oliy o'quv yurtlari – sxolastik universitetlar o'rniga ochiladi. Litseylar mumtoz tabaqalarning bolalari, yuqori tabaqaning bolalari o'qiydigan oliy o'quv yurti bo'lishi lozim. Uning bu loyihasi Konventda 1793 yilda qabul qilindi.

Lepeletye loyihasi

Jirondistlar Konventdan quvilganlaridan keyin hokimiyat eng revolyutsion bo'lgan yakobinchilar partiyasi qo'lga o'tdi. Bu partiya qator tadbirlar o'tkazdi, uning natijasida «Ijtimoiy ta'lim komiteti» qaytadan saylandi. Shu vaqtda Lepelete loyihasi mashhur edi. U e'tiqodiga ko'ra qirolni qatl ettirishga ovoz berdi va uni qirol gvardiyasining ofitseri otib o'ldirdi. Lekin bu loyihani uning ukasi yangi qonunni tayyorlash komissiyasiga topshirdi. Bu ishga komissiya raisi, yakobinchilar rahbari Robesper rahnamolik qildi.

Lepeletye «milliy tarbiya uylari» - internatlar ochishni taklif qildi: 5 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'g'il va 5 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan qiz bolalar ta'lim olishlari kerak, deydi. Bu uylar uchun dastur belgilab berdi: bolalar jismoniy jihatdan tarbiyalashga e'tibor berilishi lozim, shu bilan birga ularni jismoniy mehnatga ham jalb etib turish kerak, bolalar o'zlariga o'zlari xizmat qilishlari maqsadga muvofiq, «mehnat qilishdek yaxshi odatni tarbiyalaydi».

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Yunonistonda qullarni nima deb atashgan?
A) gapiradigan ish quroli B) yuradigan mexanizm S) hech kim emas
2. “Agella”da o'smirlarga nimalar o'rgatilar edi?
A) og'riqqa, to'qlikka. semirishga, to'yib uxlashni
B) ochlikka, sovuqqa, chanqoqlikka, og'riqqa chidashni
S) kurashga, chiniqishga, uzoq masofaga yugurishgni
3. “Buyuk didaktika” va “Onalar maktabi” asarlari kimga tegishli?
A) Ya.A.Komenskiyga B) Gerbartga S) Distervergga
4. Kondorse o'z loyihasida maktab ta'limini necha bosqichga bo'ladi?
A) 4 bosqichga B) 5 bosqichga S) 7 bosqichga
5. Monastir maktablari qanday turlarga bo'linadi?
A) ichki va tashqi maktablar, B) umumiy va xususiy maktablar,
S) xususiy va davlat maktablari

6. Lepeletye _____ taklif qildi.

A) "milliy tarbiya uylari" – internatlarni ochishni, B) "maktablarni qayta ta'mirlashni", S) "maktablarda darsliklar yaratishni"

7. O'rta asr G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi ta'lim dasturiga kiruvchi fanlar qanday nom bilan ataladigan bo'lib qoldi?

A) 7 ta erkin san'at, B) 9 ta erkin san'at, S) 8 ta erkin san'at

8. "Ko'p bilim aql o'rgata olmaydi" degan fikrni kimlar tarafdori bo'lgan?

A) Siseron, Ushinskiy, B) Kant, Geraklit, S) Geraklit, Siseron

9. Antik pedagogikada nimalar shakllangan?

A) donishmandlik pedagogikasi, B) oila pedagogikasi, S) ta'lim va tarbiya pedagogikasi

10. Afinada qaysi sohalar rivojlangan?

A) tibbiyot ilmi, matematika, tarix, san'at, grek me'morchiligi va haykaltaroshligi,

B) dehqonchilik, suv inshootlari, chorvachilik

S) shahar qurilishi, g'isht ishlab chiqarish

Pedagogik masala:

Pedagogika Universiteti Adabiyot fakul'teti 4 kurs talabasi Nigora Aliyeva amaliyot jarayonida.

5 «b» sinf o'quvchilariga «ona tilidan» dars o'tmoqchi edi. 2-chorak yaqinlashgan, bolalarni charchaganligi sezilib turardi. Birdan tashqarida sharros jala quyib yubordi. Shiddat bilan yog'ayotgan yomg'ir bolalar diqqatini o'ziga tortdi.

- YOmg'ir, yomg'ir, - deb shodlanib, sakray boshladilar bolalar. Nigora bunga javoban, derazani ochishni buyurdi, tashqaridan kirgan yoqimli havo dimoqqa urilib, barchani baxri-dilini yana xam ochib yubordi..

- Ko'rayapman, - dedi Nigora kulib, - barchangizni kayfiyatingiz choq. Kelinglar, mana shu tasodifiy shodlikni qo'ldan bermaymiz, buning uchun biz «Shodlik yomg'iri» mavzusida insho yozamiz. Mavzu nomini o'zgartirishingiz mumkin.

- Men uning sarlavhasini «Yomg'ir nima haqida shivillaydi?» deb qo'ysam maylimi?

- Mayli..

Hozir hammasi mumkin. Siz hozirgi hodisa haqida qanday o'ylasangiz, uni qanday tasavvur qilib, his etsangiz, xuddi o'shanday yozing.

1. Dars rejasidan bunday chetga chiqishni siz qanday baholaysiz?

2. Sizningcha, o'qituvchi amaliyotchining yutug'imi? yoki.?

3. Sizning fikringizcha, fan o'qituvchisi bunday vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lardi?

4. Sizni o'zingiz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Pedagogika tarixi qanday faktlarga ega?

2. Pedagogika fani qanday shakllanib kelgan?

3. Antik dunyo pedagogikasidagi o'zgarishlar nimalardan iborat?

4. Ta'lim-tarbiyada Platon, Arastu va Demokritlarning o'ziga xos pedagogik qarashlari.

5. Suqrot insonlarga xos bo'lgan qaysi 4 fazilatni bo'lishi kerak deb hisoblaydi?

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,7,10, 17,20,21,22,23

3-mavzu: Sharq mutafakkirlarining ta'lim va tarbiya haqidagi pedagogik qarashlari.

Reja:

1. Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa davridagi bola tarbiyasi.
2. Islom ma'rifat sivilizatsiyasining ta'lim-tarbiyaga ta'siri.
3. Qur'oni Karim va Hadislarda axloq-odob, imon, oila mustahkamligi, ota-onaga hurmat masalalari.
4. Imom Ismoil al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Navoiy va boshqa mutafakkirlarning axloqiy-ma'rifiy merosi.

Ta'limiy maqsad: Sharq mutafakkirlarining ta'lim va tarbiya haqidagi pedagogik qarashlari haqida umumiy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad: Pedagogika fanining jamiyat va inson hayotida tutgan o'rni.

Rivojlantiruvchi maqsad: Talabalarning dunyoqarashi, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini va kasbiy qiziqishlarini o'stirish.

Tabiatning oliy mahsuli, siymosi inson o'z aql-zakovati bilan o'zini himoya qiladigan mustaqil, erkin qilib yaratilgan. Shuning uchun tabiat hodisalari, jarayonlarini o'rganish ulardan yashash uchun oqilona foydalanish asosida insonlar sekin-asta madaniylashuvi, ijtimoiylashuvi asosida ma'naviy qadriyatlar shakllana boshlagan, rivojlana boshlagan. Ilk davrlarda ta'lim yoshlarga, ota-onalarning yashash uchun tabiatdan foydalanishi, uy-ro'zqor yuritish, o'zaro va tabiatga munosabat axloqi, odobi sifatida shakllana boshlagan bo'lsa, bilimlar hajmi kengaya boshlagach, maxsus tarbiyachilarga ehtiyoj tug'ila boshlagan. Ma'lum qabila, elat, millat miqyosidagi ta'lim-tarbiya qoidalari majmuasi kontseptsiyalarida ko'p hollarda alohida kishilar tomonidan takomillashtirilgan. Shuning uchun ham ta'lim kontseptsiyalarida ma'lum muallifning nomi bilan bog'lanmaydi.

Antik pedagogikada tabiatga, atrof-muhitga o'zaro ongli munosabatlarda, axloqiy munosabatlar majmuasi bo'lgan donishmandlik pedagogikasi shakllangan. Bu vaqtlarda tarbiyaning bosh maqsadi ham yoshlarda donishmandlik sifatlarini shakllantirish bo'lgan. Donishmandlik pedagogikasida yoshlarda mehnatsevarlik ma'naviy - axloqiy sifatlar bilan uyg'un rivojlantirilishi maqsadga muvofiq ekanligi ilgari surilgan. Bu pedagogik qarashlar mashhur «Avesto» (er.av. VII asr) asarida va qadimgi Xitoyning Daos maktabi (er.av. III asr) tajribalarida aks etgan edi. Eramizdan avvalgi II asrlarga kelib O'rta Osiyo, qadimgi Hindiston pedagogikasida saxiylik, sofdillik, inson qalbi tushunchalari ilgari surilgan.

610 yillarga kelib yaratilgan Islom dinining muqaddas kitobi «Qur'oni Karim»da inson mohiyati to'la ochib berilib, komil inson tarbiyasi bosh maqsad qilib qo'yilgan edi. «Qur'oni Karim»dagi ta'lim - tarbiyaga oid ulug' xazina Al-Buxoriy hazratlarining Hadislarida beriladi. Jumladan, (38-hadis) "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz": (626-hadis) "Har bir go'dak Islom tabiatida tug'iladi, so'ng ota-onasi uni yo yahudiy qiladi, yo nasroniy qiladi, yo majusiy qiladi": (136-hadis) "Hech bir ota o'z farzandiga xulq odobdan buyukroq meros berolmaydi".

Ta'lim – tarbiya, insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida ochib beriladi. Shu jumladan Islom olamining muqaddas kitobi «Qur'oni Karim»da ham komillikning beshta tamoyili komillikka erishish uchun talab etiladi.

- 1. Mehnatim muhabbatim.**
- 2. Ma'rifatim sarmoyam.**
- 3. Dinim aqlim.**
- 4. Ilmim qurolim.**
- 5. Sabru qanoat libosim.**

IX-XV asrlar Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyati rivojida muhim davr hisoblanadi. Shu bois faylasuf, tarixchi, pedagog, matematik olimlar bu davr madaniy-ma'rifiy merosi haqida qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

Pedagog – olimlarning Sharq mutafakkirlari ijodida ta'lim-tarbiya, shaxs ma'naviy kamoloti masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning pedagogika fani rivojida muhim o'rni bor. Lekin ular allomalar merosida olg'a surilgan ta'lim-tarbiya masalalarini yoritishda milliylik tamoyilidan kelib chiqqan holda yondashmadilar.

Aslida Markaziy Osiyo allomalarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turadiki, bu bevosita inson kamolotini shakllantirishga omil bo'la oladigan hodisadir.

Sharq Renessansi deb nom olgan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko'tarilgan, boy davri bo'lib, bu davrda ilm-fanning ikki yo'nalishi (birinchisi) inson uchun tabiiy fanlardirki, u aql ko'zi bilan egallanadi, (ikkinchisi) bu fanlar inson tomonidan (boshqa) kishilardan taqlid qilib o'rganiladi, ular asosida shariat qonunlari yotadi. Bu fanlarning asosini Qur'onda va Sunnada bo'lga Alloh va uning elchisining oldindan belgilab bergan yo'l-yo'riqlari tashkil etadi.¹

Bu davrda Sharq madaniyatini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarish markazi "Ma'mun akademiyasi" (IX asr, Bag'dod, "Baytul hikma") tashkil etildi. Akademiya ilmiy ijodkorlari faoliyatida Yaqin va O'rta Sharq xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatining qo'shilishi asnosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining maxsus bir-biridan ajratilmagan ko'p qirrali qorishiq turi vujudga keldi.² Bunday ko'p qirrali ilmiy qadriyatlarning madonga kelishida vatandoshlarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), Ahmad al-Farg'oni (247-861), Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1050) va boshqalarning xizmatlari katta bo'lgan.

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat sohasiga qo'shgan ulushlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. Ular:

- aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog'larga qadriyatlar;
- ma'naviy-ruhiy qadriyatlar;
- ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;
- badiiy-nafis qadriyatlar;
- diniy qadriyatlar tarzida o'z ifodasini topgan.

Forobiy pedagogik qarashlarini, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, madaniy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. Uning ta'limotida, inson barcha boshqa

¹ Izbranniye proizvedeniya misliteli stran Blijney I Srednogo Vostoka M.: Sotsgiz, 1961.C.622

² Tillashev X.X.Obsheye pedagogicheskiye I didakticheskiye idei uchennix ensiklopedistov Blijnogo I Srednogo Vostoka epoxi srednovekovaya. Tashkent: Fan. 1989.C.10

jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so'zlash qobiliyatiga egaligi bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turishi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyatini berganligi namoyon bo'ladi.

Forobiy bu dunyoqarashida narsa-hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmi, ma'rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e'tibor beradi. U o'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fanlarning tasnifi", "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Ilmlar va san'atlar fazilati" kabi ko'plab risolalarida insonning ma'naviy rivojlanishi ilm-ma'rifatga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. "Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin-kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir"³

Umuman, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muxlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashida, odamning baxti esa uning bilim va ma'rifatida deb bildi. Yaratgan asarlarida u ta'lim-tarbiyaga doir she'r va hikmatlardan misollar keltirib, ular orqali har bir inson o'z qalbining farmoyishiga ko'ra xayr-ezgulikka intilishi, sun'iy obro', shuhrat qozonish uchun muruvvat va sharofat ko'rsatmasligi kerakligini ta'kidlaydi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni ulug'laydi. Uning fikricha, insonning ulug'ligi aql-idroki, so'zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir. Adib o'quv va bilimni farqlaydi: o'quv tug'ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o'qish-o'rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o'zaro birlashsa, insonning qadri ortadi:

Zakovat qayerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi,

Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'ladi.

Zakovatli uqadi, bilimli biladi,

Bilimli, zakovatli tilakka yetadi.

Yusuf Xos Hojib ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liq holda bo'lishini tavsiya etadi, o'g'il bolalarning bir necha san'at turlarini va hunarlarni tugal o'rganmog'i lozimligini ta'kidlaydi. Bu, ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj tarbiya borasida orttirilgan tajribalar to'plangandan keyin o'sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarini ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

Avvalo pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo'ladi. Ta'lim-tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarini bola tarbiyasi, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogik fikrlar ravnaqiga ulush qo'shganlar. Masalan: Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Ahmad

³ Abu Rayhon Beruniy. O'yalar, hikmatlar, naqllar, she'rlar. Toshkent. Yosh gvardiya. 1973.44-bet

Yugnakiyning «Hibatul-Haqoyiq», Alisher Navoiyning «Mahbub - ul qulub», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarlari bevosita odob, axloqqa daxldordir.

Bu asarlarda insonparvarlik, halol mehnat, do'stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak axloqiy fazilatlar o'z aksini topgan. Yosh avlodlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan.

Kaykovusning «Qobusnoma», IV asrda yashab o'tgan hind faylasufi Beydaboning «Kalila va Dimna» asarlari, «Ramayana», «Mahobxorat» dostonlari, Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston», Ahmad Donishning «O'g'illarga nasihat», bundan tashqari Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, «Chor darvesh», «Ming bir kecha» kitoblari ham qimmatbaqo ma'naviy-madaniy meros bo'lib, Sharqu g'arb xalqlari ming yillar mobaynida bulardan bahramand bo'lganlar va komillik tog'risida uning qirralarini yoritib berganlar.

O'rta asrda Yaqin va O'rta Sharqda diniy o'quv muassasalari - madrasalar ta'lim va fan markazlari bo'lgan. O'zbekistonlik, Rossiyalik va chet el sharqshunos tadqiqotchilari tomonidan madrasa turidagi o'quv muassasalari aynan Markaziy Osiyoda yuzaga kelgani va shu yerdan boshqa mamlakatlarga tarqalgani isbotlangan.

Somoniylar davrida (X asr) faqat Samarqandning o'zida 20 ga yaqin madrasalar mavjud bo'lgan. Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining «Donishnoma» («Bilimlar kitobi») nomli asarida mazkur madrasalarda faqat musulmonchilikka oid bilimlar berilibgina qolmay, balki dunyoviy ilmlar ham o'rganilganligi, ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi, ularning negizida ilmiy maktablarning yuzaga kelganligi qayd etib o'tiladi. O'z davrida madrasalarda o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlarni Abu Ali Ibn Sino quyidagi tizimlar bo'yicha ajratadi: odob (xulq etikasi), astronomiya, tibbiyotshunoslik, til va uning grammatikasi, fikx (musulmon qonunchiligi). Alloma tomonidan taklif etilgan tarbiya turlar esa quyidagilardan iborat: 1) aqliy tarbiya; 2) jismoniy sog'lomlashtirish; 3) estetik tarbiya; 4) ma'naviy tarbiya; 5) hunarga o'rgatish. Abu Ali Ibn Sino tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari Markaziy Osiyoda Uyg'onish davridagi ta'limning insonparvarlik va shaxsning barkamol rivojlanishi borasidagi g'oyalariga asoslangan edi, deyishiga imkon beradi.

Sharqdagi Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari - Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar o'zlarining ta'limiy qarashlarida birinchi o'ringa inson shaxsini qo'yadilar hamda bolalarni har tomonlama, jismoniy va estetik kamolotga erishishlari, shuningdek, tillarni bilishlarini zarur deb hisoblaydilar. Aqliy ta'limni tashkil etuvchi fanlar sirasiga matematika, astronomiya, mexanika va tabiatshunoslik kabi tabiiy-ilmiy fanlarni kiritadilar.

Allomalar bolaga hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyasini ilgari suradilar, sxolastik o'qitish va qat'iy intizomga qarshi chiqadilar. Ularning fikricha, o'qish bolada bilimlarga qiziqishni uyg'otishi kerak.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning (1394-1449 yillar) Samarqanddagi faoliyati 14-15 asrlarda madrasalarning fanlar rivojini ta'minlovchi markazlari vazifasini bajarganligini ko'rsatadi. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek Samarqandning hukmdori bo'lishi bilan birga astronom, matematik va tarixchi sifatida mashhur bo'lgan. Shuningdek, allomaning mohir pedagog ham bo'lganligini tarixiy dalillar qayd etadi.

Chunonchi, alloma ko'plab iste'dodli yoshlarni tarbiyalagan. U odamlar, ayniqsa yoshlarning ilmiy bilimlarni o'rganishlariga katta ahamiyat bergan.

Alloma o'z davlatida ta'lim sohasidagi jiddiy islohotlarni tashkil etdi. U madrasalarni davlat ta'minotiga o'tkazdi, mudarris (o'qituvchi)larga oylik ish xaqi belgilagan, shogird (talaba)larga stipendiya ajratgan.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek madrasa o'quv rejasiga quyidagi fanlar: arab tili, adabiyot, Qur'on, Hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fikx (qonunchilik), metafizika, matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi.

Mutafakkir tomonidan barpo etilgan hamda o'zi bevosita ta'lim bergan madrasalarda o'qish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lgan:

1. Anda (kichik) - o'qish muddati 2 yil.

2. Aust (o'rta) - o'qish muddati 3 yil.

3. A'lo (oliy) - o'qish muddati 3 yil.

Bunday yondashuvda bugungi kun nuqtai nazaridan aytganda bakalavriat va magistratura ko'zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o'rta asr yevropa universitetlari uchun ham xos bo'lgan.

Buyuk iste'dod egasi sifatida alloma o'z davridan bir necha asrlarga o'zib ketgan. Deyarli 600 yil avval Muhammad Tarag'ay Ulug'bek quyidagi aksiomani ilgari surgan: bilim olishga intilish davlat ravnaqiga yo'l demakdir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning hozirgi tajribasi mazkur fikrni to'la tasdiqlaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkiston rus mustamlakachilari tomonidan bosib olindi. Bu davrda milliy ma'naviy merosga, madaniyatga past nazar bilan qarovchi shovinistik siyosat hukmron edi. Shunday bo'lsada, bu davrda Siddiqiy, Furqat, Muhimiy, Ahmad Donish, Avaz O'tar o'g'li, Hamza, Abdulla Avloniy, Ibrat, Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori, Cho'lpon, Qori-Niyoziy va boshqalar bola tarbiyasiga, pedagogikasiga oid ko'plab asarlar yozdilar, yoshlarni ilm-ma'rifatli qilishga intildilar. Quvg'inlar, qatag'onlar, bosqinu yong'inlarga qaramay, ajdodlarimizdan bizga adabiy, ilmiy-falsafiy, pedagogik va boshqa sohadagi ming-minglab noyob kitob va qo'lyozmalarda bitilgan ma'naviy merosimiz etib kelgan. Ana shu durdona manbalarda bizning necha ming yillik tariximiz, madaniyatimiz, qo'yingki o'zligimiz mujassamlangan.

O'lkada ochilgan rus-tuzem maktablari, gimnaziyalari ta'sirida ta'lim- tarbiya ishlari hamda ta'lim metodlarini qayta qurish ishlari avj oldi. Natijada yerli xalq vakillarining yangi metodlariga suyanan usullari «jadid», «usuli savtiya» nomidagi maktablar paydo bo'la boshladi. Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda, usuli jadid maktablari 1850 yillarda paydo bo'la boshlagan. Turkistonda yangi maktablarning karvonboshchisi M. Behbudiy edi. U jadid maktablari uchun ham nazariy, ham amaliy jihatlarida jonbozlik ko'rsatdi. Aslida jadid so'zi arabchadan olingan bo'lib «yangi» degan ma'noni beradi. Demak, usuli jadid ham, usuli savtiya ham yangi usul maktablari degan ma'noni bildiradi. Usuli jadid o'lkada ma'rifat nuri sari yetaklaydi. Ushbu maktabda o'qigan talabalar hatto, chet o'lkalarda o'qishni davom ettirganlar. Ushbu maktab ijodkorlari M. Behbudiy, S. Saidazizov, A. Avloniy, S.A. Sidiqiy, Munavvarqori, A. Shakuriy edi.

O'zbek pedagogikasi tarixi turli oqimlar, jarayonlar ta'sirida rivojlanib keldi. hozirgi zamon ta'lim-tarbiya kontseptsiyasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, yuksak

umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiy topib bormoqda. Bu Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi «Ta'lim tog'risida»gi qonunlarida ko'rsatib berilgan. Ushbu qonunlar milliy tajribaning tahlili, ta'lim tizimi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangani hamda yuksak umumiy va kasb – hunar madaniyatiga ijodiy, ijtimoiy faollikka, ijtimoiy – siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'la bilish mahoratiga ega bo'lgan istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir. Yosh kadrlarni yangi avlodni shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Milliy dasturning maqsadi, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iborat. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, milliy mafkurada «gap milliylik haqida ko'p gapirishda emas, balki milliylikni asosini tashkil qiluvchi tabiiy omillarni ishga tushirishda».

Ta'limning yangi texnologiyasida milliy ta'lim modeli markazida turuvchi shaxsni ma'naviy amaliy kamoloti bilan boshqa bo'g'inlar orasidagi xaqiqiy o'zaro rivojlantiruvchi omillarni funktsional jarayonlar tashkil etish asosida ishga tushirish lozim. Bu ishlarning milliy g'oya, milliy mafkura asosida ma'naviy insoniy yo'naltirilishi haqida Prezidentimiz I.A.Karimov 2000 yil iyun oyida «Fidokor» gazetasi muxbiri bilan «Donishmand halqimizning mustahkam irodasiga ishonaman» mavzusidagi muloqotlarida: «endigi eng dolzarb vazifamiz – bu jarayonlarning ilmiy – nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukammal ochib berish va ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol – jo'shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat» degan edilar. Bu ishni amalga oshirish uchun esa ta'lim mazmuni, uning tuzilishi, ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, talabalarning faoliyatlarida o'zgarishlar bo'lishi lozim. har bir o'quv fani bo'yicha ta'limning mazmunini strukturasiga ta'limning amaliy - mahsuliy faoliyati olib kirilishi kerak. Bu mutlaqo mustaqil ish formasida emas, yoki boshqa adabiyotlardan o'rganish emas. Bu o'quv fani dasturidagi shunday bo'g'inki, uni amaliy ijodiy faoliyatida to'lg'azish mumkin. Bu bo'g'inni auditoriyada o'tish ham mumkin emas. Bu bo'g'in har bir fan o'qituvchisi tomonidan o'quv fanining amaliy ijodiy ob'yektlarida bajariladigan fan qilib tanlanadi. Bu o'quv fani yoki hayotiy yangiliklarni olib keluvchi bo'g'in bo'lishi kerak.

Ta'limning tarixiy xususiyatlari. Ta'lim mazmuni tarixiy xususiyatga ega, chunki u jamiyat rivojining u yoki bu bosqichida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. Bu ta'lim mazmunining ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish va ilmiy bilimlarning rivojlanish darajasi talablari ta'siri ostida o'zgarib borishini anglatadi. Ta'lim ijtimoiy hodisa sifatida odamlarning bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan pragmatik (amaliy) ehtiyojlari negizida shakllangan va u odamlarga hayot faoliyatlarini yo'lga qo'yish uchun zarur. Bilimlarni to'plash va chuqurlashtirish, jamiyat madaniyatining o'sib borishi bilim tomonidan tashkil etiluvchi funktsiyalari ko'lamini oshishini ta'minlaydi. Mazkur yondashuvlar (pragmatik va madaniy) kishilik jamiyatining turli bosqichlarida ta'lim mazmuni yo'nalishlarni belgilab keladi.

O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy (1878-1934 yillar) o'zining «Turkiy guliston yoqud axloq» nomli asarida «... bilim bizning aqlimizni va bizning xotiramizni qilich

kabi o'tkir qiladi. Bilim, fanni egallash taraqqiyot yo'lida bizning ilgari qadam tashlashimiz shartidir.... Bilimsiz odam bu mevasiz daraxtga o'xshaydi» - deb yozadi. Shu bilan bir vaqtda A.Avloniy fanni o'zlashtirishga faqatgina hayoliy amaliyoti uchun utilitar (foydali) yaroqliligi nuqtai nazaridan yondoshish mumkin emas deb hisoblaydi. U hayot bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan bilimlar ham bor va ular amaliy bilimlardan kam bo'lmagan ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Misol uchun qadimgi tarixdan amaliy faoliyatda foydalanib bo'lmaydi, lekin uni o'rganish kerak va foydalidir: uni (tarixni) bilish o'quvchilarning bilimlarini kengaytiradi, dunyoqarashni shakllantiradi.

Sharq mutafakkirlari va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida. Jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakkirlari hamda G'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni, u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida, o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvoffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqтира olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.⁴

Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, «mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va qavqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. ... Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir».⁵ Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: «Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin.

⁴ Rahimov S. Abu Ali Ibn Sino. Ta'lim va tarbiya haqida. – Toshkent, O'qituvchi, 1967. – 75 bet

⁵ A.Navoiy Maxbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13tom, - Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 189-190-betlar

Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o'rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta'kidlab, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur»,⁶ - deydi.

Ta'limning gnoseologik asoslari. O'quv jarayonini mantiqiy qurilishi ta'lim mazmunining xususiyatlari va gnoseologik jihatlariga bog'liq.

Gnoseologiya (yunoncha - «gnosis» («gnoseos»)- bilim, ong, o'rganish, logiya -fan, ta'limot) - bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot.

Ijtimoiy taraqqiyot tarixida insonning atrof-muhitni bilishi umumiy tuzilishiga va bosqichlariga turlicha yondoshishlar ma'lum. Ana shu yondoshishlar o'quv jarayonini qurish va ta'lim mazmunini tushunish mantiqini belgilab beradi.

Muhammad al-Xorazmiy (9 asr) bilish nazariyasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. U birinchi bo'lib koinot ob'jektlarining harakatlari hamda yerdagi nuqtalarining joylashishini jadval ko'rinishida aks ettirib, tajriba-kuzatish va tadqiqotlar metodlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi, yagonalikning birligi tamoyili, shuningdek, alohida va umumiy, induksiya va deduktsiyalarning mohiyatini aniqlashtirdi; matematik masalalarni echishning algoritmik metodini ishlab chiqdi. Bu metoddan bugungi kunda ham foydalanib kelinmoqda.

Al-Kindiy (9 asr) ilmiy bilishning uch bosqichli kontseptsiyasini ilgari suradi. Alloma insonning bilishini: sezgiga oid va ratsional bilish tarzida ikkiga ajratadi. Sezib bilishning predmeti va ob'yekti barcha jism va moddiy narsalar hisoblanadi. Kindiyning fikricha, sezib bilish aql uchun muhim materialni beradi. Faqatgina aql tashqi dunyo haqida haqiqiy bilim va tushunchani ishlab chiqishga qodir, - deb hisoblaydi Kindiy.

Abu Nasr Forobiy (X asr) Kindiy g'oyalarining mohiyatini aniqlashtiradi. Biror narsani bilishga intilgan inson avvalo uning ma'lum holatini o'rganadi, o'zlashtirganlarini o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlarga yo'naltiradi. Alloma fanlar klassifikatsiyasi, shuningdek, bilish faoliyatini tashkil etishga oid tavsiyalarni ishlab chiqadi. Yaxshi nazariyotchi bo'lish uchun deydi, - Abu Nasr Forobiy, -qaysi fan bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar quyidagi uchta shartga amal qilish kerak:

- fan asosida yotuvchi barcha tamoyillarni yaxshi bilishi;
- ushbu tamoyil va ma'lumotlar asosida zarur xulosani chiqarishi, ya'ni, mulohaza yuritish qoidalarini bilishi kerak;

⁶ A.Navoiy Maxbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13tom, - Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 192-193-betlar

- xato nazariyalarni isbotlab berish va boshqa mualliflar fikrlarini tahlil qilishni, shuningdek, haqiqatni yolg'ondan ajratish va xatoni tuzatishni bilishi zarur.

Abu Rayhon Beruniy, bilishni uzluksiz, to'xtovsiz davom etadigan jarayon sifatida tushunadi. Allomaning fikricha, insoniyat borliqning haqiqiy mohiyati, hozircha noma'lum bo'lgan jihatlarini kelajakda bilib oladi.

Abu Ali ibn Sinoning, bilish nazariyasida sabab haqidagi ta'limot alohida o'rin oladi. U sabablarni aniq, sezish asosida anglanadigan va yashirin, tashqi holatlarini tahlil etish asosida tushuniladigan sabablarga ajratadi va hodisaning mohiyati uning yuzaga kelish sabablarini aniqlash yo'li bilan anglanishi mumkin, deb hisoblaydi. Alloma ushbu gnoseologik qoidani o'zining tabiblik amaliyoti, kasalliklarni ularning simptomlari bo'yicha va dorilar ta'sirini kuzatish asosida aniqlagan.

Sharqdagi Uyg'onish davrida (9-11 asrlar) arab, musulmon madaniyatining Yaqin va Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati bilan birlashishi asosida alohida sinkretik (yunoncha sinkretismos - birlashish, yaxlitlik, qo'shilish) madaniyat birlashgan turi yuzaga kelgan. Allomalar Muhammad al-Xorazmiy (787-850 yillar), Abu Nasr Forobiy (870-950 yillar), Al-Kindiy (800-870 yillar), Abu Rayhon Beruniy (973-1050 yillar), Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) va boshqalar uning asoschilari sifatida mashhur bo'ldilar. Bu madaniyatning asosiy markazlari Suriya, Eron, Markaziy Osiyo hududlarida joylashgan. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida ta'lim usullari, qoidalari, tamoyillari, metodlari va shakllari asosida ta'lim amaliyotining mohiyatini ifoda etadilar. Biroq ta'lim masalalari bilan ular maxsus va izchil shuqullanmaganliklari bois maxsus didaktik nazariya yaratilmadi. Ta'limni ular fan sifatida emas, boshqa fanlarga o'rgatish san'ati, hunarmandchilik sifatida tushundilar. Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan qoida, usul va tamoyillarning aksariyati zamonaviy maktablarda ham qo'llanilmoqda.

Sharq allomalari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Kindiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Musliqiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham ta'limning ilmiyligi, ongliligi, ko'rgazmaliligi, tushunariligi, ketma-ketligi, muntazamligi, moslashuvchanligi va mustaqilligi, shuningdek, bolaning individual xususiyatlari, layoqati va qobiliyatlarini hisobga olish, ta'limni insonparvarlashtirish kabi qoida va tamoyillarini ifoda etib berganlar.

Komil insonni shakllanirish masalasi barcha davrda ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta'kidlansa, islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra yetuklikning bosh mezoni - ilmlilik, bilimli bo'lishdir.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham komil inson qiyofasining yoritilishiga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy komil insonni shakllantirish va fozil jamoa (yetuk jamiyat)ni shakllantirish tarbiyaning bir butun, yaxlit ikki yo'nalishi ekanligiga urg'u beradi. Allomaning fikricha, fozil jamiyat komil inson sa'yi-harakati bilan barpo etilishi mumkin. Shu bois mamlakatni boshqaruvchi shaxs o'zida eng oliy insoniy fazilatlarni mujassam eta olishi zarur, deb hisoblaydi. «Aql ma'nolari tog'risidagi» risolasida Abu Nasr Forobiy rahbar shaxs qiyofasida namoyon bo'lishi lozim bo'lgan o'n ikki fazilatni keltirib o'tadi. Bizning fikrimizcha, mazkur fazilatlar har bir zamonaviy shaxsda o'z aksini topa olishi kerak, zero, ular inson hayotini

mo'tadil kechishi hamda muayyan kasbiy faoliyatlarni tashkil etishda muvaffaqiyatlarga erishishni kafolatlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ham komillikning asosini ilmi bo'lishda deb hisoblaydi va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir, deya urg'u beradi. Allomaning fikricha, axloqiylik, to'g'rilik, odillik, tadbirkorlik, o'zini vazmin tutish, kamtarlik, insof, ehtiyotkorlik, shuningdek, adolatli va vijdonli bo'lish komil inson qiyofasida aks etishi zarur bo'lgan eng asosiy sifatlardir. Abu Ali ibn Sino ham kamolotga erishishning birinchi mezon sifatida bilimli bo'lishni alohida qayd etadi. Bilimli insonning adolatli bo'lishi esa uning yanada yuksalishini ta'minlaydi, deya baholab alloma, adolatni ruhiy lazzat (ruhiy xotirjamlik)ning muhim ko'rsatkichi ekanligini uqtiradi.

Alisher Navoiy asarlarida komil inson muammosi markaziy o'rinni egallaydi va o'z orzusidagi komil inson shaxsini asarlarining qahramonlari timsolida gavdalandirishga urinadi. Mutafakkir qarashlarida komil inson quyidagi sifatlarga ega bo'lishi borasidagi g'oya ilgari suriladi: aqlli, axloqli, bilimli, ijodkor, qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar, saqovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sog'lom, jismonan baquvvat, mard va jasur.⁷

Abdulla Avloniy komil insonni tarbiyalash borasidagi qarashlari bilan Sharq mutafakkirlarining fikrlarini boyitar ekan, komil inson qiyofasida, yana shuningdek, vatanparvarlik, hamda intizomlilik sifatlari ham namoyon bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Alloma millat taqdirining jonkuyari sifatida milliy til taraqqiyoti jamiyat ma'naviy rivojini ta'minlovchi asosiy omil, deya baholaydi.

Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roliga alohida e'tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o'zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta'sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo'lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta'kidlaydi. Bolani yomon ta'sirlardan saqlash zarurligini uqtiradi.

Shuningdek, alloma o'qitish samaradorligini ta'minlashda bolalarga jamoa asosida bilimlarni berishni maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, inson boshqalar bilan munosabatda bo'lish, ularning yordami va qo'llab-quvvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo'lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga yetaklaydi, deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o'zaro yordam, hamkorlik, odamlarga nisbatan xayrixohlik uning ijtimoiy muhitdagi roli va o'rnini belgilab beradi.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlar, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

⁷ Xoshimov K. Pedagogika tarixi Oliy o'quv yurtlari va universitetlar talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent, O'qituvchi, 1996, - 191-bet

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi. Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi». Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqqolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm aqllilarini hurmatlashi o'sha iqqolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm aqllini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi».

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga xikmat - donishmanlik deyildi».

Yusuf xos Hojibning «Qutadqu bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi tog'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida xatto osmon sari yo'l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidir,
Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish yetakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm-ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Safar dar vatan»g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda xosil bo'lgan ilm puxta va mustahkam bo'ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o'zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to'xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zero, ilm bizga o'z axvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt

kabidur»⁸. Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg'u beradi: «Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, ximmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur»⁹.

Erkka intilish, ozod yashashga bo'lgan ehtiyoj insonga xos bo'lgan tuyg'udir. Inson o'z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. Shu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu g'oyalarni ifoda etuvchi ta'limotlarning bosh mavzusi bo'lib kelgan. Chunonchi, Hadisi Sharifda Vatanni sevish iymondan ekanligi ta'kidlanadi.

Alisher Navoiy quyidagi misralarda Vatandan ayrilish inson uchun og'ir judolik ekanligiga urg'u beradi:

G'urbatda harib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish,
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulga tikondek oshiyon bo'lmas emish.

Allomaning fikrlarini rivojlantirgan holda vatandan judo bo'lish og'ir judolikkina emas, balki «yuzi qaroliq» ekanligini Zaqiriddin Muhammad Bobur quyidagicha ifodalagan edi:

Tole yo'qi jonimga baloliq bo'ldi,
Har ishniki, ayladim - xatoliq bo'ldi.
O'z yerni qo'yib hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qaroliq bo'ldi.

Abdulla Avloniy o'z asarlarida «Vatan» tushunchasiga ta'rif berib, uning ravnaqi uchun kurashish vatanparvar insonga xos xususiyat ekanligi quyidagicha qayd etadi: «Har bir kishining tug'ulub o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. har kim tug'ilgan, o'sqon yerini jonidan ortiq suyar. xatto bu vatan hissi – tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan - uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohatda yashamas. ...Biz turkustonliklar va vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, eskumular shamol taraflarini, eng sovuq va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyod suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab xijrat qilur edi»¹⁰.

Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va

⁸ A.Avloniy. Odob bo'stoni va axloq gulistoni. – Toshkent, O'qituvchi, 1994, -10-bet

⁹ A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, O'qituvchi, 1992. 22-23-betlar

¹⁰ A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, O'qituvchi, 1992. 230-bet

kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarur ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari «Avesto», Kaykovusning «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya», Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk», Yusuf xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan.

Mana shunday ertaklardan biri «Aql va boylik» ertagidir. Bunda chol to'rt o'g'liga qarata «Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib qoladi», degan so'zlariga o'g'illaridan biri zumrad ko'zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa qimmatbaho kamarini ko'rsatadi. Kenja o'g'il esa otasining savoliga «Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor», - deydi va otasi uni oila boshlig'i qilib, uy-ro'zg'orini meros qoldiradi.

Ko'rinib turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g'oyani ilgari surgan.

Faqat ertaklarda emas, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik, mehnatda hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan. Maslan:

Daryo suvini bahor toshirar, Inson qadrini mehnat oshirar.

Oltin o'tda bilinar, Odam mehnatda.

Mehnatda do'st ortar, g'iybatdan dushman, kabi maqollar shular jumlasidandir.

Yusuf xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so'zlab, ularning jamiyat hayotidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta'riflaydi.

Dehqonlar mehnatini ulug'lash bilan birga, hunarmandlar haqida ham «juda zarur kishilardir ... temirchi, tikuvchi, etikdo'z, suvchi, egarchi, toshchi, o'qchi, kamonchilarning foydasi katta. Ularni sanay berib ko'zim uzayib ketdi. ... Bu dunyoga ular yaxshilik keltiradilar, Ular juda ko'p ajoyib narsalarni ishlaydilar», - deb o'zining xayrixohligini bayon etadi va hukmron doiralarga mehnatkashlar bilan munosabatda bo'lish shartlari xususida o'z tavsiyalarini bayon qiladi.

Dehqonlarga nisbatan:

Bularga qatilqil, harilqil o'zun

Tilin yo'qshi sozla, achuq tut yuzun.

(O'zing bular bilan aralashgin, qo'shilgin,

Tilda yaxshi so'zla, yuzingni ochiq tut).

Hunarmandlarga nisbatan:

Keraklik kishilar ema bu sena,

Yo'qo'n tut bularo'q tosulqay tona.

(Bular ham senga kerakli kishilardir,

Bularni yaqin tut, foydasi tegadi (ey) baqodir)¹¹.

Yusuf Xos Hojibning mehnat ahli haqidagi bu fikrlari haqiqatan ham ularga nisbatan hurmat va ehtiromni anglatadi. Yusuf xos Hojibning mehnat tarbiyasiga oid progressiv qarashlari tarbiyaviy jihatdan diqqatga sazovordir.

16-asrning yirik mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug'lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari «Hayratul abror», «Farxod va Shirin», «Mahbub-ulqulub» asarlari ham mavjud. Alisher Navoiyning xaqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik deb ko'rsatadi. U «Hayratul abror»ning beshinchi maqolatida kishilarning saxovatiga ko'z tikishdan ko'ra o'z qo'li bilan hayot kechirish ulug'roq va oliyjanobroq ekanligini «Hotam Toyi» hikoyatida keltiradi.

Hotam Toyi bir kuni qo'y-qo'zilar so'ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So'ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o'tin ko'tarib kelayotgan bir chol uchraydi. Hotam Toyi unga «Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og'ir yukni, Hotam to'yiga borib ziyofaida izzat ko'rgil», - deydi. Shunda chol kulib: «Ey, oyog'iga xirs band solgan, g'ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin», - deb javob qiladi.

Hotam Toyi cholning bu so'zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun kechirishi uning qimmatidan baland ekanligini anglaydi.

Alisher Navoiy mehnatning insonni go'zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, «Farxod va Shirin» dostonining asosiy qahramoni Farxod ana shunday qahramonlar jumlasidandir. Farxod Armaniston o'lkasiga qadam qo'yganda, o'z yurtida qorandan o'rgangan tosh yo'nish hunarini ishlatib, og'ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O'z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og'ir mehnatini yengillashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo'ladi. Farxodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o'z dostonining ikkinchi nomini «Mehmonnoma» deb ataydi.

Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarida esa turli ijtimoiy guruhlarining hayotidagi o'rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko'rsatadi. Dehqonlar tog'risida fikr yuritir ekan, «Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar. ... Olam ma'murliqi alardin va olam ahli masrurliqi alardin. harqayonki, qilsalar harakot, elga ham qut yetkurur, ham barakot»¹², - deb dehqonlarni, ya'ni, mehnatkash insonni ulug'laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinxo'rlarni, nojo'ya ish tutuvchi kishilarni, ochko'z va ta'magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.

Ma'rifatparvar shoir Furqat ham o'zining ma'rifiy she'rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritir ekan, har bir sog'lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da'vat etadi, hunarga mehr qo'ygan, uni o'rganishni da'vat etgan kishining jahonda qadri baland bo'lajagini uqtiradi.

¹¹ Yu.X.Hojib. Qutadg'u bilig (Saodatga yo'llovchi bilim) – Toshkent, Fan, 1971.659-bet

¹² A.Navoiy, Asarlar. O'n besh tomlik. Uchinchi nashr. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1977, 29-30-betlar

Pedagog-shoir Hamza Hakimzoda Niyoziy esa maktab yoshlarni ilimli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o'rgatishi kerak, - deb ta'kidlagan ekan, yoshlar ma'naviy fazilatlarining shakllanishida mehnatning rolini yuqori baholaydi. She'rlarida bolalarni ota-onalarining mehnati qadriga yetishga undaydi. Hamza Hakimzoda Niyoziy yoshlikda ilm olishning ahamiyati haqida gapirar ekan, «O'qi», «Kitob», «Qalam» kabi she'rlarida ilmni mehnatsiz egallab bo'lmasligi tog'risidagi g'oyani ilgari suradi.

U yoshlarga kelajakda o'z orzulariga yetishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Pedagogik masala:

Bir kuni o'qituvchilar o'zining butun umrini maktabga, ta'lim-tarbiyaga bag'ishlagan kishilar «pedagogik faoliyatning natijasi nimadan iborat», deya bahslashib qolishdi.

- Men sinfdan xursandman, sinfimda yomon o'qiydigan o'quvchining o'zi yo'q. Hammalari «men sendan zo'rman» deb o'qishadi. Oliy o'quv yurtlariga kiradiganlari xam ko'p, xali ko'rasizlar hammalari jamiyatda o'z o'rnilarini topadilar.

- Siz aytmoqchi, bitirib ketgan mening o'quvchilarim juda kuchli sinf edi. Ko'pchiligi yirik mutaxassislar bo'lib yetishganligidan faxrlanaman, - deya qo'shib qo'ydi boshqasi.

-Meni esa ular kelajakda qanday kishilar bo'lib yetishadi, keyingi faoliyatlari qanday bo'ladi, o'z farzandlarini qanday kishilar qilib tarbiyalab, voyaga yetkazadilar, degan savollar ko'proq tashvishlantiradi, - deya so'zini yakunladi uchinchi o'qituvchi.

1. O'qituvchilarning suhbatidan, o'quv va tarbiyaviy ishidan qanday xulosa chiqarish mumkin.

2. Siz-chi? O'z ishingizning natijasini nimalarda ko'rasiz?

Nazorat savollari:

1. Islom dinining muqaddas kitoblari "Qur'oni Karim" va Hadisi Sharifda ta'lim tarbiyaga oid keltirilgan so'zlarni ayting.

2. IX-XV asrlardagi ta'lim-tarbiyaga qaratilgan e'tibor qanday edi?

3. Mirzo Ulug'bekning podshohlik davrida amalga oshirgan tarbiyaviy ishlari haqida nimalarni bilasiz?

4. Sharq allomalarining ta'lim tarbiya ilmidagi izlanishlaridan misollar keltiring.

5. Mutafakkir Alisher Navoiy asarlaridagi ta'lim-tarbiyaviy fikrlarni aytib bering.

4-mavzu: Tarbiya jarayoni. Tarbiya turlari va metodlari.

Reja:

1. Hozirgi jamiyatda har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan shaxsni tarbiyalash – tarbiya maqsadi sifatida

2. Tarbiya jarayonining mazmun mohiyati.

3. Tarbiya turlari.

4. Pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar.

5. Oila, mahalla va o'quv yurti hamkorligi.

6. Zamonaviy ta'lim va tarbiya muammolari.

Ta'limiy maqsad: Tarbiya jarayoni tushunchasi va tuzilishi, tarbiya jarayoni mohiyati, tizimi hamda uning qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari va unga qo'yiladigan talablar tasnifi to'g'risida ilmiy bilim berish.

Tarbiyaviy maqsad: Shaxsning shakllanishida ta'lim-tarbiyaning va o'qituvchi faoliyatining o'rnini baholash.

Rivojlantiruvchi maqsad: yoshlarda kasbiy bilim, malaka va sifatlarni rivojlantirish.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Tarbiya – aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'sir jarayoni: shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy, madaniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli amaliy pedagogik jarayon. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Tarbiya metodlari - pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdidrish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir.

O'rgatish – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

Inson ongi – uning idroki, aqli orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir.

Tarbiyaning **maqsadi** – ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, rivojlanishi, yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Kadrlar tayyorlash milliy modelimizning bosh muddaosi – barkamol shaxs va intellectual salohiyatli mutaxassis tayyorlashdan iborat bo'lib, O'zbekistonning xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan, mustaqil fikr yuritadigan, tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda insonning ichki sifatlari barq urib kamolotga yetgan kadrlar tayyorlashni ko'zlaydi. Mazkur maqsadni amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri tarbiya jarayonidir. Tarbiyaning maqsad-natijasi barkamol avlodni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlikni, shuningdek, o'quvchi shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatishni taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi vazifani bajaradi, chunki, u ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari, mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan vazifalar tizimidan xabardor, tarbiya shakllari, metodlari va vositalarni asosli, ilmiy tarzda tanlab oladiva tarbiyaga tadbir etadi.

SHAXS		
Biologic omillar (irsiyat)	Ijtimoiy omillar (muhit)	Maqsadli tarbiya

Mamlakatning moddiy va ma'naviy yuksalishida xalqimizning boy ma'naviy merosga, umumbashariy qadriyatlarga, zamonaviy madaniyatga ega bo'lgan, har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan shaxsni tarbiyalash bugungi kunning

dolzarb muammosidir. Bu borada qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da barkamol avlodni shakllantirish va yuqari malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish bosqichlari, shu bilan birga yuqori malakali mutaxassilar tayyorlashni jahon ta’limi darajasiga ko’tarish asosiy maqsad qilib qo’yilgan. Bu vazifalarni amalga oshirish barkamol avlodni har tomonlama tarbiyalab voyaga yetkazishdek istiqbolli muammoni hal etishni ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi o’qituvchi-murabbiylar, shu yo’nalishda ijod qiluvchi mutaxassis olimlar, jamoat tashkilotlari, rahbar xodimlar oldiga qo’yilishi davr talabidir. **Prezidentimiz I.A.Karimov** ta’kidlaganidek, oldimizda turgan eng dolzarb va istiqbolli muammolardan biri – erkin fuqaro ma’naviyatini ozod va erkin shaxsni va shu asosda barkamol avlodni shakllantirish masalasidir. **“Boshqacha aytganda, - deydi I.A.Karimov, - biz o’z haq-huquqlarini taniydigan, o’z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo’layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg’un holda ko’radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak”.**

Yoshlarga har tomonlama puxta ta’lim-tarbiya berish, shu bilan birga milliy mentalitetni tiklashga qaratilgan milliy istiqlool mafkurasining mazmuni milliy turmush tarzimiz, xalqimizning qadim an’analari, ma’naviy axloqiy qadriyatlarimizni aks ettiradi. Milliy istiqlool mafkurasi: O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi; Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviyati, an’ana va udumlari, ulug’ bobokalonlarimizning o’lmas merosidan oziqlanadi; Adolat va xaqiqat, erkinlik va mustaqillik g’oyalari hamda xalqimizning ishonch va e’tiqodini aks ettiradi; Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi; Jamiyat a’zolarini, aholining barcha qatlamlarini O’zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi; Millati, tili va dinidan qat’iy nazar mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g’oyalariga sadoqat va o’zaro hurmat tuyg’usini qaror toptiradi; Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma’rifiy yo’l bilan singdiriladi. U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas’uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma’naviy mezondir. Bu O’zbekistonda istiqomat qiladigan va o’z taqdirini shu muqaddas zamin bilan bog’lagan har bir kishining «Vatanim menga nima berdi deb emas, men Vatanim ravnaqi uchun nima qilayapman» degan mas’uliyat tuyg’usi bilan yashashi kerak. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi plyuralizm, fikr va qarashlar erkinligi tamoyillarini to’liq ta’minlaydi. Asosiy qonunimizning 12 - moddasida bu qoida quyidagicha ifodalangan:

«O’zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o’rnatilishi mumkin emas».

Bu qoida O’zbekistonda faoliyat ko’rsatayotgan partiyalar, harakat va ijtimoiy-siyosiy guruhlardan birortasining dasturiy g’oyalari yagona davlat mafkurasi bo’la olmasligini anglatadi.

Mafkura inson tarbiyasini, shu asosda shakllanayotgan axloqi, bilimi, qobiliyati va iste'dodini belgilangan maqsadlar bilan bog'lash yo'lidir. hech qachon ta'lim-tarbiya ishlari muayyan mafkurasiz bo'lmagan, bo'lishi ham mumkin emas.

Diniy, dunyoviy tarbiyaning barcha tizimlari zaminida ham ma'lum mafkura yotadi. Mafkuradan xoli bo'lgan tarbiya haqida gapirish tarix tajribasini to'la bilmaslik yoki biror mafkuraning o'rniga boshqasini olib kirishga harakat qilishdir.

Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi jamiyat rivojlanishidagi yetakchi g'oyalarni o'zida mujassam etib, xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, ruhiyatiga, qadriyatlariga asoslanib, kelajakka bo'lgan ishonch tuyg'ularini tarbiyalaydi. Bu g'oyalar bilan qurollangan insonlar o'z orzu intilishlari yo'lida birlashadilar.

Tarbiya haqida tushuncha. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi. Yosh avlodni tarbiyalashda nimalarga e'tibor qaratmoq lozim. Bunday masalalarni hal etishda avvalo mamlakatimizda siyosiy-ijtimoiy sohalarda yuz berayotgan islohatlar mohiyatini chuqur va atroflicha mushohada qilib olishga to'g'ri keladi. Chunki davr ham, inson tarbiyasi ham o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, XXI asr insoniyat tarixida kompyuter davri bo'lib kirib keldi. Biroq, fan-texnika qanchalik jadal rivojlanib, jamiyat hayotida muhim joy olib, ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashuviga qanchalik samarali ta'sir etmasin, tarbiya nazariyasida shaxsni komil etib tarbiyalash, bu borada Markaziy Osiyo mutafakkirlari, xalq pedagogikasi hamda jahon pedagogikasining ilg'or fikrlariga tayanib ish ko'rish zarur bo'ladi. Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda birinchi navbatda Sharq mutafakkirlarining qimmatli ma'naviy meroslari muhim dasturil amal ahamiyatiga ega bo'ladi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Alisher Navoy va Zahiriddin Muhammad Bobur singari olamga mashhur allomalarining ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari barcha zamonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'z o'tmish madaniy merosini chuqur o'rganmagan va e'zozlamagan, ajdod-avlodlari bosib o'tgan tarixiy yo'lni idrok etmagan, milliy mustaqillik yo'lida jon fido qilgan buyuk ajdodlar faoliyatidan qabardor bo'lmagan inson o'zligini hech qachon anglab yetolmaydi.


O'tmish madaniy merosini o'rganish murakkab jarayoni sanaladi. Madaniy merosi namunalari va ularda ilgari surilgan ezgug'oyalarni yosh avlod ongiga singdirish uzluksiz, izchil, tizimli hamda maqsadga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

Tarbiya maqsadi va vazifalari. Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakatdan tortib to keng ko'lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Maqsadsiz, ma'lum g'oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo'lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Tarbiya maqsadi umumiy va individual xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ilg'or pedagogika umumiy va individual maqsadlar birligi va uyg'unligini namoyon etadi. Maqsad tarbiyaning umumiy ijtimoiy maqsadni ijobiy hal etishga yo'naltiriladi hamda aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, tarbiya maqsadi tarbiya jarayonini tashkil etish asosida hal etiladigan vazifalar tizimidir. Tarbiya maqsadlari mohiyati va ko'lamiga ko'ra umumiy va aniq vazifalar sifatida guruhlanadi. Tarbiya maqsadi qanday shakllanadi? Uning shakllanishida ko'plab ob'yektiv sabablar yetakchi rol o'ynaydi.

Tarbiya jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy shakli



Organizmning fiziologik yetilish qonuniyatlari, insonning ruhiy rivojlanishi, falsafiy va pedagogik fikrlar yutug'i, ijtimoiy madaniyat darajasi maqsadga umumiy yo'nalish beradi. Biroq asosiy omil doimo davlat mafkura va siyosati bo'lib qolaveradi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlarini tanlab, saralab olib, ularni ilmiy, madaniy-ma'naviy jihatdan kamolotga yerishishlari, zamonaviy fan-texnika asoslarini puxta o'zlashtirib olishlari uchun g'amxo'rlik qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining istiqboli nazarda tutilib, ko'pgina yoshlarning Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AQSh, Germaniya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilayotganliklari fikrimizning yorqin dalilidir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim tog'risida»gi Qonunini hayotga joriy etish, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash hamda umumiy tibbiyot muammolarini zamon talablari darajasida olib borish, maktablarni milliylashtirish, o'rta maxsus hamda oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini test usulida o'tkazish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar o'z samarasini bermoqda.

Jamiyat ma'naviyati va shaxs kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axloqiy poklik, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Barchasining asosida yosh avlodga oila, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va samarasi yotadi. O'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali

yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

Tarbiya mazmuni. Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti tog'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish)qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o'rin tutadi.

Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliyqobiliyat, mayillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o'zlashtirilishiga erishish;
- bilishga bo'lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;
- aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;
- bilishga bo'lgan faollikni kuchaytirish;
- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy o'rta ta'lim va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish.
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Muhammad alayhissalom o'z Hadislarida; **«Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Xitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir»** deydi.

Shuningdek, Hadisi Sharifda **«Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir»** deyilar.

Alisher Navoiy o'zining «Farxod va Shirin» dostonidan Farxodning aqlu-idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e'tiqodli bo'lganligini tasvirlaydi. Jismoniy tarbiya o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan, shuningdek, vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko'rsatmoqda.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, ularni to'g'ri jismoniy rivojlantirish;
- o'quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- ularning tabiiy harakatchanligini rivojlantirish va mukammallashtirish;
- o'quvchilarni harakatning yangi turlariga o'rgatish;
- ularning irodaviy sifatlari (kuch, chaqqonlik, uquvlilik va boshqalar)ni rivojlantirish;
- o'quvchilarning gigiyenik ko'nikmalarni rivojlantirish;
- ularda ma'naviy-axloqiy sifatlari (dadillik, qat'iyatlik, intizomlilik, mas'uliyatlik, jamoa bilan bo'lish)ni tarbiyalash;

- o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy va muntazam shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish; o'quvchilarning sog'lom va baquvvat bo'lishlariga erishish.

Jismoniy tarbiyani bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlardan biri sanaladi. Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda tashkil etiluvchi jismoniy mashg'ulotlar jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini ta'minlovchi qo'shimcha tadbir hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlari bilan mustahkam bog'langan hamda ular bilan birgalikda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish vazifalarini hal etadi.

Demak, yuqorida ta'kidlaganidek, yoshlarni aqliy jihatdan kamol toptirishning birinchi sharti ularni ilm olishga da'vat etishdir.

Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayondir. Axloqiy tarbiya ham ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiya asosini shaxsni ijtimoiy axloqiy me'yorlardan xabardor etish tashkil qiladi. **Axloq** (lot. «*moralis*» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllarida biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioyaqilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi.

Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar mazmunida o'z ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy Alisher Navoy va Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar tog'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi - kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatlaridir».

Amir Temur axloqi Xusniya - yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'lchab, bir kesgan. Imom Ismoil al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik - mana shu to'rt xislatni Olloq Taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir», degan edi. Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo'g'in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammalikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Abdulla

Avloniy ta'kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg'on kitobdir. Xuddi shu ma'noda axloq kishining xulq-atvori, e'tiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi. Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo'ladi. Suhbatdoshning ko'ngliga qarab gapiradi, kishining dilini og'ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi **mehnat tarbiyasi** sanaladi. Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad, avvalo, o'quvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir.

Mehnat ijtimoiy hayotning muhim asosi, shaxsda ma'naviy-axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning kafolatidir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. halol mehnat - kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi.

Xalqimizning «Mehnat - mehnatning tagi rohat», «Bugungi ishni ertaga qoldirma», «Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar», «Ishlagan tishlaydi, ishlagan kishnaydi», «Mehnatdan qo'rqma, minnatdan qo'rq», «Odamning xusni mehnat» kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Buyuk alloma Bahouddin Naqshbandning «Dil ba yoru, dast ba kor» degan xikmati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Allomaning fikricha, «Agar kishi hunarli bo'lsa, u bilimini haqiqatga bag'ishlaydi, o'z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bo'lmasa, bilimni kun kechirishga sarflaydi, halollikni unutadi». Ta'kidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boylik inson ruhiyatini buzadi, harqanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida kishilarda do'stlik, birodarlik, jamoa bo'lib ishlash kabi barcha tarbiyaviy sifatlarni shakllanadi. Eng muhimi, mehnat muhtojlik, bekorchilik, axloqiy jihatdan buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson o'zining va o'zgalarning qadrini biladi.

Ajdodlarmiz bola tarbiyasida, eng avvalo, uni mehnatga o'rgatish, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e'tibor berishgan. O'zlari farzandlariga mehnatsevarliklari bilan namuna bo'lganlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Krimov ta'kidlaganidek: «har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni, bu narsa ularning sobit qadam, g'ayrat-shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimizning ravnaq topishining asosiy shartidir».

Bu vazifalarni amalga oshirishda ota-ona, ustoz va murabbiy, keng jamoatchilik o'z mehnatini ayamaskliklari, ayniqsa, maktab o'quvchilarida mehnatga va mehnat ahliga to'g'ri munosabatni shakllantirishdagi mas'uliyatni chuqur his qilish kerak.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya: lot. «*estezio*» - «go'zallikni his etaman» ma'nosini bildiradi) shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda

turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish, to'g'ri tushunishni o'rgantish, ularning estetik didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi. Aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Estetik tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go'zalliklari va ularni anglash tog'risidagi bilimlarni berish; shaxsda ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go'zalliklarini anglash va idrok qilish qobiliyatini tarbiyalash,

- unda mavjud go'zalliklarniqadrlash hissi hamda estetik didni shakllantirish, go'zallikka muqabbat uyg'otish; go'zallikni yaratish ehtiyojini qaror toptirish, bu boradagi qobiliyat va estetik madaniyatni shakllantirish.

Estetik tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarida musiqa va tasviriy san'at darslari, adabiyot kabi fanlarning o'qitilishi estetik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish vositasi hisoblanadi. Estetik tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining oqirigacha amalga oshiriladi. Shu sababli, u nafaqat maktabda, balki sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriluvchi tadbirlarda, turli anjumalarda yosh avlodni go'zallik va nafosatni his etishga undovchi vositadir.

halqimizda, «Oq bo'lmasin, pok bo'lsin», «Pokliging – sog'liqing», «Sog' yuray desang, ozoda bo'l», «Yaxshi libos tanga oroyish» kabi maqollari bilan yoshlarimizni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarini ko'ra bilishga, ularni qadrlashga o'rgatib kelishgan.

Estetik tarbiya faqat narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, go'zal jihatlarini ko'ra bilishnigina emas, balki ichki go'zallikni his qilish xislatini ham tarbiyalaydi. Insondagi xulqiy go'zallikni qadriga etishga undaydi.

Alisher Navoiy o'zining «Farxod va Shirin» dostonida Shirinni zohiriy va botiniy go'zallik sohibasi sifatida tasvirlaydi. Bilamizki, uning bu darajaga etishishda holasi Mehribonuning tarbiyaviy ta'siri katta bo'lgan. Shirin mamlakat obodonchiligi, kanal qazish, suv chiqarish kabi ishlarda ishtirok etadi va usha xayrli ishlarga rahbarlik qiladi.

Shirin eng og'ir damlarda ham Farxodga vafodor, sadoqatli, irodali yor bo'lishi bilan birga tadbirli murabbiya, odil va donishmand davlat arbobi, komila, oqila va fazilatli, latofatliqiz edi. Shirinning bu fazilatlari minglab qizlarga o'rnak bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Estetik tarbiya tomonidan amalga oshiriluvchi vazifalarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

o'quvchilarga nazariy estetik bilimlarni berish;

ularda amaliy estetik ko'nikmalarni shakllantirish.

Nazariy va amaliy estetik bilimlarni egallash asosida o'quvchilarda quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi;
- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;
- estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo'lish;
- estetik tuyg'uning rivojlanganligi;
- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go'zalliklarini his etishi;

- go'zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi;
- estetik idealning shakllanganligi;
- fikrlash, faoliyat, xatti-harakat hamda tashqi ko'rinishda go'zal bo'lishga intilish.

Estetik faoliyatga kirishish vazifasi har bir tarbiyalanuvchining tasviriyl san'at, musiqa, geografiya to'garaklarida faol ishtirok etishi, ijodiy birlashmalar, guruhlar, studiyalar va xokazalarda qatnashishini nazarda tutadi.

Ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining xususiyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.


Tarbiya jarayonining mohiyati. Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning muhim xususiyati aniq maqsadga yo'naltirilganligidir. Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyalari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, ular tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (sub'yektiv va ob'yektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Sub'yektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, ob'yektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya maqsadi pedagogik faoliyat mazmuni, yo'nalishi, shakli hamda ob'yektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini taqozo etadi. Tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab yetakchi o'rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki bolalar ma'lum muddatgina maktab, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtning asosiy qismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'til davrlarida o'quvchilar maktab, o'qituvchi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta'siri va nazoratidan

uzoqlashadilar.



O'quvchilarga nisbatan maktab (ta'lim muassasasi)ning ta'sirini susaytirmaslik maqsadida, sinfdan va maktabdan tashqari hamda ta'til davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor beriladi. Ayni vaqtda, respublikada o'quvchilarning ta'lim-tarbiya muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar va xorijiy tillarni mukammal o'rganishlari, texnika va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuv, ko'rgazma, ko'rik va suhbatlar o'quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasi amalga oshirish uchun xizmatqiladi. Bizga ma'lumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtiriladi. Shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitdir, tizimlilik xarakteriga ega bo'lishi mumkin.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishi talab qiladi. Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, ya'ni, o'qituvchining o'quvchiga nisbatan ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzda tashkil etiladi. Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g'oyasiga muvofiq endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining ob'yektigina bo'lib qolmasdan, sub'yektiv sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda, mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi. Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati – tarbiyada qarama-qarshiliklarning mavjudligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar o'rtasida yoki o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, bu qarama-qarshiliklar ko'pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmasligidan, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchilar yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlari (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy va fiziologik sog'lomligi)ni yaxshi bilmasligi oqibatida kelib chiqadi.

Demak, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

- aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon;
- ko'p qirrali jarayon;
- uzoq muddatli jarayon;
- yaxlit tizimlilik jarayon;
- ikki tomonlama aloqa jarayoni;
- qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

Tarbiya - bu, avvalo insonshunoslik. Bolani bilmay turib uning aqliy rivojini, fikrlash, qiziqish, intilish, qobiliyat, imkoniyat va mayllarini bilmay turib tarbiya qilish mumkin emas.

Istiqlol mafkurasi xalqning orzu umidlarini, milliy qadriyatlarini, ota-bobolarimiz odob-axloqiy qarashlarini o'zida ifoda eta olsagina ta'sirchan va samarador mafkura bo'la oladi. Uning zamirida asrlar osha o'z qadr-qimmatini dolzarbligi va hayotiyligini yo'qotmagan ma'naviy, axloqiy ta'limotlar yotmoqi lozim.

Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ulug'bek, Navoiy, Bobur singari dunyoga dong'i ketgan, buyuk aql-idrok sohiblarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy meroslari yangi avlodni shakllantirishda ham boy ma'naviy xazina bo'lib xizmat qiladi. Fikrimiz isboti sifatida Abu Nasr Farobiyning tabiiy, ilmiy, ijtimoiy bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan asarlaridan biri – «Fozil odamlar shahri» asari ustida qisqacha to'xtalsak: IX asrda yozilgan bu asar, fuqarolik burchi, ota-onalarning o'z farzandi oldidagi majburiyatlari, rahbarlik uslubi, unda odillik va qat'iyatlilik masalalari shunday ifoda etilganki, undagi tarbiyaviy-axloqiy qarashlar bugunki kunda ham o'z qimmatini va dolzarbligini yo'qotmagan.

Sohibqiron Amir Temur - Temur tuzuklarida ko'rsatgan pandu-nasihatlar va uning davlatni boshqarishda adolat, insof, diyonat masalalariga ustuvor ahamiyat berganligi alohida qimmatga ega.

Temur o'z davrida o'g'ri, ishyoqmas, dangasalarga, fitnachi, yolg'onchi, manfaatparast, poraxo'r va insofsizlarga qarshi keskin kurash olib borgan. Bu jihatlar Respublika istiqlol mafkurasi tarkibini boyitishda ham qo'l keladi.

Shu o'rinda buyuk allomalar Imom Buxoriy, Bahoviddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Imom At-Termiziylarning insonlarga halol, pokiza yashashga, iymon va diyonatli bo'lishga, mehr-oqibatli bo'lishga undovchi diniy-axloqiy qarashlarga ham ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Inson ma'naviyatini nurlantirib, kamolot sari yetaklaydigan bunday bilimlarni talabalarning yoshi va idrokiga moslab, ishga kirishmoq lozim.

Tarbiya usuli-tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya usullarini tarbiya metodlari deb ham ishlatiladi.

«**Metod**» so'zi grekchadan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nosini bildiradi.

Ta'lim usullari singari tarbiya usullari ham alohida qismlarga bo'linadi. Usul va uslub bir-biri bilan o'zaro boqlangan holda pedagogik jarayon mohiyatiga ko'ra bir-biriga o'tib turishi mumkin.

Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi (ko'rsatmali qo'llanmalar, kitoblar, radio, televideniya). Bundan tashqari talabalar jalb qilingan faoliyat turlari-kinofilmlar, san'at asarlari, talabaning jonli so'zi, bolalar o'yini, sport, badiiy qavaskorlik to'garaklari va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin.

Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi-tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim.

Pedagoglar va ota-onalarning burchi farzandlarimizni va talabalarimizni Vatanga muqabbatli, iymonli, e'tiqodli, adolatparvar qilib tarbiyalash, shakllantirishdan iboratdir. Bunday fazilatlarni aks ettirish uchun xalqimizning uzoq yillardan beri shakllanib kelgan urf-odatlarining roli kattadir jumladan: ana shu urf-odatlar yoshlarni odob, xulq, axloq, madaniyat va ma'naviyatini shakllantirishda qo'l keladi. Yuqoridagi fikrlardan, chizgilardan ko'rinib turibdiki, inson ma'naviyatli bo'lishi uchun juda ko'p insoniylik bilimlari sarchashmasidan bahramand bo'lishi, o'z ustida tinmay izlanishi va hayotni kuzatib, undan saboq chiqarib borishi lozim.

Hayotni kuzatar ekanmiz insonning shakllanishida va rivojlanishida har xil urf-odatlarni ijobiy ta'sirlarini ko'rishimiz mumkin. Ayrim urf-odatlrimizdan erkaklarni o'ziga xos mardlik, jasurlik, g'urur kabi hislatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lsa ayollarda esa or nomus, hayolilik, iffatlilik, shirin zabonlilik kabi hislatlarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan. Biz tarbiya jarayonida ana shu meroslardan bevosita foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya usullari har bir talabaga, har qaysi talabalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka talaba yoki sinf jamoasi manfaati yo'lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilishi uchun talabalarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etish shakllari majmuasiga tarbiya metodi deyiladi.

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi, bu usul, vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan farq qiladi. Chunki bu usullar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).

Namuna (maslahat berish, zo'r so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).

Nasixat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va xokazolar).

Qoralash va jazo (ta'qiqlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish va xokazolar).

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya usullari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyaan vositalar orqali amalga oshirilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, qasharlar, gurunglar (choyxona, tuy marosimlari) sayllar, turli nishonlashlar (tug'ilgan kunni nishonlash, qizlar bazmi, yigitlar bazmi), musobahalar, marosim va shunga o'xshash tadbirlar o'ziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajargan. Tarbiya usullarini o'rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish. Ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga bo'lib olamiz: ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar; o'z-o'zini tarbiyalash usullari hamda rag'batlantirish usullari va jazolash usullari.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar. Bu guruhga talabalarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongli, hislari va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari kiradi. Bu guruh usullarining mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat talabalar ongiga qanday talablar qo'yayotgani etkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar ishlatiladi.

Suhbat. Talaba shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda talabaning jonli so'zi eng ta'sirli usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbligi, bolalarda axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlarini va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish lozim. Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin: etnik mavzular (kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o'zini tutish qoidalari), estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi), siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari), ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot dunyosi).

Hikoya. Talabalar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to'liq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Suhbat ham, hikoya ham talabalarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar orqali o'zbek tilida o'tkazilishi lozim. Eng yaxshisi suhbat va hikoya mavzularini talabalarning o'zlari tanlasin, bunda suhbatning zavqi ta'minlanadi, talabalar mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. Talabalar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarini ko'rishlari va namuna olishlari nihoyatda muhimdir.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofidagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarilishini kuzatib boradilar. Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-bobolarimiz o'z farazandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan: «Qush uyasida ko'rganini qiladi». Juda oddiy jo'ngina xulosa. Shu oddiy ibora ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligini hamisha ham faqmgiga boravermaydilar. Bu bilan xalq, uyingda tartibli bo'l, aks holda bolang ko'chada tartibsiz bo'ladi. Bola oldida birovlarining g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi, demoqchi.

Bunga o'xshash fikrlarni ko'plab keltirish mumkin. Bola rivojlanishining, o'zligini belgilashning asosiy omili- bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondashish qoidasi ta'lim-tarbiya jarayoniga singib ketadi.

Faoliyat talabalarni bilimlarni mustaqil egallashga undaydi, ularni qaysi ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Mashq va o'rgatish usullari.

Mashq bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikda tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish talaba uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko'nikma, odat, yangi bilimlar xosil qilinadi, talabaning aqliy qobiliyati rivojlanadi, axloqiy tajribasi kengayadi. Odatsiz tarbiya-poydevorsiz binoga o'xshaydi, odat esa muntazam mashq orqali mustahkamlanadi.

O'rgatish-ijtimoiy xulq-atvorning odatiy shaklga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

Topshiriq. Talabalarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. Talabalar o'z kuchlarini ommaviy ishlarga sarflashga, jamoa uchun ma'suliyatni his qilishga o'rganadilar.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab-bu talabaning turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; u yoki bu harakatda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi; oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini tarbiyalash usullari.

Talabada o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi. Talabalarni, ayniqsa, o'rta va katta yoshdagilarni o'z bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga yo'llash kerak.

O'z-o'zini tarbiyalash talabalarning o'zini-o'zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavqeini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. Talabalar o'hishda, tarbiyada, dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko'rsata boshlagan vaqtda paydo bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalashda (axloqiy, jismoniy, hissiy-irodaviy va intellektual) maslahat va ko'rsatmalar berilishi lozim.

O'z-o'zini tahlil qilish. O'z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-harakatlari haqida o'ylashga o'rgatadi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun talaba o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z-o'zini baholash. Talabaning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlash zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin talabani bunga yetarli tayyorlash

mumkin. Shu bois talaba irodali bo'lishi, o'z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sabablar, motivlar asos bo'lishi, ya'ni taqsil va tarbiyalanishni xohlashi, o'zining, o'rtoqlarining, yaqin kishilarining ko'zi bilan ko'rish va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi lozim.

Rag'batlantirish va jazolash usullari.

Talaba yoshlarning har biri o'sib, ulg'ayib, kamol topib borayotganidan xursand bo'layotganini sezishi kerak. Faqat shundagina bola o'zining olg'a siljib borayotganini ko'ra biladi, o'z kuchiga ishonadi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, unga quloq solishadi, u jamoaga kerak, u o'qituvchisini qiziqtiradi. Bunga erishish uchun rag'batlantirish usulidan foydalaniladi. Chunki, rag'batlantirish bolaga ishonishga, unda bo'lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarning kuchini e'tirof etishga asoslangan.

Ta'lim maskanlari tajribasida rag'batlantirishning quyidagi turlari qo'llaniladi: Talabaning kuchi yetadigan, ma'suliyatli topshiriq berish orqali ishonch bildirish; bunda talaba o'z qadr-qimmatini bilan faxrlanadi;

Maqtash (ota-onalar, jamoa oldida);

Esdalik sovg'asi berish (kitob, ruchka, o'quv asbobi va boshqalar);

Maqtov yorlig'i berish;

Stipendiya bilan taqdirlash;

Hurmat taxtasiga fotosuratini qo'yish;

Qo'llab-quvvatlash;

Mas'uliyat va jamoaning minnatdorchiligi;

Safda birinchi o'rinda turish;

Musobaqalarda bayroq ko'tarish;

Gazetada, radioda e'lon va xokazo. Har qanday rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim.

Jazolash-bu tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo ham talabaning va butun guruh manfaati uchun qo'llanadigan oxirgi tarbiya usuli. Jazo choralari qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo'rqitish, g'azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, talaba qo'rqanidan yolg'on gapirishga o'rganadi, ikkiyuzlamachi bo'lib qoladi. Maktablarda qo'llash mumkin bo'lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:

Tanbeh berish - eng yengil jazo chorasidir. O'qituvchi bolaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Ogohlantirish-noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

xayfsan berish-agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, talaba belgilangan intizomni buzaversa, talabaning aybi qay darajada va uning intizomini qanday sharoitda buzganini e'tiborga olib unga xayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda, odamda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa. Avvalo o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ta'riflab berilgan tarbiyaning umumiy usullari talabalarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sohalarining hammasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Tarbiya jarayonlarini aniqlang,
A) Yaxlit tizimlilik talablari, uzoq muddatli, ko'p qirrali jarayon
B) Ikki tomonlama aloqa, qisqa muddatli jarayon, S) Faoliyat jarayoni
2. Tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Aqliy, axloqiy, jinsiy, B) Jismoniy, estetik S) Yuqoridagilarning hammasi
3. Tarbiya qonuniyatlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon, ko'p qirrali va uzoq muddatli, uzluksiz va yaxlit tizimli hamda ikki tomonlama jarayon,
B) Texnologik, dialektik, dinamik jarayon,
S) ijtimoiy munosabatlar va uzluksiz jarayon.
4. "Jadid" so'zi arabchadan olingan bo'lib qanday ma'noni bildiradi?
A) "Yangi", B) "Ilg'or", S) "Eski"
5. "Qur'oni Karim"da komillikning _____ tamoyili komillikka erishish uchun talab etiladi.
A) beshta, B) oltita, S) yettita

Pedagogic masala:

1. 5 sinfning yangi sinf rahbari ishni o'quvchilar jamoasini o'rganishdan boshladi. Kuzatishlardan, suxbatlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, tortinchoq kamtarin Dilshod o'quvchilar o'rtasida hammadan ko'proq hurmatga ega ekan, Farxod juda xam faol, xushchaqchaq ekan. Dilshod sinf sardori, Farxod esa zveno boshlig'i qilib tayinlandi.

1. Dilshod sinf sardori qilib noto'g'ri saylangan, Dilshod bilan Farxodni almashtirish kerak degan xulosaga kelish mumkinmi?

2. Bunday vaziyatda sinf raxbari o'zini qanday tutishi kerak?

3. Sinf faollarini tez-tez almashtirish mumkinmi? Bu sinf jamoasiga qanday ta'sir qilish mumkin?

2. Farosat uchun maosh

Bir savdogarning ikki mirzasi bor ekan. Savdo-tijorat ishlarida barcha yumushlarni har ikkalasi ham birdek bajarishar, savdogarga sidqidildan xizmat qilisharkan. Lekin maosh masalasida anchagina farq bo'lib, biri ko'p, biri esa ozroq haq olar ekan. Bu ahvol anchagina davom etibdi. Maoshi oz mirza ancha vaqt xojasining og'zini poylab yuraveribdi. Biroq savdogar bu haqda hech ham gap ochmas, har kuni odatdagi o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lar ekan.

Sabr kosasi to'lgan mirza bir kun payt topib yuragidagi dardini xojasiga to'kib solibdi.

Mana qanchadan beri indamay hamma ishlaringizni qilib kelyapman. Ishyoqmaslik qilib, biror vazifadan bo'yin tovlagan yerim yo'q. Anavi mirza bilan bajaradigan ishimizda shuncha kuzatib biror farqni anglay olmadim. Lekin maoshimiz nega turlicha ekanligiga aslo aqlim etmayotir, - debdi.

Xoja mirzaning so'zini eshitib miyig'da kulibdida, uning da'vosi to'g'ri ekanligini tan olibdi va bu haqda keyinroq gaplashajagini aytib, hozir zarur bir yumushni ado etib kelishini buyuribdi.

- Bosh ustiga! - debdi mirza tavoze bilan o'rnidan turarkan.

- Bo'lmasa eshiting - debdi xoja. - Karvonsaroyga Bog'doddan savdogarlar tushishibdi. Borib ulardan so'rangchi, bisotlarida baxmal matosi bormikan?

Mirza ko'ksiga kaftini qo'yib: «Xo'p bo'ladi», debdi va xojasi huzuridan chiqibdi. Hech qancha vaqt o'tmay, u karvonsaroyga borib kelibdi.

- Taqsir, bog'dodlik savdogarlarda baxmal mato bor ekan! -debdi.
- Rangi qanaqa ekan bilmadingizmi? - debdi xoja.
- Yo'q! Rangini so'ramabman.
- Rangini bilib keling! - deb buyuribdi xoja mirzaga.

Mirza yana karvonsaroyga qarab ketibdi va fursat o'tib yana xojasi yoniga kirib kelibdi.

- Bildim, taqsir! Rangini so'rab bildim! Pistamagiz ekan, baxmal rangi!
- Yaxshi, - debdi xoja.
- Baxmalning gazini necha so'mdan sotarkanlar Bog'dodlik birodarlar?

Tili lol mirza baxmal narxini bilib kelish uchun yana karvonsaroyga zing'llabdi va u erdan.baxmal narxini ham aniqlab kelibdi. Lekin xojasi tushmagur mirzaga yana: «Hammasi bo'lib qancha baxmallari bor ekan, bilmadingizmi?» - degan savolni ko'ndalang qilib, uni mulzam etibdi. Mirza baxmalning qancha ekanligini bilib kelish uchun yana karvonsaroyga junayotgan ekan, xoja uni to'xtatibdi.

- To'xtang, - debdi va ikkinchi mirzani chaqirtirib, birinchi mirzaga aytgan dastlabki topshiriqni aytibdi. Ikkinchi mirza ham karvonsaroyga qarab ketibdi va bir fursat o'tgach, xoja va birinchi mirza o'tirgan yerga kirib kelibdi.

- To'g'ri taqsir! Karvonsaroyga Bog'doddan savdogarlar kelishibdi. Bisotlarida baxmal matolari ham bisyor emish, - debdi.

- Rangi qanday ekan uning?
- Rangi pistamag'lz, sifati ham soz!
- Har gazini qanchadan deyishmoqda?

Ikkinchi mirza baxmal narxini ham aniq aytib beribdi. U xoja-sining «Hammasi bo'lib qancha baxmallari bor ekan?» degan savoliga ham aniq javob qilibdi.

Shu payldan xoja ikkinchi mirzaning xizmati uchun unga minnatdorchilik aytib, javob beribdi va birinchi mirzaga yuzlanibdi:

- Mirzam, endi tushungandirsiz, maoshingidagi farq sababini? Maosh belgilashda xodim farosati xam e'tiborda tutilur. Kishi farosatining maoshi bebahodir! - debdi.

Savol: 1) Mazkur hikoyat nima uchun shunday nomlangan? Fikringizni izohlab bering. 2) Mustaqil fikrlovchi inson bo'lib shakllanishda farosatning o'rni qanday? Sizning fikringizcha, xalq manfaatini ko'zlashda, vatan ravnaqini yuksaltirishda mustaqil fikrlash ko'nikmalari zarurmi? Javobingizni asoslab bering.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Tarbiya jarayonining mohiyati nimada?
2. Tarbiya jarayonining metodlari.
3. Tarbiya qoidalari.
4. Milliy sharqona tarbiya mezonlari.
5. Tarbiyada milliy urf-odatlarining roli nimada?
6. Tarbiya to'g'risida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniyning fikrlari mazmunini aytib bering.
7. Komil inson tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
8. Zamonaviy tarbiya deganda nima nazarda tutiladi?
9. Tarbiya va ta'limning o'zaro mushtarakligini tushuntirib bering.
10. Tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

Adabiyotlar: 1,2,3,4,5,7,10,17.

5-mavzu: Shaxs shakllanishiga turlicha yondoshuvlar.

Reja:

1. Bolaning rivojlanishida ruhiyat va tan aloqadorligi.
2. Shaxsning shakllanish omillari.
4. Rivojlanish qonuniyatlari.
5. Mehnat, ta'lim va o'yin.
6. O'quvchi shaxsini shakllanishida jamoaning o'rni.
7. Ijtimoiylashuv, shakllanish, shaxsning shakllanishi, tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash.
8. Milliy tarbiyaning o'ziga xosligi.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Jamoa (lot. "kollektivus" – yig'ilma, omma, birlashma, guruh) – kishilarning istalgan maqsad asosida tuzilgan tashkiliy va uyushtirilgan guruhidir

Talabalarning o'z-o'zini boshqarish – bu pedagoglar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda talabalarni faol ishtirok etishidir.

Rag'batlantirish metodlari – o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zda tutadi.

Jazo berish metodlari – bu o'quvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.


Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Individ, shaxs, individuallik. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

Individ nima? Bola ma'lum yoshga qadar individ sanaladi. Individ (lotincha – «**individium**» so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi. Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida **shaxs** kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.



Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o'zi nima?

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar

yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir, Ular o'rtasidagi o'zaro munosabati qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar etakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim - bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Progmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi. Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb haraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar. Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga etadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi. Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud. Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi. Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar xosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham

yo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir. Shundayqilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxs rivojlanishida faoliyatni o'rni. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi. Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi - muloqotdir. Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish xosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi. Ta'lim jarayonida faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatining ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak. Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axloqiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir. Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish - uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi

turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchog'ligi yoki ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual - o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati») ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir. Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o'quvchilari bilan 10-sinf o'quvchisini tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

Go'daklik davri - chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.

Bog'chagacha bo'lgan yosh davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha.

Maktabgacha ta'lim yoshi - 3 yoshdan 7 yoshgacha.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar -7-11-12 yoshgacha.

O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar) 14-15 yosh.

Katta yoshdagi maktab o'quvchilari (o'spirinlar) - 16-18 yosh.

Kichik maktab yoshida o'yin faoliyatining o'rnini endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o'sishi tufayli serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan bo'ladi. Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha va ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o'quvchilariga emotsionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo'ladi, his-tuyg'ulari mazmuni o'zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar.

O'rta maktab yoshi (o'smirlik 12-15 yosh). O'smirlikning murakkabligi anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davrni o'tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe'l-atvoriga ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi pasayadi, intizomi bo'shashadi.

Hozirgi davr o'smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to'garaklar, studiya, sektsiya, turli tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o'qishga qiziqishi ortadi. O'z-o'zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o'zini

boshqalar bilan solishtira boshlaydi. Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda o'smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'ladi. Bu o'smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar - yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi. Lekin o'smirlarning hammasida ham bilishga qizihish darajasi yuqori emas. 38 foiz o'smir qech qaysi o'quv fanlarini o'qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o'quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o'quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kichik yoshdagi o'smirlar qiziqishi o'qituviga bog'liq. Lekin ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o'qishlari ham barqaror emas. Turli to'garaklarga 21 foiz o'smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug'ullanadi. 40 foiz o'quvchida sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo'q.

Eng muhim qiziqish – teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o'smir tomosha qiladi. Ular oddiy kunni o'z ixtiyorlari bilan qanday o'tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz o'smir vaqtini o'z holicha o'tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko'radi, 50 foizi sport bilan shug'ullanadi, 45 foizi uxlab yoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga bordigan o'smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi. O'smirlarda biror narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun maktab hayoti - qiyin vazifalarga to'liq bo'ladi.

Bu yoshda o'smirlar kattalar oldida o'zining erkinligini namoyish yetishga harakat qiladi. O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan talab o'sadi. Dangasa, qo'pol, bee'tibor, qobiliyatsiz degan kattalarning baholarini ular og'rinib qabul qiladilar. O'smir yoshida o'g'il va qiz bolalar o'rtasida farq kuchayadi. 3 sinfdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e'tibor berish lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash natijasida o'g'il bolalar kuchli, erkin, e'tiborli, jasur; qizlar esa o'ta ko'nikuvchan, kamtar va jiddiy bo'la boshlaydilar. Shuning uchun o'smirlarga o'z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13-14 yoshgacha o'smirda burch hissi, mas'uliyatni his etish, vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Muhimi, o'smir shaxsini hurmat qilish, kamsitmaslik, katta bo'lib qolganligini tan olish zarur.

Katta maktab yoshi - kollej, litsey o'quvchilari (o'spirinlik davri 15-18 yosh). Bu davr o'spirinlarning ilk balog'atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi. his-tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan eqtiyoj kuchaya boradi. O'spirinlik bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali qo'r fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi. Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo'ladi. O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi.

Axloqiy muammolarni o'zqarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'zqiziqishlari bilan o'lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg'araz, to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir. Albatta, bu borada ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Chunki o'spirin-yoshlar mustaqil hayot ostonasida bo'lib, ularning bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo'lishining muhim shartidir.

Shaxsning ijtimoiylashuvi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muqit ta'sir ko'rsatadi. Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud. Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin.

Zero, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

Irsiyat deganda, bolaga ota-ona va umuman yaqin ajdodlardan, ya'ni nasldan-naslga o'tadigan biologik xususiyat va o'xshashliklar tushuniladi. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalarining fikricha, odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi, rivojlanish esa ana shu xususiyatlarning miqdoriy ko'payib borishidan iboratdir. Odam shaxsining va xulqining rivojlanishida biologik omillarning ta'sirini yuksak baholab, shaxsni naslga bog'lab o'rganuvchi oqimlardan yana biri bixeviorizm bo'lib, u XX asrning boshlarida psixologiya fanida keng tarqaldi.

Biogenetiklar (Bolduin, Chamberlen, Stenli, Xoll va boshhalar) XX asr boshlarida bolaning ruhiy jihatdan o'sishini zoologlar F. Myuller va E. Gekkellar

tomonidan kashf qilingan biogenetik qonunlar asosida boradi, degan fikrni olg'a surdilar.

Avstriyalik ruhshunos K. Byuller xatto bolaning axloqiy jihatdan o'sishini ham irsiyatga bog'laydi. Boshqa chet el psixologlari bolaning ruhiy taraqqiyotida tana tuzilmalaridagi endokrin apparati (ichki sekretiya bezlari) dagi o'zgarishlar va xokazolar kata ahamiyatga ega, deb biladilar.

Ayrim pedagog va psixologlar orasida bolaga boshqacha qarash ham mavjud. Ularning fikricha, insonning kamoloti ikki omilga-irsiyat va ijtimoiy muhitga bog'liqdir. Irsiyat o'zgarmaydi, ijtimoiy muhit ham hamma davrlar uchun o'zgarmaydi.

Irsiyat bor va biologik omillarni inkor etolmaymiz. Lekin irsiyatni mutlaqo o'zgarmas deb ham tushunmaslik kerak. Antropologiya fani yutuqlariga asoslanadigan bo'lsak, tarixiy-ijtimoiy taraqqiyot natijasida odamning anatomik-fiziologik belgilar (odamning kalla suyagi, qo'li, oyoqlari, aqliy qobiliyatlari ham) o'zgarishi mumkin. Bu o'zgarishlar avlod-dan-avlodga o'tadi va tobora mustahkamlanib boradi. Demak, bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri, deganda ota-onaga, avlod-ajdodlarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarni takrorlanishini tushunmoq kerak. har bir bola ota-onasidan meros sifatida biologik ko'rinishlarga (tananing tuzilishi va uning mutanosibliigi, sochini, ko'zining, terisining rangi, bo'y-basti va boshqalarga) ega bo'lib dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Shuningdek, oliy nerv faoliyatining ko'rinishlari (xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik) ham tug'ma o'tadi, bu fiziologik xususiyatlardir.

Fiziologiya va psixologiya fanining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyati bilan emas, balki biror-bir qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishi manbai layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, u go'yo «mudroq» holatda bo'lib, uning uyg'onishi - rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Muqit deganda kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealarning yig'indisini tushunamiz. Bunga tabiiy muhit (geografik), ijtimoiy muhit, oila muhiti (mikromuhit) va boshqalar kiradi va ular bolalarning rivojlanishiga alohida ta'sir etadi.

Boladagi irsiy belgilarning o'sishi, kamol topishi insonlar muhiti, yashash sharoiti va tarbiyaga bog'liq desak bo'ladi. Bunga tarixda misollar ko'p. Alisher Navoiy onasidan-shoir, Eynshteyn-fizik, Ulug'bek-astronom, Ibn Sino-tabib bo'lib tug'ilmagan, albatta. Ulardagi qobiliyat kurtaklarining rivojlanishi, iste'dodga aylanishida ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya muhim rol o'ynagan. Odob, axloq, xulqiy sifatlar shaxsning barcha ruhiy sifatleri faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Shuning uchun irsiyat rivojlanishga ta'sir etadi, ammo hal qiluvchi omil bo'la olmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, yosh avlodni tarbiyalab yetishtirish-muqaddas burchimizdir. Lekin, ijobiy axloqiy xislatlarni tarbiyalab etishtirish oddiy, jo'n ish emas. U kunlab, oylab, yillab va xatto o'n yillab oliy maqsad yo'lida sabr-toqat, chidam va qat'iyatlilik, irodaviy sifatleri safarbar etishimizni taqozo etadigan insoniy vazifamizdir.

Bolalarni to'g'ri tarbiyalash, samarali o'qitish uchun bola rivojlanishiga doir o'zgarishlarni, yosh davrlariga xos xususiyatlarni bilish va hisobga olish lozim. Chunki ularning o'sishi, rivojlanishi ruhiy jihatdan taraqqiy etishi turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Agar o'qituvchi, tarbiyachi bolani har tomonlama tarbiyalashni

maqsad qilgan bo'lsa, u holda bolani har tomonlama bilishi lozim. Shuningdek, maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini ham egallagan bo'lmog'i kerak, bolaning yoshi, individual xususiyatlarini doimo o'sishda, rivojlanishda, o'zgarishda deb qarash va fikr yuritish lozim.

Tibbiyot, bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, psixologiyasi, pedagogika fanlari yutuqlari va ularning tavsiyalariga ko'ra bolalarning yosh davrlarini quyidagicha guruhlashtirish qabul qilingan.

Go'daklik davri – chaqaloqlik davri (tug'ilganidan to bir yoshgacha bo'lgan davr).

Yasli davri – bir yoshdan uch yoshgacha.

Maktabgacha tarbiya yoshi – uch yoshdan olti, yetti yoshgacha.

Maktab yoshidagi kichik o'quvchilar olti, yetti yoshdan, o'n bir o'n ikki yoshgacha.

O'rta maktab yoshi o'quvchilar (o'smirlar) o'n ikki yoshdan, o'n besh, o'n olti yoshgacha.

Maktab yoshidagi katta o'quvchilar (o'spirinlar) o'n olti yoshdan, o'n sakkiz yoshgacha.

Ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va ruhiy xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Hozirgi paytda Respublikamiz rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlarini tanlab, saralab olib, ularning ilmiy, madaniy-ma'naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamonaviy fan-texnika asoslarini chuqur o'zlashtirib olishlari uchun g'amxo'rlik qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining ertangi hayoti, porloq istiqboli nazarda tutilib, ko'pgina yoshlar Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AQSh, Olmoniya singari xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilishi fikrimizning isbotidir.

Respublikamizda «Ta'lim tog'risida»gi qonunni hayotga joriy etish, ta'lim-tarbiyani, sog'liqni saqlash ishlarini, umumiy tibbiyot muammolarini zamonaviy talablar darajasida olib borish, maktablarni milliyalashtirish, o'rta maxsus bilim yurtlari va oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini test usulida o'tkazish borasidagi ishlar ham madaniy-ma'naviy taraqqiyotimizda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti uchun bo'lgan ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. hammasining zahirida yosh avlodga oilada, umumiy ta'lim maktablarida, xalq ta'limi tizimining boshqa tarmoqlarida beriladigan ta'lim-tarbiya yotadi.

Umuman olganda, o'sib kelayotgan yosh avlodni zamonamiz ruhiga mos, barkamol inson bo'lishlari uchun, tarbiyaning tarkibiy qismlari (aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik tarbiya va politexnik ta'lim)ga yangicha nigoh tashlash va o'sha ta'limni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqmoq lozim.

Aqliy tarbiya barkamol inson tarbiyasining yetakchi tarkibiy qismi bo'lib talaba yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilg'ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglik xislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirishni maqsad qilib qo'yadi.

Aqliy tarbiyani shunday tashkil etish lozimki, toki talabalar aql-zakovatli, ob'yektiv dunyoni yaxlit idrok etadigan, o'zligini tushunadigan, hayotda tutgan o'rnini anglab

yetadigan, o'z oldida turgan vazifalarni ongli bajara oladigan, insoniy qadr-qimmatni ulug'laydigan bo'lishsin.

Axloq - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insonlarning o'ziga, oilasiga, do'st-birodarlariga, jamoa a'zolariga va tabiatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi xulq, odob qonun-qoidalar majmuasidir. Ana shu xulq, odob qonun-qoidalarini talabalar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko'rsatilayotgan ta'sir axloqiy tarbiya deb nomlanadi.

Demak, axloq kishining oilaga, mehnatga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Barkamol inson tarbiyasining tarkibiy qismlaridan yana biri jismoniy tarbiyadir.

Jismoniy tarbiya yosh avlodni jismoniy jihatdan sog'lom o'sishlarini, baquvvat bo'lishlarini va Vatanimiz himoyasi uchun qo'rqqmas, jasur, harbiy ilmlar, qurol-aslahalardan foydalanishni biladigan qilib tarbiyalashni o'zining oliy maqsadi deb biladi. Jismoniy tarbiya axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'langan bo'lib, bir-birini taqozo qiladi. Jumladan bo'shanglik, o'z kuchiga ishonmaslik, dangasalik va boshqa axloqiy kamchiliklar kishini qo'rqqoq qilib qo'yishi mumkin. Bunday shaxslar Vatan himoyasi uchun yaroqsiz hisoblanadi.

Mehnat va mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad, avvalo, mehnatning mohiyatiga, mazmuniga teran nigoq tashlamoq, muayyan xulosa chiqarmoqdan iboratdir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Estetika lotincha «*estezio-go'zallikni his etaman*» ma'nosini bildiradi. Aqliy, axloqiy, jismoniy va mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Estetik tarbiyaning maqsadi va vazifasi talabalarni tabiat va jamiyatdagi go'zallikni idrok qilish, uni to'g'ri tushunish va fahmlash, qadriga yetishga, shu asnoda o'z shaxsiy hayotining go'zal tomonini ko'ra bilishga, go'zal bo'lishi uchun kurashishga o'rgatishdan iboratdir. Estetik tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor normalarini tarkib toptirishga, ularni ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish jarayonlari qonun-qoidalar bilan tanishtiradigan, shu barobarida, yosh avlodga ishlab chiqarish qurollaridan foydalanish yo'llarini o'rgatadigan ta'limga politexnik ta'lim deyiladi. «*Politexnika*» lotincha-ko'p texnika (poli-ko'p), politexnik ta'lim-«*ko'p texnikali ta'lim*» degan ma'noni bildiradi. U kasbiy ta'lim, kasb o'rgatuvchi ta'lim emas. Ammo politexnik ta'lim har qanday ixtisosdagi kishi uchun zarur bo'lgan minimum bilimlar bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Politexnik ta'lim fan sifatida o'qitilmaydi, lekin barcha fanlar majmuida o'z ifodasini topadi. Politexnik ta'lim vazifalarini amalga oshirishning asosiy sharti fan asoslarini puxta egallashdir.

Jamiyatning bolalar ongiga ta'sir o'tkazishi asosan ta'lim-tarbiya orhali amalga oshiriladi. Bola yoshligidan atrofdagi kishilar bilan muloqotda bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. U dastlab oila sharoitida va maktabgacha tarbiya muassasalarida, keyinchalik maktabda ta'lim-tarbiya oladi.

Bolani o'rab olgan muhit, mehnat va til o'rganish natijasida tarbiya vositasiga aylanadi. Bunda muhitning ta'siri stixiyali ekanligini hisobga olmoq lozim. Shu sababli inson kamolotida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik qilishiga imkon berish darkor.

Bilimni egallash murakkab jarayon bo'lib, u insondan eng avvalo fizologik jihatdan barkamollikni, ya'ni besh asosiy sezgi organlarini bus-butun bo'lishini hamda bilim olishi uchun tinimsiz mashq qilishni talab etadi.

Dunyoning ko'rki insondir. Inson o'z go'zalligi va murakkabligi bilan yer yuzida afzaldir. Inson tafakkuri vositasida ilm egallaydi. Ilm tufayli dunyoni biladi va uni boshqaradi. Hayvonlar tabiatga moslashib yashayveradilar. Inson esa tabiatni o'ziga moslashtiradi, o'zgartiradi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda badiiy adabiyotni, xalq og'zaki ijodni, ertaklarni, hikoya va hissalarini ahamiyati beqiyos. Masalan, «Hadislar»da, «Kalila va Dimna», «Qobusnoma», «Ming bir kecha» kabi durdona asarlarda hissiy va mantiqiy bilishga tegishli matallar, ertaklar, hikoyalar, baytlar ko'p bo'lib, bu ma'naviy javohirlar yoshlarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Dunyoqarash insonda ma'lum ma'suliyat hissi bo'lishini ham talab qiladi. Ilmiy dunyoqarashni amalga oshirishda kishi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning ko'rinib turgan ifodasiga, shakliga qarab emas, balki ularning ichki mohiyatiga, mazmuniga qarab baho berishi kerak. Shunday qilib, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish bir-ikki, uch kishi yoki bir necha guruh tomonidan bo'lmay, balki ko'pchilik, ijtimoiy fikr tomonidan bajariladigan ijtimoiy-tarixiy xarakterdagi hodisadir. Demak, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kishidan ko'p mehnat, malaka talab qilinadigan murakkab, sarmashaqqat faoliyat sohasidir.

Demak, bizning asosiy va eng muhim vazifamiz, bolalarning qobiliyat va iste'dodlarini o'z vaqtida payqab olish va ularning kamol topishlari uchun qulay sharoit, ta'lim-tarbiya berishdir.

Respublikamiz yoshlarini barkamol insonlar qilib tarbiyalash borasida qaysi yo'lni tanlamoq, nimalarga diqqat-e'tiborni qaratmoq lozim. Nima qilganda ijobiy natijaga erishiladi? Bu savollar pedagogika faning bugungi kundagi eng muhim muammolari hisoblanadi. Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda Sharq mutafakkirlarining, duru javohirga teng ma'naviy meroslari dasturilamal bo'la oladi. Abu Nasr Forobiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Ismoil al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Firdavsiy, Amir Temur, Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli va shular singari boshqa aql egalarini ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'limotlariga tayanib ish ko'rilsa, tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi. O'zining o'tmish madaniy merosini chuqur bilmagan va e'zozlamagan odam, o'z shajarasini, avlod-ajdodlari bosib o'tgan yo'lni, milliy istiqlolimiz, erkimiz va ozodligimiz yo'lida jasorat ko'rsatgan Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi va boshqa buyuk zotlar, xalq qasoskorlarining nomlari, kurashlarining tub mohiyatini ilg'ay olmaydi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Jamoa so'zining ma'nosi nima?

A) omma, yig'ilma B) xalq, yig'in S) jamiyat, birlashma

2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda faoliyatning asosan qaysi turi ustunlik qiladi?

A) o'yin, B) o'qish, S) mehnat

Masala:

Sinf rahbari tarbiyasi qiyin bolaning ota-onasi bilan suhbat olib bormoqda.

O'quvchi kqp vaqtlarda maktabga darslarni tayyorlamasdan keladi, qo'pol, o'yinqaroq. Maktab intizomini mensimaydi. Masalan, dars paytida maktab oshxonasida yuradi. So'ramasdan darslardan ketib qoladi. Chorak oxirida reyting kundaligi haftada almashadi, baholari past chiqayapti.

Uning otasi fan doktori, professor, rahbar, onasi vrach. Pedagogning gaplariga quyidagicha javob beradi:

-Tushunsangizchi, biz Davlat ishlari bilan juda band odamlarmiz. Mening ishim juda ham mas'uliyatli ish! O'g'lim bilan shug'ullanishga mening hech vaqtim yo'q. Onasini ham ishlari ko'p: Biz maktabga yuborayapmiz. Maktab uchun kerakli narsalarni olib beryapmiz, maktab vaqtiga sizlar javob berasiz, tarbiyalaysizlar! Bu sizni vazifangiz emasmi?

Pedagog, oila bilan maktab hamkorlikda ish olib borsagina tarbiya samara berishi mumkinligini uqtirganda, u yana e'tiroz bildirdi:

-Nima ish qilish kerak bo'lsa, oilaga bog'liq bo'lgan ishlarning hammasini qilayapman. Uyda kompyuter bor, internetga ulab qo'ydim, kutubxonamiz mavjud, ingliz tili, rus tillaridagi o'quv kassetalar kolleksiyasi bor.

Ota tarbiyadagi o'z ishtirokiga oid elementlarni uzoq sanadi. Bularni eng asosiy deb hisobladi, ammo o'g'lining xulqi haqidagi sinf rahbari tomonidan bildirilayotgan tashvishli signalga e'tibor qilmadi.

1. Vaziyatni tahlil qiling. Sinf rahbarining va ota-onaning bolaga nisbatan munosabatini baxolang.

2. Siz bu voqeaga qanday munosabatda bo'lar edingiz?

3. Sizni o'quvchilaringiz orasida shunday ota-onalar bo'lsa, qanday yo'l tutardingiz?

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Insonni shakllanishida irsiyatning roli nimada?

2. Tarbiya bilan biologik muhit orasida qanday bog'liqlik mavjud?

3. Ilmiy-tadqiqot metodlari nimalardan iborat?

4. Pedagogikaning taraqqiyot manbalari nimalardan iborat?

6-mavzu: Ta'lim jarayoni. O'qitishning asosiy metod, shakl va vositalari.**Reja:**

1. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi. Didaktika.

2. Ta'limning funktsiyalari va kategoriyalari.

3. Ta'lim mazmuni va elementlari.

4. Asosiy pedagogik tamoyillar va ularning mazmuni.

5. O'qitishning asosiy metodlari, shakl va vositalari.

Ta'limiy maqsad: O'zbekistondagi uzluksiz ta'lim tizimi haqida tushuncha berish, uning tuzilishi va prinsiplari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: O'qitishning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini asoslashga o'rgatish

Rivojlantiruvchi maqsad: O'zbekiston va jahon ta'limi tizimini qiyosiy tahlili.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Ta'lim jarayoni – bu ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyat bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir.

Bilish – murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, so'ngra amaliyotga o'tish yo'lidir.

O'qitish tushunchasi – insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir.


Fanlarni o'qitish – bu o'qitish xususiyatlarini tarbiyalash va takomillashtirish jarayoni bo'lib, u ta'lim beruvchida ilmiy munosabatni va quyidagi xususiyatlarni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi:

- **qiziqish** (bilish xohishi) va **faoliyat** (biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi);
- **skeptitsizm** (tez-tez uchraydigan fikrlarni sinchiklab ko'rib chiqish xohishi);
- **dalillar** (bilim olishda isbotlash mantiqi va qoidalaridan foydalanish mahoratlari);
- **xabardorlik** (uning yordamida o'ylash mumkin bo'lishi uchun olam haqida axborotlar fondining mavjudligi);
- **strategiyalar** (izlash uchun qoidalar mavjudligi va ulardan foydalanish xohishlari);
- **moyillik** (yangi bilimlarni olish natijasida ta'lim beruvchi o'zini olam haqidagi fikrlash usulini qayta qura boshlashi uchun boshqalarning fikr va tushunchalarini qonuniyat asosida bir chiziqqa joylash).

Ta'limiy maqsad – o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiiq qila olish.

Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, iymon-e'tiqodlarini shakllantirishdir.

Rivojlantiruvchi maqsad – ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.



2008 yilda boshlangan va bugungi kunda ko'lami tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga baho berar ekan, ko'pgina xalqaro ekspert va mutaxassislar bu inqirozning sabablari va yanada avj olishi bilan bog'liq prognozlarida javoblardan ko'ra ko'proq savollarga duch kelishmoqda.

"Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" deb nomlangan ushbu asarning dolzarbligi ham aynan ana shu holatlar bilan izohlanadi. Kitob quyidagi ikki qismdan iborat:

birinchisi — jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar;

ikkinchisi — bank tizimini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish — O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'lidir.

I. Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar

Bugungi kunning eng dolzarb muammosi — bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat.

Avvalo, jahon moliyaviy inqirozi haqida.

Bu inqiroz Amerika qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Hozirgi vaqtda bir qator yetakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir materiallarni o'rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelmoqda.

Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni hamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muharrarligi, investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda. Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan etarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi. Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. Ya'ni, bu avvalo, ana shu davlatning moliya-valyuta tizimi nechog'liq mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to'lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valyuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada — mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liq. To'rtinchidan, jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va

umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq.

Eng muhimi, parokandalik va boshboshdoqlik ta'siriga tushib qolmaslik uchun o'tish davrida aynan davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini biz o'zimizga aniq belgilab oldik. Mamlakatimizning uzoq va davomli manfaatlari taqozo etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish, ular tug'diradigan muammolarni hal etish zarur bo'lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo'llandi va bunday yondashuv oxir-oqibatda o'zini to'la oqladi.

Shu o'rinda O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz.

Didaktika ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvi qismidir. Didaktika grekcha so'z bo'lib, «**Didasko**» - «o'qitish», «**Didaskon**» - «o'rgatuvchi» degan so'zlardan kelib chiqqan. Didaktikaning so'zma - so'z tarjimai ta'lim nazariyasini anglatadi. Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayonining tushunchasi va mohiyatini, ta'lim qoidalarini, uslublari hamda tashkiliy formalarini o'z ichiga oladi.

Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va vazifalari. Didaktikaning tashkil topishi va rivojlanishi. Insonning faoliyatida o'qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'lim tasodifiy, intuitiv xususiyatga ega bo'lganda ham va asosan tasodifan axborotlarni berish hamda taqlid qilishdan iborat bo'lganda ham shunday bo'lgan; keyinchalik ham, ta'lim maqsadga muvofiq muntazam va rejalashtirilgan jarayonga aylanganda, maktab paydo bo'lganida ham shunday bo'lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta'limni nazariy tahlil qilish va o'rganish ishlari olib borilmadi, shuning uchun o'z nazariyasiga ega bo'lmadi. Faqatgina 18 asr bu sohada muhim o'zgarishlar olib keldi: aynan o'sha paytda ta'lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi: yunoncha «**didaktikos**» - o'rgatuvchi, «**didasko**» esa - o'rganuvchi ma'nosini bildiradi) ta'limning nazariy jihatlarini (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va xokazo muammolar)ni o'rganuvchi fan.

Bu so'z 1613 yili Germaniyada nemis pedagogi **Volfgang Ratke (1571-1635 yillar)** tomonidan kiritildi. Bu tushunchani shunga o'xshash usulda buyuk chex pedagogi **Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar)** «**Buyuk didaktika**» nomli mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy - didaktika bu faqat ta'limgina emas, balki tarbiyalash ham, deb ta'kidlaydi. Mazkur asarda olim ta'lim nazariyasining muhim masalalari: ta'lim mazmuni, ta'limning ko'rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so'z yuritadi.

Didaktikaning predmeti, funktsiyalari va vazifasi. Pedagogika fani ta'lim va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosida o'rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasini ajratib ko'rsatadilar. Hozirgi davrda didaktika o'qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi. Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar

bo'yicha ta'lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud. Ularning mazmuni ta'limning ma'lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o'rganish va ta'lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi. har bir o'qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishi va ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi zarur. Didaktika predmetini aniqlash bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan. qarashlarning turlicha bo'lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog'liq.

Ko'pchilik olimlar ta'lim ob'yekt deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar. Didaktika ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi - o'quvchi, o'quvchi - o'quv material, o'quvchi - boshqa o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

Pedagogik adabiyotlarda ulardan qaysi biri didaktika uchun asosiy hisoblanishi kerakligi borasida ham turli fikrlar keltiriladi hamda o'quvchining o'quv materialiga bo'lgan munosabati, ya'ni, bilimlarni o'rganish munosabatini asosiy deb e'tirof etuvchi qarashlar soni nisbatan ko'p.

Darhaqiqat, o'qish, o'rganishi ta'lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta'limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta'limga pedagogik, ya'ni, ijtimoiy tajribani berish, o'rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat - ikki shaxs (o'quvchi va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlar yetakchi o'rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktika predmetini mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit o'rganish zarurligini ilgari suradi. Ta'limning tarbiyaviy vazifalari o'quvchining bilimni o'zlashtirishlarini ta'minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma'lum ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish ob'ekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish ob'yekti sifatida haraydi. Umumiy didaktikaning predmeti dars o'tish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish;
- ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash.

Didaktika nazariy va bir vaqtning o'zida me'yoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jihatlarini o'rtasidagi bog'liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendentsiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

O'zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limni jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi.

Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo'llash me'yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me'yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi.

Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi: falsafiy tushunchalar; xususiy ilmiy, ya'ni, muayyan fangagina xos bo'lgan tushunchalar. Didaktika uchun umumiy va alohida, mohiyati va hodisa, qarama-qarshilik, bog'liqlik kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo'llaniladigan umumiy-ilmiy tushunchalar orasida tizim, tuzilma, vazifa, element kabilar alohida o'rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi:

ta'lim - o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

dars - bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli;

bilim olish - idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustaqamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

ta'lim jarayoni - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

o'quv fani - ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manbaa.

ta'lim mazmuni - davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Didaktikada idrok etish, o'zlashtirishi, mahorat, rivojlanish va boshqalar (psixologiya) hamda boshqarish, qayta aloqa (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo'lgan tushunchalar ham qo'llaniladi.

Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to'ldirilib borilmoqda.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim jarayoni, ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta'lim natijasi.

So'nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

1) bilim - shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui;

2) bilim olish - idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

3) ko'nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati;

4) malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli;

5) **ta'lim** - o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

6) **ta'lim metodlari** - ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui;

7) **ta'lim mazmuni** - shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;

8) **ta'lim vositalari** - ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'yektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, harita, diagramma, plakat, rasm, chizma, videoproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub'yektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

9) **ta'lim jarayoni** - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

10) **ta'lim mazmuni** - davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;

11) **ta'lim maqsadi** (o'qish, bilim olish maqsadi) - ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya;

12) **ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli)** - ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;

13) **ta'limni boshqarish** - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilash;

14) **ta'lim tizimi** - yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui.

Didaktik nazariya (kontseptsiya)lar va ularning falsafiy asoslari. Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik kontseptsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi. **Didaktik tizim** (yunoncha «sistema» - yaxlit hismlardan tashkil topgan, birlashtirish) - ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish demakdir. U ta'limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Tadqiqotchilar mavjud didaktik kontseptsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlariga ajratadilar:

1. **an'anaviy;**

2. **progressiv;**

3. **zamonaviy.**

Ta'lim nazariyasida Ya.A.Komenskiy, I.Pestallotsi va I.Gerbartlarning didaktik kontseptsiyalari muhim ahamiyatga ega. An'anaviy didaktik tizimning yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog I.F.Gerbert (1776-1841 yillar) nomi bilan bog'liq. U Ya.A.Komenskiyning sinf-dars an'anaviy tizimini tanqidiy nuqati nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda ta'lim tizimini yaratdi. I.F.Gerbert ta'lim tizimining asosiy belgisi quyidagilardan iborat. o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash maktabning asosiy vazifasi; bolani tarbiyalash esa oilaning vazifasidir. Progressiv (pedotsentrik) tizim bolaning bilim

olishida faoliyatining asosiy rol o'ynashini e'tirof etadi. Mazkur tizim asosini D.Dyui tizimi, G.Kershteynning mehnat maktabi, V.Lay nazariyalari tashkil etadi.

Zamonaviy didaktik tizim. XX asrning 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga bo'lingan axborotlarni yetkazish, bu jarayonni muntazam nazorat qilish asosida materialni o'zlashtirishda samaradorlikka erishish g'oyasini ilgari suradi. Mazkur g'oya keyinchalik dasturiy ta'lim deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder nazorat natijalariga qarab o'quvchiga mustaqil ishlash uchun turli materiallarni taklif etadigan tarmoqlashtirilgan dasturlarni yaratdi. D.Dyuining nazariy g'oyalari muammoli ta'limning asosi bo'lib qoldi. Bugungi kunda muammoli ta'lim deb nomlanuvchi, ushbu g'oya o'qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda o'quvchilarning faollik va mustaqilliklarini ta'minlashga erishishni nazarda tutadi. Muammoli ta'limning vazifasi faol o'rganish jarayonini rag'batlashtirish, o'quvchilarda fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

L.V.Zankovning (1901-1977 yillar) rivojlantiruvchi ta'lim kontseptsiyasi XX asrning 50-yillarida keng tarhaldi. Uning g'oyalarini amalga oshirish ta'lim jarayoniga insonparvarlik g'oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Psixolog L.S.Vigodskiy (1896-1934 yillar) tomonidan 30-yillarda ilgari surilgan. Yaqin rivojlanish zonasi-g'oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra bola kattalar yordamida bilim olib, o'zi mustaqil bajara olmagan ishlarni bajara boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim tog'risida»gi qonunida ta'lim va tarbiyani insonparvarlik, demokratik g'oyalarga muvofiq tashkil etilishi e'tirof etilgan. Ta'limni insonparvarlashtirish ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uning sha'ni, obro'si, qadr-qimmatini poymol etmaslik, mavjud iste'dodini rivojlantirishni nazarda tutadi. Demokratlashtirish esa pedagogik jarayonda rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaslik, ta'lim dasturlarini tanlashda o'quvchilarning fikrlarini inobatga olishni ifodalaydi. Respublika uzluksiz ta'lim tizimi ijtimoiy buyurtmani bajarishga xizmat qiladi, barkamol shaxs va yetuk mutaxassisni tarbiyalash vazifasini bajaradi.

Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigma (modeli)lari. Pedagogik paradigma (yunoncha «paradigma» - misol, namuna) - pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami bo'lib, u ta'limning kontseptual modeli sifatida qo'llaniladi. Bugungi kunda ta'limning quyidagi paradigmalari keng tarhangan:

- **An'anaviy - konservativ paradigma (bilim paradigmasi).**
- **Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma.**
- **Fenomenologik (gumanistik) paradigma.**
- **Texnokratik paradigma.**
- **Ezoterik paradigma.**

Ayni vaqtda ta'lim paradigmalarini belgilashga nisbatan uch qil yondashuv mavjud:

1.Qadriyatli (aksiologik) yondashuv - madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.

2. Faoliyatli yondashuv asosan madaniyat moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishga yo'naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.

3. Shaxsiy yondashuv - madaniyat muayyan shaxs timsolida namoyon bo'ladi.

Madaniyatga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi bir qator paradigmalarning yaratilishiga zamin yaratadi.

har bir paradigma muayyan ta'limiy muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Xususan:

- ijtimoiy institut sifatida o'quv muassasalarining vazifalari;
- ta'limning samarali tizimi;
- o'quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala;
- ta'limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;
- muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi.

Ayni vaqtda quyidagi paradigmalar mavjud:

1. Bilim olishning an'anaviy paradigmasi (modeli) (J.Majo, L.Kro, J.Kapel va boshqalar)

Unga ko'ra ta'limning asosiy maqsadi - bilim, qanchalik qiyin bo'lmasin bilim olish. An'anaviy paradigma maktabning maqsadi yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari - bilim, ko'nikma va malakalar, ilg'or g'oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni yoshlarga yetkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish paradigmasining asosiy maqsadi: ta'lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avlodlar orqali yetkazish.

2. Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma (P.Blum, R.Gane, B.Skinner va boshqalar). Ratsionalistik paradigma diqqat markazida ta'lim mazmuni emas, balki o'quvchilar tomonidan turli bilimlarni o'zlashtirilishini ta'minlovchi samarali usullari yotadi. Ta'limning ratsionalistik modeli asosini B.Skinnerning ijtimoiy injeneriya bixevioristik (inglizcha bixevior - xulqi) kontseptsiyasi tashkil qiladi.

Maktabning maqsadi - o'quvchilarda g'arb madaniyati ijtimoiy qoidalari, talablari va ko'zlagan maqsadlariga mos keladigan moslashtiruvchi xulqiy repertuarni shakllantirishdir. Shu bilan bir vaqtda, xulqi atamasi bilan "insonga xos hamma ta'sirlanishlar - uning fikrlari, sezgi va harakatlari ifodalanadi (R.Teylor). Bunda ta'limning asosiy metodlari, o'rgatish, trening, test sinovlari, individual ta'lim, tuzatishlari bo'lib qoladi. Buning oqibatida, ta'limningina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammosi muhokama qilinmaydi.

B.Blum barcha o'quvchilar faqat o'zlashtiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatli o'qishlari mumkin deb hisoblaydi. O'quvchining optimal qobiliyatlari ma'lum sharoitlarda, o'quvchiga ta'lim berish natijasi uning sur'ati bilan aniqlanadi. Olimning firicha, ta'lim oluvchilarning 95 foizi ta'lim muddatlariga bo'lgan cheklashlar olib tashlanganda o'quv kursining butun mazmunini o'zlashtirib olishga qodirlar. Ana shu nuqtai nazardan o'quvchilar tomonidan bilimlarning muvaffaqiyatli o'zlashtirishini ta'minlovchi metodika ishlab chiqiladi, uning mohiyati quyidagichadir:

- Butun sinf yoki kurs uchun to'la o'zlashtirish etaloni, mezonini aniq belgilab olish asosida o'qituvchi ta'lim yakunida erishilishi kerak bo'lgan aniq natijalarning ro'yxati va unga muvofiq keluvchi testlarni tuzadi.
- O'quv birliklari, ya'ni, o'quv materiallarining yaxlit bo'limlari ko'rsatiladi, ularni o'zlashtirish natijalari aniqlanadi, yakuniy bahoga ta'sir ko'rsatmaydigan navbatdagi testlar tuziladi. Bu testlarning vazifalari - tuzatish, korrektsiyalashdan iborat.

- To'la o'zlashtirishga yo'naltirilgan har bir o'quv kurs materiallarini o'zlashtirish darajasini baholash uchun test sinovlarini o'tkazish. Bu o'rinda har bir o'quvchiga baho va ta'lim maqsadlarining ahamiyatini tushuntirish muhim.
- Predmetlarni bo'sh va o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilarning qobiliyatlarini jadal rivojlantirish B.Blum kontseptsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Turli mamlakatlarning (Avstriya, Belgiya, AQSh va boshqalar) ta'lim tizimlari tajribasi ratsionalistik (bixevioristik) paradigma g'oyalari muvofiq ish ko'rilganda 70 % o'quvchilar yuqori natijalarni qayd etganliklarini ko'rsatadi. Yuqorida qayd etilgan ta'lim yo'nalishlari o'zida insonparvarlik g'oyalari ifoda etmagan, ular bola dunyoqarashining rivojlanishi, shaxsning rivojlanishida shaxslararo munosabatlarning muhim o'rin tutishini nazarda tutmaydi.

3. Gumanistik (fenomenologik) paradigma ko'ra (A.Maslou, A.Kombs, K.Rodgers, L.S.Vigodskiy va boshqalar) ta'lim oluvchi erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar sub'yekti sifatida o'ziga xos rivojlanish imkoniyatlariga ega. Ular bolani rivojlantirish maqsadida uni shaxslararo munosabatlar jarayoniga yo'naltiradi. Ta'limning fenomenologik (fenomen yunoncha «*phainomenon*» - hisoblangan, ya'ni, mashhur, alohida nodir odam) modeli o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi. Uning vakillari o'quvchini nodir shaxs deb hisoblaydilar. Gumanistik paradigma doirasida faoliyat olib boruvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy rivojlanadi va o'quvchi hamda o'qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi.

Gumanistik paradigma g'oyalari 1991 yildan keyin Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etila boshlandi. Paradigmaning diqqat markazida o'quvchining barkamol rivojlanishi, uning intellektual ehtiyojlari, erkin fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtda Respublikamiz ta'lim muassasalarida quyidagi g'oyalarga amal qilinmoqda: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. ... Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir"¹³.

Ezoterik paradigma (yunoncha «*esoterikos*» - ichki, sirli, yashirin, faqatgina biluvchilar uchun mo'ljallangan insonning dunyo bilan o'zaro aloqalari yuksak darajalarini aks ettiradi). Modelning mohiyati haqiqat abadiy va o'zgarmas, doimiy ekanligini ta'kidlashdan iborat. Paradigma tarafdorlari haqiqatni bilib bo'lmazligi, unga faqatgina faqmlash asosida erishish mumkinligini ta'kidlaydilar. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi koinot bilan muloqot, o'quvchining tabiiy kuchlarini ozod etish va rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, o'qituvchining qimoyalash vazifasi muhimdir, u o'quvchining mavjud imkoniyatlarini uni ma'naviy, jismoniy, psixik jihatdan rivojlantirishga yo'naltiradi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning asosiy maqsadi amaliyotni takomillashtirish asosida ta'lim oluvchilarga aniq ilmiy bilimlarni berish va ularning o'zlashtirilishini ta'minlashdir. Bilim - kuchdir, shu bois shaxs qimmatini uning o'rganish, bilim olish, imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shaxs muayyan (o'rtacha, standartlashtirilgan) bilim

¹³ Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyoti matbaa konserni, 1997,9-bet

yoki xulq-atvor egasi bo'lsagina qadriyat sifatida e'tirof etiladi degan g'oya ushbu paradigmaning asosini tashkil etadi.

So'nggi yillarda **noinstitutsonal paradigma** rivojlana boshladi. U ta'limni ijtimoiy institutlar, ya'ni, maktab va oliy ta'lim muassasalaridan tashqarida tashkil etish g'oyasini ilgari suradi. Bu ta'lim tabiatda - Internet, ochiq maktablar - kompyuterlar vositasida ta'lim dasturlariga (masofadan o'qitish) muvofiq o'qitish samarali deya hisoblaydi. Didaktika o'z oldiga o'qitishning talabalarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarini bilib olish vazifasini qo'yadi. Demak, didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob beradi.

O'tmishga nazar solsak, bu dunyoda ne - ne daholar yashab o'tmaganlar. Saboqlarga boy o'tmishimizda al - Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk alloma bobokalonlarimiz tibbiyot, mantiq, musiqa, adabiyot, geografiya, riyoziyot kabi ilmlarni o'qitish vositasida avlodlarni tarbiyalash g'oyasini olg'a surganlar. Kaykovusning «Qobusnoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Xibat-ul-xaqoyiq», Alisher Navoiyning «Saodatnoma», «Maxbub-ul-qulub» (Ko'ngillar sevgisi) asarlarida ilg'or pedagogik qarashlar ham ifodalangan. Ular dunyoviy (bilimlarni) ta'limni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar.

Sharqu g'arb ma'naviy merosi asosida pedagogik jarayondan markaziy o'rin olgan didaktika doimo rivojlanib bordi, uning rivojiga buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy katta hissa qo'shgan. Uning «Buyuk didaktika» asari o'qitishni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonda didaktik ta'limni tashkil topishi va rivojlanishi Abdulla Avloniy, Qori Niyoziy, Hamza, Muhammadrasul Rasuliy kabi pedagog, olimlarning nomlari bilan bog'liq.

«Ta'lim tog'risida»gi qonunning asosiy negizi bo'lgan uzluksiz ta'limning maqsadi insonning faqat zakiylik quvvati, intellektual imkoniyatini shakllantirish va boyitishdangina iborat emas. Uzluksiz ta'lim o'qitish va tarbiyaning uzviy birligi sifatida shaxsning ijtimoiy ehtiyojini dolzarbligi va istiqbolini hisobga olgan, birgalikda shakllantirish jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Ushbu tizimda har bir va muvofiqlashtirilgan holda tarbiyalash umumta'lim maktablarida isloh etilgan ta'lim va kasbiy ta'limga tayyorlash masalalarining yechimini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'lim tushunchasi har tomonlama garmonik taraqqiyotga bo'lgan intilishini qondiradigan yo'nalishda ko'p qirralidir. Bu yerda shaxs hayoti faoliyatining hamma bosqichlarida uning rivojlanishi haqidagi qoidalar dastlabki asos sifatida mujassamlanadi. har bir yoshdagi odamda o'ziga xos taraqqiyotning ijtimoiy vaziyati mavjuddir.

Bunda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish uzluksiz ta'limning bosh maqsadi bo'lib xizmat qiladi. Uzluksiz ta'lim kontseptsiyasi yoxud uning g'oyasi, shaxs mavjudligining, uning o'z-o'zini tashkil etishning maxsus moddasidir. Tabiiyki, bu hol shaxsning o'zida takomillashishiga yo'naltirilgan ichki omilning bo'lishini taqozo etadi. Bunda shaxsning "Men - kontseptsiyasi" (o'zi haqidagi tasavvurlar to'plami; ularga muvofiq tarzda inson hayot faoliyatini yuzaga keltiradi) bir vaqtning o'zida ham "Ideal men" ni (ya'ni inson uning fikricha qanday bo'lishi kerak) ham "Dinamik men" ni (ya'ni odam qanday bo'lishini istar edi, agar buning imkoni bo'lsa) mujassamlashtira

olish muhim hisoblanadi. Shu sababli ham birinchi navbatda, ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, chuqurlashtirish, takomillashtirish, xususan, ta'lim mazmuniga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil etuvchi - ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi uchun kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.

Uzluksiz ta'limning vazifasi shaxsning ijobiy "Men kontseptsiya"sini shakllantirish uchun psixo-pedagogik shart-sharoitlarini yaratib berishdan iboratdir. Uzluksiz ta'lim jamiyat moddiy va ma'naviy hayotining hamma tomonlariga ta'sir o'tkazuvchi, millionlab kishilarning turmush tarzini tubdan o'zgartiruvchi yangi omil sifatida e'tirof etiladi; uzluksiz ta'lim hayotiy qadriyatlar va rejalarning yangi tuzilishini, shuningdek bilimlar sifatiga nisbatan yangi munosabatini shakllantiradi. har bir kishining keng ma'nodagi madaniyat cho'qqilarga ko'tarilishi, hozirgi zamon madaniyatining butun ma'naviy boyligini umuminsoniy qadriyatlar darajasida o'zlashtirishi uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim maqsadi va vazifasi sifatida namoyon bo'ladi. Milliy dasturda ko'zda tutilgan ta'lim-tarbiyaning uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etish, uni tubdan yangilash va rivojlantirishda quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda hayotga tadbqiq etish belgilanadi, ya'ni islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich o'tish davri bo'lib, u 1997-2001 yillarda 4 yil davomida joriy etiladi. Bu bosqichda asosan quyidagi vazifalarni bajarish kerak. Milliy dasturning amalga oshirishning boshlanishi: ya'ni talabga javob beradigan pedagoglarni tayyorlash. O'quv standartlarini yaratish va yangi o'quv dasturlari ustida ishlash, umumta'lim maktablarini tuzilish jihatidan qayta qurish; 3 yillik ta'lim o'rta maxsus va kasb-hunar bilim yurtlari (kasb – hunar kollejlari va akademik litsey) tizimiga zamin tayyorlash; uzluksiz ta'lim tayanch tizimiga asos soladigan tadbirlarni amalga oshirish. Ijtimoiy qimoyani kafolatlash kabi masalalarni echish bosqichi.

Ikkinchi bosqich-2001-2005 yillarni o'z ichiga oladi. Bunda milliy dasturni keng miqyosda to'liq amalga oshirishga erishish darkor. Tabiiyki tizim faoliyatini samaradorligini mehnat bozorini inobatga olib, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib, dastur g'oyalari va qoidalariga kerakli o'zgartirishlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich 2005 va keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishni rivojlantirish zarur. Biz shoshilmasdan, asosiy maqsaddan og'ishmay, izchillik bilan milliy dasturni amalga oshirishimiz lozim. Shundagina u umumiy madaniyatni yuksaltirishga, farzandlarimizning jamiyatda o'z munosib o'rnini topishga xizmat qiladi. Umumlashtirgan holda kadrlar tayyorlash tizimini shakllanishi va faoliyat ko'rsatishning asosiy tamoyillari quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi;

1) barcha xil va turdagi ta'lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish;

2) DTS ni joriy etish va ularning faoliyat ko'rsatish mexanizmini ishlab chiqish.

3) ixtisosliklar, malaka darajasiga ko'ra mutaxassislarga bo'lgan umumdavlat va mintaqaviy talablarning istiqbolini aniqlash.

4) ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatdan isloq qilish uchun o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash;

5) davlat va ijtimoiy muassasalarning kasbga yo'naltirish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish. Bunda kasb tanlashning bozor ehtiyojlari va imkoniyatlarini e'tiborga olish zarur, toki har bir shaxs o'ziga mos kasbni egallay olsun.

6) talaba yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lishi ruhida tarbiyalash.

7) ta'lim muassasalarini, birinchi navbatda umumta'lim maktablarini davlat tomonidan moliyaviy va moddiy-texnikaviy to'liq ta'minlash me'yorlarini oshirish va uning mexanizmini takomillashtirish.

8) kadrlar tayyorlash tizimi iste'molchilari korxonalar, muassasalar, firmalar, hissadorlik jamiyatlari, banklar va boshqa tuzilmalarning imkoniyatlaridan, birinchi navbatda o'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtlari va oliy o'quv yurtlarining moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash uchun mumkin qadar kengroq foydalanish.

9) kadrlar tayyorlash va ta'lim sohasiga chet el sarmoyalari, xalqaro donorlik tashkilotlari va jamg'armalarining mablag'larini jalb etish.

10) qonun doirasida o'quv rejalari, dasturlari va o'qitish yo'riqlari, ta'limiy xizmatlarni belgilashda ta'lim muassasalariga, birinchi navbatda oliy o'quv yurtlariga, mustaqillik berish va o'z-o'zini boshqarish usullarini joriy etish.

Bunday murakkab vazifalarni amalga oshirishda davlat va jamiyatning mas'uliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim muassasalarining faoliyati uyg'unlashishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

- ta'lim tizimini faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalari;

- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek unga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

Maktabgacha ta'lim

Umumiy O'rta ta'lim

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi

Oliy ta'lim

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash

Maktabdan tashqari ta'lim

Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimiga e'tibor bersak, xaqiqatdan ham farzandlarimizni jamiyatda shaxs sifatida shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topishda, har tomonlama barkamol inson bo'lib, voyaga yetishda alohida ahamiyat kasb etadi. Mamalakatimizning istiqloq yo'lida birinchi qadamlaridanoq buyuk ma'naviyatimizning tiklash va yanada yuksaltirish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga chiqarish maqsadida katta ahamiyat berib kelinmoqda. «**Bizga maktabni bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar**

kerak». Biz uzluksiz ta'lim tizimida talaba-yoshlarni hayotga turmushga, mehnat qilishga, ijodkorlikka tayyorlashimiz kerak.«**Biz yoshlarni mustaqil erkin fikrlaydigan o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan shaxslar qilib tarbiyalashimiz lozim.»** Erkin fikr yurituvchi, tashabusskor va milliy g'ururga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalash uchun, xalqning tarixan shakllangan ma'rifiy-ma'naviy merosiga asoslangan holda umumjahon pedagogik tamoyillarga tayanuvchi milliy pedagogika shakllantiradi. Kelajagi buyuk davlatni ko'rayotgan kishilarning tafakkuri, odobi, axloqi jamiyatda yangi iqtisodiy munosabatlarni tarkib toptirishga, moddiy ne'matlar yaratishga astoydil kirishib, yonib yashash hissi bilan sug'orilgan bo'lishi kerak.

Ta'lim - pedagoglar va talabalarning birgalikdagi faoliyatidan iborat bo'lgan qo'shaloq jarayondir. Birgalikdagi faoliyat orqali yoshlar ilmiy bilimlar bilan qurollanadilar. Buning natijasida ularni ijodiy qobiliyatlari har tomonlama shakllanadi. Ma'lumot - ta'lim-tarbiya jarayonining natijasi orqali to'plangan bilim, ko'nikma va malakalar, shakllangan ma'naviy fazilatlar yig'indisidir.

Ma'lumot olishning to'g'ri va ishonchli yo'li davlat ta'lim standartlari bo'yicha bilim beradigan, aniq maqsadli rejalar, dasturlar asosida o'quv yurtlarida tashkil qilinadigan ta'lim-tarbiya jarayonidir.

Shunday ijobiy xislatlarga ega insonni tarbiyalash yangi ta'lim-tarbiya tizimi zimmasiga yuklatilgan. Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, immoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo'lib, har lahza ehtiyoj sezib emas, aksincha-o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan ongli tarzda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma'naviy ruhiy muhitni soxta aqidalar, baqir-chaqirlar, havoyi shiorlar bilan aslo buzib bo'lmaydi.

Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har-xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi.

Oldimizda turgan buyuk maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a'zosi qo'shadigan hissa shu hisobdan beqiyos bo'lishi muharrar. Barkamol avlod orzusini ro'yobga chiqarish uchun jamiyatimizning har bir fuqarosi, fidoiy imkoniyatlari bir tan, bir jon bo'lib, harakat qilishsa ko'zlagan natijaga erishiladi. Bu oliy maqsadga erishish uchun axloqiy tomondan, aqliy, jismoniy, mehnat nafosat tarbiyasi, jinsiy tomondan iqtisodiy, ekologik va huquqiy tarbiyani yo'lga qo'yish, ta'lim-tarbiya jarayonida kasb-hunar ta'limiga yo'llashdek muhim vazifani amalga oshirish zarur.

Bu esa ta'limni har tomonlama ham shaklan, ham mazmunan takomillashtirishni taqozo etadi.

"O'zbek modeli" deb nom olgan qator noyob, takrorlanmas o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash milliy modeli ta'limning milliy modelining ishlab chiqish mustaqil O'zbekistonning buyuk kelajagini belgilab berdi.

U O'zbekistonning xalqaro andozalaridagi zamonaviy taraqqiyotni ta'minlay oladigan dadil, mustaqil tafakkurli, malakali bilimli mutaxassis, ayni paytda ichki insoniy sifatleri barq urib, kamolotga yetgan kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi.

Milliy modelning bosh muddaosi komil inson va yetuk malakali mutaxassis!

Milliy model bu - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishning uzviy birligi va hamkorligi, ularning o'zaro bir-biriga aloqasini aks ettiradi.

Shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va uni amalga oshiruvchi;

Davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishni kafolatlaydi.

Uzluksiz ta'lim - malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni ishlab chiquvchi,

Ishlab chiqarish-kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularni tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha modelimiz o'z ilmiy salohiyati, ahamiyatini chuqur falsafiy ma'noga ega ekanligi bilan xalqaro miqyosda tan olindi va o'z o'rnini topdi.

Xulosa qilib aytganda milliy dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi barkamol shaxsni-insonni va shu tariqa ongli jamiyatning shakllanishiga yangicha ong, tafakkurga ega bo'lgan shaxslarning ko'payishiga va bu o'z navbatida ijobiy ravishda "portlash effekti"ning sodir bo'lishiga olib keladi.

"Portlash effekti" natijasida yangi shaxs shakllanishi uchun tub islohotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbqiq etadi, bunda avtoritar pedagogikadan voz kechib, hamkorlik pedagogikasiga o'tishimiz kerak bo'ladi.

Xalq ta'limiga jamiyatni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida alohida e'tibor berilayotgani tabiiydir. "Ta'lim tog'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni qabul qilinishi mamlakatimiz salohiyatini beqiyos rivojlanishi, mustaqil Respublikamizni jahonga keng qamrov bilan chiqishi uchun ulkan omildir. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 14-sessiyasida hayotimizga samarali ta'sir etuvchi jabhalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish vazifalari ham ustuvor soha sifatida ko'rib chiqilganligi bejiz emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov mazkur sessiyadagi nutqida bu masalaga katta ahamiyat berdi. Yo'lboshchimiz ta'lim - tarbiya sohasidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil etar ekan, tizimda yangilikka intilish bo'lmasa, taraqqiyot ham bo'lmasligini ta'kidlaydi. Bugun zamon talabi ertaga bajarilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish zarurligini taqozo etayotganini ko'rsatdi. Ma'lumki sohaning asosiy bo'g'ini uzluksiz ta'limdan iborat. Davlatimiz rahbari uzluksiz ta'limni tashkil etishda uning jahon talablari darajasida bo'lishi hamda u yuksak ma'naviyat zaminida ko'rinishiga katta ahamiyat berish kerakligini ta'kidlaydi ekan, davlat ta'lim standartlarini joriy etish va uning mexanizmini ishlab chiqish naqadar muhimligiga e'tiborni qaratadi.

Yosh avlodning ilmiy-dunyoviy qarashini shakllantirishda, ularni bilimga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda ta'lim mazmunining ahamiyati katta.

Ta'lim mazmunining strukturasi va tuzilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Ta'lim mazmunining davlat sotsial-iqtisodiy rivojlanishi yo'nalishlariga bog'liqlik tamoyili.

Prezidentimiz I.A.Karimov Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning 5 ta tamoyilini belgilab bergan.

- Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi.
- Qonun ustuvorligi.
- Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jarayonini davlat boshharadi.
- Aholini ijtimoiy himoyalash.
- Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish tamoyili.

2. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyili:

- Fanlararo kompleks alohalar tamoyili.
- Kasblarga yo'naltirish tamoyili.
- Ta'lim mazmunini tanlashda ustuvor va o'zgaruvchan qismlarga bo'lib tanlash tamoyili.
- Ta'lim mazmuni uni fiksatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili.
- Ta'lim mazmunini belgilashda yuqoridagi tamoyillarga asoslangan holda tayanch o'quv reja va o'quv dasturi tuziladi.

Ta'lim funktsiyalari. **Funktsiya** tushunchasi ta'lim vazifalari tushunchasiga yaqindir. Ta'lim funktsiyasi ta'lim jarayoni mohiyatini ifoda etadi, vazifasi esa ta'limning komponentlaridan biri hisoblanadi. Didaktika ta'lim jarayonining quyidagi uchta funktsiyasini ajratib ko'rsatadi: ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash.

Ta'lim berish funktsiyasi - ta'lim jarayonining o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Ta'lim natijasi sifatida bilimlarining to'raligi, chuqurligi, tizimliliigi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida xosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

Ko'nikma - shaxsning muayyan harakat yoki faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka deganda, muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashgan shakli tushuniladi. Umumiy ko'nikma va malakalarga og'zaki va yozma nutqni bilish, axborot materiallaridan foydalana olish, o'hish, manbalar bilan ishlash, referat yozish, mustaqil ishini tashkil etish kabilar kiradi.

Ta'limning rivojlantiruvchi funktsiyasi - ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining rivojlanishi sodir bo'lishini ko'rsatadi. Rivojlanish quyidagi yo'nalishlarda sodir bo'ladi: nutqi rivojlanishi, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy va ehtiyoj-sababli sohalari rivojlanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim shaxsni har doim rivojlantiradi, lekin o'qituvchi va o'quvchining shaxsiy har tomonlama rivojlanishigaharatilgan maxsus o'zaro munosabatlarida rivojlantirish funktsiyasi yanada samaraliroqdir. Ta'limning o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligi rivojlantiruvchi ta'lim tushunchasi

bilan ifoladanali. XX asr 60-yillaridan boshlab rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etishga nisbatan turli yondoshuvlar yuzaga keldi.

Bularning hammasi ta'limni tashkil etish faqat bilimlarni shakllantirishga emas, o'quvchini har tomonlama rivojlantirish (birinchi navbatda, aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, turlarga ajratish va boshqalarni kuzatish, xulosa chiqarish, ob'yektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirishni bilish malakasini rivojlantirish)ga xizmat qilishini anglatadi.

Ta'lim jarayoni tarbiyalovchi xususiyatga ham ega. Tarbiya va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik ob'yektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq shaxsni ta'lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillar (oilal, mikromuhit va boshqalar)ning ta'siri tufayli qiyin kechadi.

Tarbiyalash funktsiyasi - Ta'limning tarbiyalovchilik xususiyati turli ijtimoiy tuzum hamda sharoitda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Tarbiyalash funktsiyasi ta'lim mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish jarayonida yetakchi o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi. Ta'limning tarbiyalovchilik xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. Biroq, shuni ham e'tiborda tutish kerak-ki, barcha o'quv fanlari ham birdek tarbiyalovchilik imkoniyatiga ega emas. Gumanitar va estetik fanlarning bu boradagi imkoniyatlari yuqori. Ta'lim jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatning eng qulay usuli sifatida demokratik usulini e'tirof etadi. Bu usul ta'lim jarayonida o'quvchilar shaxsini hurmat qilish, ularning xohish-istaklari, qiziqishlarini inobatga olinishini anglatadi.

O'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyatlari. O'qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Ta'lim muassasasi (umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari)da tashkil etiluvchi ta'lim jarayonida o'quvchining faoliyati o'qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O'qituvchi faoliyatining vazifasi o'quvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir. Ta'lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat: rejalashtirish; tashkil etish; boshqarish (rag'batlantirish); nazorat; natijalarni baholash va tahlil qilish.

O'qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishlash kerak bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning tayyorliklari darajasi, ularning o'quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materialini mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini o'ylab chiqishi kerak bo'ladi.

O'quvchilar faoliyatini tashkil etish o'quvchilar oldiga o'quv masalalarini qo'yishni va uni bajarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati. Bilim olish faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi sifatida muayyan tuzilish, rivojlanish va faoliyat qonuniyatlariga ega. Bilim olish borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-

atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni hisoblanadi. Bilim olishning muhim komponenti motiv, ya'ni, ta'limiy xarakterdagi harakat yoki faoliyatni tashkil etishga nisbatan rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

O'qishning keyingi komponenti o'quv harakatlari (operatsiyalari) sanalaib, ular anglangan maqsadga binoan amalga oshiradi. O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko'rinida bo'lishi mumkin. Tashqi o'quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); pertseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi.

Ichki (mnemonik, yunonchadan «mnemonikon» - eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari (intellektual) kiradi. Harqanday bilimni o'zlashtirishda o'quvchilardan idrok etish madaniyatiga ega bo'lish va o'quv materialini anglab yetish talab etadi. Pedagogik jarayonda o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning ma'nosini yetarli darajada tushunmay, faqat tovushlar birligi sifatida qabul qilinishi va yodlab olinishi xavfilidir. O'quvchilarni ilmiy bilimlarni ularning mohiyatini to'la tushungan holda o'zlashtirish shartlari bilan tanishtirib, ularga o'zini o'zi nazorat qilishning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish maqsadga muvofiqdir. O'zini o'zi nazorat qilishda o'quvchilar ular qo'llayotgan aqliy mehnat vositalarining samaradorligi, shuningdek, o'z mehnati natijalarini baholashi kerak. Natijalarni baholash, nazorat qilish va tahlil etish o'quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi tomonidan o'zini nazorat qilish, o'zini baholash va o'zini analiz qilish amalga oshirish o'qituvchining shunga o'xshash o'rgatuvchi harakatlarini kuzatish asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish o'quvchilarni o'z tengdoshlari faoliyatini kuzatishga jalb etish, o'zaro nazoratni tashkil etish, o'rnatilgan mezonlar asosida o'z faoliyati natijalarini o'zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining tuzilishi. O'quvchilar o'quv idrok etish faoliyatlarini boshqarishga o'rganib olish uchun bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tuzilishini yaxshi tasavvur etish, o'quvchilar tomonidan bilimlarning egallash bosqichlarini bilishi zarur: idrok etish, o'quv materialini anglab etish, mustahkamlash, amaliy faoliyatida bilimlarini qo'llash.

- Birinchi bosqich idrok etish hisoblanadi. Psixologiyadan ma'lumki, idrok etish aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni bo'lib, u tanlash xususiyatiga ega. Shuning uchun birinchi navbatda o'quvchilarga mavzuni, ya'ni, ularning nimani o'rganishlari (masalani qo'yish)ni tushuntirib berish kerak. Shu asosida o'quv materialini bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi. U xaqiqiy mavjud yoki xayoliy predmet, hodisa, vaziyatlarni kuzatish, mumkin bo'lgan tajribalarni o'tkazishdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqich o'quvchi qaysi hodisa va voqealarni, predmetlarni o'rganish haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lganida va o'quv masalasini tushunib etganda yakunlanadi.

- Ikkinchi bosqich - o'quv materialini anglab yetish. U ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va analiz qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmunni topish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialini xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to'plamini o'rganib

chiqish kerak. Bu vaziyatda bilimlar o'rtasidagi tizimlilik muhim ahamiyatga ega. Unda o'quvchi eng asosiy, ikkinchi darajali hamda qo'shimcha, tushuntiruvchi elementlarni ajratib ko'rsatsin. O'quvchi o'quv masalasini yechish usulini tushunsa, bilimlar o'rtasidagi tizimni anglab yetsa ushbu bosqich yakunlangan sanaladi.

- Uchinchi bosqich – eslab qolish va mustahkamlash. Bu bosqich o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko'proq mashqlar, mustaqil reproduktiv va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo'ladi. Nazariy material, tushuncha, qoida, isbotlar turli xil mashqlarda takrorlanadi. O'qituvchi o'quvchilar topshiriqlarni tushunib bajarishlarini kuzatib borishi kerak. Ular matnlarni mexanik ko'chirib olishlari, topshiriqlarni bajarishlari, qoida va tushunchalarni chuqur anglab yetmay bajarishlari mumkin. Bosqich yakunida o'quvchilar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni bajarish, masalani yechish, teoremani isbotlashda foydalanishni biladilar. Ularda o'quv malakalari va ko'nikmalari shakllantirilgan bo'ladi.

- To'rtinchi bosqich bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llashdan iborat bo'ladi. Bilimlarini qo'llash o'rganilayotgan materialning mazmuni xususiyatiga qarab faoliyat turli shakllari va ko'rinishlarida amalga oshirilishi mumkin. Bu o'quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari, maktab yer maydonidagi ishlar bo'lishi mumkin. Bilimlarni egallab olish bosqichlari sxematik ko'rinishi quyidagichadir:

Bilimlarni egallash bosqichlari; Bilimlarini qo'llash; mustahkamlash; anglab yetish; idrok etish

Ta'limning gnoseologik asoslari. O'quv jarayonini mantiqiy qurilishi ta'lim mazmunining xususiyatlari va gnoseologik jihatlariga bog'liq. Gnoseologiya (yunoncha - «gnosis» («gnoseos»)- bilim, ong, o'rganish, logiya -fan, ta'limot) - bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot. Ijtimoiy taraqqiyot tarixida insonning atrof-muqitni bilishi umumiy tuzilishiga va bosqichlariga turlicha yondoshishlar ma'lum. Ana shu yondoshishlar o'quv jarayonini qurish va ta'lim mazmunini tushunish mantiqini belgilab beradi.

Muhammad al-Xorazmiy bilish nazariyasi rivojlanishiga katta hissasini qo'shgan. U birinchi bo'lib koinot ob'yektlarining harakatlari hamda yerdagi nuqtalarining joylashishini jadval ko'rinishida aks ettirib, tajriba - kuzatish va tadqiqotlar metodlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi, yagonalikning birligi tamoyili, shuningdek, alohida va umumiy, induksiya va deduktsiyalarning mohiyatini aniqlashtirdi; matematik masalalarni yechishning algoritmik metodini ishlab chiqdi. Bu metoddan bugungi kunda ham foydalanib kelinmoqda.

Al-Kindiy ilmiy bilishning uch bosqichli kontseptsiyasini ilgari suradi. Alloma insonning bilishini: sezgiga oid va ratsional bilish tarzida ikkiga ajratadi. Sezib bilishning predmeti va ob'yekti barcha jism va moddiy narsalar hisoblanadi. Kindiyning fikricha, sezib bilish aql uchun muhim materialni beradi. Faqatgina aql, tashqi dunyo haqida xaqiqiy bilim va tushunchani ishlab chiqishga qodir, - deb hisoblaydi Kindiy.

Abu Nasr Forobiy Kindiy g'oyalarining mohiyatini aniqlashtiradi. Biror narsani bilishga intilgan inson avvalo uning ma'lum holatini o'rganadi, o'zlashtirganlarini o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlarga yo'naltiradi. Alloma fanlar klassifikatsiyasi,

shuningdek, bilish faoliyatini tashkil etishga oid tavsiyalarni ishlab chiqadi. Yaxshi nazariyotchi bo'lish uchun deydi, - Abu Nasr Forobiy, - qaysi fan bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar quyidagi uchta shartga amal qilish kerak: fan asosida yotuvchi barcha tamoyillarni yaxshi bilishi; ushbu tamoyil va ma'lumotlar asosida zarur xulosani chiqarishi, ya'ni, mulohaza yuritish qoidalarini bilishi kerak; xato nazariyalarni isbotlab berish va boshqa mualliflar fikrlarini tahlil qilishni, shuningdek, haqiqatni yolg'ondan ajratish va xatoni tuzatishni bilishi zarur.

Abu Rayhon Beruniy Beruniy bilishni uzluksiz, to'xtovsiz davom etadigan jarayon sifatida tushunadi. Allomaning fikricha, insoniyat borliqning xaqiqiy mohiyati, hozircha noma'lum bo'lgan jihatlarini kelajakda bilib oladi.

Abu Ali ibn Sinoning bilish nazariyasida sabab haqidagi ta'limot alohida o'rin oladi. U sabablarni aniq, sezish asosida anglanadigan va yashirin, tashqi holatlarini tahlil etish asosida tushuniladigan sabablarga ajratadi va hodisaning mohiyati uning yuzaga kelish sabablarini aniqlash yo'li bilan anglanishi mumkin deb hisoblaydi. Alloma ushbu gnoseologik qoidani o'zining tabiblik amaliyoti, kasalliklarni ularning simptomlari bo'yicha va dorilar ta'sirini kuzatish asosida aniqlagan.

Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy 17 asrda ta'lim jarayonining mohiyatini ilmiy asoslashga urindi. Alloma tomonidan ilgari surilgan ta'limning tabiiyligi g'oyasi ta'lim jarayoni, uning tuzilishi, tamoyil va metodlari tabiat qonunlariga muvofiq belgilanishini ta'kidlaydi.

Ya.A.Komenskiyninng tabiatga bog'liqligi haqidagi g'oyasi G'arb olimlarining ta'lim jarayonining gnoseologik asoslarini ochib berish, moddiy dunyo qonunlarining o'quv jarayoniga ta'sirini ko'rsatib berishga urinishlaridan biridir.

18 asrda frantsuz olimi Jan Jak Russo ham insonning tabiat va jamiyatdagi o'rni haqidagi falsafiy dunyoqarashlar asosida ta'lim mohiyatini ochib berishga urinib ko'rgan. Olimning fikricha, ta'lim jarayonining mohiyati bolaning atrof-muhitni bilishi tabiatidan kelib chiqadi. Bola tabiat qo'ynida, qishloq joylarda rivojlanishi kerak.

Bolaning atrof-muhit mohiyatini tez anglashini xususiyatini hisobga olib ekzistentsiolizm (yunoncha «existetia» - mavjudlik) vakillari ta'lim mohiyatini quyidagicha ifoda etadilar: maktabning asosiy maqsadi intellektini rivojlantirish emas, balki bolani emotsional tarbiyalashdir.

Ekzistentsializm ratsional bilishni rad etadi, ta'lim fandan ko'ra san'atga yaqinroq deb hisoblaydi, shuningdek, borliqni bevosita bilish metodini ilgari suradi.

Ta'lim mazmuni masalalariga boshqa bir yondoshish - Pragmatizm pedagogikasi yoki progressivizm AQShda alohida rivojlandi. Uning yetakchisi Djon Dyui mazkur ta'limotni ifodalashda pragmatizmning falsafiy g'oyalarini asos qilib oldi. Pragmatizm (yunoncha pragma - ish, harakat, falsafiy amal) zamonaviy Amerika falsafasida idealistik oqim. Bu oqim haqiqatning ob'yektivligini rad etadi, haqiqat bu ob'yektiv borliqqa mos kelmaydi, balki amaliy foydali natijalar beradi.

D.Dyui fikricha, bilish va bilim inson o'z hayotida duch keladigan turli muammo yoki qiyinchiliklarni yengish vositasi hisoblanadi. Bilim yashash uchun kurash vositasi va shaxsning rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Biz faqatgina muammoni hal etayotganimizda fikrlaymiz, buning boshlanish yo'li har doim qiyinchilikni his etish hisoblanadi.

Harakatlar pedagogikasi kontseptsiyasi ko'p jihatdan Dj.Dyuining falsafiy (pragmatizm) va psixologik qarashlarining oqibati hisoblanadi. Uning muallifi, reformatorlardan biri nemis pedagogi Vilgelm Avgust Lay (1862-1926 yillar) bilim olish jarayonida ko'zga tashlanuvchi quyidagi uch bosqichni ko'rsatadi: idrok etish, qayta ishlab chiqish, ifoda etish. Bugungi kunda ham ta'lim mohiyatini tushunishga nisbatan turlicha yondoshishlar mavjud. Xususan:

Sotsiologik yondoshish. Unga ko'ra ta'limning mohiyati ijtimoiy tajribalarni yoshlarga yetkazishdan iborat. O'quvchilar insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi natijalari bo'lgan bilimlarni o'rganadilar. Ta'limning mazmuni o'quvchilarning ajdodlar tajribasini o'zlashtirishga xizmat qiluvchi jarayonini tashkil etishdan iborat. Bu falsafiy qoida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning muhim omili - shaxs kamolotini tushunishga ilmiy yondashishni anglatadi. Ta'limga bunday yondashish ijtimoiy jarayon hisoblanadi.

Boshqa bir yondashishni xususiy pedagogik yoki didaktik yondashish deb atash mumkin. Bu yondashish yaxlit ta'lim jarayonining borishini belgilab beruvchi bilim olish bosqichlari (o'quv materialini o'rganishni, uni anglab yetish, mustahkamlash, amaliy faoliyatda bilimlarini qo'llash)ni ifodalaydi. Mazkur yondashuvga ko'ra ta'lim mazmuni o'quvchilar tomonidan bilim egallash bosqichlarining ketma-ketligiga amal qilish asosida faoliyatni tashkil etishdan iborat. Kontseptsiya tarafdorlari bilish yo'lini quyidagicha formula asosida ifodalaydilar: jonli mushohadadan abstrakt fikrlashga va abstrakt fikrlashdan amaliyotga.

Ta'lim mazmunini tushunishga nisbatan psixologik yondashish bilimlarni o'zlashtirish va inson rivojlanishi borasidagi psixologik nazariyada ilgari surilgan g'oyalarga tayanadi.

Bu kontseptsianing kelib chiqishi L.S.Vigodskiyning (1896-1934 yillar) ta'limning shaxs rivojlanishida asosiy omil bo'lishi haqidagi yaqin rivojlanish zonasi deb yuritiluvchi qarashining yaratilishi bilan bog'liq. Unga ko'ra, ta'lim faqat yaqin zonada qurilganda, hali to'la shakllanmagan, lekin o'quv jarayonini qurishga asos bo'la oladigan mexanik harakatlar asoslangandagina mazmunga ega bo'ladi. Psixologik tadqiqotlar pedagogik nazariyani so'zsiz boyitadi. Bilim olish jarayonida shaxs rivojlanishining kechish jarayoni mohiyatini ochib beradi. Ammo faqat psixologik g'oyalar asosida ta'lim mohiyatini yoritish pedagogik jarayonni bir tomonlama talqin etishga olib keladi.

19 asrning 40-yillarida dialektik materializm nazariyasi asoslandi. Dialektik materializm tabiat, jamiyat va fikrlashning harakatlanishi hamda rivojlanishi borasidagi umumiy qonunlarni yorituvchi falsafiy ta'limotdir. Bu ta'limotda Feerbaxning materializmi va Gegelning dialektikasi uzviy ravishda birlashadi. Bu ta'limot ta'lim jarayoni inson ongining borliqni aks ettira olishiga imkon berishi zarur degan g'oyani ilgari suradi. haqiqatni bilish murakkab jarayon. Dialektik nazariya g'oyasiga ko'ra rivojlanishning asosi qarama-qarshilik hisoblanadi. Rivojlanish qarama-qarshi kuchlar kurashidir. Dialektik yondoshishga binoan ta'lim jarayonining asosiy qarama-qarshiliklarini quyidagilar sanaladi:

1. Ijtimoiy-tarixiy (ilmiy) bilimlar hajmi va o'quvchi o'zlashtirgan bilimlar hajmi o'rtasidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshilik ta'lim jarayonini harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. U ta'lim mazmunini doimiy takomillashtirishga olib keladi. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini ijtimoiy-teqnik taraqqiyot darajasiga

yaqinlashtirish zaruriyati ta'lim mazmunini tubdan yangilash, uni yangi tamoyil, shakl, metod va vositalarini izlashni muhim ijtimoiy vazifa qilib qo'yimoqda.

2. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan o'rganishning amaliy jihatlar (shakl, metod va vositalari)ning darajasi bilan ijtimoiy-tarixiy bilish (o'rganishning o'quvchi egallab olishi kerak bo'lgan shakl, metod va vositalari) darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilik. Bu qarama-qarshilikni hal etish o'quvchining intellektual rivojlanishi sur'ati va darajasiga bog'liq. Bir xil mazmun va hajmdagi o'quv materiali aqliy rivojlanishning turli ko'rsatkichlariga namoyon etishi mumkin.

3. O'quvchining mavjud rivojlanish darajasi bilan ijtimoiy buyurtmada ko'zda tutiluvchi rivojlanish darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilik. Agarda ijtimoiy talab bolaning idrok etish imkoniyatidan yuqori bo'lsa, unda jiddiy qiyinchilik yuzaga keladi.

XX asrning 80-90-yillarida pedagogik hodisalar, shu jumladan, ta'lim muammolarini ham o'rganishda MDH davlatlarida aksiologik yondashuv ko'zga tashlana boshladi. Aksiologiya (yunoncha «axios» - qimmatli, logiya - fan) -qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, u 19 asrning oxiri 20 asr boshlarida shakllangan.

Rossiyalik ba'zi olimlar (V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanov) mazkur yondashuvni ta'limning yangi falsafasi asosi hamda zamonaviy pedagogikaning metodologiyasi sifatida tushunishni taklif etadilar. Hayot, sog'liq, muhabbat, oila, ta'lim, mehnat, tinchlik, ishonch, go'zallik, ijod va shu kabi qadriyatlar hamma davrlarda ham inson hayoti uchun o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Insonparvarlik g'oyasi asosini tashkil etuvchi ushbu qadriyatlar tarixiy taraqqiyot jarayonida vaqt sinovidan o'tgan. O'zbekiston Respublikasida kechayotgan demokratik o'zgarishlar mazkur qadriyatlarni qayta tiklash va baholash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqmoqda. Insonparvarlik g'oyasi markazida shaxsni har tomonlama kamol toptirish masalasi yotadi. Shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi asoschilari ushbu masalani nazariya uchun qilib olganlar. Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasining g'oyalari 20 asrning 80-yillarida pedagogikaga muqobil sifatida yuzaga kelgan hamkorlik pedagogikasida o'z aksini topdi.

Hamkorlik pedagogikasini novator-pedagoglar (Sh.A.Amonashvili, S.N.Lisenko, I.P.Volkov, V.F.Shatalov, E.N.Ilin va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari (o'qituvchi va o'quvchilar) o'rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o'zaro munosabatlari tashkil etishini ta'kidlab o'tadilar. Hamkorlik pedagogikasi uchun kontseptual ahamiyatga ega qoidalari - A.Avloniy, G'.G'ulom, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, Ya.Korchak, K.Rodgers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o'z ifodasini topgan. Pedagogik hamkorlikg'oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va 21 asr ta'limi Kontseptsiyasi asosini tashkil etadi.

Pedagogik hamkorlik mazmuni va metodikasi xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Bolaga insonparvarlik asosida shaxsiy yondashuv maktab ta'limi tizimida bola shaxsi, uning hali rivojlanmagan qobiliyatlari, «men»ligi ustuvor o'rin tutadi. Maktabning maqsadi mavjud qobiliyatlarni rivojlantirish, shaxsni ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uni erkin rivojlantirishdan iborat.

Shaxsga yo'naltirilgan (rivojlantiruvchi) texnologiyalar asosida quyidagi g'oyalar muhim o'rin tutadi:

1. Shaxsga ta'limning maqsadi sifatida yangicha qarash: bola maktabda to'la huquqli shaxs, pedagogik jarayonda sub'yekt; shaxsning rivojlanishi - ta'lim tizimining maqsadi; har bir erkin, o'z fikrini mustaqil ifodalovchi, barkamol shaxsni tarbiyalash ta'lim maqsadining asosi kabi g'oyalarni aks ettiradi.

2. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bolalarga nisbatan muhabbatli bo'lish, ularning taqdiri bilan qizihish; bolaga o'z kuchi va iqtidoriga ishonitirish; pedagogik munosabatlar jarayonida u bilan hamkorlikka erishish, o'qituvchi va o'quvchining huquq jihatidan tengligi; bolaning erkin tanlash huquqi; xato qilish huquqi; o'z shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lish kabi holatlarni ifodalaydi. Aksincha, to'g'ridan-to'g'ri majburlash inkor etiladi.

3. Individual yondoshishning yangi talqini. Uning mazmuni o'quv fanini o'quvchiga emas, balki bolani o'quv faniga yo'naltirishdan iborat. Individual yondashish quyidagilarni o'z ichiga oladi: materialni o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilarga mo'ljallashdan chetlanish, shaxsning ijobiy sifatlarini ko'ra bilish, shaxsni psixologik-pedagogik diagnostika qilish.

4. Shaxsning ijobiy «Men-kontseptsiyasi»ni shakllantirish. Men-kontseptsiyasi - bu shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari asosida shaxsiy xulqini shakllantiruvchi tizim bo'lib, ijobiy Men-kontseptsiyasi (Men o'zimga yoqaman, Men har ishga qodirman, Men hamma narsani bilaman) shaxsni muvaffaqiyatlarga rag'batlantirib, shaxsning ijobiy namoyon bo'lishiga yordam beradi. Salbiy Men-kontseptsiyasi (Men o'zimga yoqmayman, Men hech narsani bajara olmayman, Men hech kimga kerak emasman) uning turli faoliyat yo'nalishlarida muvaffaqiyatga erishishiga halaqit beradi, o'qish natijalarini yomonlashtiradi, shaxsda salbiy sifatlarning shakllanishiga olib keladi. O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchi timsolida komil shaxsni ko'rish, uni tushunish, qabul qilish va unga ishonishdan iborat («hamma bolalar iste'dodli» tarzida).

5. Nimaga va qanday ta'lim? masalasini hal etishga yangicha yondashish. Uning mohiyati ta'lim mazmunini shaxs rivojlanishining vositasi sifatida tushunishdan iborat.

6. Zamonaviy maktabda tarbiyalash kontseptsiyasi. hamkorlik pedagogikasi quyidagi muhim g'oyalarni aks ettiradi: bilimlar maktabini tarbiya maktabiga aylantirish, o'quvchi shaxsini yaxlit tarbiya tizimining markaziga qo'yish, tarbiyaning insonparvarlik xususiyatiga egaligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarning shakllanishi, bolaning ijodiy qobiliyati hamda uning individualligini rivojlantirish, individual va jamoaviy tarbiyani uyg'unlikda olib borish.

Pedagogik hamkorlik yuqorida qayd etilgan g'oyalar asosida shaxsga yo'naltiriluvchi (rivojlantiruvchi) texnologiya yaratiladi. Ta'lim texnologiyasining mohiyati shaxsni rivojlantirish, ta'lim nazariyasini asoslash uchun nazariy shart-sharoit yaratish, falsafasi esa insonni shakllantirishdan emas, balki unga o'zi o'zini tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. O'quv jarayonida amal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiy va xususiy tarziga ikki guruhga ajratiladi. Amal qilinishiga ko'ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiy, amal qilinishiga ko'ra faqat alohida tarkibiy hismlariga taalluqli bo'lgan qonuniyatlar esa xususiy (aniq) deb

ataladi. I.P.Podlasiy¹⁴ ta'lim jarayonining quyidagi umumiy qonuniyatlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Ta'lim maqsadi quyidagilarga bog'liq: jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasi.

2. Ta'lim mazmuni quyidagilarga bog'liq: ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati, o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari, ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o'quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlari.

3. Ta'lim sifati (samaradorligi) quyidagilarga bog'liq: avvalgi bosqich mahsuldorligi va mazkur bosqichda erishilgan natijalar, o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi, o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish hamda o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqti.

4. Ta'lim metodlari samaradorligi quyidagilarga bog'liq: metodlarni qo'llashda bilimlari va ko'nikmalari, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta'minot hamda o'quv jarayonini tashkil etish.

5. Ta'limni boshqarish mahsuldorligi quyidagilarga bog'liq: ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va tuzatish, ta'sir ko'rsatishlarning asoslanganligi.

6. Ta'limni rag'batlantirish samaradorligi quyidagilarga bog'liq: ta'limning ichki rag'batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag'batlari.

Zamonaviy fanga aniq qonuniyatlar ko'plab soni ma'lumdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Didaktik qonuniyatlar.
2. Gnoseologik qonuniyatlar.
3. Psixologik qonuniyatlar.
4. Kibernetik qonuniyatlar.
5. Sotsiologik qonuniyatlar.
6. Tashkiliy qonuniyatlar.

Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang'ich qoidalardir.

Tamoyil (yunoncha «**principium**») - biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillarining shakllanish tarixi. Ibtidoiy jamiyatda insoniyat o'sib kelayotgan avlodga mavjud bilimlarni uzatish asosida amaliy bilimlari asta-sekin shakllangan. O'sha davrdayoq ta'lim amaliy qoidalari ishlab chiqilgan va avloddan-avlodga uzatib kelingan.

Antik davrda asosan ajdodlar tajribasi an'analar tarzida umumlashtirilib, amaliy ta'lim masalalari hal etilgan. Platon va Aristotellar tavsiya hamda qoidalar to'plami ko'rinishida amaliyot ta'lim mohiyatini umumlashtirishga uringanlar.

Sharqdagi Uyg'onish davrida (IX-XI asrlar) arab, musulmon madaniyatining Yaqin va Markaziy Osiyo halqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati bilan

¹⁴ I.P.Podlasiy. Pedagogika. Noviy kurs. – Moskva, 1999.

birlashishi asosida alohida sinkretik (yunoncha sinkretismos - birlashish, yaxlitlik, qo'shilish) madaniyat birlashgan turi yuzaga kelgan. Allomalar Muhammad al-Xorazmiy (787-850 yillar), Abu Nasr Forobiy (870-950 yillar), Al-Kindiy (800-870 yillar), Abu Rayhon Beruniy (973-1050 yillar), Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) va boshqalar uning asoschilari sifatida mashhur bo'ldilar. Bu madaniyatning asosiy markazlari Suriya, Eron, Markaziy Osiyo hududlarida joylashgan. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida ta'lim usullari, qoidalari, tamoyillari, metodlari va shakllari asosida ta'lim amaliyotining mohiyatini ifoda etadilar. Biroq ta'lim masalalari bilan ular maxsus va izchil shug'ullanmaganliklari bois maxsus didaktik nazariya yaratilmadi. Ta'limni ular fan sifatida emas, boshqa fanlarga o'rgatish san'ati, hunarmandchilik sifatida tushundilar. Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan qoida, usul va tamoyillarning aksariyati zamonaviy maktablarda ham qo'llanilmoqda.

18 asrda pedagogika amaliy tabiatshunoslik sifatida biologiya qonuniyatlariga bo'ysunishi e'tirof etilgan. Pedagogikani tubdan to'la qayta qurishni chex olimi Ya.A.Komenskiy va ingliz pedagogi Djon Lokk amalga oshirdilar. Ular pedagogik qonunlarining quyidagi uch jihatiga ko'ra guruhlaganlar: Ijtimoiy-tarixiy. Tabiiy-tarixiy. Psixologik.

Keyinchalik bir guruh ilg'or pedagoglar umumiy tamoyillar bilan qanoatlanmay, didaktik qonuniyatlarini ifoda etishga uringanlar. Xususan, Ya.A.Komenskiy didaktikaning tematik belgilariga ko'ra guruhlangan quyidagi qoidalar tizimini ilgari surdi: Ta'lim va oson o'qishning asosiy qoidalari («Buyuk didaktika»); Tabiiy o'qish va ta'limning asosiy qoidalari; Fanlarga o'qitish san'atining to'qqiz qoidasi.

Disterveg tomonidan asoslangan qoidalar soni 33 ta bo'lib, ular muayyan loyihalarga taalluqli ekanligiga ko'ra guruhlarga ajratadi (birinchi guruh - o'qituvchiga nisbatan, ikkinchisi - dars tashkil etilayotgan fanga nisbatan, uchinchisi - o'quvchiga nisbatan va xokazolar tarzida). Shu bilan birga Disterveg mazkur qoidalarning ayrimlarini qonunlar ham deb ataydi.

Ta'lim tamoyillari. Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga ko'ra tashkil etiluvchi ta'lim jarayonining tashkiliy shakl va metodlari, asosiy qoidalari mohiyatini belgilovchi mazmundir. Ta'lim tamoyillarida ta'limning aniq, tarixiy tajribaga asoslanuvchi me'yoriy asoslari (qoidalari) o'z ifodasini topgan. Ta'lim tamoyillarini bilish o'quv jarayonini uning qonuniyatlari asosida tashkil etish, uning maqsadlarini asosli ravishda belgilash va o'quv materialini mazmunini tanlab olish, maqsadga muvofiq ta'lim shakli va metodlarini tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga bu tamoyillar o'qituvchilar va o'quvchilarga yaxlit jarayonning bosqichlariga amal qilish, o'zaro alohalar va hamkorlikni amalga oshirishga imkon beradi. Ta'lim tamoyillari o'zida tarixiylik xususiyatini namoyon etadi. Ta'lim nazariyasi va amaliyoti rivojlanib borgan, ta'lim jarayonining yangi qonuniyatlari kashf etilishi bilan ta'limning yangi tamoyillari ham shakllanadi, eski ko'rinishlari o'zgardi. Bu ishlar bugungi kunda ham davom etadi. O'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini aks ettiradigan yaxlit pedagogik jarayonning umumiy tamoyillarini keltirib chiqarishga urinishlar ko'zga tashlanmoqda. Tamoyillar ta'lim jarayonining mohiyati, qoidalar esa uning alohida tomonlarini aks ettiradi. Ta'limni mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillaridan tashkil topgan tizim sifatida e'tirof etish mumkin:

Ta'limning mazmunli tamoyillari. Ular ta'lim mazmunini tanlash bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlarni aks ettiradi va quyidagi g'oyalarni ifodalaydi:

- fuqarolik;
- ilmiyligi;
- tarbiyalovchi ta'lim;
- fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi (ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi);
- tabiat bilan uyg'unligi;
- madaniyat bilan uyg'unligi;
- insonparvarligi.

Fuqarolik tamoyili. Unga ko'ra ta'lim mazmunini shaxsning sub'yektivligini rivojlantirish, uning ma'naviyligi va ijtimoiy yetukligiga yo'naltirishda namoyon bo'lishi kerak. U ta'lim mazmunini insonparvarlashtirishni nazarda tutadi va fuqarolikni anglash, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzilishi haqidagi tasavvurlar tizimi, o'zbek xalqi madaniyati psixologik xususiyatlari, uning mentalitet xususiyatlari, milliy siyosati va madaniyati kabi dolzarb masalalar haqidagi tasavvurlarining shakllanishi bilan bog'liq. Ta'limning ilmiyligi tamoyili ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni o'quvchilarni ob'ektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollari ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki kontseptsionalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Ta'limning tarbiyalovchilik tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

Ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi tamoyili umumiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi kabi ifoda etiladi. O'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'la va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. U odamdan yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslangan. Fundamental bilimlar aniq bilimlariga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va qotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishni talab etadi.

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy o'zining tabiatga uyg'un bo'lishi g'oyasini ifoda etib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligini ta'kidlaydi. Ertalabki soatlar mashg'ulotlarni bajarish uchun juda qulay hisoblanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular

uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Demak, tabiat bilan uyg'unlik g'oyasi asta-sekinlik, ketma-ketlik va mustaqil faoliyat kabi ta'lim tamoyilining asosi hisoblanadi.

O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy ham (1878-1934 yillar) ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yishda tabiatga uyg'un bo'lishi g'oyasining davomchisi bo'lgan. O'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» nomli asarida bola shaxsining tabiiy mukammalligiga ishonch bildiradi. A.Avloniy bola tabiatan go'zallik va mehribonlik bilan uyg'unlikda tug'iladi, deb yozadi. Allomaning fikricha, ta'lim va tarbiyaning vazifasi bola shaxsining rivojlanishi uchun yordam beruvchi sharoitlarni yaratishdan iborat. Abdulla Avloniy bolani milliy madaniyat, vatanga muhabbat asosida tarbiyalash g'oyasining tarafdori bo'lgan, bu xususida allomaning asarlarida quyidagi fikrlar o'z ifodasini topgan: «... odam tug'ilgan va o'sib ulg'aygan shaharni va shu shahar joylashgan mamlakatni bu odamning Vatani deb aytadilar. Biz turkistonliklar o'zimizning quyoshli diyorumizni jonimizdan ham ortiq yaxshi ko'rishimiz kabi arablar o'z Arabistonini, ... eskimoslar esa o'zlarining Shimolini yaxshi ko'radilar»- deb yozadi. A.Avloniyning fikricha, xalq parvarlikka asoslangan ta'lim va tarbiya yoshlarga vatanparvarlik namunalarini ko'rsatishga undashi kerak.

Ta'limda insonparvarlik tamoyilini bolaning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini, uning erkinligi hamda baxtli hayot kechirishini ta'minlash, uni rivojlantirishi, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, unga hayotda o'z o'rnini topishda yordam ko'rsatishi va xokazolarni nazarda tutadi.

Insonparvarlik va odamiylik so'zlari yunoncha «qumanus» - odamiylik- bir so'zdan kelib chiqqan. Insonparvarlik, odamiylik ma'naviy-axloqiy tushunchalardir. Insonparvarlik g'oyasi antik davr faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va boshqalar) qarashlarida ilk bor ko'zga tashlanadi. Markaziy Osiyoda insonparvarlik g'oyalari Sharq Uyg'onish davrida keng rivojlandi. Abu Nasr Forobiyning fikricha, bolani eng avval o'qimishli, saxovatli inson qilib tarbiyalash kerak, zero, salbiy nuqsonlar bolalikdan paydo bo'ladi. Shu bois oilada tarbiyani yo'lga qo'yishda xato qilmaslik zarur. O'zbekiston Respublikasida huquqiy, demokratik jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda uzluksiz ta'lim tizimi oldida barkamol, har tomonlama rivojlangan, erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Mazkur vazifa ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish orqali ijobiy hal etiladi. Bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish ularning taqdiri haqida qayg'urish, uning qobiliyatini ko'ra olish, unga ishonish, shuningdek, bolaning xatoga yo'l qo'yish, shaxsiy nuqtai nazarga ega bo'lish huquqini qadrlashni nazarda tutadi.

Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari. Ta'limni tashkil etish metodikasi ta'lim mazmunini shakllantirish kabi erkin tanlanishi mumkin emas. Bu borada muayyan ijtimoiy, psixologik va pedagogik talablarni inobatga olish zarur. Bunday talablar ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari deb yuritiluvchi tamoyillar mazmunida o'z ifodasini topgan:

- ta'limning izchilligi, tizimlilik, ketma-ketligi;
- ta'limda ongllilik va ijodiy faollik;
- ta'limda ko'rgazmalilik;
- ta'limning samaradorligi va ishonchliligi (mustahkamligi);
- ta'limning tushunarlilik;

- guruhli va individual ta'lim birligi;
- ta'limning o'quvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;
- oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqliligi;
- pedagogik hamkorlik.

Ta'limning izchilligi, tizimlili, ketma-ketligi tamoyili bilish bosqichlarining ob'yektivligini anglatadi. Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan sub'yektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida partsial (yunoncha «partialis» - qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi. Muntazamlilik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning muntazamliligi va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qarama-qarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi.

Onglilik va ijodiy faollik tamoyili. Uning asosini fanni o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'luvchi qoidalar majmuini shakllantirish tashkil etadi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: ta'lim motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ko'rgazmalilik tamoyili ta'lim jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning «**oltin qoidasi**» deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. Agarda biz o'quvchilarda qaqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan Ta'limga intilishimiz kerak, - deb ta'kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin». Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15 foiz, ko'rib qabul qilish esa 25 foizni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 foizgacha ortadi. Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta'limning samaradorligi va ishonchliligi tamoyili. An'anaviy didaktikada u mustahkamlik tamoyili kabi ifoda etiladi. Agarda o'qitish jarayoni ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlamasa, u holda ushbu jarayonni tashkil etish zaruriyati yuzaga

kelmaydi. Shu bois ta'lim samarali, shuningdek, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'lishi kerak. Ta'limning ishonchliligi va mustahkamliligini ta'minlash uchun o'quvchilar o'hish jarayonida o'quv-o'rganish harakatlarining quyidagi to'la siklini o'zlashtira olishlari zarur: o'rganilayotgan materiallarni dastlabki qabul qilish, uni chuqurroq anglab yetish, eslab holish, o'zlashtirilgan bilimlarini qo'llash bo'yicha ma'lum faoliyatni amalga oshirish, ularni takrorlash va tizimlashtirish. Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g'oyalar, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta'limning tushunarligi tamoyili o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'liqiga yomon ta'sir etuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta'limning tushunarli bo'lishi o'quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir, ya'ni, har bir o'quv fani bo'yicha o'quvchilar egallab olishi zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalari hajmini to'g'ri aniqlashdir. Bu tamoyil o'quv jarayonini o'quvchilarda qiyinchiliklarni yengish istagini xosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg'usini yuzaga keltirishga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko'zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o'quv masalalarini yechishdagi ishonchsizlikni yo'qotishga yordam beradi.

Guruhli va individual ta'limning birligi tamoyili shaxsning, bir tomondan atrofdagilar bilan munosabatda bo'lish, ijtimoiy aloqalarni yo'lga qo'yishga intilishi, ikkinchi tomondan esa, yakka holda ta'lim olishga bo'lgan xohishini aks ettirishga xizmat qiladi. Muomala faoliyatning alohida turi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida boshqalar haqidagi tasavvur va tushuncha yuzaga keladi. Atrofdagilar bilan munosabatni yo'lga qo'yish o'zaro aloqalarning xosil bo'lishi va rivojlanishini, alohida bo'lish esa shaxsning ijtimoiylashuvi hamda rivojlanishini ta'minlaydi. An'anaviy ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra guruhli hisoblanadi, zero, u 30-40 nafar o'quvchilardan iborat o'quv guruh (yoki sinf)larida tashkil etiladi. 100-200 nafar talabalardan iborat kurslarda esa ta'limga sarflanadigan harakatlarni kamaytirish maqsadida ma'ruzalar o'hish tashkil etiladi. Guruhli ta'lim munozara, muzokara tashkil etish uchun qulay sharoitga ega bo'lib, o'quv masalalarini yechishning eng samarali yo'llarini birgalikda izlashni ta'minlaydi, o'zaro yordam ko'rsatish uchun sharoit yaratadi, o'quvchilarning mas'uliyat hissini oshiradi. O'quv muvassasalarida guruhli ta'limni tashkil etish jamoani shakllantirishning asosiy shakli sanaladi.

Ta'limning o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyili o'quvchilarning yoshiga ko'ra va individual yondashuvni anglatadi. Yoshiga muvofiq yondashish o'quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi o'quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda holsa yoki ilgarilab ketsa, o'quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o'quvchilarning murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo'ladigan ko'p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi. Oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini

hurmat qilishning birgaligi tamoyili pedagog tarbiyalanuvchini shaxs sifatida hurmat qilishi zarur. Oqilona talabchanlik maqsadga muvofiq bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayoni, shaxsning to'liq va barkamol rivojlanishini ta'minlay olsa samarasi ancha yuqori bo'ladi. O'quvchilarga nisbatan talabchanlik ularni tartibli, intizomli bo'lish, burchlarni o'z vaqtida bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashi lozim. Shaxsga hurmat insondagi ijobiy hislatlariga tayanishni ko'zda tutadi.

Hamkorlik tamoyili ta'lim jarayonida shaxsning ustuvor mavqeini ta'minlash, uning o'z-o'zini anglashini anglatadi. Bu tamoyil o'zaro munosabatlar jarayonida sub'yektlar o'rtasidagi aloqalarning dialog shakli, shaxslararo munosabatlar mazmunida esa empatiya (yunoncha «empatxia» - birgalikda tashvishlanish, ya'ni, boshqa odamning tashvishlarini tushunish)ning ustunligiga erishishni talab etadi.

Mavzuga oid test savollari:

1. "Ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi" tushunchalari didaktikaning qaysi jihatini yoritadi?
A) ta'lim natijasi, B) ta'lim vositalari, S) ta'lim funksiyalari
2. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi qay tarzda ta'minlanadi?
A) Davlat ta'lim standartlari va davlat talablari asosida
B) Umumiy o'rta ta'lim standartlari asosida
S) Kadrlar tayyorlash milliy modelini amalga oshirish jarayonida
3. Ya.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asari nechanchi yilda yozilgan?
A) 1630, B) 1631, S) 1632
4. O'quv jarayoni nimalardan iborat?
A) ta'limning maqsadi, mazmuni, baholash, o'qish va o'qitish
B) harakatlar, shakllar va chizuvlar, S) ishchi va yordamchi vositalar paneli
5. "Tizim" so'zi haqida tushuncha?
A) qismlardan tuzilgan, birikkan yaxlit narsa yoki hodisa
B) gaplarni yozib saqlab olish, S) o'quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantirish
6. Chiqarmoq, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, oldindan aytish, bo'lib chiqmoq, taqsimlash, tekshirmoq.
A) analiz, B) bilish, S) sintez
7. An'anaviy yondashuvning asosiy xususiyati nimada?
A) gapirib berish, tushuntirish, talaba esa bu axborotni xotirada saqlaydi
B) Ijodiy yondashuv, S) nazorat turlari (ON,JN,YaN)

Masala:

1. Bir o'qituvchi maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktori o'rinbosariga bunday dedi: «Men dars beradigan 8-a sinfda o'quvchilarning darsga sababsiz kelmay qolish xollari ko'payib ketdi, bolalar darsda shovqin-suron qilib o'tirishadi, menga quloq solishmaydi, o'zlashtirishlari yomon. Bu ishda sizdan, ota-onalar menga yordam berishingizni iltimos qilaman».

1. Bu muammoni to'g'ri hal qilishda maktab direktori qanday yo'l tutishi lozim?

2. Siz shu o'qituvchi o'rnida bo'lsangiz, qanday yo'l tutar edingiz? Direktor o'rinbosari o'rnida-chi?

2. Quyidagi «...donolar bisotidan...» deb nomlanmish hikoyatlardan parchalarni o'qing va mushohada qiling.

Ilm o'rganish fazilatlari haqida

Allohning yerdagi elchisi Rasululloh aytmishlarki, ilm o'rganish har bir mo'min va musulima uchun farzdir. Ilm tolibi uchun borliq mayjudot, hatto dengizdagi baliqlar ham (o'z) gunohlarini so'rab istig'for aylaydilar.

Ilm ibodatdan afzaldir, chunki u dinni tutib turuvchidir. Bilim olmoq ikki toifaga bo'linur, ya'ni chin qalban ilmga tashnalikdur, bu foydali ilmdur. Bunday ilm kishi hayotini toabad nurafshon qiladur. Ikkinchi xildagi ilm esa faqat tildagidur.

Savol: Bu hikoyatda qanday ilm to'g'risida fikr bildirilyapti?

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilishdan maqsad nima?
2. "Ta'lim tog'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qanday amalga oshiriladi?
3. Ta'limning milliy modeli qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
4. Ta'limda "Portlash effekti" deganda nimani tushunasiz?
5. Uzluksiz ta'lim tizimi turlarini sanang.
6. Nima uchun DTS ta'lim mazmunining mezoni hisoblanadi?
7. O'qitishga nima uchun ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalar qo'yiladi?
8. Ta'lim qonuniyatlarining muayyan fanlarni o'qitishdagi ahamiyatini izohlab bering.
9. Ta'lim tamoyillari o'qitish jarayonida qanday vazifalarni bajaradi?
10. Mutafakkirlarning ta'lim to'g'risidagi g'oyalari hozirgi ta'lim tizimi uchun didaktik asos bo'la oladimi?

7-mavzu: O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi va uni tashkil etish tamoyillari.

Reja:

1. O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi va uni tashkil etish tamoyillari.
2. O'zbekiston Respublikasining ta'limga oid qonunlari.
3. Respublikamizda DTSni ishlab chiqish va uni amalga kiritilishi.
4. Ta'lim va tarbiyaning birligi.
5. Bilimlarni kuzatish, nazorat qilish va baholash.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Xalq ta'limi tizimi - muayyan mamlakatning ichki va tashqi kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi hamda ma'lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta'lim-tarbiya muassasalarining tuzilishiga aytiladi.

Standart - ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir.

O'quv reja – har bir mutaxassislik bo'yicha malaka va DTSda keltirilgan talablarni ta'minlovchi muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni kurs va semester davomida o'rganishning izchilligi va soatlaridagi qatnashishni belgilaydigan hujjat.

O'quv rejasining moduli – uzluksiz ta'lim mazmunining asosiy invariant tarkibiy komponentlarini aks ettiruvchi o'quv rejasini taqdim etish shakli.

O'quv fani – ta'lim muassasalarida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o'quv va ko'nikmalar tizimi.

O'quv fani dasturi – o'quv rejasi kabi muhim davlat hujjati bo'lib, unda muayyan o'quv predmeti ochib beriladi va o'quv yili davomida ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi.

Darslik – DTS, o'quv dasturi, uslubi va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g'oyalari singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

O'quv qo'llanma – bu darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirishni ta'minlovchi ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki mashq va mashg'ulotlar olib borishga mo'ljallangan nashr.

Ta'lim tamoyillari – o'qituvchining faoliyatini va talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va yo'l-yo'riqlarini o'z ichiga oladi.

Electron darslik – bu an'anaviy darslikdan farqli o'laroq, fanga oid tegishli materiallarni dinamik talqinda, ya'ni foydalanuvchi e'tiborini jalb qiluvchi turli ranglardan, multimediya, audio va video animatsiyalar, gipermurojaatlardan foydalangan holda tuzilgan yoxud dasturlashtirilgan darsliklar.

Ma'ruzalar to'plami – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turadigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi bo'yicha chiqariladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik (uslubiy) qo'llanma – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik qo'llanma – o'qituvchilar va bilim oluvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Lug'at – aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi, idiomalar va h.k) to'plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to'g'risida ma'lumot beruvchi yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi nashr.

Izohli lug'at – so'zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so'zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo'llashga oid misollar va boshqa ma'lumotlar keltirilgan, qo'shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

Ta'lim berishda ta'lim tamoyillari o'qituvchi faoliyatini va talabaning bilim faoliyati xususiyatini belgilovchi omildir. Uzluksiz ta'lim kadrlarni tayyorlash tizimining asosi va kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri deb, ta'kidlanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'lim tizimi o'quv-tarbiya jarayonining hamma bosqichlarini qamrab oladi hamda har tomonlama yetuk barkamol avlodni yetishtirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shu sababli mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari (printsiplari) belgilanadi.

Ta'lim tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Ta'limning tarbiyaviyligi.
2. Ta'limning nazariya bilan amaliyotni bog'liqligi.
3. Ta'limda ilmiyligi.
4. Ta'limning izchilligi.
5. Ta'limning tushunarliqligi.
6. Ta'limning ko'rgazmaliligi.
7. Mustahkam bilimlar tamoyili.
8. Ta'limni individuallashtirish (yakka holdagi) tamoyili.
9. Ta'lim jarayonida shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish.

Ma'lumki, qonuniyat – bu barqaror, zaruriy, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlar o'quv jarayonining xarakteri, uning vazifalari, mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini qonuniy aniqlab beradi. Agar o'qitish jamiyat talablarini e'tiborga olmasa u holda uni, albatta qayta qurish, takomillashtirish kerak.

Demak, ta'lim berish, tarbiyalash va talabalarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur. Ifodalangan qonuniy didaktik aloqalarni va o'qitish qoidalarini ilmiy asoslangan o'zaro bog'lanishda qo'llash ko'nikmalari va malakalarini chuqur, puxta, ongli va ta'sirli o'zlashtirilishini ta'minlaydi. O'qitishni aynan shunday natijaga haratish uning onglilik, puxtalik, ta'sirchanlik xarakterini ta'minlaydi.

Ta'limning mazmuni hayot, hozirgi zamon fani bilan bog'langan bo'lganligi uchun ham, vazifalarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish muammolari ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish kabilar asosida intensivlash o'z aksini topishi kerak. Har bir o'qituvchi shuni anglab yetishi muhimki, o'quv jarayonini samarali qurish – bu ishda o'zini oqlagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, didaktik qoidalarni hozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni hal qilishda ijodiy foydalangan holda, ulardan butunlay va o'zaro aloqada foydalanish demakdir.

Ta'lim tamoyillari – o'qituvchining faoliyatini va talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va yo'l-yo'riqlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta'lim qoidalari har ikkala faoliyatni, ya'ni o'qituvchi va talaba tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumiyashtirib beradi.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim manbai, didaktik vazifalarga qarab munosib ravishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning ma'ruza (suhbat) metodi;
- o'qitishning amaliy ishlar metodi;
- laboratoriya ishlari metodi;

- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli evristik modellashtirish metodi;
- o'qitishning muammoli – izlanishli va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va diduktiv metodi;
- o'qitishning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodi.

Zamonaviy ta'lim berishda o'qituvchi eng samarali usul bo'lgan innovatsion usullarni bilishi va amaliyotda qo'llay olishi kerak.

Ta'lim berish, har bir mavzuning mag'zini talabalar ongiga yetkazish mahorati o'qituvchidan ko'p izlanishni, ko'p mutolaa qilishni talab qiladi. Bilim ummoniga boy bo'lgan ustozgina mavzuning mag'zini talabalar ongiga mohirona yetkaza oladi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi.

Xo'sh ta'limda davlat standarti nima?

Ta'limni standartlashtirish insoniyatning ijtimoiy ongida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan zaruratdir. Chunki, axborotlar almashinuvi maksimal chegaraga yetgan davrimizda dunyoning bir burchagida yashayotgan kishi ikkinchi qutbda sodir bo'layotgan voqealarni bilibgina qolmay, ularning ne boisdan aynan shu tarzda ro'y berganini anglashi va his qilishi zarurdir. Bir sayyorada bir vaqtda yashab turib, bir-birini tushunmaslik ba'zi insonlar o'rtasidagi munosabatlarni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishi mumkin.

Shuning uchun ham iqtisodiy axvoli va taraqqiyot darajasi turlicha bo'lgan davlatlarda yashovchi barcha kishilarning fikrlash darajasini iloji boricha bir xil holatga keltirish ehtiyoji paydo bo'ldi. Bu adolat ta'lim standartlari deb atalmish tushunchani yuzaga chiqardi.

Standart - ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda talablarni haddan tashqari o'zgartirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya'ni talaba yoshiga mos, uni bajarishga qurbi yetadigan darajada bo'lishi kerak. Bunda albatta ta'lim oluvchining qiziqishi, xohishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim. Ta'lim standartlarini o'zlashtirishda shaxsga muhim ahamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maqsadga muvofiqdir. Standartlarni o'quv jarayoniga tadbiq etishda o'ta puxtalik bilan tajriba-sinovdan o'tkaziladi va shu asosda bosqichma-bosqich o'quv jarayoniga kiritib boriladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo'yayotgan ekan, o'sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo'lgan ijtimoiy sifatlarning minimal chegarasini ham ko'rsatib berishi tabiiydir. Tarbiyalanuvchi yoki ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yoxud ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat-davlat ta'lim standarti hisoblanadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, davlat ta'lim standarti (DTS) nazorat vositasi, ayni vaqtda ta'lim muassasalarida ko'zlangan ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash ulchovi hamdir. DTSning ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Bunday standartlar umumiy o'rta maktablarda talabalarga beriladigan ta'lim mazmunining majburiy minimumi o'quv dasturlari va darsliklarda to'liq o'z ifodasini topishi shart. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko'ra talaba

muayyan bosqichda egallashi shart bo'lgan bilim ko'nikma va malakalarning minimal miqdori belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari boshlang'ich ta'lim hamda umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladi. Bitiruvchi har bir talaba davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga erishgan bo'lishi shart.

Ta'lim standartlari joriy qilinsa, davlat buyurtmachi sifatida ta'lim muassasalari oldiga vazifa qo'yadi. Mazkur muassasalar esa mana shu vazifalarni yaxshiroq uddalash uchun talabalarga qaysi bosqichda qancha bilim, ko'nikma, malaka yoki ma'naviy sifatlar singdirishi lozimligini aniq belgilab olgan holda ish ko'radi. Shu tariqa ta'lim-tarbiya jarayonini tavakkalchilikdan, ko'r-ko'rona faoliyat ko'rsatishdan qutiladi, ilmiy asoslangan me'yoriy talablar asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga DTS ni joriy etish talablari rivojlangan g'arb mamlakatlari tajribasiga asoslanadi. Mazkur yumushga birinchi bo'lib qo'l urgan Frantsiyada bu ish hanuzgacha sinov darajasida, AQSh da esa DTS yaratishga endi kirishilmoqda. Yaponiya va Germaniya ta'lim muassasalarida mazkur muammoni hal etish rejalashtirish bosqichida turibdi. O'zbekistonda ta'lim standartlari masalasiga davlat miqyosida yondoshildi va uni ilmiy yo'sinda hal etishdan tashqari ta'lim-tarbiya amaliyotiga joriy qilish maqsadida uzoq vaqt izlanishlar olib borildi, tajriba-sinovlar amalga oshirildi.

Shuni aytish kerakki, davlat ta'lim standartlari atamasi XX asrning 70-yillarida tug'ilgan va endigina amalga oshirila boshlagan bo'lsada, aslida u bugun paydo bo'lgan yangilik emas. Negaki, ta'lim-tarbiya tushunchasi oldiga muayyan talablar qo'yila boshlagan zamonlardan buyon shunday me'yorlar mavjud. Faqat qadimda ular standart deb atalmagan. Lekin mohiyat e'tibori bilan har qanday jamiyat tarbiya muassasalari davlatga qarashli bo'lmagan zamonlarda ham o'z talablari tizimiga ega bo'lgan. Chunki ta'lim-tarbiya muassasasini bitiruvchisi muayyan jamiyatda yashashi, faoliyat ko'rsatishi lozim. Binobarin, u o'sha jamiyat talablari darajasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi shart hisoblangan.

Mamlakatimizda pedagogika ilmi ham, amaliyoti ham yangilanib bormoqda. Ma'lumki, har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi. Yoshlar esa bugungi kunda oilada va asosan ta'lim-tarbiya muassasalarida shakllantiriladi. Shuning uchun ham mustaqil davlatimiz va uning rahbariyati ana shu muassasalar faoliyati imkon qadar zamon talablari darajasida bo'lishiga e'tiborini haratmoqda.

DTS barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatdagi samaradorlikni nazorat qilish vositasidir. Hozir yaratilayotgan barcha didaktik vositalar ana shu standartlarga muvofiq bo'lishiga katta e'tibor berilmoqda.

Xolbuki, talabani o'qitish kerak emas, uni o'zi o'qiydigan holatga olib kelish lozim. Toki bolaning o'zi izlanmas ekan, ta'limda yutuqqa erishish mumkin emas. Demak yaratilayotgan didaktik vositalar jumboqli xarakterga ega bo'lishi, talabalarni o'ylanishga, izlanishga, sinab ko'rishga da'vat qiladigan tarzda tuzilishi lozim.

Ko'pchilikka ma'lumki, Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XIY sessiyasida "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" mavzusidagi ma'ruzasida ta'limda davlat standartlarini sinovdan o'tkazish va joriy etish bo'yicha mutasaddilar oldiga turli vazifalarni qo'ygan edi.

Yangi o'quv yili boshlanguniga qadar mazkur tajriba qanday o'tayotganini va uning dastlabki natijalarini chuqur tahlil etib, ta'lim andozalari, o'quv rejalari va dasturlari mazmuniga islohotlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda ya'ni yosh avlodni kamol toptirishga, qaratilgan zarur tuzatishlar kiritish zarur".

Davlat ta'lim standartlarini qo'llash o'z-o'zidan paydo bo'lib holmaganidek uni yaratish ham tasodifiy hol emas.

O'zbekiston respublikasi OVO'MTV ta'limda islohotlarni amalga oshirish boshlangan dastlabki yillardanoq ta'lim dasturlarini yangi maqsadlar yulida qayta yaratish, ta'lim kontseptsiyalarini standartlarini ishlab chiqish va joriy etishga, ularni tajriba-sinovdan o'tkazish, ta'lim standartlari asosida faoliyat ko'rsatadigan maktablar sonini kengaytirib borish yo'lidan bordi, xorijiy davlatlarning bu sohadagi tajribalarini o'rganish, ularni xalqimizning etnik xususiyatlari, milliy shart-sharoitiga moslashtirilgan holda, joriy etish masalasiga alohida ahamiyat berdi.

Ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish bo'yicha o'tkazilgan ana shu tajriba asosida O'zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy - tadqiqot instituti olimlari tomonidan qisqa vaqt ichida 24 o'quv fani bo'yicha davlat ta'lim standartlarining loyihasi ishlab chiqildi. Ularni yangi o'quv dasturlari bilan birgalikda Respublikadagi 24 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tajriba sinovidan o'tkazishga kirishildi. Olingan natijalarini ilmiy-metodik tahlil qilish amaliy xulosalar tayyorlash tadqiqotlar samaradorligini nazorat qilish eksperimentator talabalarga nazariy-metodik yordam berish, tajriba-sinov maydonlari faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zPFITI qoshida axborot markazi tashkil qilindi.

Prezident I.A.Karimovning Oliy Majlis sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlangan g'oyalari asosida sinovdan o'tkazilgan davlat ta'lim standartlari, tayanch o'quv rejasi va o'quv dasturlari mazmuniga islohotlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda zarur tuzatishlar kiritildi. Takomillashtirilgan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi qarori, o'quv dasturlari esa Xalq Ta'limi Vazirligining 1999 yil 26 avgustdagi hay'at majlisi qarori bilan tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini 1999-2000 o'quv yilidan boshlab o'quv dasturlari bilan birgalikda bosqichma-bosqich o'quv jarayoniga joriy etish belgilab qo'yildi.

Ta'lim rivojlanib, takomillashib borayotgan bir davrda o'qituvchining asosiy hujjati bo'lgan o'qitayotgan predmeti bo'yicha tuzgan yillik taqvimiy mavzu rejasida DTS talablari aks etishi va alohida ko'rsatilishi ta'lim faoliyatiga yanada aniqlik kiritadi. Rejada ko'rsatilgan mavzular bo'yicha alohida "DTS talablari" degan bo'lim kiritilib, bu talablar rahbar darsda qanday amalga oshirilishi aniq ko'rsatilishi kerak. Bundan tashqari va darsliklardagi fan bo'limlari yoki bob yakunida ham DTS talablarining ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dars mashg'ulotlarida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda DTS talablariga alohida e'tibor berish, shunga muvofiq testlar turli topshiriqlar, mavzuga muvofiq ko'rsatmalar, ta'limiy o'yinlardan foydalanish, darsda kichik-kichik guruh bilan ishlash, talabalarni erkin fikrlashlarini ta'minlash DTS talablarini bajarishda ancha qulaylik tug'diradi.

Umuman rejani DTS talablari asosida qayta ishlab chiqib, har bir mavzu bo'yicha DTS talablari aniqlangandan keyin o'qituvchi darsni diagnostik tashxislangan

tarzda olib borilishi kerak. Ya'ni darsning maqsadini aniq ko'rsatilishi, maqsad asosida mavzusini o'zlashtirishga erishish va shu darsning o'zida testlar va topshiriqlar bilan talabalarni o'zlashtirish darajalarini aniqlab, baholash lozim. O'tilgan darsni natijasiga qarab, o'qituvchi darsni qanday tashkil etish zarurligini belgilab oladi.

O'qituvchi ta'lim samaradorligini oshirishda faqat dars bilan cheklanib qolmay, darsdan tashqari paytlarda turli tadbirlarni ham rejalashtiriladi. Shunday tadbirlarning asosiy maqsadi talabalarning fan yuzasidan bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish, hayotga tadbiq etish va fanga bo'lgan qiziqtirishni oshirishdan iborat.

DTS talablarini bajarishga erishish faqat o'qituvchining fidoiyligi yetarli emas. Bu ma'suliyatli vazifani amalga oshirishda yuqorida aytilganidek talaba ham, ota-ona ham mas'uldir.

DTS talablarini bajarishga erishishda ota-onalar ham farzandlar tarbiyasiga, ularning o'qishiga mas'ul bo'lgan asosiy kishilardir. O'qituvchi ota-onalarga DTSning mohiyati, farzandlarining kelajagida uning ahamiyatini ongli ravishda anglab etishlarida yordam berish kerak. Zero, ota-ona o'z farzandlarining qanday shaxs bo'lib shakllanishida javobgar ekanligi "Ta'lim tog'risidagi" qonunda alohida ta'kidlangan ekan, DTS talablariga erishish borasida ham o'zining faolligi va fidoiyligi bilan o'qituvchining qo'llab-quvvatlashlari zarur.

Oliy ta'lim tizimida o'qitish talabalarni axloqiy mukammallashtirish bilan bog'lab olib boriladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. Shaxsning jamiyat va Vatanga, mehnatga, kishilarga, o'z xulqiga munosabatlarini quyidagicha tekshirmoq mumkin: jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, yetukligi, baynalmilallik kabi fazilatlarida aks etadi, uning maqsadlarida, Vatan boyliklarini ko'paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik va baynalmilallik axloqiy tarbiyada alohida o'rin tutadi. Hadisi Sharifda, Vatanni sevmok iymondandir, deb bejiz aytilmagan. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash shaxsning butun ma'naviy yo'nalishini belgilaydi, chunki ishlamay, kurashmay yashash mumkin emas. Mehnat-yashash manbai. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va jamoa mehnatiga tayyorgarlik, mehnatni hurmat qilish va mehnatsevarlikda ifodalanadi. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat shaxsning jamoatchilik, ko'pchilik manfaatini o'z shaxsiy manfaatidan ustun qo'yishdir. Shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi bu talabani o'z-o'zini ongli intizom ruhida tarbiyalashga o'rgatishdan iboratdir. Intizom axloqiy norma bo'lib, shaxsning fuqarolik qiyofasini belgilaydi. Axloqiy munosabatlar dastavval oilada shakllanadi. So'ng oiladagi munosabatlar yasli va bolalar bog'chalarda, maktab va oliy o'quv yurtlarida, jamoat joylarida takomillashib boradi. «Tarbiyani,- deydi Abdulla Avloniy,- tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, axloqimizni go'zallantirmoq, zehnimizni ravshanlantirmoq lozim ekan. Tarbiyani kimlar qiladi? qayda qilinadi? Bu savolga «birinchi tarbiyachi» deb javob bermoq lozim». Demak, adib ham oila tarbiyasiga alohida ahamiyat beradi.

Maktabda bolalarni axloqiy tarbiyalash dars jarayoni, sinfdan va maktabdan tashqari turli-tuman ishlarda olib boriladi. Talabalarga bilim (tasavvurlar-hissiy, obrazli

bilimlar, axborot-og'zaki ma'lumot, tushuncha-umumlashgan bilim), malaka va odatlar beriladi. Talabalarning o'z xulqini axloqiy jihatdan baholashlarini birinchi sinfdan boshlab o'rgata borish kerak. Oliy o'quv yurtlarida talabalarga mehnatni sevish, mulkni ehtiyot qilish, hurmat, rostgo'ylik, sofdillik, vijdon, kamtarlik ma'nolarini takomillashtirib borish lozim. O'quv yurtlarida «Mardlik va qo'rqqoqlik», «Jamo'a nima?», «Inson go'zalligi nimada?», «Axloq va qonun», «Axloq va shaxs erkinligi», «Ona yurtning omon bo'lsa» mavzularida suhbatlar uyushtirib turish kerak. O'quv yurtlarida axloqiy tarbiya berishda xilma-xil usullar qo'llaniladi. quyida shu usullardan namunalar keltiramiz:

Axloqiy tarbiya ta'lim jarayoni bilan qo'shib olib boriladi. Buyuk nemis pedagogi A. V. Disterveg aytganidek, yaxshi o'qiy bilgan talaba, yaxshi tarbiyalanadi. Axloqiy tarbiya jarayonining muvaffaqiyati talabalar va o'qituvchilar jamoasining saviyasiga bog'liq. Buning uchun jamoa ahil va inoq, intizomli bo'lishi kerak. Tarbiyaviy ishlarning rejali bo'lishi va hamjihatlik bilan amalga oshirilishi axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. A. S. Makarenkoning «O'nta yuqori malakali, o'z holicha ishlaydigan o'qituvchidan malakasi past, bir yoqadan bosh chiqaradigan beshta o'qituvchi afzal» degan. O'quv yurtida ijodiy emotsional sharoit yaratish axloqiy tarbiya jarayoniga foydali ta'sir etadi. Masalan, Respublika mustaqilligi kuni va Navro'z bayramiga o'xshagan tantanali kunlarni nishonlash. Barcha talabalarning o'quv yurtidagi umumiy va yagona tartib-qoidaga rioya qilishlariga erishish. Axloqiy tarbiyada ongini, tushunchalarni shakllantirish, uqtirish, suhbat, munozara, ma'ruza, rag'batlantirish va jazolash usullaridan foydalanish. Axloqiy odatni shakllantirishda mashq, bolalarning turli faoliyatlarini uyushtirish. Ma'naviyat va marifat darslari saviyasini oshirish. Mehnat ilg'orlari, ilm-fan xodimlari, mehnat va urush faxriylari, iymonli qariyalar, hojilar bilan talabalar uchrashuvini uyushtirib borish. O'quv yurtida turli-tuman tadbirlar, adabiy kechalar, bayram, olimpiada, festival, sport musobahalari o'tkazib turish, kinoteatr, oynai jahon ko'rsatuvlaridan, jumladan, «Otalar so'zi-aqlning ko'zi», «Ma'rifatnoma» eshittirishlaridan, yangi tashkil etilgan «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi tavsiyalaridan foydalanish. Dars jarayonida, Sharq qadriyatlari va milliy an'analar aks etgan Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, «Hotamnoma», «Odobnoma», «Xikmatnoma», «Bozornoma», Kaykovusning «Qobusnoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning «Maxbubul qulub», Boburning «Boburnoma» asarlarini o'qib-o'rganish lozim. Bu usullar axloqiy tarbiya negizini tashkil etadi.

Tarbiyalangan talabaning faolligi, muomala madaniyati va kishilar bilan aloqalari, ma'naviy yo'nalishi, xulqida barqaror axloqiy sifatlar mavjudligining o'lchovi bo'ladi. Shaxsni to'la o'rganish uning tarbiyalanganligini aniqlab beradi. O'quv yurtlarida ta'lim bilan tarbiyani ajratib bo'lmaydi. Vatanimizning istiqloq va taraqqiyoti kelgusi yosh avlodning har tomonlama yetuk bilimli, ongli, tadbirkor, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lishi lozimdir. Talabalarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki u milliy tarbiya muammolari, ayniqsa, milliy tafakkurning shakllanishi xususiyatlari, milliy va madaniy qadriyatlarga munosabat tushunchalari bilan bog'liq.

Milliylik va zamonaviylikning uyg'unligini ta'minlamay turib, yuqorida ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Milliy tarbiya millatchilik tarbiyasi emas, aksincha milliy madaniyat-o'zbek xalqining, hayotining barcha jabhalarida erishgan

o'ziga xos yutuqlarini tiklash, rivojlantirishni davom ettirishning ma'rifiy vositasi bo'ladi. Faqat milliy tarbiyagina o'zbek bolalarida milliy qadriyatlarni, or-nomusni va sof vijdonni, mehnatsevarlikni, ilmga chanqoqlikni, mehr-oqibatni, tashabbuskorlikni, mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini boyitib, keyingi avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi. Demak, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishi avvalo, ulardan milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishdan, o'zligimizni, anglashni o'rganishimizdan boshlanishi lozim ekan.

Darsda va darsdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlar jarayonida Alpomish, To'maris, Shiroq kabi xalq qaqramonlari, Amir Temur, Bobur, Ulug'bek singari davlat arboblari va sarkardalarimiz, Ibn Sino, Beruniy singari olimu-fuzalolarimiz qarashlariga murojaat qilishimiz, yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishining asosini tashkil etadi. Jahon mamlakatlari tarbiya kontseptsiyalarining ayrim namunalari tahlili Mustaqil O'zbekiston milliy tarbiya nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqishda ayrim pedagogik xatolarni takrorlashdan saqlanish lozimligini ko'rsatadi.

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o'sib borayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi ta'lim va tarbiyaning milliy shakllarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribasiga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog'langandir. Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim tog'risida»gi qonuni oila, davlat oldidagi ma'suliyatini anglab etadigan komil insonni shakllantiruvchi, intellektual va ilmiy kuchlarni taraqqiy ettirishdek yuksak madaniyatlarni belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XIII sessiyasida ta'lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish, intellektual va ma'naviy kuchlarni mustahkamlash muhim ahamiyatga molikligi qayd etib o'tildi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan insonni emas, balki ijodkor, o'z iste'dodi bilan ajralib turuvchi ishbilarmon insonni tarbiyalash zamon taqozosiga aylanmoqda. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Tarbiya qoidasi pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi, yangi kishini

shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf-donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya qoidalari mustaqil xarakterga ega bo'lib, tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda bu qoidalarga rioya qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi. Tarbiyaning mohiyati, mazmuni, qoidalari mamlakatimizda yangicha iqtisodiy munosabat sharoitlarining o'zgarganligi sababli kengayib bormoqda. Tarbiyaviy jarayonni yaxshilash, uni davr talabiga javob beradigan holatga keltirish uchun deyarli barcha qoidalarni, usullarni, g'oyalarni qaytadan ko'rib chiqishimiz, shaxsga e'tiborimizni qaratishimiz, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribalardan unumli foydalanishimiz zarur.

Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: tarbiyaning ma'lum maqsadga haratilganligi, tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi, tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi qoidasi, tarbiyada talabalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish qoidasi, izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi va boshqalar.

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad, har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko'ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni ko'zda tutadi. O'quv yurtining asosiy vazifasi shaxsning aqliy, axloqiy, his-tuyquli va jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish, imkoni boricha qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir. Shuningdek, talabalarda milliy g'urur va milliy axloq-odobni shakllantirishni ko'zda tutadi. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Ko'pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa talabalar jamoasining aqliy va axloqiy o'sishini ta'minlaydi. Maqsadga intilish va maqsad bir xil narsa emas. Yaxshi bir maqsad izhor qilingan bo'lsa-da, ammo bu maqsadni amalga oshirish uchun hech qanday ish qilinmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun maqsadni amalga oshirish uchun harakat qilish lozim. Shaxsning shakllanish manfaatlari har bir pedagogik tadbirni tarbiyaning umumiy maqsadlari bilan bog'lashni, uni rejali tarzda va qat'iy sur'atda amalga oshirishga harakat qilishni talab qiladi. Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muqaddas kitob Qur'oni Karim, Hadisi Sharifdan foydalanish juda muhim. Maxmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadqu bilig», Ahmad Yugnakiyning «Xibatul xaqoyiq», Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yassaviyning «Xikmatlari», Sa'diy Sheroziyning «Guliston va Bo'ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning shox asarlari, xikmatlari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, talabalarga gumanitar-ijtimoiy fanlardan ta'lim berishda tarbiyaga ko'proq e'tiborni qaratmoq lozim. Ayniqsa hozirgi sharoitda O'zbekiston tarixi, adabiyotini o'qitish jarayonida bevosita tarbiyaga oid bo'lgan milliy madaniyatga, milliy ruh, urf-odat va shuningdek, umumbashariy qadriyatlarga alohida urg'u berish zarur. O'qituvchi talaba qalbiga yo'l topish uchun bilimi va ishi bilangina emas, ayni paytda odob-axloqi, madaniyati, rostgo'ylik va shirinsuxanligi bilan namuna bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi va talaba o'rtasida xaqiqiy do'stona munosabat qaror topadi. Tarbiyani demokratiyalash bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va

qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir.

Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyati va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi, shaxsning rivojlanish va o'zligini anglash xuquqini ta'minlaydi.

Talabalarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarini shakllantirish juda muhimdir. O'zbek xalqining madaniy merosini o'rganishda va rivojlantirishda milliy o'ziga xosligi, ma'naviy xususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogikasi an'analarga suyanagan holda ish ko'rilishi maqsadga muvofiqdir. Kishilik jamiyatiga muhabbat, tabiat muqofazasi, madaniy yodgorliklarni saqlash ishlariga jalb qilish lozim. Ma'naviy qadriyatlar va g'oyalar har xil millat talabalarini birlashtiradi, o'quv va mehnat faoliyatlarini uyushtirishga yordam beradi. O'zbek xalqi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ismoil al-Buxoriy, al-Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf-Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali talabalar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matонат, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish qoidalarini haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya'ni odamlar orasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish, do'stlik, ota-onaga sadoqatli, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Ota-bobolarimiz bolalarda yoshlikdan ana shu go'zal fazilatlarni qaror toptirishga ahamiyat berganlar. Tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish tarbiyaning pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'nalganlik darajasini belgilab beradi. Bunda pedagogik maqsad va vazifalar, uning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari tomonidan tan olinishi shart. Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jarayon hammaning ishi va uzluksiz bo'lsin, barcha yoshdagi talabalarni qamrab olsin, tarbiyaning barcha tomonlari hamoqang bo'lsin, turli ijtimoiy, jamoat va davlat institutlari va muassasalarini shaxs kamolotini shakllantirish borasidagi harakatlari mujassamlashsin. Talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilish, muomilani avvaligicha davom ettirish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim sharoitlaridan biridir. Tarbiya uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, unda ota-ona, o'qituvchi, jamoatchilik va boshqalar qatnashadilar. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya etish, talabalarning tarbiyalanganlik darajasini, tarbiya usullari va shakllarini o'z vaqtida aniqlab olish juda muhimdir. Bu qoida tarbiya ishida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarning (oila va maktab, talabalar va yoshlar tashkilotlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari va ishlab chiqarish jamoalarining) bahamjihat va bamaslahat ish ko'rilishi ko'zda tutadi.

Talaba yoshlarning har biri o'sib, ulg'ayib, kamol topib borayotganidan xursand bo'layotganini sezishi kerak. Faqat shundagina bola o'zining olg'a siljib borayotganini ko'ra biladi, o'z kuchiga ishonadi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, unga quloq

solishadi, u jamoaga kerak, u o'qituvchisini qiziqtiradi. Bunga erishish uchun rag'batlantirish usulidan foydalaniladi. Chunki, rag'batlantirish bolaga ishonishga, unda bo'lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarining kuchini e'tirof etishga asoslangan.

Ta'lim maskanlari tajribasida rag'batlantirishning quyidagi turlari qo'llaniladi:

Talabanning kuchi yetadigan, ma'suliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda talaba o'z qadr-qimmatini bilan faxrlanadi; maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida); esdalik sovg'asi berish (kitob, ruchka, o'quv asbobi va boshqalar); maqto'v yorlig'i berish; stipendiya bilan taqdirlash; hurmat taxtasiga fotosuratini qo'yish; qo'llab-quvvatlash; ma'suliyat va jamoaning minnatdorchiligi; safda birinchi o'rinda turish; musobaqalarda bayroq ko'tarish; gazetada, radioda e'lon va xokazo; har qanday rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim. Ya'ni, rag'batlantirish xaqiqiy xizmatga muvofiq bo'lishi, ketma-ket bo'lmasligi, haddan oshirib maqtash, boshqa o'quvchilarga taqqoslab uni kamsitishga yo'l qo'ymaslik, rag'batlantirishga bo'lgan talabchanlikni bo'shashtirmaslik lozim. Shunda ta'limning samaradorligiga ijobiy ta'sir etadi.

Uzluksiz ta'lim tushunchasi ko'p qirralidir. Bu yerda shaxs hayoti faoliyatining hamma bosqichlarida uning rivojlanishi haqidagi qoidalar dastlabki asos sifatida mujassamlanadi. har bir yoshdagi odamda o'ziga xos taraqqiyotning ijtimoiy vaziyati mavjuddir.

Bunda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish uzluksiz ta'limning bosh maqsadi bo'lib xizmat qiladi. Uzluksiz ta'lim kontsepsiyasi yoxud uning g'oyasi, shaxs mavjudligining, uning o'z-o'zini tashkil etishning maxsus moddasidir.

Tabiiyki, bu hol shaxsning o'zida takomillashishiga yo'naltirilgan ichki omilning bo'lishini taqozo etadi. Bunda shaxsning «Men – kontsepsiyasi» (o'zi haqidagi tasavvurlar to'plami; ularga muvofiq tarzda inson hayot faoliyatini yuzaga keltiradi) bir vaqtning o'zida ham ideal «men»ni (ya'ni inson uning fikricha qanday bo'lishi kerak) ham «Dinamik men» ni (ya'ni odam qanday bo'lishni istar edi, agar buning imkoni bo'lsa) mujassamlashtira olish muhim hisoblanadi

Uzluksiz ta'limning vazifasi shaxsning ijobiy «Men kontsepsiya»sini shakllantirish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini yaratib berishdan iboratdir. Uzluksiz ta'lim jamiyat moddiy va ma'naviy hayotining hamma tomonlariga ta'sir o'tkazuvchi, millionlab kishilarning turmush tarzini tubdan o'zgartiruvchi yangi omil sifatida e'tirof etiladi; uzluksiz ta'lim hayotiy qadriyatlar va rejalarining yangi tuzilishini, shuningdek, bilimlar sifatiga nisbatan yangi munosabatini shakllantiradi. har bir kishining keng ma'nodagi madaniyat cho'qqilariga ko'tarilishi, hozirgi zamon madaniyatining butun ma'naviy boyligini umuminsoniy qadriyatlar darajasida o'zlashtirishi uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim maqsadi va vazifasi sifatida namoyon bo'ladi. Milliy dasturda ko'zda tutilgan ta'lim-tarbiyani uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etish, uni tubdan yangilash va rivojlantirishda quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda hayotga tadbiq etish belgilanadi; ya'ni islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Boshqaruv har qanday jamiyatga xos bo'lgan, hayot va turmush zaruratidan kelib chiqadigan faoliyatdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu faoliyat mohiyati yanada takomillashib boradi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mehnat aqlining moddiy va

ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarishning va shu asnoda barcha ijtimoiy munosabatlarning taraqqiy ettirishdan iboratdir.

Boshqaruv xalq manfaati ko'zlangan holda demokratik uslub negizida amalga oshiriladi. O'z-o'zidan ravshanki, bunday boshqaruv jarayonida inson omiliga, xususan millat manfaati va milliy qadriyatlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Zotan, jamiyatimiz rivoji uchun boshqaruv hal qiluvchi kuchga ega bo'lmog'i lozim.

Boshqaruv – taraqqiyotni har qanday bosqichida jamiyatga xos bo'lgan ichki xususiyatdir. Bu xususiyat umumiy xarakterga ega. Zotan, bu xususiyat ijtimoiy jamoa mehnatida, turmush va mehnat jarayonida kishilarning o'zaro aloqada bo'lishi, o'z moddiy va ma'naviy faoliyatini mahsulotini almashtirish zaruratidan kelib chiqadi. Jamiyatni va ayrim a'zolar ma'naviy rivojlanishini boshqaruv – boshqarishning yana bir asosiy turidir. Biz yashayotgan jamiyat taraqqiy etmoqi uchun yuksak intellektual potentsialga ega bo'lishi kerak. Ilmiy-texnika inqilobi asrida ma'naviy ishlab chiqarish sohasini boshqarish g'oyat katta ahamiyat kasb etadi. Bu shakldagi boshqarish, umumiy ta'lim maktablari, maktabgacha, maktabdan tashqari bolalar muassasalari, xalq ta'limi organlari, hunar-texnika bilim yurtlari, o'rta-maxsus va oliy o'quv yurtlari, pedagogik kadrlar malakasini oshirish institutlarini boshqarishni, fan, adabiyot, san'at, madaniyat, sog'liqni saqlash sohalarni boshqarishni o'z ichiga oladi. Yuqorida zikr etilgan fikr va mulohazalar Oliy ta'lim tizimini boshqarish, chunonchi, institutlarni boshqarish ijtimoiy boshqaruvining ajralmas ekanligini taqozo qiladi.

Boshqarishning quyidagi qoidalari mavjud:

Demokratiyalash qoidasi.


Boshqarishning ilmiyligi.

Boshqarishning jamoatchilik qoidasi.

Boshqarishda ijroni tekshirish qoidasi.

Boshqarishning rejalik qoidasi.

Boshqaruvning samaradorlik va tejamkorlik qoidasi.



Pedagogic masala:

Matematika darsida o'quvchilarga yozma ish variantlari tarqatildi.

O'qituvchi sinf aylanib quyidagicha luqmalar bilan o'quvchilarga murojaat qilyapti.

- Kimda-kim birinchi bo'lib 10-15 minut ichida hamma misollarni to'g'ri yechsa, «a'lo» baho bo'ladi va eng yuqori balni qo'yaman.

- Javohir 3 misolni yana bir fikringni jamlab tekshirib chiqishing kerak.

- Zarnigorga bugun qoyil qolsak bo'ladi, u juda yaxshi va tez ishlayapti.

- Ilyos, sen xammasini yechib bo'ldingmi? Nodiraga ber, tekshirib bersin, bo'lmasa past bal olishing tayin, gapim to'g'rimi?

- Elyor Asqarov bugun uyga berilgan vazifani ham tayyorlab kelibdi, hozir misolni ham to'g'ri ishlayapti, barakalla!

- Dilfuza Sobirova hamma misollarni birinchi bo'lib ham to'g'ri, ham tartib bilan ishladi. Men unga eng yuqori balni qo'yaman.

- Bolalar, yozma ish uchun ajratilgan vaqt tugadi, tezroq tamomlanglar. Hozir javoblarni tekshiramiz. Dilshoda, birinchi javobni o'qi.

- Kimda shunday javob chiqqan? To'g'ri, kim adashibdi? Xato ishlangan misollarni belgilab chiqinglar, ularni qaytadan hisoblab chiqish kerak bo'ladi.

1. Oqituvchining har qaysi mulohazasiga baho bering, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, baholovchi fikrlarni toping.

2. O'qituvchining xuddi shu mulohazalaridan 8-sinfda foydalanish mumkinmi?

3. Pedagogik jixatdan qanday izohlaysiz? To'g'rimi? Yoki?

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Pedagogik jarayon nima?

2. Ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish zarurligining sababi nimalardan iborat?

3. Dars asosan qanday umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim?

4. O'qituvchi faoliyatida ilmiy-tadqiqot metodlarining roli nimada?

5. Pedagogik innovatika nima?

6. Talabalarda ichki motivatsiya xosil qilish nima, misollar keltiring.

7. Bugungi kundagi zamonaviy darslar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

8. Tarbiya jarayonlari.

9. Shaxsning shakllanishida etnik xususiyatlar.

10. Tarbiya uzviyligining shaxsni shakllanishidagi roli.

11. Ma'naviy-ijodiy metodlar nimalardan iborat?

12. Shaxsni shakllanishida muomala va munosabatning roli.

8-mavzu: Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi.**Reja:**

1. Pedagogik texnologiya haqida tushuncha, uning yuzaga kelishi va qo'llanilishi.

2. Pedagogik texnologiyaning metodologiyasi.

3. Pedagogik texnologiyaning turlari.

4. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlari.

5. Ta'limda texnologik yondoshish variantlari.

6. AQShda ta'lim tizimining tuzilishi va o'ziga xosligi.

7. Yaponiyada ta'lim tizimi va uning xususiyatlari.

8. Frantsiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
9. Angliya oliy ta'lim tizimi.
10. Universitetlar, kichik kollejlari, maxsus ixtisoslashtirilgan kollejlari.

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar:

Interfaol ta'lim (ing. "interact" (rus tilida "ИНТЕРАКТИВ"), "inter"- o'zaro, ikki taraflama, "act" – harakat qilmoq, ish ko'rmoq) – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Interfaollik - ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

O'qitish texnologiyasi – o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, o'qituvchi va talabaning vazifalarini oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi – tarbiya natijalariga asosan, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Interfaol metod – o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi ham talabani faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui.

Grafik organayzerlar – o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor (to'ldirilgan) holda qo'llasa vosita vazifasini, talabalarning mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashni rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi,

Dastlab «**texnologiya**» tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z tenikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan – «texnos» (techne) – san'at, hunar va «logos» (logos) – fan so'zlaridan tashkil topib «**hunar fani**» ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon – bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'yektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)-ning faoliyatidir.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potentsial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador tashkiliy va amaliy tadqiqotlar sohasi sifatida berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997 y.) ni amalga oshirishning ikkinchi bosqichida «o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashning muhimligi» alohida qayd qilingan. Shuning uchun ham mamlakatimiz o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyaga qiziqish ortib unga

turlicha qarashlar, va bu tushunchani o'ziga xos talqin qilishlar, shuningdek, pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etishga ham turlicha yondashuvlar sodir bo'lmoqda. Ushbu bo'limda o'tgan asrning 60-yillarida AQSh (B. Blum, D. Kratvol, N. Gronland, J. Kerrol) da yaratilgan va jahondagi 30 ga yaqin mamlakatlar ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinayotgan pedagogik texnologiyaning mohiyati, uning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari hamda bu texnologiyaning mamlakatimiz ta'lim tizimiga joriy etishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Zero, o'qitishga texnologik yondashuvning o'zbek xalq pedagogikasi g'oyalari bilan uyg'unlashtirib o'quv jarayoniga tadbiiq etish, kadrlar tayyorlash sifatini jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda alohida o'rin tutishi muqarrardir.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini jahon standartlari talablariga muvofiqlashtirish vazifalari. Bizga ma'lumki, O'zbekiston hukumati, shaxsan muhtaram Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq, ayniqsa, so'ngi yillarda ma'naviyat va ma'rifat masalalariga, ta'lim tizimini takomillashtirib, uni jahon andozalariga muvofiqlashtirish bo'yicha ibratli ishlarni amalga oshirmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida (1997 yil 29 avgust) Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim tog'risida»gi qonunning qabul qilinishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Bu muhim hujjatlar istiqbolli xarakterga ega bo'lib, ularning mamlakatimiz ta'lim tizimini takomillashtirishda qanday ahamiyatga ega ekanligi hammamizga ma'lum. O'tgan davr ichida ta'limni isloh qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning bajarilishi bo'yicha dastlabki yutuqlar ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Ta'lim mazmunini isloh qilib, uni jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilgan. Xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «o'quv jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash» zarurligi ham alohida ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 5 martdagi qaroriga binoan, Respublikamiz oliy o'quv yurtlariga yoshlarni test usulida qabul qilishni joriy etilishi, O'zbekiston MDH mamlakatlari ichida birinchi marta jahon pedagogikasidagi ilg'or tajribalarni o'rganishga yo'l ochganligidan dalolat beradi. Respublikamizda test usulini Davlat ahamiyatidagi masala darajasiga ko'tarilganligi, pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etishga ham keng imkoniyat yaratdi. Shuni ta'kidlash lozimki, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan barcha o'quv yurtlarda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha aniq maqsad sari samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1997 yil aprel-iyun oylarida o'tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy seminarlar dasturida pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etish masalasi o'z aksini topgan. O'sha yili avgust oyida «Muammolar» institutida «Ilg'or pedagogik texnologiyalar» bo'yicha jadallashtirilgan malaka oshirish kursi tashkil qilinib, unda professor B. L. Farberman qiziqarli ma'ruzalar o'qidi. U ta'kidlaganidek: «Ko'p bosqichli ta'lim tizimi, yangi standart va o'quv dasturlari joriy etilayotgan hozirgi davrda o'qitishni eskicha uslub bilan olib borishga yo'l qo'ymaslik kerak». O'tgan davr mobaynida bu institut tomonidan Respublikamizdagi bir nechta oliy o'quv yurtlarida pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etish masalasiga bag'ishlangan maxsus kurs va seminarlar o'tkazildi. Xususan, 1999 yilning o'zida Respublika (8-9 aprel) va 7 ta hududiy seminarlar

o'tkazildi («Ta'lim muammolari» 1999 y. № 1-2). Bu esa, hozirgi kunda pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etish, Vazirlik miqyosida eng dolzarb masalalardan biri ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

1999 yildan esa ta'lim standartlariga muvofiq Respublikamizdagi pedagogik kadrlar tayyorlovchi barcha oliy o'quv yurtlarida bu fanni o'qitilishi joriy qilindi. Uning ahamiyati shundaki, mazkur ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining asosiy qismi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida faoliyat ko'rsatadilar. Ular mashg'ulotlarni pedagogik texnologiya qoidalariga asosan tashkil qilib, dastlabki ish faoliyatidayoq hamkasblari va talabalari diqqat-e'tiborini o'zlariga jalb qilishi zarur. Institut tarkibida tashkil etilgan malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun ham ilg'or pedagogik texnologiya fani o'qitilib, ularda sodir bo'lgan funktsional layoqatsizlikka barham berilmoqda. O'tkazilgan so'rovnomalarda tinglovchilar bu fanni eng dolzarb ekanligini ta'kidlamodalar.

O'qitishga texnologik yondashuvni vujudga kelishi va rivojlanishi. So'nggi yillarda Respublikamizning taniqli pedagog-olimlari va tajribali amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyani joriy etish bo'yicha samarali izlanishlar olib borilayotganligi bizga ma'lum. Pedagogik texnologiya tushunchasi ilmiy maqolalarda, anjuman ma'ruzalarida, hisobotlar va davriy nashrlarda ham o'z aksini topmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, Respublikamizning taniqli olimlari R.X.Jo'raev, U. N. Nishonaliev, N. S. Sayidaxmedov, B. L. Farberman, Rossiya pedagog-olimlari: V. P. Bespalko, V. S. Bezrukova, M. V. Klarin va boshqalar hamda Qozog'istonlik olimlar M. J. Aristanov va J. S. Haydarov o'z ilmiy tadqiqotlarida «pedagogik texnologiya» tushunchasining mohiyatini va ahamiyatini ochib berishga munosib hissa qo'shganlar.

O'qitishga texnologik yondashish, ya'ni o'quv jarayonini ham ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchan xarakterga ega bo'lishini ta'minlashga oid dastlabki izlanishlar o'tgan asrning 50-yillarida amerikalik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, «o'qitish texnologiyasi» iborasi ham birinchi marta amerikalik olim B.Skinner tomonidan ishlatilgan. U - «o'qitish texnologiyasi-psixologiya fani yutuqlarining pedagogik amaliyotda qo'llanishidan iborat», deb ta'riflagan.

Bunga asosan shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda «pedagogik texnologiya» tushunchasiga «yangi», «ilg'or» va «progressiv» kabi so'zlarni qo'shib aytilishi ham nisbiy mazmunga ega. Xususan, O'zbekistonda o'qitishga texnologik yondashishni ommalashmaganligining sababi, bu usulni «test» va «bixeviorizm» tushunchalari bilan bog'liqligi, sobiq ittifoq miqyosida ulardan pedagogik amaliyotda foydalanishni uzoq vaqt ma'n qilinganligidir.

Lekin, xaqqoniylik nuqtai nazardan shuni ta'kidlash lozimki, buyuk pedagog A.S.Makarenko o'tgan asrning 30-yillarida bunday degan edi: **«Bizning pedagogik ishlab chiqarishimiz hech qachon texnologik mantiq asosida qurilmagan, balki u axloqiy vazxonlikka asoslangan. Aynan shuning uchun ham: texnologik jarayon, mehnat operatsiyalarini hisobga olish,... yordamchi uskunalar, me'yorlash, qo'yimlar, yaroqsiz mahsulotlar bo'limi kabi, ishlab chiqarishga xos bo'lgan muhim bo'g'inlar unda o'zidan-o'zi ishtiroksiz qolmoqda»**. Hozirga kunda jahon pedagogikasida «pedagogik texnologiya» tushunchasiga 12 xil tarif berilganligi

ma'lum. Masalan: «Ta'lim texnologiyasi ilmiy va boshqa bilimlarning amaliy masalalarni hal etishda tizimli ravishda qo'llashdan iborat» (Golbrayt).

«Pedagogik texnologiya ta'limini tizimlashtirish yoki sinfda o'qitishni tizimlashtirish g'oyalarini pedagogikaga tadbiq etishdan iborat» (T.Sakomoto).

«Pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan barcha shaxs, amaliy va uslubiy vositalarning tizimlashgan majmui va ularni faoliyat ko'rsatish tartibi»(Klarin M.V.).

Yuqoridagi ta'riflarda pedagogik texnologiyaning tub mohiyati o'quv jarayoniga tizimiy yondashishdan iborat ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xalqaro YuNESKO tashkiloti tomonidan pedagogik texnologiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan:

«Pedagogik texnologiya-ta'lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni hamda ularning o'zaro ta'sirini e'tiborga olgan holda, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimiy uslubidir».

Rossiyalik psixolog N.F.Talizina ta'kidlaganidek, ta'lim tizimida pedagogik texnologiya iborasini paydo bo'lishiga quyidagilar sabab bo'lgan:

- 1) didaktika qoidalarini barcha mamlakatlarda, xususan AQShda keng tarzda ommalashmagani;
- 2) uning qoidalari o'ta konstruktiv xarakterga ega bo'lmay, zamon talabidan orqada qolib ketganligi;
- 3) asrimizning 60-yillarida ta'lim tizimiga texnikani-o'rgatuvchi mashinalarni kirib kelganligidir.

Tegishli adabiyotlarni tahlil qilish «pedagogik texnologiya» tushunchasi o'zining rivojlanish tarixiga ega ekanligini ko'rsatdi. Xorijiy mutaxassislar bu tushunchaning rivojlanishini uch bosqichga bo'lib o'rganish lozim, deb hisoblaydilar. Birinchi bosqichda, o'qitish jarayonini faqat o'qituvchining o'zi olib borar edi. N.F.Talizina ta'kidlaganidek, «Inson tajribasi o'qitish texnologiyasi funktsiyasini bajargan». Ikkinchi bosqichda esa, darslik va qo'llanmalar chop etila boshlagandan so'ng - o'qitish texnologiyasi mazmunida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'qituvchiga yordam beruvchi turli didaktik materiallar vujudga kela boshladi. Uchinchi bosqichda esa, o'qitish texnologiyasi mazmun jihatdan yanada boyidi; o'qituvchi va talabalar uchun yuqoridagilar qatoriga texnik vositalar, ya'ni o'rgatuvchi mashinalar ham qo'shildi.

O'rgatuvchi mashinalarni o'quv jarayonida qo'llanishi natijasida dasturlangan ta'lim tushunchasi vujudga keldi. U pedagogik texnologiyaning dastlabki o'xshatmasi edi. Lekin, dasturlangan o'qitish tarafdorlarining «o'qitishini og'zaki bayon qilish uslubidan voz kechish vaqti keldi, mashina o'qituvchi shaxsini bemalol almashtirishi mumkin», deb ehtiyotsizlik bilan aytgan fikrlari amaliyotchi pedagoglarni o'ta hayratga soldi, nazariyotchi pedagoglar esa uni qat'iy e'tiroz bilan qabul qildilar. Bu o'rinda, dasturlangan ta'lim haqida amerikalik pedagog U. Shrammning quyidagi fikrini misol tariqasida keltirish mumkin: - Dasturlangan o'qitish - bu avtomatik repetitor bo'lib, u talabani: mantiqiy o'zaro bog'liq, qisqa qadamlar orqali; deyarli xato qildirmasdan; to'g'ri javob berishga yo'llaydi va u; o'z o'rnida baholanib mustahkamlanishi natijasida; o'qitish maqsadlarini belgilovchi aniq javoblarga ketma-ket ravishda yaqinlashtirib boradi.

Demak, bundan ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsini batamom inkor etiladi, degan xulosaga kelish mumkin. Shuning uchun ham, dasturlangan ta'lim o'sha davrda o'qitishni aniq maqsadlarini belgilashning zamonaviy shakli bo'lishiga qaramay, fanda va pedagogik amaliyotda o'z rivojini topmadi.

Lekin, o'sha yillar jahon pedagogikasida texnik vositalarni rivojlantirish va ularning xonadagi barcha talabalarni qamrab olishi, axborot sig'imi va axborot o'tkazish qobiliyatlarini oshirish, o'quv axboroti uzatish kanalini individuallashtirish kabi ta'lim berish imkoniyatlaridan unumli foydalanishni takomillashtirishga oid muammolarga alohida e'tibor berila boshlandi. Ko'pchilik mutaxassis olimlar o'quv jarayonida keng qo'llanilayotgan odatdagi ommaviy axborot vositalari (televidenie, radio) o'rniga EHM, axborot saqlashning kompyuterlashtirilgan tizimi, lazerli aloqa kanali, mikroelektron qurilmalar va boshqa yangi axborot vositalaridan foydalanishga o'tish zarurligini ta'kidladilar.

O'quv jarayoniga zamonaviy texnik vositalarini qo'llash tarafdorlari o'qitish sifatini yaxshilash, aynan ana shu vositalarga bog'liq deb hisoblaydilar. Tegishli uslubiy tavsiyalar ta'lim jarayonida texnik muhitni yaratishga, ya'ni texnologiya tushunchasini o'qitish jarayoniga qo'llash masalalariga qaratildi. Dastlab «kompyuterli texnologiya» va «yangi axborot texnologiyasi» kabi tushunchalar vujudga keldi. Bular pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun zamonaviy texnik vosita sifatida qo'llanila boshlandi.

O'tgan asrning 50-yillar o'rtasida jaxon pedagogikasida o'quv jarayonini to'la-to'kis yangi, o'ziga xos «texnologik» usulda tashkil etishga yondashish vujudga kelgan edi. 60-yillarda esa, o'qitish uslublarining o'ta turli-tumanligi ulardan o'quv jarayonining tashkil etishda foydalanishni qiyinlashtirayotganligi etirof etila boshlandi. Shuning uchun ham, barcha uslublar uchun umumiy bo'lgan ilmiy asos yaratish zarurati tuqildi. Natijada, pedagogik uslublar texnologiyasi yoki o'quv jarayonining tashkil etish texnologiyasi, ya'ni «ta'lim texnologiyasi» (an Educational technology) tushunchasi vujudga keldi.

AQShda 1961 yildan «Pedagogik texnologiya» jurnali chiqarila boshlandi. Shuningdek, Angliyada «Pedagogik texnologiya va o'quv jarayoni» (1964 yildan), Yaponiyada «Pedagogik texnologiya» (1965 yildan), Italiyada ham shunga o'xshash jurnal (1971 yildan) chiqa boshlagan. YuNESKO 1971 yildan boshlab ta'lim bo'yicha xalharo byuroning «Pedagogik texnologiyalar» byulletenini chiqarib kelmoqda. Rossiya Federatsiyasida esa 1997 yildan boshlab «Maktab texnologiyalari» jurnali ta'sis etildi. Shuni ta'kidlash lozimki, «pedagogik texnologiya»ni «o'qitish texnologiya» tushunchasi bilan ayniylashtirmaslik zarur. Chunki, pedagogik texnologiyada o'quv jarayonining aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini belgilashdan boshlab, to yakuniy o'quv natijalarga erishilganlikni nazorat qilishgacha bo'lgan jarayonni loyihalanaadi. E. Frene «uslub» tushunchasi konstruktiv xarakterga ega bo'lmaganligi uchun, uning o'rniga «texnologiya» tushunchasini taklif etgan. Demak, o'qitish texnologiyalari (muammoli o'qitish, rivojlantiruvchi ta'lim, modulli o'qitish, didaktik o'yinlardan foydalanish va h.k.) pedagogik texnologiya bo'yicha loyihalangan o'quv jarayonini amalga oshirishning turli didaktik konstruksiyalari sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati, o'qitishning an'anaviy og'zaki bayon qilish usulidan voz kechib, talabalarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undashdan

iborat. Bunda o'qituvchi talabalar bilish faoliyatining boshqaruvchisi, maslahatchi, yakuniy natijaga yo'llovchi shaxs vazifasini bajaradi.

Pedagogik texnologiyaning samaradorligi shundan iboratki, unda turli o'qituvchilar muayyan fan (mutaxassislik bo'yicha) bir xil (deyarli bir xil) yakuniy natijaga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa barcha o'quv yurtlariga yagona Davlat ta'lim standarti talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash vazifasi yuklatilgan hozirgi davrda biz, O'zbekistonlik pedagoglar uchun nihoyatda muhimdir. Barcha o'qituvchilar qanday qilib deyarli bir xil natijaga erishishlari mumkinligini, ya'ni o'quv jarayonini takrorlanuvchanligini ta'minlashni tushunish uchun muloqotni davom ettiramiz.

O'qitish jarayoniga texnologik yondashish (pedagogik texnologiya) ning o'ziga xos xususiyatlari. Jahon pedagogikasi fani uzoq vaqt davomida ilmiy-texnik taraqqiyot ta'sirida - psixologiya, kibernetika va boshqaruv nazariyalari hamda boshqa fanlar erishgan yutuqlarni umumlashtirgan holda, inson resurslarini samarali rivojlantirish va faol innovatsion jarayonlarni boshidan kechirish davrida bo'lib keldi. Bu - fan, pedagogik ilmiy nazariyalar va boy amaliy tajribalarni o'zida mujassamlantirgan holda, o'tgan asrning yarmigacha bo'lgan davrda birorta buyuk pedagog, boshqalar ham ulardek yuqori natijalarga erishadigan, ya'ni takrorlanuvchan pedagogik siklni yarata olmadilar. Bizningcha, buning sababi, yaratilgan ilg'or uslublar, ularning mualliflari shaxsiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan. Shuning uchun ham, ularning izdoshlari mualliflardek yuqori darajadagi mashg'ulotlar o'tkazishga muvaffaq bo'lmaganlar. Chunki, psixologiya fani tasdiqlaganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. Shunga qaramasdan, sobiq ittifoq pedagogik amaliyotida ilg'or tajribalarni ommalashtirish bo'yicha ommaviy axborot vositalari orqali ko'p urinishlar bo'lib o'tdi. Mavjud o'quv jarayonini takrorlanuvchan xususiyatga ega emasligi, o'z davrida A.S.Makarenko tomonidan tanqid qilinganligini biz yuqorida keltirgan edik.

Ishlab chiqarishda natijasi kafolatlangan, lekin ijrochilar shaxsiga bog'liq bo'lmagan juda ko'p texnologik jarayonlar yaratilgan. Sanoatdagi buyumning ishchi chizmasi va yig'iladigan birikmalar chizmasi texnologik jarayonning asosini tashkil qiladi. Ularning talablarini aniq bajarish natijasida buyumlarni o'zaro almashuvchanligini, texnologik jarayon operatsiyalari esa takrorlanuvchanligi, ya'ni takrorlanuvchan texnologik siklni tashkil qilishi ta'minlanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda Janubiy Koreya va Turkiyadagidek, ulardagi bilan bir xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan yengil avtomobillar va kichik avtobuslar ishlab chiqarilmoqda.

Takrorlanuvchan pedagogik jarayonni yaratish, ishlab chiqarishdagiga nisbatan anchagina murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. O'quv (o'quv-tarbiyaviy) masalalarni turli tumanligi, ta'lim mazmuni va o'quv materialining turlicha ekanligi, bilimlarning o'zlashtirilishini talabalarning individual xususiyatlariga bogliqligi va boshqa omillar bunga to'sqinlik qiladi. O'quv jarayonini takomillashtirish maqsadida yaratilgan barcha uslub, shakl va modellar faqat o'z egasi qo'lidagina yuqori samara beradi. Shunday bo'lsa ham, o'quv jarayoniga yagona, samarali yondashishni yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilganligi natijasida AQShning pedagoglari B.Blum, D.Kratvol, N.Gronlund, J.Kerrol, J.Blok, L.Andersen va boshqalarning izlanishlari natijasida takrorlanuvchan hamda yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik texnologiya

yaratildi. Uning mohiyati o'quv maqsadining aniqligi va unga erishish uchun talabaning qat'iy belgilangan ketma-ketlik bo'yicha, har bir o'quv bo'lagini (modulini) o'zlashtirib, mustaqil faoliyat ko'rsatishidan iborat bo'ladi. Ilmiy tadqiqot natijalarini ko'rsatishicha, faqat uzluksiz ma'ruza o'qilganda, talabalar materialni atiga 5 foizini o'zlashtirsalar, bir-birini o'qitish va mustaqil o'rganishda esa bu ko'rsatkich 90 foizni tashkil qilar ekan (Xalq ta'limi. 1999. №4 - 9 bet.). Shunday qilib, pedagogik texnologiyasining predmeti o'quv jarayoni va professional tayyorgarlik tizimini loyihalashdan iborat. Tizimli yondashish o'qitish tizimining barcha asosiy tomonlarini - maqsadni aniqlash va o'quv jarayonini loyihalashdan tortib, to yangi o'qitish tizimining samaradorligini tekshirish, uni sinovdan o'tkazish va ommalashtirishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. U o'z harakat tartiblarini takrorlanuvchanligi va ularni to'la o'quv jarayoniga tadbiiq etish g'oyasi, oqibat natijada, bu jarayonni «jonli o'qituvchiga» bog'liq bo'lmay qolishiga olib keladi. Haqiqatan ham, agar o'quv jarayoni to'la takrorlanuvchan, alohida ko'rinish (epizod)larga bo'linsa, o'qituvchining vazifasi oldindan tuzilgan (o'zi tuzgan bo'lishi shart emas) material bilan o'qishni tashkil etishda tashkilotchi va maslahatchi rolini ijro etishdan iborat bo'lib qoladi. O'qitishga texnologik yondashish mantiqida ikki xil g'oya yotadi: 1) o'quv jarayonini to'la-to'kis o'rgatuvchi mashinalarga o'tkazib, unda asosiy rol o'ynaydigan o'qituvchini to'la ozod qilish yoki, 2) uning faoliyatini tashkil etish va maslahat berish funksiyalari bilan chegaralash. Bu holda o'qituvchi juda yuqori malakaga ega bo'lishi ham shart emas. O'qituvchini «ideal EHM» bilan butunlay almashtirish g'oyasini pedagogik texnologiya tarafdorlari turlicha qabul qilganlari holda, ikkinchi g'oya ko'pchilik tomonidan ma'qullandi va unga amal qilinmoqda. Shuning uchun ham, o'qitish mazmuni va jarayoni bo'yicha mutaxassislar guruxi tomonidan ishonchli bo'lgan o'qitish tizimlarini rejalash, yaratish va ularni qo'llashga tayyorlangan sharoitda, xatto «o'rtacha» o'qituvchi ham yuqori natijalarga erishishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi namunaviy (firmenniy) didaktik loyihani amalga oshiruvchi ijrochi sifatida qaralib, uning shaxsi va malakasi muhim rol o'ynamaydi.

V.P.Bespalko ta'kidlaganidek: - **Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda, pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, talaba shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash - loyihalashdir.** O'qitishning mavjud uslublari ko'p hollarda o'quv jarayonini tashkil etish va olib borishga oid tavsiyalar majmuidan iborat bo'lsa, pedagogik texnologiya bundan farqli o'laroq: birinchidan yakuniy natijani kafolatlaydi, ikkinchidan esa bo'lajak o'quv jarayonini ham loyihalaydi. U.N.Nishonaliev va B.L.Farberman ta'kidlaganlaridek, «pedagogik texnologiya o'quv maqsadlarning aniq belgilanishi, yakuniy natijani kafolatlanishi, o'quv jarayonning takrorlanuvchanligini ta'minlashi va tezkor qaytuvchan aloqaning mavjudligi bilan xarakterlanadi». O'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida loyihalash sxemasi 1-rasmda berilgan.

Bunday umumiy tasvirlashda texnologik yondashishning o'ziga xos belgilari sezilmayotganga o'xshaydi. haqiqatda ham umumiy maqsad va mazmun har doim aniqlanadi, har qanday ta'lim jarayonining maqsadi belgilanadi o'qitish natijasi har doim ham baholanadi. Lekin bu sxemadan ham an'anaviy o'qitishga xos bo'lmagan belgini - o'quv maqsadlarining aniqlashtirilishi, o'quv jarayoniga va maqsadlariga, uning natijasiga qarab tuzatishlar kiritish va izchil qaytuvchan aloqaning mavjud

ekanligini ko'rish mumkin. AQShda yaratilgan pedagogik texnologiyani barcha rivojlangan mamlakatlar qabul qildi va u xalqaro miqyosda nufuzli tashkilotlardan hisoblangan YuNESKO tomonidan ma'qullandi. 1996 yilda YuNESKO rahbarligida Iyerusalim (Isroil) universitetida pedagogik texnologiyaga bag'ishlangan xalqaro konferentsiya bo'lib o'tdi. Bunda AQSh, Angliya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlar bilan birga, Kosta-Rika, Fillipin Respublikasi, Turkiya va Mal'ta vakillari ham pedagogik texnologiyani joriy qilib yuqori natijalarga erishayotganlarini ma'lum qildilar.

Haqiqatan ham, AQShda yaratilgan va YuNESKO tomonidan ma'qullangan pedagogik texnologiyani joriy etayotgan jahondagi 30 ga yaqin mamlakatlar o'quv jarayonida AQShdagiga nisbatdan juda yaqin natijalarga erishmoqdalar. Xususan, Janubiy Koreyada pedagogik texnologiya bo'yicha o'qitilgan 50000 talabaning 75 foizi an'anaviy usulda o'qitilganda faqat eng yuqori o'zlashtiruvchi talabalargina erisha oladigan ko'rsatkichlarga ega bo'lganlar. Ba'zi mamlakatlarda esa bunday talabalar ulushi 80-85 foyizni tashkil etadi.

Pedagogik texnologiya mezonlari. Texnologiya universal xususiyatga ega bo'lib, uni har bir mutaxassistomonidan amalga oshirish, bir xil darajada bajarish va ko'zda tutilgan maqsadga erishish mumkin. Uning metodikadan asosiy farq investitsiya shundaki, metoditka o'qitish usullari va yo'llarining ma'lum shaxs uchun qulay bo'lgan majmuidan iborat. Metodika o'qituvchining bilim, ko'nikmalari, mahorati, shaxsiy sifatlari, temperamentiga bog'liq. Buni dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi bilan turli xususiy fanlarni har xil didaktik vositalardan foydalangan holda jadal(intensiv) o'qitish metodikalari orasidagi farqni solishtirishda ko'rish mumkin.

Shu asosda texnologiyalarning asosiy mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- ma'lum ilmiy asosga, kontseptsiyaga tayanish;
- tizimlilik, o'quv-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy qismlarining o'zaro mantiqiy bog'liqligi;
- samaradorligi, ta'lim standartlariga erishishni kafolatlashi, talab qilinadigan iqtisodiy, kuch va vositalarning me'yor darajasida ekanligi;
- boshqalar tomomnidan qayta amalga oshirish mumkinligi.

Ta'limning kafolatlangan natija beradigan texnologiyasi o'quv jarayonini to'liq nazorat qilish imkoniyatini beradi. Bunda mantiqiy bog'langan qisqa vazifalar ketma-ketligi ta'lim jarayonining algoritmini tashkil qiladi. Talaba va o'qituvchi faoliyatining shunday algoritm asosida tashkil qilinishi ko'zda tutilgan maqsadga erishishni kafolatlaydi. Ta'lim jarayonining shunday tartibda tashkil qilinishini hozirda to'liq ma'noda pedagogik texnologiya deb atash mumkin.

Pedagogik texnologiya ta'lim oluvchilar va tarbiyalanuvchilarga pedagoglar tomonidan kasbiy-pedagogik maqsadlarni amalga oshiruvchi ta'sir ko'rsatilishini tashkil qilish tizimini belgilaydi.

Pedagogik texnologiya tizimi, pedagogik maqsadlarning aniq amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Texnologik tizimning asosiy belgisi, kutilgan natijaga erishishni kafolatlashdir. Buning uchun asosiy maqsadga erishishning har bir bosqichida bajarilishi lozim

vazifalar, buning uchun talab qilinadigan vositalar hamda metodlarning aniq modullari yoki algoritmlari hosil qilinadi.

Notexnologik tizim (xususiy metodikalar)da esa kutilgan natijaga erishish kafolatlanmaydi.

Pedagogik texnologiya ratsional asosdagi ilmiy mezonlarga asoslangan bo'lishi bilan birga, uning yanada rivojlanishida intuitiv (empirik) bilimlar ham muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda texnologiyani ma'lum ma'noda san'atga qiyos qilinadi. Chunki san'at intuitsiyaga asoslanadi, texnologiya esa fanga asoslanadi. Lekin juda ko'p faoliyat sohalari dastlab san'atdan boshlanadi va texnologiya bilan tugaydi. So'ngra hammasi boshidan boshlanadi. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish jarayonlarida ham ushbu holatlarni kuzatish mumkin. Fanga muvofiq qurilgan pedagogik amaliyot pedagogik texnologiyadir.

Ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning o'quv-tarbiya jarayonida avvaldan belgilangan sifatlarning shakllanishiga olib keladigan izchil amaliy faoliyatlarini pedagogik texnologiya deb hisoblash mumkin.

Pedagogik texnologiya (yoki ta'lim texnologiyasi) asosan ta'lim oluvchi yoki tarbiyalanuvchining ta'lim-tarbiya jarayonida qanday faoliyatni va qay darajada amalga oshirishidan iborat.

Pedagogik texnologiyaning ayrim asoslari. Pedagogik texnologiya bir qancha asosga ega: ijtimoiy, falsafiy, metodologik, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, gigiyenik, mafkuraviy, huquqiy-me'yoriy, investitsiya iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqa asoslar hisoblanadi.

Ijtimoiy asos: har bir shaxs, jamiyat, davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini, tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning, jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Falsafiy asos: pedagogik texnologiya maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarining falsafiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Falsafiy oqimlar va yo'nalishlarning har biri ta'lim-tarbiya maqsadlariga o'ziga xos yondoshadi. Shu bois pedagogik texnologiyaning falsafiy yo'nalishi to'g'ri yoki noto'g'riligini, jamiyatning ma'lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko'rsatadi. Bu pedagogik texnologiyalarga baho berishda asosiy ko'rsatgichlardan hisoblanadi.

Metodologik asos: pedagogik texnologiyani amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi. Insonlarni olamni hamda o'zlarini bilishlari turli tarixiy davrlarda turlicha asoslarga ega bo'lgan va ular o'ziga xos metodlarni keltirib chiqargan. Hozir olam va uning xususiyatlari haqida holis ma'lumot olish, xaqqoniy bilimlar xosil qilishning ilmiy metodologiyasi pedagogik texnologiyalarning metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi pedagogik texnologiyalar uchun zaruriy shartdir.

Didaktik asos: pedagogik texnologiyaning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyaning didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

Pedagogik asos: pedagogik texnologiyaning bu asosi zamonaviy pedagogikaning ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilishi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi, monitoringi, o'quv-mavzu rejalar va shu kabilarning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi. Pedagogik texnologiyalar qozirgi pedagogika fanining rivojlanishida katta o'rin egallab bormoqda.

Psixologik asos: Bu psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri foydalanish orqali kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli pedagogik texnologiya psixologiya qonunlarini to'liq hisobga olishi talab qilinadi. Ta'limning har bir bosqichida tegishli yosh psixologiyasi xususiyatlariga moslashtirilgan texnologiyalar qo'llaniladi. har bir bosqichda tegishli darajadagi bilim va tarbiya beriladi. Bu masalalarni o'rganish bilan «Pedagogik psixologiya» fani shug'ullanadi.

Fiziologik asos: talabalarning turli yoshdagi xususiyatlarini pedagogik psixologiya tomonidan hisobga olishdan iborat. Bunda o'g'il va qizlarning fiziologiyasidagi farqlar alohida hisobga olinishi lozim. Pedagogik texnologiya jarayonida fiziologik talablarni hisobga olish sog'lom avlodni voyaga yetkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Gigiyenik asos: ushbu asos ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat. Bunda turli zararli va ortiqcha ta'sirlarni bartaraf qilish, o'quv sharoiti: yoritilganlik, harorat, havoning tozaligi, o'qituvchi va talabalarning ish o'rni, jihozlar, o'quv yuklamalarining me'yorlari, didaktik vositalarning qulayligi, sifati va shu kabilar tibbiyot, fiziologiya, ergonomika, ekologiya talablariga, insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalariga muvofiq bo'lgan ilmiy asoslarda olib boriladi.

Mafkuraviy asos: pedagogik texnologiyaning milliy istiqlool g'oyasi va mafkurasi tamoyillarini o'zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishidan iborat. Bunda barkamol insonni shakllantirishda mafkuraviy tarbiyaning fidoyi, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo'ladigan, bilimli, ma'rifatli, ijtimoiy faol insonni voyaga yetkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir pedagogik texnologiya uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Huquqiy-me'yoriy asos: ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga doir qonuniy va me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risda»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya sohasiga tegishli Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi OVO'MTVning qaror va buyruqlari, nizomlar va me'yoriy hujjatlar hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya jarayoni ishtirokchilari ushbu huquqiy-me'yoriy asoslarni tegishli darajada bilishlari va amalga oshirib borishlari lozim.

Iqtisodiy asos: - ta'lim menejmenti xulosalari va marketing natijalariga muvofiq belgilanadi. Pedagogik texnologiya ijtimoiy sohadagi faoliyat bo'lgani sababli uning investitsiya iqtisodiy samarasi o'ziga xos tartiblarda aniqlanadi va ta'minot masalalari

hal qilib boriladi. Pedagogik texnologiya investitsiyaqisodiy asosiyning mustahkam bo'lishi uni amaliyotda davom ettirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Tarixiy asos: ta'lim-tarbiya masalalarini turli tarixiy davrlarda amalga oshirishning shakl va usullari, mazmuni hamda turli pedagogik nazariyalar haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kelib chiqishi uchun zamin hisoblanadi. hozir pedagogik texnologiyalar turli davrlarda boshlangan ishlar, olib borilgan tahlillar, chiqarilgan xulosalar, mutafakkirlar bildirgan fikr-mulohazalarning rivojlantirilishi asosida paydo bo'lib, takomillashib bormoqda. Pedagogik texnologiyaning tarixiy asosi uning o'ziga xos ildizlarini tashkil qilishini hisobga olgan holda ularni bilish va chuqur o'rganish kelgusi rivojlanish yo'llarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida bildirilgan fikrlar umumlashtirilsa, har bir pedagogik texnologiyaning o'z nazariy va Amaliy asoslari kelib chiqadi. Ular alohida maqsad, vazifalari, mazmuni, shakl, usul, vositalariga muvofiq belgilanadi.

Pedagogik texnologiya va metodika orasidagi ayrim farqlar. Hozirda pedagogik texnologiya haqida aniq tushuncha va tasavvurlar birmuncha kamligi tufayli uni xususiy metodikalar bilan deyarli tenglashtirish hollari uchraydi. Bu aslida noto'g'ri.

Metodika- biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmui. U alohida metodikalarga ajraydi. Pedagogika fani ma'lum o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqin qiladi: tillar metodikasi, matematika metodikasi...

Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi ayrim farqlar.

Asosiy tushunchalar	Pedagogik texnologiya	Metodika
Ta'riflar	PT – insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha tartib-ilm-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat	Metodika – ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini talqin qiladi.
Maqsad	Komil insonni shakllantirish	Alohida fanlarni o'qitish hamda tarbiyaviy ishlarning sifatli bo'lishini ta'minlash
Qo'llash miqyosi	Butun ta'lim-tarbiya jarayoni	Xususiy fanlarni o'qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda
Vositalar	Barcha ta'lim-tarbiyaviy vositalar, xususiy metodikalar	Alohida o'quv fanlarini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan vositalar
Pedagogik jarayon	Ta'lim va tarbiya texnologiyasi asosida, ta'lim menejmenti va marketingi asosida. Ta'lim-tarbiya sohasidagi eng ilg'or tajribalarni	Ta'lim-tarbiya metodika asosida ijodkor o'qituvchilarning ilg'or tajribalarga tayanib rivojlanadi. Xususiy tajribalar asosida boyitib

	umumlashtiruvchi loyihalar asosida rivojlanib boradi. Yetarli tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan qo'llanganda o'zaro o'xshash natijalar olishi ta'minlanadi	boriladi. Bir muallifning ilg'or pedagogik tajribasini hamma pedagoglar aynan qo'llay olmaydilar. Bunda natijalar har kimda har xil bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.
Natija kafolati	Oldindan maqsadga erishish kafolati bor	Oldindan belgilangan maqsadga har bir o'qituvchi o'z imkoniyatlariga muvofiq turli darajada erishadi. Shu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi. Asosan ijodkor o'qituvchilargina yaxshi natijaga erishadilar
Kelib chiqishi	Xususiy metodikalarning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan	Ta'lim-tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natijasida kelib chiqqan

«Pedagogik texnologiya» tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o'qitish metodikalari tushunchasi bilan mos kelgan hollar xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli. Ular orasida faqat asosiy e'tiborni nimaga qaratilishida farqlar mavjud.

Metod- biror harakatni amalga oshirish **yo'li**, **usuli** yoki ko'rinishidan iborat.

Bunda harakatni amalga oshirish **yo'li** deb, bajarilishi talab qilinayotgan faollik uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'ldan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lga aytiladi: savod o'rgatish yo'llari-oilada, bog'chada, maktabda, o'rta yoki oliy o'quv yurtlarida, ko'rgazmali qurollar, kitob, kompyuter... vositasida o'rgatish.

Harakatni amalga oshirish **usuli** deb, tanlangan ma'lum yo'ldan foydalangan holda oldindan ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun qo'llanadigan harakat usullariga aytiladi: oilada, bog'chada, maktabda va keyingi o'quv yurtlarida savod o'rgatish, bilim berish o'qituvchi va tarbiyachining qo'llaydigan ish usullarini o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi.

Maqsad har bir ishning sababi va so'nggi natijasini belgilaydi. Lekin aytish kerakki, maqsadning o'zi ma'lum sabablar asosida shakllanadi. Bunday sabablar **ehtiyoj** deyiladi. Agar ehtiyoj paydo bo'lsa, maqsad kelib chiqadi va shu maqsad faoliyatga sabab bo'ladi

Ehtiyoj va maqsadni umumiy nom bilan **motivlar** deb ataladi. Bunda esa har bir faoliyat motivlar asosida kelib chiqishi va shu motivlarga muvofiq davom etishi hamda so'nggi natijaga erishish ko'zda tutiladi.

Pedagogik texnologiyada motivlar jarayonni keltirib chiqaradi va shu jarayonning natijasiga olib keladi. Bundan esa pedagogik texnologiyani motivlar, jarayon va natijadan iborat uchta tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilish imkoniyati xosil bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi.

Motiv	Jarayon	Natija
Ehtiyoj, Manfaat, Maqsad, Qiziqish, Havas	Vosita, Yo'l, Usul, Faoliyat,	Ta'lim, Tarbiya

Bu sxemadan yuqorida aytilgan uchta tarkibiy qismning har birini yana ham aniqroq tahlil qilish maqsadga muvofiqligi ko'rinib turibdi. Shu nuqtai nazardan pedagogik motivlar kimlar tomonidan va qanday mazmunda ilgari surilishini aniqlashtirish mumkin.

O'quv maqsadlarini belgilashning odatdagi usullari.

O'quv maqsadlari pedagogik jarayonni tashkil etuvchi qismlarining eng muhimi, yetakchisi bo'lib hisoblanadi. Pedagogik jarayon, o'zining qanchalik murakkabligi va davomiyligidan qat'iy nazar, u eng avvalo maqsadni aniqlashdan boshlanadi. Pedagogik jarayonning boshqa tashkil etuvchi qismlari (tamoyil, mazmun, uslub, vosita, shakl) belgilangan maqsadga bo'ysunadilar. ular maqsadga muvofiq holda tanlanadilar va o'zaro uyg'unlashtiriladilar. Pedagogik maqsad - bu pedagog va talabaning hamkorlikdagi faoliyati natijasini oldindan tasavvur etishdir.

An'anaviy didaktikada ham ko'pchilik olimlar (Babanskiy Yu.K., Bezrukova V.S., Galperin P. D, Lerner I.Ya., Kraevskiy V.V.Mahmutov M.I., Talizina N.F. va boshqalar) tomonidan o'quv maqsadlarini belgilash usullari, ularni aniqroq ifodalash shakllari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar va bu masalalar bo'yicha ma'lum tajriba ham to'plangan. Jumladan, zamonaviy darsning ta'lim berish, tarbiyalash va talaba shaxsini kamol toptirish maqsadlarini aniqlash va ularga erishish yo'llari bo'yicha ma'lum darajada nazariy va amaliy ma'lumotlar mavjud. Lekin pedagogik texnologiya tarafdorlari eng avvalo an'anaviy o'quv jarayonini, aniqrog'i o'quv maqsadlarining o'ta noaniq belgilanishini va ularga erishganlikni o'lchab bo'lmasligini qattiq tanqid qildilar.

Xaqiqatan ham, o'qituvchi (uning timsolida maktab) qanday natijaga erishishni xohlaydi? Bir qarashda bu savolga javob berish osonga o'xshaydi. Biror fan yoki uning bo'limini o'qitishda o'qituvchi o'z oldiga uni talabalarga tushuntirishni, mazmunini o'zlashtirilishini va buning natijasida talabalar uni amalda qo'llay olishlariga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Lekin, «tushunish», «o'zlashtirish», «anglash», «qo'llash» degani nimani bildiradi? qo'yilgan maqsadga erishilganligini o'qituvchi

qanday aniqlashi mumkin? Agar talabaning qo'yilgan maqsadga erishgani yoki erisha olmaganligini aniqlash usuli mavjud bo'lsa, o'qituvchi qo'llagan uslublarining to'g'riligiga, o'z mehnati samarasiga ishonishi yoki talabalar qanday yordamga muhtoj ekanligi haqida ishonchli ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lar edi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari aynan mana shu holat - odatdagi o'qitish jarayoni maqsadlari noaniq bo'lib, o'qitish natijalarini o'lchab bo'lmasligini qattiq tanqid ostiga olgan edilar.

Biroq, an'anaviy pedagogikadagi bu holatni har qanday tanqid ham birdaniga o'zgartirilmadi, chunki o'quv yurti (u bilan birga o'qituvchi ham) ijtimoiy talabni o'ta umumlashgan holda oladi. Demak, jamiyat ta'lim tizimiga umumiy tarzda talab qo'yar ekan, undan kelib chiqadigan o'quv yurti vazifalari, shuningdek, fanlar dasturlaridagi o'quv maqsadlar ham umumiy tarzda bayon etilishi tabiiydir. Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga ta'lim standartlarining qabul qilinishi, ularda tayyorlanayotgan kadrlarga qo'yiladigan yagona talablarning aks ettirilganligi natijasida o'qitish maqsadlarini aniqlashtirishga erishilmoqda.

Biz fanning maqsad va vazifasidan kelib chiqqan holda, o'quv maqsadlarini fan (kurs) va uning bo'limlari darajasida aniqlashtirish bilan chegaralanamiz. Chunki, aynan mana shu joyda o'quv jarayoni texnologik usulda loyihalash bevosita namoyon bo'ladi. Va aynan shu darajada o'qituvchi fan va uning bo'limlari ustida ishlab, o'quv maqsadlarini aniqlaydi va ular asosida o'quv jarayonini tashkil etadi.

Endi, pedagogik amaliyotda mustahkam o'rin olgan o'quv maqsadlarini aniqlashning quyidagi an'anaviy usullari haqida to'xtalamiz:

1. Maqsadlarni o'rganiladigan o'quv materialining mazmuni orqali aniqlash. Masalan: «Elektromagnit induksiya hodisasini o'rganish», «Viyetta teoremasini o'rganish», yoki biror bob mazmunini, teoremlar, hodisalar, qonunlar va hokazolarni o'rganish. Xo'sh, maqsadni bunday belgilash nima beradi? Bu - faqat bitta dars yoki bir necha darslarda o'tiladigan materialni o'rgatishga ishora qilish xolos, unda o'quv jarayonini tashkil etish uchun aniq bir yo'nalish yo'q. Shuningdek, bunday shaklda ifodalangan maqsadlarga erishilganlik yoki erishilmaganlikni ham aniqlab bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, bunday usulda belgilangan o'quv maqsadlari o'quv jarayonini tashkil etishning amaliy (amalga oshiruvchi) qismi ham bo'la olmaydi. Shuning uchun ham pedagogik texnologiya tarafdorlari bunday o'quv maqsadlarni o'ta noaniq deb hisoblab, tanqid qilganlar.

2. O'quv maqsadlarni o'qituvchi faoliyati orqali aniqlash. Masalan: talabalarni «ichki yonuv dvigatelning ishlash tamoyili bilan tanishtirish», «Om qonunini namoyish qilish», «geografik kartadagi shartli belgilarni o'qishga o'rgatish» va x.k. O'quv maqsadlarini bunday usulda aniqlash, o'qituvchining shaxsiy faoliyatiga qaratilgan bo'lib, ishdagi tartib va tushuntirish haqida taassurot qoldiradi xolos. O'qituvchi o'quv maqsadlarini olinadigan natijaga taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lmagan holda harakat qiladi, chunki o'quv maqsadlari bu usulda aniqlanganda olinadigan natijaning o'zi aniq ifodalanmaganligi ko'rinib turibdi.

3. O'quv maqsadlarini talabaning intellektual, hissiy sohaga oid ichki rivojlanish jarayonlari orqali aniqlash. Masalan: «kuzatilayotgan hodisalarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish», «ifodali o'qish malakasini shakllantirish», «fizikadan

masalalar yechishda talabalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish» va h.k. Bunday o'quv maqsadlari o'quv yurti fan yoki fanlar sikli darajasidagi umumiy maqsadlarni ifodalaydilar, lekin ular hatto dars yoki darslar turkumi maqsadlarini ham anglatmaydilar.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari bunday maqsadlarni butunlay inkor etadilar. haqiqatan ham, ularga erishganlikka yoki bir dars davomida bu maqsadlarga, hatto yaqinlashib borilganligiga ham ishonib bo'lmaydi. Bu usulda maqsadga erishish yo'nalishlari haqida ham fikr yuritib bo'lmaydi, chunki ular nig'oyatda «jarayonli» shaklda ifodalangan. Bizning fikrimizcha bu usul butunlay samarasiz emas, faqat maqsadlarga jiddiy aniqlik kiritish kerak. Bu o'rinda ham maqsadlarni aniqlashtirishning pedagogik texnologiya doirasida yaratilgan usullari yordam beradi (D. Kratvol - affektiv soha).

4. O'quv maqsadlarini talabalar xatti-harakati va faoliyati orqali belgilash. Masalan: «kvadrat ildizli tenglamani yechish», «aylana uzunligini hisoblash», «o'simlikning to'qimali tuzilishini o'rganish,» «gaz taqsimlash mexanizmini hismlarga ajratish yoki yihish» va q.k.

Bir qarashda o'quv maqsadlarini bunday ifodalashda darsni rejalash va o'tkazishga aniqlik kiritilganga o'xshaydi. Biroq, bu usulda ham eng muhim ko'rsatkich - o'qitishdan kutiladigan natija e'tibordan tushib qolganga o'xshaydi. Lekin bu natija - talabaning o'z shaxsi rivojlanishi tomon ichki siljishi bo'lib, u talabaning u yoki bu faoliyatida o'z aksini topadi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari taklif etgan o'quv maqsadlarini aniqlash usuli, o'zining yuqori darajadagi aniqlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. O'quv maqsadlari talabaning ishonchli o'lchash va tashqaridan bilib olish mumkin bo'lgan xatti-harakatida ifodalanib, ular o'qitish natijalari orhali shakllantiriladi. Shu bilan birga, talabalarning bu xatti-harakatlarini o'qituvchi yoki ekspert aniq kuzatib baholashi ham mumkin bo'ladi.

Albatta, bu samarali g'oya dastlab ko'p qarshiliklarga uchradi. qanday usul bilan o'qitish natijasini talaba xatti-harakatlariga o'tkazish mumkin? Bu o'tkazishda qat'iy bir xil ma'noni qanday saqlab qolish mumkin? Bu kabi muammolar asosan quyidagi ikki xil usul bilan hal etilganligini qayd qilib o'tamiz.

1. O'quv maqsadlarining shunday tizimini yaratish kerakki, uning ichida o'quv maqsadlarining toifalari va darajalari ketma-ketligi aniq belgilangan bo'lsin. O'quv maqsadlarining bunday tizimi pedagogik **taksonomiya** deb ataladi.

2. O'quv maqsadlarini ifodalash uchun shunday aniq va tushunarli tilni topish kerakki, o'qituvchi bu til orqali maqsadlarni aniq ifodalaydigan bo'lsin.

Demak, o'quv maqsadlarini belgilashga yuqorida qayd qilingan aniqlik kiritish, pedagogik texnologiyaning odatdagi o'qitish usullaridan tubdan farq kiluvchi dastlabki, eng muhim jihatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'quv maqsadlarini o'ta aniq belgilanishi, unga erishganlikni yaqqol nazorat qilishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida talaba shaxsini rivojlanib borayotganlik darajasini hamda o'qituvchi faoliyatidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf qilish demakdir.

Pedagogik maqsadlar taksonomiyasi.

V.Okon tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, pedagogik maqsadlarni aniqlashga uch xil yondashish mumkin: a) pedagogik maqsadlar bir yoki bir necha o'quv maqsadlari tavsifi orqali ifodalanadi, lekin ular turkumlarga ajratilmaydi; b) o'quv maqsadlari turkumlarga ajratilib, ularni yozma tafsiloti bayon etiladi. MDH mamlakatlari pedagogikasida keng qo'llanilayotgan, mashg'ulotning ta'lim berish, tarbiyalash va shaxsni kamol toptirish maqsadlarini belgilash bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin. O'quv maqsadlari bu usulda ifodalanganda maqsadlar o'zaro taqqoslashga qulay bo'lib, faoliyatni bu maqsadlarga erishishga yo'nalganligi ta'minlanadi, lekin ularga erishganlik haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish uchun imkoniyat bo'lmaydi; v) o'quv maqsadlarini, ularni alohida qismlarga ajratib aniqlashtirish bo'lib, u jahon pedagogikasida keng tarzda ommalashgan. Bunday yondashuvga asosan o'quv maqsadlarining har bir alohida qismlariga erishilganlikni aniq o'lchash mumkin. O'quv maqsadlari tizimini yaratib, o'zaro bog'liqlik ketma-ketligida joylashtiriladi, ya'ni ularning taksonomiyasi tuziladi.

Taksonomiya tushunchasi (grekcha- «**tartib bilan joylashtirish**») biologiya fanidan olingan. Ob'yektlarni, ularning tabiiy o'zaro bog'liqligiga asoslanib va toifalari murakkablashib boradigan ketma-ketlikda (ya'ni iyerarxik) joylashtirib turkumlash va tizimlashtirish - **taksonomiya** deb ataladi.

Pedagogik maqsadlarni bunday sxema bo'yicha tuzishga birinchi marta AQSh olimlari e'tibor berganlar. Ikkinchi jahon urushidan so'ng kollejlarga kirish imtihonlarini qabul qilish qo'mitasining bir gurux pedagog va psixologlari mashhur psixolog B.Blum rahbarligida pedagogik maqsadlarni qat'iy ifodalash va tartiblashtirish bo'yicha ko'p yillik izlanishlar olib bordilar.

1956 yilda «taksonomiya»ning birinchi qismi nashrdan chiqdi. Unda o'quv maqsadlarini kognitiv (bilish) sohada ifodalanishi bayon etilgan edi. O'quv maqsadlarining bu tizimi keng xalqaro miqyosda mashhur bo'lib ketdi. Uni o'qitishni rejalashtirish va natijasini baholashda qo'llay boshladilar. Bu tizim-fan (kurs)larni tajribaviy baholashda asosiy qurol bo'lib hisoblandi.

Biz B.Blum taksonomiyasining mazmuni va uning o'qituvchi uchun qanday amaliy yordam berishi haqida to'xtalamiz. Avvalo o'quv maqsadlariga muvofiq bo'lgan shaxs faoliyati sohalarini tavsiflab o'taylik.

1. Kognitiv (bilishga oid) soha. Bu - o'g'ilgan materialni eslab qolish va uni takroran aytib berishdan boshlab, to o'zlashtirilgan bilimlarni to'la anglab, ularni oldin o'rganilgan g'oya, uslub va harakat usullari bilan uyg'unlashtirib tasavvur etish hamda bilimlarni egallashgacha bo'lgan muammolarni hal etilishini o'z ichiga oladi.

Ekspertlar baxosi hamda B.Blum va uning xodimlarini ta'kidlashlaricha, o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijasida adabiyotlar tahlili, dasturlar, darsliklar, dars berish amaliyotidagi o'quv maqsadlarining aksariyati kognitiv sohaga tegishli bo'lishi aniqlangan. Lekin shunga qaramasdan, Blum taksonomiyasida ayrim kamchiliklar ham mavjud ekanligini e'tirof etish lozim. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, u muhim didaktik omillar ko'nikma va malaka tushunchalarini chetlab o'tadi. Blum bu tushunchalardan foydalanadi, lekin ularni rivojlantirmaydi, ijodiy fikrlash muammosi ham hal etilmagan, aynan bu Gilford taksonomiyasida o'zining to'la ifodasini topgan. Blum taksonomiyasida «qaror qabul qilish» va uning amaliy natijasi bo'lgan «faoliyat» aks etmagan. Shuningdek, «tahlil» va «sintez» toifalari,

«tushunish»dan keyin joylashtirilgan. Vaholanki, biror tizim tog'risida to'la tushunchaga ega bo'lish uchun avvalo, uning qismlari va ular orasidagi bog'lanishni (tahlil), shuningdek uning hismlari qay tartibda o'zaro bog'lanib yaxlitlikni tashkil etishni (sintez) aniqlash zarur bo'ladi. Ehtimol Blum taksonomiyasida o'quv maqsadlari toifalarini quyidagi tartibda joylashtirish lozimdir: axborot qabul qilish, tahlil va sintez, tushunish, qo'llash, baholash Blum taksonomiyasining yuqorida qayd qilingan ba'zi kamchiliklari ko'pgina yangicha taksonomiya yaratuvchilar e'tiborida bo'ldi. Lekin ular yetarli darajada muvaffaqiyatga erisha olmagan bo'lsalarda, yaratilgan taksonomiyalarning yutuq va kamchiliklarini taqqoslash uchun 1-jadvalga murojaat qilamiz.

Kognitiv (bilishga oid) sohaga oid taksonomiyalar

1-jadval

Muallif	Taksonomik toifalar					
Blum va boshqalar 1956 yil	Bilish	Tushunish	Qo'llash	Tahlil	Sintez	Baholash
Gilford 1967 yil	1.bilish 2.xotira		3. Konvergent, yaratuvchanlik	4. Divergent, yaratuvchanlik		5.Baholash
Mak Gyur 1969 yil	1. Bilish	2. Umumlashtirish	3. Oddiy muammoni hal qilish	4. Murakkab muammoni hal qilish	6. Sintez	5.Baholash
Gronland 1970 yil	1. Bilish	2. Tushunish	3. Qo'llash	4. Fikrlash qobiliyati		
Vandeveld 1975 yil	1. Bilish	2. Tushunish	3. Qollash	4.Tahlil	5.Yaratuvch anlik	6. Baholash
D.Xeynot 1977 yil	1. Takrorlash	2. Konsepsiya yaratish	3. Qoidalarini qo'llash	4. Divergent tafakkur	5. Muammoni hal qilish	

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, ba'zi taksonomiyalarda Blum taksonomiyasining aynan o'zini yoki uning bir qismini takrorlanadi xolos. L. Vandeveld taksonomiyasida esa faqat «sintez» toifasi «yaratuvchanlik» bilan almashtirilgan xolos. Ayrim taksonomiya yaratuvchilar «muammoni hal qilish»ga ham alohida e'tibor berganlar. Bu yo'nalishda Gilford boshqalarga nisbatan chuqurroq izlanib, konvergent muammo bir necha variantli yechimga ega bo'lgan hollarni aks ettiradigan tafakkur turlarini ajratib ko'rsatadi. Gilford bu ikki operatsiyadan tashqari inson qobiliyatlarining uch omili: bilish, xotira va baholashni ham farqlab ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Gronland taksonomiyasidan boshqa birorta taksonomiyalarda tafakkur alohida toifa sifatida ko'rsatilmagan, barcha mualliflar esa, qiziquvchanlik va motiv kabi o'zgaruvchanlikni chetlab o'tganlar. Shuning bilan bir qatorda ularning hammasi bilimga, uni egallash va tushunishga alohida e'tibor berganlar. Xotiraga faqat Gilfordgina o'zgaruvchi sifatida qaragan, uning taksonomiyasidagi «yaratuvchanlik» tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Kognitiv sohada yaratilgan taksonomiyalarni taqqoslar ekanmiz, bu sohada Blum taksonomiyasidan mukammalrog'i yaratilmaganligini alohida e'tirof etish lozim.

2. Affektiv (hissiyotli-qadriyatli) soha. Unga oddiy idrok qilish, qiziqish, qadriyatlar yo'nalishlari va munosabatlarni o'zlashtirishga tayyor bo'lishdan boshlab, to talabani atrof-dunyoga nisbatan hissiy-shaxsiy munosabatda bo'lishini shakllantiruvchi maqsadlar kiradi. qiziqish va moyillikni, u yoki bu kechinmalarga

hamdard bo'la olish, voqealarga bo'lgan munosabat, uni anglash va faoliyatda namoyon bo'lishini shakllantirish maqsadlari ana shular jumlasidandir. Yuqoridagi jadvalda ko'rganimizdek, zamonaviy taksonomiyalarda yakuniy natijani bevosita o'lchash uchun, unga erishishga olib boruvchi yo'llar va bosqichlarni ajratib ko'rsatish, ya'ni «yomon bo'lsa ham yo'l afzal» qabilida ish tutish zarur ekan. Affektiv sohada yakuniy natijaga olib boruvchi oraliq bosqichlarni ajratib ko'rsatish birmuncha murakkabdir, chunki bu sohada asosan ko'p variantli (divergent) o'zgaruvchilar amal qiladilar. D. Kratvol, V. Blum va B. Masiilar 1956 yilda yaratgan taksonomiya, affektiv (hissiyot) soha maqsadlarini o'ziga xos, «jarayonli» qamrab olishga urinishlardan eng muvaffaqiyatlisi bo'lib hisoblanadi. Uning mavjud besh qismi quyidagicha ifodalanadi:

I. Idrok etish:

- 1) anglash,
- 2) idrok qilishga istak vujudga kelishi va yoki unga tayyor bo'lish,
- 3) ixtiyoriy diqqat.

II. Ta'sirga javob berish:

- 1) bo'ysunuvchi tarzda javob berish,
- 2) ixtiyoriy tarzda javob berish,
- 3) ta'sirga javob berishdan mamnuniyat xosil qilish.

III. Qadriyatli yo'nalishlarni o'zlashtirish:

- 1) qadriyatli yo'nalishlarni qabul qilish (fikir paydo bo'lishi),
- 2) qadriyatli yo'nalishlarni afzal ko'rish,
- 3) qadriyatli yo'nalishlarga sodiqlik, ishonuvchanlik.

IV. Qadriyatli yo'nalishlarni tashkil etish:

- 1) o'z munosabatini baholash, qadriyatli yo'nalishlar tizimini yaratish.

V. Qadriyatli yo'nalishlar yoki ular majmuini faoliyatda aks etishi:

- 1) umumiy ko'rsatmalar berish,
- 2) qadriyatli yo'nalishlarni to'la o'zlashtirish va ularning faoliyatda aks ettirilishi.

Bu taksonomiya, sub'yekt tomonidan muhit yoki san'at asarlaridagi estetik ildizlarni, ularning ta'siri javob berish (II) orqali ongiga singdirib olish (I), baholash (III) va bu baholashni tashkil etish (IV)- qadriyatli yo'nalishlar tizimi va dunyoqarashni tanlay olishni aks ettiradi (V). Bu yerda yaqqol ifodalangan ikkita umumiy darajani ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) biror ta'sirga javob berishni tanlashga tayyor bo'lish va uni qabul qilish darajasi,
- 2) to'la o'zlashtirish darajasi. U qadriyat yo'nalishini baholash, tashkil etish va mustahkamlashni qamrab oladi.

Mualliflar, hissiyotli jarayonning bunday tarkibiy tuzilishini yaratishda «internalizatsiya» - biror xulqni dastlab yuzaki, so'ngra esa uni to'la his etib o'zlashtirish tushunchasini ishlatganlar. qadriyatlarning bunday, asta-sekin, borgan sari yuqori darajaga ko'tarilib o'zlashtirilishi natijasida, ular mustahkam ishonchga aylanadilar. O'zbekiston yoshlarini mustaqillik mafkurasi va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning bosqichma-bosqich olib borilayotganligi bunga yaqqol misoldir. 1964 yildan so'ng bir necha olimlar (Vilson, Vilyams, Gronlund, Smit) tomonidan ham affektiv sohaga oid taksonomiyalar yaratilgan. Lekin ular Kratvolning yuqorida bayon etilgan taksonomiyaga sezilarli o'zgartirish kiritgan olmaganlar. Shunday bo'lsada,

Kratvol taksonomiyasida ham ayrim kamchiliklar mavjud. Xususan, unda sub'yektning estetik va axloqiy mamnuniyat xosil qilgandagi ichki kechinmalari o'z ifodasini topmagan. Bu holat polyak-filosofi R. Ingardenning 1957 yillarda olib borgan tadqiqotlarida aniqlangan.

3. Psixomotor (harakatga oid) soha. Bu sohaga, u yoki bu harakat (motorli) faoliyatda manipulyatsiya (harakat yo'nalishlarini tez va chaqqon o'zgartirish), asab-muskullarni muvofiqlashtirib boshqarish (koordinatsiya) ni shakllantirishga oid maqsadlar kiradi. Bu o'rta maktabdagi o'quv maqsadlarining juda oz qismini qamrab oladi xolos. Yozuv, og'zaki nutq malakalari hamda jismoniy tarbiya va mehnat (kasb) ta'limi doirasidagi malakalar ana shular jumlasidandir. Lekin, kasb-hunar kollejlarda talabalarga kasb o'rgatish jarayoni maqsadlarini aynan shu maqsadlar tashkil qiladi. Psixomotor sohasiga oid yaratilgan taksonomiyalar 2- jadvalda keltirilgan.

Psixomotor sohasiga oid taksonomiyalar.

2-jadval

Mualliflar	Taksonomiya toifalari				
Simpson 1966 yil	1. idrok	2.Harakatga tayyorlik	3.Boshqariladigan faoliyat	4.Avtomatlashtirish	5.Majmualashtirish faoliyat
Deyv 1969 yil			1.Nusxa olish 2.Mani-pulyatsiya	3. Aniqlik 4.Koordinatsiya	5.Avtomatlashtirish, to'la o'zlashtirish
Beldvin 1971 yil	1. Idrok	2. Sozlash	3.Boshqariladigan faoliyat	4. Mexanizm	5.Majmualashtirish faoliyat
Bruner 1973		1. Niyat		2.Asab tizimining moslashuvi	3.Faoliyat modeli

Jadvalda ko'rsatilgan to'rtta taksonomiyadan ikkitasi - Simpson va Beldvin taksonomiyalari deyarli bir-biriga o'xshashdir. Ularda faoliyatning birinchi bosqichi fikran idrok qilish bo'lib, u ikkinchi bosqichda fikran va hissiyotli sozlanishga, uchinchi bosqichda esa, biror kimni rahbarligida faoliyat ko'rsatishga olib keladi. To'rtinchi bosqichda pirovard natijada majmualashtirish faoliyatni shakllanishiga imkon yaratuvchi avtomatlashtirish faoliyatni anglatadi. Deyv dastlabki ikki bosqichni chetda qoldirib, nusxa ko'chirishni esa xarakatlarni avtomatlashtirish va to'la o'zlashtirishning dastlabki bosqichi deb hisoblaydi. Bruner modelida idrok e'tiborga olinmagan, faoliyat niyatlarni tanlashdan so'ngra asab tizimini moslashuvi, undan keyin esa axborotlarni anglash yo'li bilan faoliyatni to'la tashkil etish ta'minlanadi.

O'quv maqsadlarining qat'iy va ishonchli tizimini yaratishni faqat nazariyotchi olimlarni qiziqtiradigan mavhum (abstrakt) vazifa deb hisoblab bo'lmaydi. Maqsadlarning aniq, tartibli va iyerarxik turkumini yaratish, eng avvalo amaliyotchi pedagoglar uchun juda muhimdir. Buning sabablari quyidagicha:

1. O'quv jarayonida e'tiborni asosiy maqsadga qaratish. O'qituvchi taksonomiyadan foydalangan holda nafaqat o'quv maqsadlarni, balki asosiy vazifalarni, bundan keyingi faoliyatining tartibi va borishini ham belgilashi mumkin.

2. O'qituvchi va talabalar hamkorlikdagi faoliyatining aniqligi va oshkoraligi. Aniq o'quv maqsadlari o'qituvchi uchun talabalarga, ularning umumiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlarni tushuntirish, muhokama qila olish va ixtiyoriy qiziquvchi shaxslar

(ota-onalar, tekshiruvchi) uchun ham aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlash imkoniyatini beradi.

3. O'qitish natijalarini baholash andozasi (etalon) ni yaratish. Faoliyat natijalari orqali aniq ifodalangan o'quv maqsadlari, ularni ishonchli va holisona baholash imkoniyatini yaratadi. Bunday etalon faqat o'qituvchi tomonidan yaratilishi shart emas. Uni talabalar bilan hamkorlikda (demokratik) yaratish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, o'quv maqsadlari taksonomiyasi jahon pedagogikasida fundamental izlanishlar natijasida vujudga kelgan. U o'quv maqsadlarini belgilashning eng ilg'or usuli bo'lib e'tirof etilgan.

Taksonomiya tuzish ham nazariyotchi olimlar, ham amaliyotchi pedagoglar faoliyati samarasini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston pedagoglari bu usulni qay darajada tezroq egallar ekanlar, ular respublikamiz ta'lim tizimini jahon pedagogikasini ilg'or tajribalari bilan uyg'unlashuviga shu darajada jadalroq o'z hissalarini qo'shgan bo'ladilar.

B.Blum taksonomiyasi.

B. Blum rahbarligida amerikalik pedagog-olimlar ishlab chiqqan o'quv maqsadlari taksonomiyasi butun jahon pedagogikasida keng tarqalgan. Shu bilan birga G'arbda D. Gilford va R. Gane, Rossiyada A. Ya. Galperin va A. M. Matyushkin, Polshada esa Ch. S. Nosal va M. Obara taksonomiyalari ham ko'pchilikning alohida e'tiborga sazovor bo'lganligini ta'kidlab o'tildi. B. Blum yaratgan o'quv maqsadlari taksonomiyasi bilishga oid soha sferasiga tegishlidir. Unda bilim olish jarayoni: bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez (umumlashtirish) va baholash kabi oltita toifalarga ajratib ko'rsatiladi. Bu toifalarning har biri uchun alohida bilish jarayonlari mazmuni ishlab chiqilgan. Bilim olish jarayoni darajalarining saralanish va joylashtirish ketma-ketligini kuzatar ekanmiz, taksonomiya yaratuvchilari intellektual faoliyatning barcha toifalarini to'laroq va aniqroq qamrab olishga intilganliklarini anglash mumkin. **Bu esa, taksonomiya o'quv maqsadlarining faqat axborot berishga asoslangan odatdagi usulda belgilashga nisbatan takomillashtirish, ilg'or usul ekanligidan dalolat beradi.** O'quv maqsadlari taksonomiyasining nisbatan mukammal ishlab chiqilgan va keng ko'lamda qo'llanadigan kognitiv sohasi 3-jadvalda berilgan. Ularni o'zaro taqqoslab quyidagi fikrlarni aytish mumkin.

Kognitiv maqsadlarga bir yoki bir necha dars jarayonida erishish mumkin. **Affektiv maqsadlar** esa shaxs ichki rivojlanishiga bog'liq bo'lib, chuqurroq xarakterga ega. Unga qisqa vaqt ichida (ayniqsa, yuqori bosqichdagilarga) erishishni amalga oshirib bo'lmaydi. Kognitiv maqsadlarni moddiylashtirish, ularni faoliyat turi ko'rinishida ifodalash osonroqdir. Shuning uchun ham, affektiv maqsadlar taksonomiyasi asosan tarbiya natijasini pedagogik tashhislashda qo'llaniladi, o'qitish texnologiyasiga oid ishlanmalar esa asosan kognitiv maqsadlar bo'yicha yaratiladi. Bir necha yillar davomida pedagogik maqsadlar taksonomiyasini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilganligi natijasida: kognitiv, affektiv, psixomotor va operatsion-faoliyatli maqsadlar taksonomiyasining turli xil variantlari yaratilganligini aytib o'tdik. Lekin, bugungi kunda B.Blumning kognitiv sohadagi taksonomiyasi puxta ishlangan bo'lib, u nisbatan ommaviy tarzda yoyilgan. Uning amalda qo'llanishi ham mukammal o'rganilgan va u jahon pedagogikasida keng qo'llanilmoqda. **Shuning**

uchun ham 1996 yilda YuNESKO Blum taksonomiyasining 40 yilligini xalqaro miqyosda nishonladi.

B.Blum taksonomiyasi yordamida o'qituvchi nafaqat o'quv maqsadlarini aniqlashtirishga, balki ularni o'zaro bog'liq bo'lgan qat'iy ketma-ketlikda joylashtirishga muvaffaq bo'ladi. O'quv maqsadlarining bunday ifodalanishi, o'qituvchi uchun talabalarga, ularning bilish faoliyati holatini tushuntirish, bu faoliyatni yakuniy natija tomon aniq yo'nalish olishga undashi uchun imkoniyat yaratadi. Demak, o'zlashtirish monitoringgi vujudga keladi. Bu taksonomiya test topshiriqlari tuzuvchilar uchun o'quv material elementlarini o'quv maqsadlarining qaysi toifasiga muvofiqligini aniqlashga ham qulaylik yaratadi. Bu taksonomiyani qo'llash natijasida identifikatsiyalanuvchi o'quv maqsadlarini aniqlash mumkin bo'lmagan darajalarda, ularni nisbatan umumlashgan shaklda ifodalab, test topshiriqlari tuzish imkoniyati yaratiladi. Yoki, avval o'quv maqsadlari taksonomiya toifalari bo'yicha umumiyroq shaklda aniqlanib, so'ngra ularga mos keluvchi va yakuniy natijani yaqqolroq ifodalovchi fe'l tanlanib, so'ngra test topshiriqlarini tuzish mumkin. Kognitiv (bilishga oid) soha bo'yicha B.Blum taksonomiyasi toifalarini ifodalovchi fe'llarning qisqacha ro'yxatini namuna sifatida keltiramiz.

1. Bilish:	dalillarni bilish, atamalarni bilish; dalillarni tanlash usulini bilish; belgilarni bilish; rivojlanish tendentsiyasini bilish; turkumlashni bilish; baholash mezonlarini bilish; muayyan bir yoki bir necha muammoni hal qilishda qo'llaniladigan uslublarni bilish; umumiy tushuncha, nazariyalarni bilish; xodisalarni tushuntirish va ularni oldindan ko'ra olish tamoyillarini bilish;
2. Tushunish:	mazmunni bir til (tizim)dan boshqasiga aylantirish; izohlash; olingan natijalarni yoyish yoki tadbiq etish.
3. Qo'llash:	uslublar, qoidalar va umumiy tushunchalarni vaziyat va topshiriqlarni hal qilishda qo'llash.
4. Tahlil qilish:	bir butun narsa(hodisa)ni hismlarga ajratish, bu hismlarning yoyilmasini va ular o'rtasidagi boqlanishlarni tuzish; hismlarni tahlil qilish; hismlar o'rtasidagi munosa-batni tahlil qilish; yaxlitlikni tashkil qilish tamoyillarini bilish.
5. Sintez:	yangi tarkib xosil qilish maqsadida berilgan hismlarni umumlashtirish asar yozish; ish faoliyati rejasini tuzish; berilganlarga asoslanib yaxlit qiyofani yaratish insho yozish.
6. Baholash:	maqsadga muvofiq holda qo'llanilgan material yoki uslublarni baholash (munosabat bildirish): ichki mezonlar asosida baholash; tashqi mezonlar asosida baholash.

Kognitiv (bilishga oid) sohadagi o'quv maqsadlar toifalari (Blum taksonomiyasi)

3-jadval

O'quv maqsadlarining asosiy toifalari.	O'quv maqsadlari turlaridan namunalar
1.	2
1. Bilish, Bu toifada o'tilgan materialni eslab qolish va takroran so'zlab (ko'rsatib) berishni anglatadi. Mazmuni turlicha aniq dalillardan boshlab, to yaxlit nazariyalargacha bo'lishi mumkin. Bu toifaning umumiy belgisi tegishli ma'lumotlarni eslab holishdir.	TALABA, qo'llaniladigan iboralarni biladi, aniq dalillarni biladi, ish-harakat tartibi uslublarini biladi, asosiy tushunchalarni biladi, qoida va tamoyillarni biladi.
2. Tushunish, Quyidagilar o'tilgan material ahamiyatini tushunish qobiliyatining ko'rsatkichlari bo'lish mumkin: materialni bir shakldan ikkinchi shaklga o'zgartirish, bir «til» dan ikkinchi «til»ga aylantirish (masalan og'zaki shakldan matematik shaklga). Shuningdek, talaba tomonidan materialni tushuntirib berilishi va qisqacha bayon qilinishi (interpretatsiya) yoki hodisa va voqealarning bundan keyingi borishini tasavvur etishi (oqibati va natijasini oldindan aytib berishi) ham tushunish ko'rsatkichlari bo'ladi.	TALABA Dalillar, qoida va tamoyil-larni tushunadi, og'zaki materialni talqin qila oladi, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qila oladi, og'zaki materialni matematik shaklda ifodalay oladi, mavjud ma'lumotlar asosida kutilayotgan oqibat-natijani taxminan tasavvur eta oladi.
3. Qo'llash, Bu toifa o'qitilgan materialdan aniq sharoitlarda va yangi vaziyatlarda foydalana bilishni anglatadi. Bunga qoidalar, uslublar, tushunchalar, qonunlar, tamoyillar va nazariyalarni amalda qo'llay olish kiradi. O'qitishning bunday natijasi materialni tushunishga nisbatan ancha yuqori darajada egallashni talab qiladi.	TALABA Tushuncha va tamoyillarni yangi vaziyatlarda qo'llaydi, qonun, nazariyalarni aniq amaliy vaziyatlarda qo'llaydi, uslub yoki ish-harakat tartibini qo'llay olishini namoyish qiladi.
4. Tahlil, Bu toifa materialni alohida qismlarga ajratishni bilishni anglatadi. Bunda uning tarkibiy tuzilishi aniq ko'rinib turishi kerak. Bunga yaxlitlikni hismlarga ajratish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash, yaxlitlikning tashkil etilish tamoyillarini anglash kiradi. Bu toifa o'quv natijalarini tushunish va qo'llashga nisbatan anchagina yuqori darajada ekanligi bilan xarakterlanadi.	TALABA Yashirin (noaniq) taxminlarni ifodalaydi, fikrlash mantiqidagi xato va kamchiliklarni ko'ra oladi, dalillar va sabablar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlaydi, bog'lanishlarni tahlil qila oladi.
5. Sintez, Bu toifa o'zida yangilikni aks ettirgan yaxlitlikni vujudga keltirish uchun alohida qismlar kombinatsiyasini tuzishni anglatadi. Bunday yangi mahsulot, doklad, nutq faoliyat rejası yoki umumlashtirilgan aloqalar majmui (mavjud ma'lumotlarni tartibga tushirish sxemasi) bo'lishi mumkin. Unga mos o'quv natijalari yangi sxema va tarkibiy tuzilishlar yaratishni o'z ichiga olgan hamda ijodiy xarakterga ega bo'lgan faoliyatni nazarda tutadi.	TALABA Materialning mantiqiy tuzilishini yozma matn shaklida baholaydi, xulosalarni berilgan kattaliklarga mosligini baholaydi, ichki mezonlardan kelib chiqqan holda, insho yozadi, tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, u yoki bu muammoni hal etish rejasini tuzishda boshqa (fan)larga oid bilimlardan foydalanadi.
6. Baholash, Bu toifa u yoki bu material (qonun,badiiy asar, izlanish natijalari)ning ahamiyatiga aniq maqsad nuqtai nazaridan baho berishni anglatadi. Talaba mulohazalari mezonı ichki (tarkibiy, mantiqiy) yoki tashqi (belgilangan maqsadga muvofiq) bo'lishi mumkin. Bu mezonlar talaba yoki o'qituvchi tomonidan belgilanishi mumkin. Bu toifa oldingi (5 ta) o'quv maqsadlarining barchasini egallanishini va ularga qo'shimcha ravishda aniq belgilangan mezonlarga asoslanib baho bera olishni ham bilishni nazarda tutadi.	TALABA Materialning mantiqiy tuzilishini yozma matn shaklida baholaydi, xulosalarni berilgan kattaliklarga mosligini baholaydi, ichki mezonlardan kelib chiqqan holda u yoki bu faoliyat ahamiyatiga baho beradi, tashqi mezonlardan kelib chiqqan holda u yoki bu faoliyat ahamiyatiga baho beradi (munosabatini bildiradi).

O'quv fani maqsadlarini bu taksonomiya asosida aniqlashtirish ikki bosqichda bajariladi. Birinchi bosqichda fan o'qitilishining umumiy maqsadi aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa kundalik va joriy o'quv faoliyatining maqsadlari aniqlanadi. qismlarga ajratib aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini jadval shaklida rasmiylashtiriladi: ustunda fanning bo'limlari, qatorda esa talabaning bu bo'limlarni o'zlashtirishdagi intellektual faoliyatining asosiy turlari joylashtiriladi.

Ushbu «ikki o'lchamli» aniqlashtirish har bir dars o'quv maqsadlarini belgilashda yo'nalish bo'lib hisoblanadi. J.Blok va L.Andersen uslubi bo'yicha bu maqsadlar o'quv bo'laklari mazmuni bo'yicha aniqlashtiriladi. So'ngra har bir bo'lak doirasida talabalar uchun yangi qismlar mazmuni aniqlanadi va turkumlanadi. Talabalarning o'qituvchi belgilagan o'zlashtirish darajasiga muvofiq bo'lgan intellektual operatsiyalari ko'rsatiladi.

Har bir bunday o'quv maqsadlari bo'yicha nazorat (test) topshiriqlari tuziladi. Identifikatsiyalanuvchi maqsadlarga erishilganlik haqida talabaning faqat tashqi ifodalangan faoliyati va uning mahsuli (javobi, masalani yechishi, mexanizmlarni qismlarga ajratish va yig'ishi, texnologik jarayonning kechish ketma-ketligini aniqlashi) bilangina aniq hukm chiqariladi.

O'quv natijalarini identifikatsiyalashda o'qituvchi talabaning tashqi ifodalangan harakatining belgilarini ifodlashga asosiy e'tiborni qaratadi.

O'quv maqsadlarini tashqaridan kuzatiladigan harakatlar bilan ifodalash.

O'quv maqsadlarini tashqaridan kuzatiladigan harakat bilan to'la-to'kis ifodalash texnologiyasi o'tgan asrning 50-60 yillarida bixeviorizm g'oyasi va uslublari ta'sirida vujudga keldi.

Bixeviorizm - (inglizcha behavior - xatti-harakat, xulq) amerika psixologiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u B. Skinner, J. Uotson va E. Torndayklar tomonidan asoslangan. Bixeviorizm o'ta amaliy yo'nalishga ega bo'lib, u inson psixikasini o'rganish, faqat uning tashqi ifodalangan va kuzatish imkoniyati bo'lgan xatti-harakati va nutqini tahlil qilishdan iborat, deb tasavvur qiladi. Bu yondashish o'quv maqsadlarini talabalarda tashqaridan kuzatilishi mumkin bo'lgan aniq harakatlarda, ya'ni qat'iy aniqlangan harakatlarning shakllanishidan iborat holda belgilashga olib keladi. Gerbert Spenser ta'riflaganidek, «**Ta'limning buyuk maqsadi bilim berish emas, balki xatti-harakatlarga o'rgatishdir**».

Mazkur oqim ma'lum davrgacha AQSh psixologiyasida ustivorlik rolini o'ynadi. Hozirgi davrda bu oqim bir necha psixologik maktablarga ajralib ketgan. Lekin ularning mohiyatida bixeviorizm ruhi sezilib turadi.

Bixeviorizmda ta'kidlanganidek, faoliyatni faqat tashqaridan kuzatiladigan harakat bilangina tenglashtirish - uni nig'oyatda soddalashtirib tasavvur etishdir. Murakkab bilish va hissiy jarayonlar (xususan, ijodiy faoliyat tajribasi)ni kuzatiladigan alohida hismlarga ajratish mumkin emasligi tufayli u bixevioristik yondashish doirasidan tashqarida qoladi. Bixeviorizmning qo'llanilishi reproduktiv o'qitish darajasi (yodlash, takroran aytib, ko'rsatib berish, namuna bo'yicha harakat qilish va x. k.) bilangina chegaralanadi. Lekin, bixevioristlarning o'qitish sifatini alohida qismlar bo'yicha nazorat qilish va tuzatishlar kiritib borishning zarurligi tog'risidagi xulosasi - o'qitish nazariyasi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Bu xulosa dasturlangan ta'lim uslubini yaratilishiga asos bo'ldi. Uning bixevioristik talqindagi o'qitish qoidalari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialini iloji boricha alohida qismlarga ajratish;
- o'quv elementlarini faoliyatda namoyon bo'lishining barcha ko'rinishlarini e'tiborga olish;
- ijobiy reaksiyani tezkorlik bilan mustahkamlash (nazorat - tuzatish);

- mashq (xatti-harakat)larni ko'p marta takrorlash natijasi 0,95 dan kam bo'lmagan o'zlashtirish ko'rsatkichiga erishish.

Lo'nda qilib aytganda, o'quv maqsadlarini to'la identifikatsiyalash va qat'iy bir xil ma'noda ifodalash g'oyasi talabalar faoliyatining an'anaviy noaniq tarzda emas, balki ularning tashqaridan kuzatish va o'lchash mumkin bo'lgan aniq xatti-harakatlari orqali ifodalanishini bildiradi.

O'quv maqsadlarini bixevioristik usulda alohida qismlarga ajratish, ularni tashqaridan kuzatiladigan xatti-harakatlarga to'la-to'kis aylantirish, ya'ni qat'iy nazorat qilinishi mumkin bo'lgan harakatlar tili bilan ifodalashdir. Masalan, «tanish», «qaytarish», «yozib olish» so'zlari, «bilish» va «tushunish» ifodalariga nisbatan anchagina aniqroqdir. Shuning uchun ham, o'quv maqsadlarini tanlashga oid uslubiy ko'rsatmalarda o'qituvchilarga «bilib olish», «o'zi uchun kashf etish», «idrok qilish», «seza olish», «tushunish» kabi umumiy ma'no beruvchi so'zlar o'rniga, talabalarda «tanlash», «nomini aytish», «sanab berish», «yozma ifodalash», «ta'riflash», «ko'rsatish» malakalarini shakllantirish tavsiya etiladi.

«Talaba matnni o'qishda tanqidiy fikrlash malakasini qo'llaydi» shaklidagi umumiy maqsadni quyidagi tarzda aniqlashtirish mumkin. Talaba: 1) mavjud ma'lumotlar va xulosalarni bir-biridan farqlaydi; 2) dalillar va taxminlarni bir-biridan farqlaydi; 3) sabab-oqibat aloqalarni ajratib ko'rsatadi; 4) mulohazalardagi xatoliklarni aniqlaydi; 5) hodisa mohiyatiga bog'liq bo'lmagan ayrim muhim fikrlarni ajratadi; 6) asoslangan va asoslanmay berilgan baholar chegarasini aniqlaydi; 7) matn bo'yicha asoslangan xulosa yozadi; 8) xulosalarning xaqqoniyligini asoslaydigan belgilarni ko'rsatadi.

O'quv maqsadlarini aniqlashtirishga oid bu misol, uni aynan shunday harakatlar tiliga aylantirishda har doim ham qo'llash mumkin, degan xulosani bermaydi. har bir o'qituvchi o'zining shaxsiy tajribasi va fikrlash madaniyatidan kelib chiqqan holda, sanab o'tilgan harakatni anglatuvchi belgilardan mosini tanlashi mumkin.

Umumiy o'quv maqsadlarini ifodalovchi fe'llarning namunaviy ro'yxati: tahlil qilish, hisoblash, fikrni aytish, namoyish qilish, bilish, interpretatsiya qilish, baholash, tushunish, o'zgartirish (bir shakldan ikkinchi shaklga), foydalanish, yaratish va x.k.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarining bir necha turlari bo'yicha fe'llar ro'yxatini keltiramiz:

Ijodiy turdagi o'quv maqsadlari uchun qo'llaniladigan (izlanuvchi harakatni anglatadigan) fe'llar: bir shaklni turli ko'rinishlarda takrorlash, shakllarni o'zgartirish, takomillashtirish, qayta guruxlash, qayta ko'rish, oldindan aytib berish, savol qo'yish, qayta tashkil etish, sintez qilish, tizimlashtirish, soddalashtirish.

Og'zaki va yozma nutq (nutqga oid harakatlar) sohasini anglatuvchi fe'llar: muloqotga kirishish, fikrni ifodalash, rozilik (norozilik)ni aytish, maqto'v (ma'qullash)ni ifodalash, hamkorlik qilish, tabassum qilish, ishtirok etish. Fe'llarning yuqoridagiga o'xshash ro'yxati boshqa sohaslar (umumiy mantiqiy operatsiyalar, umumiy o'quv harakatlari, matematika, fizika, tabiyotshunoslik, musiqa, mutaxassilik (ish harakatlar) bo'yicha ham o'quv maqsadlarini aniqlashtirish uchun tuzilishi lozim.

Misol tariqasida «Yozma matn ahamiyatini tushunish» bo'yicha o'quv maqsadining uch bosqichli aniqlashtirishni ko'rib chitamiz:

1. Yozma matn ahamiyatini tushunish.

1.1. Parchadagi yaqqol ko'rinib turgan ma'lumotlarni belgilang.

- Aniq detallar (nomlar, sanalar, voqealar)ning tagiga chizing.
- Parcha mazmunini to'laroq bildiradigan fikrlarni ajrating.
- Parchaning asosiy ma'nosini tasdiqlovchi dalillarni sanang.

1.2. Parchaning asosiy ma'nosini ajrating.

- Asosiy ma'noni anglatuvchi gapning tagiga chizing.
- Parcha uchun sarlavha o'ylab toping.

1.3. Parcha ma'nosini yakunlang.

- Parcha konspektini yozing.

1.4. Parcha mazmunidan unda yaqqol ochilmagan g'oya va munosabatlarni ajrating.

- Parcha mazmunida aytilmagan, lekin aytilishi nazarda tutilgan fikrlarni ayting.
- Parchada belgilangan harakat va voqealarni, ularni ko'proq uchraydigan ketma-ketligi bo'yicha sanang.
- Parchada ifodalangan harakat va voqealarning ehtimolligi ko'proq uchraydigan natijalarni tanlab, ifodalang.
- Parchada keltirilgan g'oya, hodisa va narsalarni o'zaro bog'lovchi va umumlashtiruvchisini tushuntiring.

Ba'zi hollarda belgilangan o'quv maqsadlariga erishish uchun faoliyatni o'zinigina aniq tasavvur etish yetarli bo'lmasligi mumkin. Vaholangki, o'quv vaqti tanqisligi (ya'ni tashqi sharoit) natijasida ham o'qituvchi belgilangan natijaga erisha olmasligi mumkin. Bunday hollarda ayrim didakt olimlar taklif etgan tashhislanuvchan o'quv maqsadlarining quyidagi to'rt komponentli tarkibidan foydalanish lozim: 1) tashqi sharoitlar tavsifi, 2) faoliyat (yoki kuzatiladigan harakatlar) kutiladigan natija, 3) ularni etalonga xos belgilari (mezonlari), 4) baholash (o'lchash) uslublari. Bular talaba-erishishi zarur bo'lgan etalon sifatida namoyon bo'ladi.

Matematika fanidan misol keltiraylik. Umumiy o'quv maqsadlaridan biri - geometrik masalalarni yechishda ijodiy va tizimiy yondashishni uyg'unlashtirishdan iborat bo'lsin. Etalon-maqсад quyidagilardan iborat bo'ladi :

Sharoit: 1) talaba uchun yangi turdagi geometrik masalani yaxshilab shakllantirish (tuzish); 2) masalani yechish uchun zarur bo'lgan teoremani oldindan o'zlashtirish.

Kutiladigan natija: 1) masala yechishga oid bir necha teng kuchli (alternativ) usullarni ilgari surish; 2) qo'llaniladigan teoreмага eng mos keladigan «chiroyli» usulni tanlash.

Baholash mezonlari va usuli: 1) miqdori jihatdan bir soat davomida kamida ikki xil yechish usulini egallash, sifat mezonlari - 80 foiz to'g'ri yechish, 60 foiz o'rtachadan ko'ra yuqoriroq eng «ajoyib» yechimlar (malakali ekspert-o'qituvchi mulohazasi bo'yicha).

Maqsadlarni hamkorlikda, o'qituvchi, uslubchi va fan bo'yicha mutaxassisdan iborat ekspertlar guruxi yordamida ishlab chiqishga ham murojaat qilish mumkin. Lekin maqsadlarni bu usulda aniqlashda har bir maqsad ko'p tortishuvlar natijasida shakllanadi va bu anchagina vaqtni talab qiladi. har bir ekspertning individual fikrlarini umumlashtirish ham anchagina kuch va vaqt sarfiga sabab bo'ladi.

O'quv maqsadlarini aniqlashtirishga juda ko'p vaqt sarflanadi, lekin bu o'qituvchi faoliyatining muhim tomonlarini o'quv jarayonini rejalash, nazorat qilish va

baholashni qamrab olganligi esa, uning ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, o'quv maqsadlarini aniqlashtirishning yana bir ahamiyati, ularni bevosita test topshiriqlariga aylantirish mumkinligidadir. Aniq o'quv maqsadlarini bevosita test topshiriqlariga aylantirishga misollar 7-jadvalda keltirilgan.

O'quv maqsadlarini test topshiriqlarga aylantirish 7-jadval.

Harakatni ifodalovchi fe'llar	Aniq harakat turlari (ko'rinishlari)	Test topshiriqlar na'munasi
Tadbiq doirasini chegaralang	Ob'yekt yoki hodisalarning alohida hismlarini ko'rsating, belgilang, guruxlarga ajrating	«quyidagilardan qaysi biri dalil (D), qaysilari esa fikr (F) ekanligini aniqlang».
Ta'riflang	Aniq qiymat yoki muhim tavsiflarni ifodalaydigan og'zaki yoki yozma ta'rifni bayon qiling.	«quyidagi iboralarning har biriga ta'rif bering».
Yozma ravishda ifodalang	Asosiy belgilar, xususiyatlar va o'zaro maqsadlarni xarakterlovchi og'zaki, yozma ta'rifni bayon qiling.	«havo namligini o'lchash yo'llarini bayon qiling».
Konstruktsiyalang	Aks ettirish, yasash, yihish, tayyorlash.	«Berilgan kattaliklarni aks ettiruvchi diagramma tuzing».

Test turlari va topshiriqlarining shakllari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasining 1993 yil 5 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari uchun talabalarni test usulida qabul qilish tog'risida»gi qarori O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib testshunoslikdan foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Jahon pedagogikasi va psixologiyasida mustahkam o'rin olgan test usuli mamlakatimiz ta'lim tizimida jadallik bilan tadbiq qilinmoqda. Respublika Davlat Test markazining faoliyat ko'rsatayotganligi mamlakatimizda testshunoslikning davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masala darajasiga ko'tarilganligining yaqqol dalilidir.

Pedagogik testlar AQSh, Niderlandiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarda keng rivoj topdi. Ushbu ro'yxatga asosan turmush darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar kirganligi tasodif emas. Bunda quyidagi zanjirli bog'lanish mavjud: testlarni qo'llash ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ta'lim sifati esa boshqaruv sifati bilan bog'liq; oqilona boshqaruv esa aholi turmush darajasini oshirish uchun zamin yaratadi.

Testshunoslik batafsil bayon etilishi zarur bo'lgan alohida soha ekanligi va shu bilan birga, test topshiriqlari pedagogik texnologiya bo'yicha loyihlangan tashhislanuvchi o'quv jarayonini amalga oshirishning muhim vositasi ekanligini ham e'tiborga olib, bu bo'limda testshunoslik tarixi (J. Fisher, F. Gamelton, Ch. Grim, Ch. Rassel), test usulining afzalliklari, test shakllari va ularni tuzishga oid didaktik talablar haqida ixcham ma'lumot beriladi..

Test shakllari va ulardan foydalanish. Testning rivojlanish tarixi va uning ijobiy tomonlari

Test (ingl. – «sinov») birinchi marta **1864 yilda Buyuk Britaniya** olimi **J.Fisher** tomonidan talabalarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixologi F.Gamelton ishlab chiqdi. Test sinovlari dastlab psixologiya fani doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta amerikalik psixolog E. Torndayk tomonidan yaratilgan. Psixologiya va pedagogikada test sinovlarining rivojlanishi bilan matematik uslublar ham qo'llanila boshlandi. Bunday uslublar o'z navbatida test-larni ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga talabalarning o'quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo'nalish: aqliy (intellektual) rivojlanish darajasini aniqlash testlarini yaratish va qo'llash hamda talabalarning o'qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga mo'ljallangan pedagogik testlarni yaratish va qo'llash sohalari rivojlana boshladi. Test tuzuvchilar turli odamlarda reaksiya vaqti bir xil emasligini aniqladilar, bu esa odamlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganish zarurligi va turli darajadagi testlar yaratish usulida amaliy ishlar olib borish lozimligi tog'risida xulosa chiqarishga olib keladi.

Test sinovlarining asosiy maqsadi: ham o'tilgan darslarni o'zlashtirish darajasi tog'risida, ham navbatda o'rganilishi lozim bo'lgan dars hajmi tog'risida o'qituvchiga axborot berish; o'qituvchiga o'qitish uslubini tanlashda yordam berishdan iborat deb hisoblangan.

Talabalarning bilimlarini baholashning turli usullarini tahlil etib, testlarni guruhlariga ajratishga o'rganib ko'rilgan. Ch.Grin (1926) o'zining «Test novogo tipa» («Yangi turdagi test») nomli monografiyasida ilgari yaratilgan va ishlatib ko'rilgan testlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib quyidagi tavsiyalarni berdi:

- test sinovlari uchun mo'ljallangan material hajmini aniq belgilash va uning tarkibidagi eng muhim qismlarini ajratib olish;
- mazkur material uchun test sinovlarining eng maqbul shaklini tajriba yo'li bilan aniqlash;
- talabalarning test sinovlari vaqtida javob berishlari o'rtacha tezligi tog'risidagi amaliy ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda, test sinovlarining davom etish vaqtini belgilash;
- test sinovlardagi fikrlarni bayon qilinish tilining to'g'riligini va mantiqqa muvofiqligini tekshirish;
- topshiriqlarni murakkabligi ortib borish tartibida joylashtirish, to'g'ri va noto'g'ri javoblarning doim bir navbatda almashinishiga yo'l qo'ymaslik.

Ch.Rassel test sinovlarining natijalarini o'rganishni davom ettirib, test sinovlarining maqsadi tog'risidagi savolga javob berishga erishdi. Rasselning fikricha, test sinovlarining maqsadi talabalarning bilimlarini baholash yoki ularning aqliy rivojlanishi darajasini aniqlash bilan cheklanmaydi va testlarni quyidagi xollarda: qaysi materialdan boshlab o'rganish zarurligini ta'minlashda; talabalarni guruxlarga taqsimlashda; o'qitish jarayonida sodir bo'ladigan qiyin-chiliklarni oldindan aniqlashda; shuningdek, mamlakatning turli tumanlardagi o'quv yurtlarida ma'lum yoshdagi talabalarning yutuqlarini taqxoslashda qo'llashi mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, Amerika maktab direktorlari Assotsiatsiyasining test sinovi o'tkazmasdan ta'lim berish mantiqsizdir, faqat testni qo'llash natijasidagina

nazoratdan ta'limga yo'naltirilgan qaytuvchan aloqa haqida fikr yuritish va qanday yo'nalishda harakat qilishni bilish mumkin, degan fikrlari ma'lumdir. Frantsiya parlamenti 1989 yilda ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari haqida qonun qabul qildi. Unda, xususan, talabalar bilimni xolisona baholash usuli bo'yicha o'qituvchilar majburiy suratda tayyorgarlikdan o'tishlari ko'zda tutiladi: Busiz 1992 yildan boshlab Frantsiyada o'qituvchilik qilishga ruxsat etilmaydi. Shunisi qiziqki, Frantsiya to'qson yillik test an'alariga ega bo'lgan davlatdir.

O'tgan asrning 70-yillari oxirida Pitterburgdagi Karnegi-Melon universitetining bir gurux sotsial-psixologlari AQShda test o'tkazishning zamonaviy ahvolini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot olib bordilar. Aslida, tadqiqotchilarning maqsadi AQSh o'quv yurtidagi testlarni keng miqyosda qo'llash sabablarini aniqlash edi. Bu tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlandi: test sinovi Amerika hayotida chuqur ildiz otgan, hech kim Amerika maktablarida turli xildagi standartlashtirilgan test bo'yicha sinovdan o'tmasdan, boshqacha yo'l bilan bilim olishni davom ettira olmaydi, ishga joylashish, keyinchalik esa yuqori lavozimga ko'tarilish yoki malaka oshirish test bilan chambarchas bog'lanib ketganligi alohida qayd qilindi. Tadqiqotda amerikaliklarni testlarga bu qadar moyilliklarining uchta sabablari keltirildi:

1) inson omilidan imkon boricha samarali tarzda xizmat manfaatlari nuqtai nazaridan foydalanish;

2) ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar iste'dodlarni taqdirlashga intilish;

3) amerikaliklarni milliy ta'lim standartlarni joriy etish uchun intilishlari.

Insoniyat erishgan yutuqlarni xolisona baholash uchun testlashtirishdan ommaviy suratda foydalanish, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda test sanoati va testlar bozorini vujudga keltirdi.

AQShda to'rt yuzdan ortiq markaz o'zaro raqobat ostida turli-tuman testlarni ishlab chiqmoqdalar. Shuningdek, testlarni tuzish va ularni qo'llash bo'yicha yaxshi mutaxassisliklar yuqori darajada qadr topganlar. 1992 yilda ular AQShdagi eng nufuzli 20 ta faoliyat yo'nalishlari ro'yxatida 8-o'rinni egallaydilar. O'ta qadrlanadigan ixtisosliklar - tizimlar bo'yicha tahlil, marketing, sog'liqni saqlash, ekologiya, oziq-ovqat maxsulotlarini taqsimlash va kompyuter texnologiyasi esa, tegishli tarzda 15-20-o'rinlarga joylashtirilgan.

Sobiq ittifoq davrida testlarga asoslangan fan pedalogiya deb yuritildi va testlardan foydalanishning dastlabki davrida jiddiy xatoliklarga hamda buzilishlarga yo'l qo'yildi. 1936 yildagi VKP(b) MKning «Xalq maorif komissarligi tizimidagi pedagogik buzilishlar tog'risida»gi qarorida testlar «burjua» pedagogikasiga xos deb hisoblandi. Bu qaror fanni mafkuraviylashtirishga va uni siyosiylashtirishga majbur etishga qaratilgan bo'lib, unda jahon psixologiyasi va pedagogikasi tajribasidan foydalanish inkor qilingan edi. Bu qarorga binoan, 1936 yildan testshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar davlat miqyosida to'xtatiladi. Pedalogiyaning «idealistik va mexanistik» ko'rsatmalari, ularni «ilmiy asoslanmagan» «test»larga berilib ketganligi qoralandi. Pedalogiyaning soxta fan sifatida qoralash jarayonida sovet pedagoglari hamda psixologlarining talabalar bilim-ko'nikmalarini baholashga haratilgan ijobiy yutuqlari ham inkor etildi. Shuning uchun test sinovlari muammosi pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda uzoq vaqt aks ettirilmadi. Yuqorida ta'kidlaganidek, mustaqil O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib, 1993 yildan

testshunoslikdan foydalanishga keng yo'l ochib berildi. Pedagogik testlar keng miqyosda, dastlab o'rta ma'lumot yakunida, oliy o'quv yurtiga kiruvchilarni qabul qilishda qo'llanila boshlandi.

Pedagogik testlarning zamonaviy nazariyasi pedagogika, psixologiya, mantiq, o'lchovlar nazariyasi, matematik statistika, matematika, axborot nazariyasi; kibernetika va bir qator fanlarning tutash chegaralarida rivojlanmoqda. Shuningdek, testlar ilmiy asoslangan, eng ishonchli pedagogik o'lchovlar quroli sifatida etirof etilmoqda.

Pedagogik testlar insoniyat tafakkuri erishgan muvaffaqiyatlardan biri bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuning uchun ham kelajak avlod psixologik, pedagogik va kasbiy testlar me'yor bo'lib qolgan davrda yashab, faoliyat ko'rsatadilar.

Pedagogik testlar bilimlarga baho berishning istiqbolli usuli hisoblanadi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- test topshiriqlari o'quv fanining asosiy mazmunini qamrab oladi (imtihon bileti o'zida nazorat qilinadigan o'quv materialining 4-5 foizini qamraydi xolos);
- hamma talabalar testning bir xil savollariga javob beradilar, bu ularning bilimlarini taqqoslashga imkon beradi;
- talabalar bilimiga xaqqoniy baho berish mezoni oshadi;
- test nazoratida oldindan yaratilgan, hamma uchun bir xil bo'lgan shkala yordamida talabalar bilimiga bir muncha aniq va tabaqalashgan baho qo'yishga imkon beradi (reyting);
- o'qituvchi talabalar bilimini nazorat qilishga kam vaqt sarflaydi;
- boshlang'ich darajasini va har qanday vaqt oralig'ida bilimlarni oshirish imkoniyatini o'lchashga sharoit yaratiladi;
- test nazorati kompterlashtirishga (avtomatlashtirishga) qulay. Bu pedagogik testlashning asosiy afzalliklaridan biridir. O'quv jarayonining takrorlanuvchanligi ham aynan shunda o'z ifodasini topadi.

Umuman olganda test usuli birmuncha texnologik hisoblanadi. U bilimlarni o'zlashtirish sifatini nazorat qilishda o'qituvchilar mehnat unumdorligini oshiradi va o'quv dasturini chuqur va har tomonlama o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Pedagogik testlashning bu afzalliklari AQShda munosib baholangan. Abiturient (talabgor)larni universitet va kollejlarga test sinovi bilan qabul qilinadi. Pedagogik testlarni keng qo'llashi bo'yicha AQSh tajribasi Kanada, Yaponiya, Turkiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarga yoyilgan.

Sifatli test topshiriqlarini tuzishning qiyinligi, testni keng joriy etishni murakkablashtiradi. Bu ish yuqori pedagogik malaka va tajriba talab etadi. Shuning uchun ham, AQShda testning yuqori sifatini ta'minlash uchun pedagogik testlashning maxsus xizmati (PTX) tashkil kilingan. Bu tashkilot test o'tkazish amaliyotini umumlashtirish va ommalashtirish, standartlashtirilgan testlar yaratish, test o'tkazishning yagona qoidalari va test ishlab chiqish usullarini belgilash masalalari bilan shug'ullanadi. Pedagogik testlash xizmati (PTX) Prinston universitetida joylashgan, unda 2300 nafar kishi, shu jumladan, 250 nafar falsafa, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, statistik va psixologik uslublar, kasb tanlash bo'yicha fan doktorlari, shuningdek, turli fanlar bo'yicha fan doktorlari, 200 nafar magistr, har xil fanlar bo'yicha o'qituvchilar xizmat qiladi. Testlar EHMda ishlanadi va sinaladi.

Mamlakatda pedagogik testlash xizmatiga bo'ysunadigan 5000 test punktlari mavjud. Test o'tkazish uchun Prinston markazi 53 ishonchli shaxslarga (odatda test o'tkaziladigan o'quv yurtlari pedagoglariga) test materiallari va test o'tkazish bo'yicha yo'llanmalar yuboradi.

Bu misoldan ma'lumki, testlashni samarali o'tkazish pedagogik testlarning maxsus rivojlangan xizmati, keng quloch yoyilgan tarmoq punktlari, testlar bo'yicha nazariya va amaliyotni o'zida aks ettiradigan katta hajmdagi adabiyotlar mavjudligiga bog'liq.

Test turlari va test topshiriqlari shakllari.

Agar testlarni turkumlashda ularning qo'llash maqsadi va vazifalariga asoslanadigan bo'lsak, psixologik testlardan boshqa barcha testlarni quyidagi uch guruxga ajratish mumkin:

- intellektual rivojlanish darajasini aniqlovchi testlar;
- pedagogik testlar;
- muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar;

Fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, biz faqat pedagogik test haqida to'xtalamiz. Adabiyotlarda bunday test topshiriqlarining quyidagi shakllari bayon etiladi:

- birdan-bir to'g'ri javobi bo'lgan yopiq topshiriqlar;
- bir necha to'g'ri javoblari nazarda tutilgan yopiq topshiriqlar;
- bitta so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan gapdan tashkil topgan ochiq topshiriqlar;
- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlash uchun topshiriqlar;
- o'zaro bog'lanishni (muvofiglikni) aniqlash uchun topshiriqlar;
- ayrim fanlar bo'yicha bilimlarning chuqurligini aniqlash bo'yicha topshiriqlar;
- sonni to'ldirishga mo'ljallangan topshiriqlar, bunda sonlar seriyasini topish usulini aniqlash va uni muayyan tartibda belgilash;
- qarama-qarshi munosabatlarni aniqlash testlari;
- masalalar yechishga qaratilgan (matematik, fizik va b.) topshiriqlar;
- chizmalar va sxemalarni tushunishga qaratilgan topshiriqlar;
- shakllarni nisbatini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar;
- olingan axborotni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun topshiriqlar;
- sinonimlar va antonimlarni farqlashga topshiriqlar;
- analogiya (aynan o'xshashlik)ga oid topshiriqlar;
- o'qilgan matnni tushunishga oid topshiriqlar;
- ko'rsatmalarni bajarishga oid topshiriqlar;
- bilimdonlikni aniqlashga doir topshiriqlar;
- tafakkurni aniqlovchi testlar;
- orfografik testlar;
- til masalalariga doir topshiriqlar va boshqalar.

Mutaxassislik (umumtexnik) fanlardan test topshiriqlari tuzishda yopiq (bir yoki bir necha to'g'ri javobli), ochiq, muvofiglikni va to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga oid test topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bir o'quv maqsadiga erishganlikni turli test topshiriqlari yordamida aniqlash (invariant) testlar tuzish ham maqsadga muvofiqdir [2].

Ochiq topshiriqlar. Agar test topshiriqi matnida uning tayanch so'zlari yoki gap tushirib qoldirilgan bo'lsa, bunday topshiriq ochiq (tugallanmagan) test deb ataladi.

Bu shakldagi testlarda talabalarning bitta, ikkita so'zdan iborat qisqa va aniq javob berishlari taxmin qilinadi. Bu haqda testga ilova qilingan yo'llanmada bayon etish kerak. Blankaning bo'sh joyida javob uchun zarur bo'lgan joy qoldiriladi. Masalan, «Test tushunchasi» _____ yilda _____ tomonidan birinchi marta ishlatilgan.

Yopiq topshiriqlar. Bunday topshiriq savoldan va bir necha javoblardan iborat bo'ladi, bu javoblardan biri to'g'ri, qolganlari to'qriga o'xshash, biroq noto'g'ri bo'ladi. Taklif qilinadigan javoblar soni ikkitadan beshtagacha va bundan ko'proq bo'lishi mumkin. Sinovdan o'tuvchining tanlagan javobiga ko'ra, test topshiriqi tegishli ikkita kod: 1 yoki 0 bilan kodlanib, so'ngra shu holda EHMga kiritiladi.

Ikkita javobli yopiq topshiriqlarga misol:

1. Bilimlarni test bilan nazorat qilish adolatligi an'anaviy shakllar bilan taqxoslanganda:

a) ortadi. b) pasayadi.

2. Bilimlarni har qanday vaqt oraligida oshishiga baho berish imkonini beradigan nazorat turi:

a) odatdagi b) testli.

«ha» va «yo'q» degan ikkita javobli yopiq test topshiriqlari ustida alohida to'xtalib o'tish lozim. Ba'zi bir topshiriqlar ularning javoblari ikki xil ma'noni bildiradigan qilib bayon etilishi mumkin. Masalan: Siz testlar qo'llanishini xush ko'rasizmi? - ha (xush ko'raman). Yo'q (xush ko'rmayman). Bunday xollarda javoblar uchun «to'g'ri» va «noto'g'ri» so'zlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Misol:

Yopiq test topshiriqlari bilimlarni kompyuterdan foydalanib nazorat qilishga qulay.

a) To'g'ri. b) Noto'g'ri.

Ikkita javobi bo'lgan yopiq shakldagi topshiriqlar qo'llanishning asosiy vazifasi - shu fandan sinovdan o'tuvchining birinchi test topshiriqlaridayoq bilim darajasini tezda tekshirib ko'rishdan iborat. Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlarida (AO'T) bunday topshiriqlar boshlang'ich bosqichning o'zidayoq talabani umumiy tayyorgarligini taxminiy baholash va nazoratning keyingi yo'nalishi - murakkab yoki osonlashtirilgan dastur bo'yicha olib borish masalasini hal qilishga imkon beradi. Test topshirig'ida javoblar qancha ko'p bo'lsa, to'g'ri javobni tasodifan topish ehtimoli shunchalik kam bo'ladi. Amaliyotda beshta javobi bo'lgan topshiriqlarga ega bo'lish yetarli hisoblanadi (bu holda bitta topshiriqqa to'g'ri javob berish ehtimoli 0,2 ni tashkil etadi.)

Javobi beshta bo'lgan test topshiriqlariga quyidagi misolni keltirish mumkin.

«To'rtinchi o'lchov» degan fizika-matematika atamasi qaysi tushunchaga taalluqli?

a) Og'irlikka. b) hajmga. v) Vaqtga. g) Tezlikka d) Tezlanishga.

To'g'ri javob: V.

Bu topshiriqni latent, ya'ni yashirin ma'noli topshiriqlar qatoriga kiritish mumkin. To'rtinchi o'lchov - ehtimollik nazariyasida qo'llaniladigan tushunchadir. Shuning uchun to'g'ri javob bergan sinovdan o'tuvchining bu nazariyadan ommabop darajada

xabardor, degan taxmin qilish mumkin. Yopiq topshiriqlarda to'g'ri javoblar bir nechta yoki, javoblarning hammasi ham to'g'ri bo'lishi mumkin.

Masalan: Pedagogik innovatsiyani xarakterlovchi belgilarini ko'rsating.

A. Pedagogik tizimni takomillashtirishga yo'naltirilgan barcha o'zgarishlar;

B. O'quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirish uchun kiritilgan yangilik;

V. Pedagogik tizimning ayrim qismlarini yuqori samara beruvchi boshqa qismlar bilan almashtirish;

G. Pedagogik tizimning ichki imkoniyatlarini ishga solish va yuqoriroq natijaga erishish;

D. hamma javoblar to'g'ri.

To'g'ri javob: D.

O'zaro bog'langan qisqa yopiq topshiriqlar zanjirchasi bilimlarning har qanday murakkab o'quv materialini o'zlashtirish sifatini tekshirishga imkon beradi. Yopiq testlarni ishlab chiqishda noto'g'ri, biroq to'g'riga o'xshab ko'ringan javoblarni ta'riflash asosiy qiyinchilini tashkil qiladi. Agar ular muvaffaqiyatsiz tuzilgan bo'lsa, to'g'ri javob ular orasida ajralib turadi va xatto yaxshi bilmaydigan talaba ham uni osonlikcha topishi mumkin. Bu holda topshiriq o'zining tekshiruvchi funksiyasini yo'qotadi. Topshiriq yaroqli bo'lishi uchun hamma javoblar talabani o'ziga jalb etadigan bo'lishi zarur. Shundagina tanlab olinadigan javoblari bo'lgan topshiriq muvaffaqiyatli chiqadi. har bir noto'g'ri javobning o'ziga jalb etadigan tomoni, shu javobni tanlangan talablarning salmog'i bilan belgilanadi. Bu ulush nechog'li yuqori bo'lsa, mazkur javob yaxshi ta'riflangan bo'ladi. Agar talabalar yaqqol noto'g'ri javobni to'g'ri javob sifatida tanlamasalar, bunday javobni almashtirish lozim.

Test topshiriqlarini tuzish uslubi. Test topshiriqlariga qo'yiladigan didaktik talablar.

Tuzilgan test topshiriqlarining hammasini ham birdek qo'llashga yaroqli deb bo'lmaydi. Test savollari mukammal bo'lishi uchun, ularni tuzishda bir qancha talablarga rioya qilish zarur. Bular quyidagilardan iborat: test topshiriqlari mazmunining o'quv maqsadiga muvofiqligi; material ahamiyatliligi; ilmiy aniqlik; izchillik; to'kislik va uyg'unlik; o'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalashganligi; samaradorlik (kumulyativlik); til ravonligi va aniqligi; bir ma'nolilik; vaqtning qat'iy belgilanishi; ixchamlik; murakkablik me'yori; to'g'ri javobda qo'shimcha belgilarining mavjud emasligi; variativlik; shaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik.

Endi mazkur talablarni birma-bir qisqacha ko'rib chiqaylik.

1.O'quv maqsadiga muvofiqligi. Test topshiriqlarining mazmuni aniqlashtirilgan (identifikatsiyalangan) o'quv maqsadlariga muvofiq bo'lishi lozim. O'quv maqsadlari majmui iyerarxik tuzilishiga ega. Shuning uchun nisbatan yaqin maqsadni amalga oshirmay turib, umumiy (nisbatan olis) maqsadga erishib bo'lmaydi. har bir test savoli ma'lum bir o'quv maqsadining ro'yobga chiqishini ta'minlashi zarur.

2. Materialning ahamiyatliligi. Test savollariga o'quv materialining eng muhim, asosiy qismlarini kiritish lozim. Testda topshiriqlar soni odatda cheklangan bo'ladi. Binobarin, to'g'ridan-to'g'ri qo'yilayotgan masalada barcha mavzular to'liq qamrab olinmagan bo'lishi mumkin. Talabani umumiy holatdan xususiy xulosaga kelishi (deduktiv) va aksincha, ayrim dalillardan umumiy xulosalar (induktiv) chiqara

olishi, uning nazariy qoidalarini alohida xolatlarda qo'llashni nechog'lik o'zlashtirib olganini, tafsilotlarni bilishi esa nazariy asoslarni tushuntira olish qobiliyatlarini ko'rsatadi.

3. Ilmiy aniqlik. Testga mushohada, bilim orqali asoslash mumkin bo'lgan xaqqoniy ma'lumotlar kiritiladi. Fandagi munozarali qarashlarni test savollariga kiritish tavsiya etilmaydi. Test topshiriqlari tabiati asosan, avvaldan ma'lum, aniq javob berishni taqozo etadi.

4. Izchillik. Testdagi topshiriqlar ma'lum bir fanga taaluqli, umumiy bilim mohiyatiga ko'ra o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. Izchillik ayni bir topshiriq javobini umumiy test natijalariga nisbatan munosabatida (korrelyativ) ko'rinadi.

5. To'kislik va uyg'unlik. Testdagi topshiriqlarning umumiy soni mavzu va qismlarga nisbatan muvofiq taqsimlanishi ahamiyatli. Bu talab test rejasini ishlab chiqishda amalga oshirilishi lozim.

6. O'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalanganligi. O'quv materialining ma'lum bir tarkibiy qismiga oid o'zlashtirish darajasi turlicha (bilish, eslab qolganini tasvirlash, samarador bilimlar va ijodiy fikrlash) bo'lgan test topshiriqlarini tuzish lozim. Bu talab ham test rejasini ishlab chiqishda amalga oshirilishi lozim.

Bilish darajasidagi test topshiriqlari avval o'zlashtirib olingan ma'lumotlarni qayta tiklashga asoslanadi. Bunda xotira quvvati katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Reproduktiv darajadagi testlarda esa, talaba oldin o'zlashtirilgan ma'lumotlar asosida mustaqil fikrlaydi, topshiriq bajarganda esa, fanda avvaldan ma'lum bo'lgan qoida va algoritmlarga (yo'llanmalarga) suyanadi. Bunday holda u, esda qolganni tasvirlash, qayta tiklash yo'lidan boradi.

Samarador bilimlar va ijodiy fikrlashga oid test topshiriqlari esa sinalayotgan shaxsning ma'lum umumiy uslublarni topshiriqda ko'rsatilgan aniq shart-sharoitlarga mustaqil qo'llash layoqatini sinaydi. Samarador bilimlar va ijodiy fikrlash faoliyati tayyor qoidalar va algoritmlar asosida emas, ma'lum qoidalariga ko'ra yaratilgan yoki yangi sharoitdagi faoliyat jarayonida qayta yaratilgan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

Ijodiy fikrlash darajasiga oid tuzilgan testlarda topshiriq umumiy holda bayon etiladi, maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan xatti-harakatlar va vaziyatlarni talaba ijodiy fikrlash natijasida aniqlaydi. Bunday test topshiriqlarni yechish jarayonida butunlay yangi axborot (qoida, xulosa, shakl va x.k.) yaratiladi.

7. Samaradorlik (kumulyativlik). Samaradorlik test topshiriqlarining borgan sari murakkablashib borishini nazarda tutadi. Bu qat'iy talab emas. Chunki, zamonaviy kompyuter test tizimida talabaga navbatdagi test topshiriqi, avvalgisini qanday yechganiga qarab beriladi. Ya'ni avvalgi savolga noto'g'ri javobdan so'ng, unga nisbatan murakkab bo'lmagan test topshiriqlari berilishi mumkin.

8. Vaqtning qat'iy belgilanganligi. Bu shartning mohiyati shundan iboratki, o'ylash uchun 2 daqiqadan ortiq vaqt talab etiladigan test savollari bo'lmasligi lozim. Bir qancha xorijiy test topshiriqlarini tahlil etilganda, matematika bo'yicha 65 sekund, til va adabiyot bo'yicha 32 sekund, ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha 41 sekund, dalillar va iboralar uchun 20-25 sekund, chizmalar uchun 90 sekund, shakllarni aniqlash uchun 90-120 sekund vaqt ajratilishi ma'lum bo'ldi.

9. Ixchamlilik. Test topshiriqlarining matni cho'zilib ketmasligi, qalashtirib tashlanmasligi lozim. Murakkab ko'lamli o'quv savolini o'zlashtirishni aniqlash zarur bo'lgan hollarda, uni bir qancha iqcham test topshiriqlariga bo'lib tuzilgani ma'qul.

10. Til ravonligi, aniqligi va bir ma'noliligi. Test topshiriqlarida ko'p ma'nolilik va noaniqlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. AQShda test topshiriqlarini tuzuvchilar guruxiga muayyan bir o'quv fani bo'yicha tajribali pedagog va ruxshunosdan tashqari adabiy muharrir ham kiritilishi an'anaga aylangan.

11. Murakkablik me'yori (yaroqliligi). Test topshiriqlari pedagogik jihatdan samarali bo'lishi uchun, ular oddiy axborot berib qolmasligi, javobi ochiqdan-ochiq ayon bo'lmasligi lozim. Natijasi yarmiga teng ($P_q 0,5$) bo'lgan test topshiriqlari nisbatan samarali hisoblanadi. Bunday natija o'quv materialini yaxshi o'zlashtirgan yoki chuqur tayyorgarlik ko'rmagan talabani aniqlashni osonlashtiradi. Shuning uchun ham, abituriientlarni tanlash, bitiruv imtihonlari kabi muhim tadbirlar uchun test topshiriqlari o'quv dasturini to'liq o'rgangan talabalarning 50 foizi bajara olishi mumkin bo'lgan darajada tayyorlanadi. Demak, ma'lum bir yo'nalishdagi testlar uchun 50 foizlik natija yaxshi ko'rsatkichdir. Shuni unutmaslik kerakki, o'z sinfi uchun muallimlar tomonidan tayyorlangan test topshiriqlari boshqacharoq mezon bilan baholanadi. Bunda 50 emas, balki 85 foiz ko'rsatkich maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu xaqda oldingi mavzuda bayon etilgan.

12. To'g'ri javobda qo'shimcha belgilarning mavjud bo'lmasligi. Test tuzishda tajribasiz kishi tushunarli bo'lsin, degan maqsadda to'g'ri javobni boshqa javoblarga nisbatan kengroq va batafsilroq bayon qiladi. Talabalar bu farqni tez anglab oladilar va javobni ana shu belgiga qarab aniqlashadi. Bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

13. Variativlik. O'quv materialidagi ma'lum bir mavzuni o'zlashtirishni nazorat qilish uchun mantiqiy fikr bayoni, sintaktik tuzilishi, morfologik belgilari yoki murakkablik darajasiga ko'ra turlicha bo'lgan, lekin bitta o'quv materialiga tegishli test savollari tuzish mumkin. Bu bir o'quv maqsadiga erishish yo'lida topshiriqlar turkumini yaratish imkonini beradi (invariant testlar). Shu bois kompyuter test tizimi topshiriqlarning variativlik xususiyatiga asoslangan. Bunda kompyuter navbatlagi topshiriqni avvalgi savolga berilgan javobga ko'ra tanlaydi.

14. Shaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik. Bu talab falsafadan, uning qoidalarini san'at asarlarini o'rganishga qiyoslashdan olingan. Gegel fikricha, xaqiqiy san'at asari shaklan va mazmunan yaxlit asardir. Binobarin, test topshiriqlari ham shaklan va mazmunan uyg'un bo'lishi lozim. Test topshiriqlarini yuqoridagi talablar asosida tuzish, o'qituvchilarning test tuzish nazariyasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishlarini talab qiladi. Buning uchun testshunoslik kurslarida o'hish va tegishli adabiyotlarni mustaqil o'zlashtirib borish zarur.

Test topshiriqlari tuzishga oid yuqoridagi talablarga rioya qilish, ularning talabalar bilimini xaqqoniy va aniq o'lchash xususiyatlarini ta'minlaydi. Buning uchun test topshiriqlari tuzishda mutaxassis olimlar, fan o'qituvchisi, uslubchi, pedagog va psixologlarning hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash zarur.

Test rejasini ishlab chiqish.

O'quv fan bo'yicha test topshiriqlari tuzishni uning rejasini ishlab chiqishdan boshlash tavsiya qilinadi. Avval fan bo'yicha test topshiriqlarining umumiy soni

belgilanadi. Tegishli kafedra bu masala bo'yicha qaror qabul qiladi. Bunda mazkur o'quv fanini o'rganishga ajratilgan umumiy soatlar soni va test tuzishga oid talablar hisobga olinadi. Darsxona mashg'ulotlarining hajmi katta bo'lgan kurslar uchun o'quv rejasi bo'yicha mazkur o'quv fani soatlaridan ko'proq test topshiriqlari sonini tanlash maqsadga muvofiq. Bu mashg'ulotlarning har bir o'quv soatiga testda 1-2 ta savol qo'yishga imkon beradi. Masalan, hajmi 144 soatlik o'quv faniga bir variant uchun 150-160 topshiriqni ishlab chiqish mumkin. Agar o'quv fanining soati ko'p bo'lmasa, (mas. 36 soat) test topshiriqlar sonini belgilashda, uning ishonchliligi bilan bog'liq bo'lgan fikrlarga asoslanib ish ko'riladi. Bunga asosan 50 topshiriqda ishonchlilik (bilimlarni o'lchash aniqligi) taxminan 0,7 bo'ladi, ishonchlilikni 0,9 ga yetkazish uchun topshiriqlar soni 130 ta, bo'lishi kerak. Ishonchliligi 0,7 dan kam bo'lgan topshiriqlar yakuniy baholash uchun yaroqsiz hisoblanadi. Shuning uchun ham, yakuniy baholash uchun tuzilgan test topshiriqlarining soni eng kamida 50 ta bo'lishi qabul qilingan.

Test rejasi ishlab chiqilgandan keyin, talabalarining tegishli o'quv fanni o'rganish natijasida, ular oladigan bilimlarni egallashga va ko'nikma xosil qilishga oid talablarni shakllantiriladi. Bu talablar odatda o'quv fani bo'yicha ishchi dasturning «fanning maqsad va vazifalari» bo'limida yoziladi. Test topshiriqlari talab etiladigan bilimlar, ko'nikmalarni egallash darajasini to'la-to'kis aniqlashi kerak. Buning uchun test topshiriqlarida aks ettirilishi zarur bo'lgan muayyan masalalar ro'yxati (test spetsifikatsiyasi) ishlab chiqiladi. Masalan:

A - ta'riflay olishni bilish;

B - qonunlar, formulalar, tamoyillarni bilish;

V - masalalar yechishda qonunlar, formulalarni qo'llashni bilish;

G - o'xshashlik va tafovutni topishni bilish;

D - sxema va grafiklarni o'qishni bilish;

E - apparatlar (texnik moslamalar)ning tuzilishi va ishlatish qoidalarini bilish;

J- EHM qo'llab matematik modellar va eng maqbul hisob-kitob uslublaridan foydalanishni bilish;

Z - oldindan tanish bo'lgan sharoitda qaror qabul qila olish (bemorga tashhis qo'yish, mashinani texnik holati tog'risida axborot berish, mavjud ma'lumotlar asosida boshqarishni bilish va x.k) va boshqalar.

O'z-o'zidan ravshanki, keltirilgan ro'yxat universal xarakterga ega emas, u har bir o'quv fanining o'ziga xosligi asosida tuziladi. Masalan: chet tillar bo'yicha jumla tuzish kabi elementlar; tarixdan muhim voqealar, atoqli arboblarning ismi-shariflari, jamiyat rivojlanishining izchilligi kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Har bir bilim va ko'nikmani tekshirishga test topshiriqlarining muayyan foizi ajratilishi zarur. Test rejasini ishlab chiqishda bu g'oyat muhim ishdir, test validligi, ya'ni uning o'quv dasturiga muvofiqligi ko'p jihatdan ana shunga bog'liq bo'ladi. Bu masala bo'yicha, test ishlab chiquvchilar o'quv fanining ishchi o'quv dasturini tahlil qilish asosida muayyan bir fikrga kelishlari mumkin. So'ngra qabul qilingan topshiriqlar sonini o'quv fani bo'limlari va o'zlashtirish darajalari bo'yicha taqsimlanadi. 8-9 jadvallarda 120 ta topshiriqni o'quv fanining 4 ta bo'limi va o'zlashtirish darajalari bo'yicha taqsimlash misol keltirilgan.

Bunday rejani ishlab chiqish test validligiga, uning o'quv dasturi mazmuniga muvofiqligi va talabalar olgan bilim, ko'nikma va malakalarining puxta bo'lishini kafolatlaydi. Testning umumiy rejasi ishlab chiqilgandan so'ng, topshiriqlarni tanlash va tuzish - eng mas'uliyatli bosqich hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek, bu vazifa odatda kurs bo'yicha bir necha marta dars bergan va test bo'yicha talabalar bilimini sinab ko'rgan eng tajribalar o'qituvchilar ishtirokida amalga oshiriladi.

Test tuzishdagi eng xarakterli xatolarning tahlili.

O'zbekiston Respublikasidagi 10 ta oliy o'quv yurtida (1995y.) tuzilgan dastlabki 369 ta test topshiriqlari professor Farberman B. L. raxbarligidagi bir guruh olimlar tomonidan ekspertiza qilindi. Bu test tuzuvchilarning eng xarakterli quyidagi xatolarini tahlil qilish, umumlashtirish va darajalarga bo'lib chiqishga imkon beradi.

1. Yopiq test topshiriqlariga taklif qilinayotgan javoblar miqdorining kamligi (4-5 ta javob bo'lishi tavsiya etiladi). Ularning soni kamroq bo'lganda to'g'ri javobni tasodifiy tanlash ehtimoli ancha oshadi.

2. Testda oddiy dalillar, voqealarning sanalari, atamalar, ism-shariflar, ya'ni faqat eslab holishni talab etadigan topshiriqlarning ko'pligi. Bunday topshiriqlarni tuzish osonroq, biroq bu holda test faqat xotira bilan bog'liq bilimlarnigina nazorat qiladi, xolos. Tanqidiy baho berish, turli xil dalillarni umumlashtirish yoki o'rganilgan tamoyillarni yangi sharoitlarda qo'llanishga doir test topshiriqlarini tuzish qiyinrok, lekin ana shunday topshiriqlargina talaba bilimini to'laqon baholaydi. O'tkazilgan tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, o'rganilgan materialning o'zi, ko'pincha ma'lum vaqt o'tgach unutiladi, o'zlashtirilgan asosiy tamoyillar va ularni yangi sharoitlarda qo'llash esa, umuman unutilmaydi yoki o'qish tugallangandan keyin xotirada o'rnashib, uzoq vaqt saqlanib qolar ekan.

3. Test topshiriqlarining shu fan bo'yicha darslikka o'ta bog'liq bo'lib qolganligi. Test topshiriqlari talabaning o'zlashtirib olishi shart bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarga muvofiq kelishi lozim. Test topshiriqlarini o'quv fanining bo'limlari yoki mavzulari o'rtasida mutanosib ravishda taqsimlab, bu masalalarni test rejasini ishlab chiqish bosqichida hal qilish zarur. Test rejasini tuzayotganda qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil o'rganish uchun tuziladigan test topshiriqlarini ham e'tiborga olish zarur. Rejasiz tuziladigan test tasodifiy material bilan tuzilib, sifatsiz chiqishi tabiiydir.

4. Testda shu o'quv fani asosiy qoidalarini umumlashtiradigan majmualari xarakterdagi topshiriqlarning yo'qligi. Bu alohida vaziyatga oid masalalar: keltirilgan ma'lumotlar asosida texnik, boshqaruv va boshqa qarorlar qabul qilish, bemorga tashhis qo'yish uchun klinik ma'lumotlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday topshiriqlar miqdori talaba albatta to'g'ri qaror qabul qilishi lozim bo'lgan (oldindan tanish bo'lgan) vaziyatlar soni bilan belgilanishi mumkin.

5. Taklif qilinadigan javoblarning kattaligi (beso'naqayligi). Test topshiriqlarida javoblarning ko'p satrli bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, ularni anglab olish qiyin bo'ladi va talaba beshinchi javobni o'qib bo'lguncha, birinchi javob mazmunini unutib qo'yadi. Murakkab topshiriqni bir necha oddiylariga bo'lib test topshiriqlari tuzilishi zarur. Ko'p sonli qoida va mulohazalarni bilishni hamma vaqt talab qilaverish to'g'ri emas, ba'zan tayanch so'zlarni ajratishning o'zi, talabaning katta hajmdagi o'quv materialini bilishi haqida ma'lumot berishi mumkin.

6. Test topshirig'i shartlarini (savollarini) ta'riflashdagi ko'p so'zlilik. Test topshiriqlaridagi oddiy va lo'nda qilib bayon qilingan fikr sinovdan o'tuvchining fikrlash va tafakkur jarayonini engillashtiradi. Bu holda, u talab qilingan fikrni va o'zaro mantiqiy bog'lanishlarni tezroq topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

7. Shunday test topshiriqlari ham uchraydiki, ularga to'g'ri javob topish uchun kuzatuvchining o'zi kifoya qiladi. Masalan: biror topshiriq, yakunlovchi testning boshqa qismida joylashgan topshiriqning javobi bo'lib qolgan. Aytaylik, bir topshiriqda yerning tortishish kuchi qonunini ta'riflagan olimning familiyasini aytib berish talab qilinadi, ayni vaqtda boshqa topshiriq quyidagicha ifodalangan: «Nyutonning yerni tortish kuchi formulasi...».

8. Ta'riflashdan ikki xil ma'no chiqishi yoki uning aniqmasligi, topshiriqni noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin. Bu, o'z fikrini savol yoki test topshiriqini tasdiqlovchi javob tariqasida aniq ifodalab beradigan bitta gap tuzish malakasining yetarli emasligidan kelib chiqadi. Yozilgan matnni boshqa kishiga o'qitib ko'rish test ravonligini aniqlashning eng yaxshi yo'lidir. Topshiriq tuzuvchi talabalar fikri bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha u o'z ta'riflarining boshqacha mazmunini anglay olmaydi. Shuning uchun ham, test tuzuvchilar o'z tasavvurida test topshiriqini bajarish jarayonidagi talaba tafakkuri modelini tasavvur etish qobiliyatiga ega bo'lishi muhimdir. Test topshirig'ining sifatiga bevosita ta'sir etmaydigan, lekin test tuzishda hisobga olinishi zurrur bo'lgan quyidagi jihatlarni ham e'tiborga olish lozim.

Test faqat oson yoki faqat qiyin topshiriqlardan iborat bo'lish kerak emas, u deyarli hamma talabalar to'g'ri javob bera oladigan eng osonidan, to bitta-ikkita talaba to'g'ri javob bera olishi mumkin bo'lgan turli-tuman topshiriqlarni o'z ichiga olishi zarur. Eng yaxshi biladigan talabalarni aniqlash uchun testga shunchalik qiyin bitta savol kiritish mumkinki, unga mingta talabadan taxminan bittasi to'g'ri javob bera olsin. Bordi-yu, tahlil qilinayotgan savolga bironta ham talaba javob topa olmasa, bu savol testdan zahiraga o'tkazib qo'yiladi.

Test topshiriqlari tuzishda o'qitish davrida keltirilgan misollardan foydalanish yoki yakunlovchi testga joriy baholashda ilgari foydalanilgan shakldagi topshiriqlarni kiritish ma'qul emas. Chunki, bunday xollarda unumli fikrlashni tekshirish o'rniga amalda o'quv materialini o'zlashtirishning bir muncha past darajada, ya'ni xotira, eslab qolish qobiliyatgina sinaladi xolos.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, testlarning murakkablik darajasini faqat 10-25 foiz hollaridagina to'g'ri aniqlash mumkin ekan. Shu sababli testni talabalar guruxlarida tekshirish va keyin tuzatishlar kiritish yo'li bilan tajriba (empirik) usulida sinash lozim. Buning uchun tuzilgan test topshiriqlari birinchi marta ularning sifatini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Uning natijasi jadval yoki grafik ko'rinishda tasvirlanib, talabalarining ko'proq yoki ozroq qismi javob bergan test topshiriqlari aniqlanadi. Zarur bo'lgan hollarda ular takomillashtiriladi. Agar test topshiriqlaridagi noto'g'ri javoblardan birotasini testdan o'tayotganlarning 5 foizidan kamrog'i tanlasa, bu javobni almashtirish kerak, chunki u talabani o'ziga jalb etmaydi. Agar testni umuman yaxshi bajargan talabalarining ko'pchiliklari biror test topshirig'ini uddalay olmasa, bu holda topshiriq yo yetarlicha o'rganilmagan materialga tegishli, yoki u shakli - mazmuni bo'yicha yaxshi tuzilmagan. Test tuzuvchilarining eng ko'p uchraydigan xatolarini tahlil qilish, ular sifatini, ishonchlilik va validlik jihatdan

tekshirishni o'z ichiga oladi. Shunga qaramay zamonaviy testshunoslik ixtiyorida test topshiriqlari sifatini aniq miqdorini ta'riflash imkoniyatini beradigan uslublar mavjud. Chunonchi, Georg Rash statistik ma'lumotlar bo'yicha sinovdan o'tayotganlar guruhida qo'llanadigan test topshiriqi uchun xarakteristik egri chiziq tuzish uslubini taklif qildi. Bu uslub bilimlarning bitta elementini nazorat qilish uchun tuzilgan bir necha test topshiriqlar variantlarini o'zaro taqqoslab ko'rish imkoniyatini beradi. Testning axborot uzatish funktsiyasini hisoblab chiqish uchun matematik apparat yordamida topshiriqlarining bir necha variantlaridan, axborotni ko'p saqlaydigan turini tanlab olish ham mumkin.

Yuqoridagi ikki mavzuda testshunoslik tog'risidagi axborotni, o'quv qo'llanmaning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda, eng ixcham va umumiy tarzda bayon qilindi. Test topshiriqlarini sifatli tuzish yanada mukammalroq ma'lumotga ega bo'lishni talab qiladi. Buning uchun ko'rsatilgan adabiyotlarga murojaat qilish zarur.

Pedagogik o'yinli darslarning mohiyati, tamoyillari va o'tkazish metodikasi.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosiy talablarining faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyatni tashkil etadi.

O'yinlari olimlar taqqoqlariga mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barharor qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlarga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

L.S.Vigotskiy o'yinini talabalarning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida tariflaydi.

A.N.Leontev o'yinga shaxsning hayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari(manfaatlari)ni xayolan amalga oshiradigan erkinligi sifatida haraydi.

Psixologlar ta'kidlaydilar, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funktsiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv;

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qirralari S.A.Shmakov tomonidan yaratilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija(tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko'ra faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga-«ijod maydoni»ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalar bo'lishini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar nazariy aspektida o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyati sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'yekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yin faoliyatlarini motivatsiyalash o'yin xarakterining musmabahalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish, ehtiyojlarni qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K.Selevko ta'biricha) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro vositasi bo'lgan o'yin xarakterlari;
- predmetlarni, ya'ni xaqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalarini o'rnida qo'llash;
- o'yinda ishtirok etuvchilarni real o'zaro munosabatlar;
- o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet(mazmun) - ijro sohasi.

G.K.Selevko tomonidan pedagogik o'yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'ladi:

- didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysinadi;
- o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bog'lanadi.

Oliy maktab amaliyotida tadbirkorlik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi.

Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan.

Tadbirkorlik o'yinlarining mashhur psixologlar L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev. P.Ya.Galperin va boshqalaarning ishlarida nazariy asoslangan. Tadbirkorlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy hissiyotlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik o'yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

- ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida o'quv materiali mazmunining izchilligi;
- o'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;
- o'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni keltirib chiqarish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;
- o'yinning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligining yig'indisi;
- o'yinni olib boruvchi o'qituvchining talablari faoliyatini tashkil etish va boshqarishdan talabalarning o'z xatti-xarakterlarini tashkil etish va boshqarishga o'tishni ta'minlashi.

O'zbekistondagi ayrim pedagogik texnologiya elementlari.

Qadimgi ayrim ta'lim-tarbiyaviy qarashlarda ham o'ziga xos pedagogik texnologiyalar elementlarini uchratish mumkin. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi xududida turli davrlarda yaratilgan ayrim pedagogik texnologiya elementlarini eslash mumkin.

Burxoniddin az-Zarnujiy (1150 yilda tug'ilgan) Marg'ilon shahrida yashagan. O'zining «Ta'lim oluvchiga ta'lim berish va ta'lim berish yo'llari» nomli risolasida ilm, kasb-hunar o'rganishning asosiy shartlari sifatida, eng avvalo, o'quvchida jiddiy istak, qat'iyat va non (ya'ni oziq-ovqati) bo'lishi lozimligini, shundan keyin yaxshi muallim hamda yetarlicha vaqt zarurligini yozgan.

Bunda ta'lim-tarbiyaning yuqori samaradorligini o'quvchiga, ya'ni, uning jiddiy istagi va qat'iyatiga bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tilgan, bu esa hozirda talabadagi motivlarning qanchalik mustahkam bo'lishi hal qiluvchi omil ekanligi tog'risidagi xulosalarning ko'p asrlar oldin ham hisobga olinganligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga bilimlarni o'zlashtirish uchun yetarlicha va tashkilot kerakligi tog'risidagi fikr ham juda qimmatli bo'lib, hozirda barcha fanlarni chuqur o'zlashtirish uchun talabaga va tashkilot yetishmasligi ma'lum. Bunda talabada o'quv fanlarini mustaqil fikrlash asosida chuqur o'zlashtirish uchun talabaga va tashkilot yetishmaydi.

Shuningdek, Alisher Navoiy, Husayn Koshifiy va boshqa mutafakkirlar ham ta'lim-tarbiya haqidagi masalalarni ham qilishda asosiy e'tiborni talaba-shogirdga, muridning bajarishi talab qilinadigan shartlarga qaratgan.

Maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida talabalarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatleri hamda go'zal nutq tarkib toptirilgan.

Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta'lim usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Bunda talaba chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to'g'ri so'zlashga, nutqning mantiqiyliigi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatilgan. Masalan, suqrotona suhbatlar deganda o'qituvchining talabani mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashidagi noto'g'ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlangan holda ularni tuzatish yo'lga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi.

Bunday suhbat bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib ifodalash mumkin:

1. Savol-javoblar orqali talabaniing bilim darajasi va fikrlash qobiliyatini umumiy tarzda aniqlash.
2. O'rganilayotgan mavzuning mazmunini talaba motivlariga muvofiqlashtirish. Bu talabalarining qiziqish va qobiliyatlariga mos bo'lgan misollar tanlash orhali amalga oshiriladi.
3. Talabani faol muloqotga olib kirishi.
4. O'qituvchi o'zini bilmaydigan odamdek tutib, savollar berib boradi.
5. Talabaniing to'g'ri fikrlashini rag'batlantirish orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so'zlashga jalb qilish.
6. Talabaniing xato fikrlarini aniqlab borish.
7. Talabaniing xato fikrlariga nisbatan to'g'ri fikrni o'qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan shaklda bayon etish yoki tushuntirish orqali talaba uchun muammoli vaziyat yaratiladi va uni o'z xatolarini o'zi tuzatishiga yo'naltiriladi.

Bunda o'qituvchining keng bilimiga va ijodiy fikrlash qobiliyatiga, yuqori muloqot madaniyatiga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi talab etiladi.

Tibetdagi «lamaizm» ta'limoti asosida turli sohalar bo'yicha bilimlarni o'rgatish markazlarida o'ziga xos ta'lim texnologiyalari qo'llanilgan. Ularda alohida sohalar ixtisoslashgan ibodatxonalarda tibbiyot, din va boshqa sohalar bo'yicha ta'lim berish amalga oshirilgan. Bunda talabalar tomonidan uzluksiz qayta takrorlashlar asosida tegishli darsliklarni to'liq yod oldirilgan, qattiqqo'llik bilan nazorat olib borilgan, yakuniy imtihonlarda esa har bir talabani bir necha kun davomida yakka o'zini ajratib, o'zlashtirish bilimlarini faqat o'z xotirasidan yozdirish orqali to'liq nazorat qilingan.

Zarur amaliy mashg'ulotlar real hayotga juda yaqin darajada tashkil qilingan sharoitlarda o'tkazilgan. Bunday ta'lim muassalariga talabalarni qabul qilishda ularning ruhiy, jismoniy chidamliliklari hamda iroda darajasi qattiq sinovlardan o'tkazilgan. Talabalarning ko'zlangan darajada o'zlashtirishlariga erishilgan. Jismoniy jazo choralari qo'llanilgan.

Boshqa misol sifatida O'zbekistonda savod o'rgatish tarixidagi pedagogik texnologiya elementlarini eslash kifoya. Savod o'rgatish texnologiyasining qadim zamonlardan boshlab O'zbekiston hududida bir necha usullari shakllangan va amalda qo'llanib kelingan.

Bu usullarning ta'lim texnologiyasining eng asosiy tarkibiy qismlari sifatida qarash mumkin, chunki savod o'rgatish har qanday ta'limning boshlanishi hisoblanadi va bu jarayon o'z-o'ziga xos texnologiyadan iborat.

Alifbeni o'rgatish O'zbekistonda turli davrlarda quyidagicha nomlangan usullarda olib borilgan: «**Tovush usuli**» (usuli savtiya)-harflarni ovozlari bilan tanitish. Bu usulni qo'llash bilan talabalarda ilmiy bilish metodlari (qiyoslash, ajratib olish, solishtirish, umumlashtirish)ga xos layoqat va malakalar rivojlanib boradi. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) turkistonliklar orasida birinchi bo'lib savod o'rgatishda yangi usul-tovush usulini amalda qo'lladi.

Tovush usulida jadid maktablari uchun Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), 1907 yilda «Adabi avval» («Birinchi o'qituvchi»), alifbo darsligini va «Adabi soniy» («Ikkinchi o'qituvchi») o'qish kitoblarini chop ettirdi.

Saidrasul Saidaziziy rus-tuzem maktabidagi zamonaviy o'qitishi usullari va ta'lim-tarbiya tizimiga asoslanib «**usuli savtiya**» metodida 1902 yilda «Ustodi avval» darsligini yaratdi. Bu boshlang'ich sinflar uchun o'zbek tilida tuzilgan ilk alifbe darsligidir.

Ismoil Gaspiralinig 1884 yilda tashkil etgan maktabida tovush usulini qo'llash orqali 40 kun ichida 12 o'quvchining savodi chiqarilgan. Shundan so'ng bu usul «usuli savtiya» (harf-tovush), bu usulda o'qitadigan maktab esa «usuli jadid» (yangi usulda o'qitiladigan maktab) nomi bilan shuhrat qozongan.

Madiya usuli- (usuli madiya: madd-cho'zish). Bu usulda tovushlarning nomi bir-biriga qo'shilmaydi, balki bir undosh tovushning nomiga bir unli qo'shib, ochiq bo'g'in xosil qilinadi: «bo-a*ba, be-u*bu» kabi. Ushbu metodda ta'lim quruq yodlash, ko'rish xotirasiga asoslanadi. Bu usulning hijo usuli (usuli tahajji)ga qaraganda afzal tomomni shundaki, usuli madiyada talaba ma'lum bir bo'qinning xosil bo'lish jarayonini anglab etadi. Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» (1912 yildan 1917

yilgacha nashr qilingan) darsligi madhiy usulida yaratilgan bo'lib, bu kitob shu metodga asoslangan ruscha, tatarcha alifbe kitoblari ta'sirida tuzilgan.

Eski maktablarda qo'llanilgan usuli madhiya L.N.Tolstoyning «Azbuka»sidan ijodiy saboq olish asosida vujudga keldi. Bu usullar keyinchalik tahlil-tarkib usulining yaratilishida nazariy va amaliy asos bo'ldi.

Tahlil-tarkib usuli- (sintetik metod) asosida tuzilgan alifbelar (jadid alifbelari)da metodik materiallarni joylashtirishda osondan qiyinga tomonga borish metodiga amal qilindi. Bu alifbelarda o'quv materiallari mazmuni nihoyatda o'xshash bo'lib, ular bir-biridan tovush usuli yoki usuli madhiyada tuzilganligi bilan farqlanadi:

«Tilingni saqla, o'zingni chaqmasun. Daraxt havodan bahra olur, odam duodan.

Xat yozmoq yarim ilm. Yod olgan yo'qolur, yozilsa yo'qolmas».

Butun so'zlar yoki «**amriqo**» usuli. Bunda darslikning savod o'rgatish davrida Amerika maktablarida XX asr boshlarida o'qitilgani kabi 7-darsgacha so'zlarni bo'g'in va tovushga ajratmay, yaxlit o'qitish, savod o'rgatishning ilk davrida bolalar yaxshi biladigan hayvon va parrandalar (mushuk, sichqon, to'ti...)ning rasmini ko'rsatib, rasm ostiga ularning nomlarini o'qitish kabi usullardan foydalaniladi.

Bu usulda O'zbekistonda dastlabki alifbe Hasan Ali tomonidan yaratilgan bo'lib, undagi matnlarda quyidagilarga o'xshash misollar qo'llanilgan: qator-qator tosh qo'ydim, jayron otni bo'sh qo'ydim (Tish va til). Yalt-yalt etadi, yamlab yutadi(olov).

Izohli o'qish usuli- XIX asrning 90-yillarida Toshkent, Qo'qon, Samarqand shaharlaridagi yangi usul maktablarida qator dunyoviy fanlar o'qitilishi bilan birga qo'llanildi. Bunda o'quvchining oldin bilimni o'zlashtirishiga, so'ngra yod olishiga e'tibor berilgan.

Hijo usuli (usuli tahajji)-bu usulda harflarning nomini yodlatish asos qilib olinganligidan savod o'rgatish qiyin edi.

Usuli tahajji eng qiyin va qadimiy bo'lib, Yevropada XVIII asr oxirida maktab o'qituv metodikasidan olib tashlangan. O'zbek maktablarida XX asr boshlarigacha asosiy o'qitish usuli sifatida hukm surdi. Bu usulda:

1-bosqichda alifbo harflari nomlari,

2-bosqichda shu harflar nomlari va ular orqali yasalgan hijo (bo'g'in) yodlatilgan: bo] alif*bo; mim] vov*munosabat...

3-bosqichda abjad hisobi o'qitiladi.

Abjad arab yozuvidagi 28 ta harflardan sun'iy ravishda tuzilgan 8 tarkib shartli so'zdan iborat bo'lib, bu so'zlar tarkibidagi har bir harf ma'lum sonni bildiradi. Yozishni o'rgatish eski usul maktab dasturiga kirmagan, ko'pgina muallimlar yozuv san'atini bilmasdilar.

Imlo usuli-o'qituvchi aytib turganni o'quvchilar yozganlar (VIII-IX asrlarda).

Tadris usuli (tadris-sharq, izoh) -X asrdan ilgariroq Markaziy Osiyoda tarqalgan.

Ma'rifatparvar pedagoglar tomonidan tuzilgan alifbe darsliklarida maktab va madrasalarda foydalanib kelingan suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida o'qituvchilar ziyraklik, hozirjavoblik sifatleri hamda go'zal nutq tarkib toptirilgan.

O'zbekistondagi ta'lim tarixidan.

O'zbekistonda ta'lim o'lka tarixi va xalq kechmishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'limning bulog'i bo'lmish Xalq pedagogikasi yillar o'tgani sari yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqimizning orzu-umidlariga yo'g'rilgan og'zaki ijodi-afsonalari, ertaklari, qo'shiqlari, maqol va matallari yosh avlodni vatanparavarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

Tili turkiy guruhga mansub O'rta Osiyo xalqlari V asrdayoq o'z yozuviga ega edi. Bugunga qadar saqlanib qolgan O'rxun-Enasoy bitiklari bundan guvohlik beradi. O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi (VIII asr) natijasida islom dini bilan birga arab yozuvi ham kirib keldi. Shuningdek, «Qur'oni karim» sabog'i, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-970), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy kabi muqaddislar ta'lim-tarbiya tarkibixida o'ziga xos o'rin egalladilar.

O'lkada ilk maktablarning paydo bo'lishi ham shu davrga to'g'ri keladi. Maktablarda grammatika va din asoslardan tahsil berilgan. Keyinroq, ya'ni X asrlar boshida O'rta Osiyoda madrasalar (o'rta va oliy musulmon maktablari) tashkil etildi. Madrasalar faoliyati bu yerda Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo, Misr va boshqa musulmon davlatlariga tarqalgan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Samarqandda bolalarga 5 yoshidan savod o'rgatilgan, o'smirlarni esa savdo ishlari bilan tanishtirish maqsadida karvonlarga qo'shib, olis safarlarga yuborilgan.

Ilk o'rta asrlarda Abu Nasr al-Forobiy (879-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1051), Yusuf Xos Hojib (IX asr), Kaykovus (XI asr), Ahmad Yugnakiy (XI asr), Mahmud Qoshg'ariy (XI asr) kabi allomalar ta'lim-tarbiyaga oid dunyoviy fikrlari bilan dovuq qozondilar.

Mo'g'ul-tatar bosqinidan investitsiya iqtisodi va madaniyatiga jiddiy putur yetgan mamlakatda XIV asrning 2-yarmidan qayta yuksalish davri boshlandi, turli sohalarda ulug' olimlar yetishib chiqdi.

Buyuk sarkarda Amir Temur va temuriylar davrida o'lkada ilmu-fan, madaniyat, me'morchilik ravnaq topdi. Alisher Navoiy o'zining «Xamsa», «Mahbub-ul-qulub» asarlarini yaratdi. Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari yuzaga keldi. Mirza Ulug'bek falakiyot ilmida misli ko'rilmagan natijalarga erishdi: o'z shogirdlari bilan rasadxona barpo etdi. Uning yordamida o'rta asrlarning katta yutug'i bo'lgan yulduz turkumlari jadvalini tuzdi. Ulug'bek o'z davrigacha mavjud bo'lgan musulmon maktablari tarixini o'rgandi. Ta'linga yangi mazmun bag'ishlash, insonni mustaqil hayotga tayyorlash zarurligini uqtirdi. Ulug'bek madrasasi o'quv rejalarida an'anaviy fanlar bilan bir qatorda matematika, astronomiya, tabobat ilmi, geografiya, tarix fanlarini o'qitishni joriy etdi. U mustaqil mutolaa qilish orqali bilim egallash fikrini olg'a surdi. Ulug'bek, ustoz o'z ustida tinmay ishlashi, dunyoviy bilimlardan xabardor bo'lishi, o'z ustozlik mahoratini tinmay oshirib borishi zarurligini ta'kidladi.

XIX asr o'rtalariga qadar o'lka olimlarining ilmiy izlanishlari, asosan, falsafa va tarix sohasida katta samaralar berdi. XIX asr davomida bir qator ma'rifatparvar ziyolilar yetishib chiqdi va ular o'z faoliyatlarini bevosita maktab hayotiga bog'ladilar. Turkistonda yangi usuldagi maktablarning shakllanish bosqichi boshlandi: Isxoqxon Ibrat (1862-1937) «Devoni Ibrat», «Jomeul qunut» («Yozuvlar majmuasi»); Saidrasul Saidaziziy (1866-1933) «Ustodi avval»; Mahmudxo'ja Behbudiy (1874-1919) «Kitob ul atfol» («Bolalar uchun kitob»), «iste'molchilarqa umuiy jo'qrofiya»; Abduqodir

Shakuriy (1875-1943) «Rahnamoi savod» («Savod chiqarish rahbari»), «Jamul hikoyat»; Abdulla Avloniy (1878-1934) «Turkiy guliston yoxud axloq», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab va guliston»; Sadriddin Ayniy «Pok bola»; Ismatulla Rahmatullayev «Alifbe ta'limi»; Abdurauf Fitrat «Adabiyot qoidalari» singari asarlarini yaratish bilan o'lkada pedagogika rivojiga samarali hissa qo'shdilar. Bu davrda mahalliy ma'rifatpavar ziyolilar tomonidan ochilgan yangi usul maktablarida ona tili, hisob, jug'rofiya, rus tili, din ta'limi kabi fanlar o'qitilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov, Murodxo'ja Solihov, Sodiq Abdusattorov va boshqalarning milliy maktab uchun xizmatlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu asosda milliy pedagogika negizlari shakllandi. Xalq pedagogikasiga suyangan ilg'or ziyolilar milliy an'ana va urf-odatlarimizga mos keladigan yangi usul jadid maktablari tashkil etish g'oyasini ilgari surdilar.

O'zbekiston ijtimoiy hayotida, jumladan, ta'lim sohasida ham XX asrning so'nggi o'n yilligida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Respublikada maktabgacha tarbiya muassasalari va maktablar tarmog'i rivojlandi, o'qituvchilar hamda ilmiy pedagogika xodimlari tayyorlash jarayoni takomillashdi.

Respublikamiz istiqbolga erishgach, o'zbek pedagogikasi tarixida uzoq davr mobaynida tarkib e'tibordan chetda qolgan madaniy merosimizga qiziqish kuchaydi. Undagi ilg'or fikrlar ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etila boshlandi. Yangi mazmundagi darsliklar, uslubiy qo'llanmalar yaratishda milliy-an'anaviy va madaniy merosimizdan keng foydalanilmoqda. Chunki o'tmish tajribasi ishonchli manbadir.

Yurtimiz mustaqilligi bizga jahon mamdakatlar bilan barcha sohalar qatori ta'lim-tarbiyada ham bevosita xalqaro hamkorlikka yo'l ochdi. Buguni kunda O'zbekistonda ta'limni har tmomnlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar-ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-moddiy sharoitlar yaratildi.

Ayrim pedagogik texnologiyalar haqida qisqacha ma'lumotlar.

Yorib o'tishlar texnologiyasi va V.Erxard maktabi. Bu texnologiya menejerlarni qayta tayyorlash o'qishlaridan iborat bo'lib, uning maqsadi har bir odamda mavjud bo'lgan qobiliyatlari va intilishlarini an'anaviy muammolarini yangi muammo sifatida yechish uchun kundalik izlanishlarga aynan o'yg'otish hisoblanadi. Bu kurslar tinglovchining fikrlashi va xulqidagi shaxsiy stereotiplarni bartaraf qilish, o'z imkoniyatlarini va eskirgan muammolarni yangicha yechish yo'llarini ko'ra olishlarini faollashtirish va o'zgartirish bo'yicha ishlab chiqilgan ko'p sonli mashg'ulotlardan iborat.

Bu kurslarning afzal jihatlari inson omilini ishga solishga qaratilgan bo'lib, maxsus mablag'larni sarflashni talab qilmaydi; erishilgan samara so'nib qolmaydi; alohida yirik yangiliklar yaratishga, xosil bo'lgan boshi berk holatlardan noan'anaviy chiqish yo'llarini izlashga qaratilganligidan iborat. 48 yo'nalishdagi kurslar va seminarlar AQShning 94ta shaharlarida va boshqa mamlakatlarning 128ta shaharlarida olib borilmoqda. Bu kurslarda yiliga 57 ming kishi o'qiydi.

Hamkorlik pedagogikasi. An'anaviy ta'limda o'qituvchi pedagogik jarayonning sub'yekti, talaba esa ob'yekti deb qaraladi. Hamkorlik pedagogikasida esa talaba o'z o'quv faoliyatining sub'yekti sifatida qaraladi. Bunda har ikki tomon pedagogik jarayonning sub'yektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni xosil

bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamdo'st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard, hamboshqaruvchi bo'ladilar.

Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan, talabalar va o'qituvchilar tashkilotlari bilan, rahbarlar, ota-onalar, jamoatchilik orasida ham o'rnatiladi. Hamkorlik pedagogikasi talabaning ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orhali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tadbiq qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi. O'quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat modellari (tayanch signallar konspektlari) asosida ta'limni intensivlashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov, Donetsk shahri).

Tayanch signallar konspektlari ko'rgazmali sxemalardan iborat bo'lib, ularda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan axborot biriklari aks ettiriladi, ular orasidagi turli bog'liqliklar ko'rsatiladi hamda mavhum materialni yaqqollashtiruvchi misollar, tajribalarni eslatish uchun belgilar va maqsadlarning ahamiyatliligi bo'yicha tasnifi turli shartli belgilar bilan beriladi. Tayanch signallar konspektlari bilan ishalshda qator o'ziga xos usullar va metodik echimlar qo'llaniladi.

«Vakolatli ta'lim texnologiyasi». Bu texnologiya 1995 yilda AQShda «Ayollar yetakchiligi» deb nomlangan treninglardan boshlangan bo'lib, xalqaro ta'lim texnologiyasi sifatida 1997 yildan boshlab Ukrainada shakllanib, so'ngra Ozarbayjon, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Litva, Moldova, Tojikiston, O'zbekistonga tarqalgan. 2002 yilda Afg'oniston, Birma, Indoneziyada treninglar o'tkazilgan. Boshqa mamlakatlarda ham bu texnologiyani shakllantirish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Bu ta'lim texnologiyasini hozirda mutaxassislar shunday ta'riflaydilar: «Vakolatli ta'lim-genderlik adolati va zo'ravonliksiz munosabatlar asosidagi o'quv jarayoni bo'lib, bunda bevosita tajriba orqali ta'lim olish yo'li bilan guruhning o'z-o'zini tashkil qilish ko'nikmalarini xosil qilish mumkin».

Vakolatli pedagogikasi ta'lim dasturlarining boshqa turlari bilan ta'limga nisbatan umumiy yondoshuvlarga ega. O'zaro faoliyatda ular bir-birini boyitadi va kuchaytiradi.

Vakolatli ta'limni quyidagicha joriy qilish mumkin:

- rasmiy o'quv reja (ayrim o'quv fani, integratsiyalashtirilgan yondashuvlar yoki mavzular sifatida);
- rasmiylashtirilmagan o'quv reja (ta'lim muassasi tomonidan tashkil qilingan va rasmiy reja bilan bog'langan guruh va tashkilotdan tashqari ish);
- norasmiy o'quv reja (kutilmagan mashg'ulotlar tashkil qilish yoki alohida reja orqail joriy qilish).

Pedagogik texnologiyalarda qo'llaniladigan vositalar.

Pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun o'ziga xos vositalar zarur bo'ladi. har bir pedagogik texnologiyada qo'llaniladigan vositalar umuman o'xshash bo'lib, ularning turlari ko'p. Ularni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: verbal, noverbal, vizual, audio, tabiiy, o'quv anjomlari hamda ta'lim muassasi jihozlari.

Verbal vositalarning asosini axborot tashkil qiladi. Bular so'zlar bilan ifodalanadigan axborotlar bo'lib, ularni so'z orhali ifodalab berish uchun o'qituvchi uni o'zlashtirgan bo'lishi, ya'ni shu axborot haqidagi bilimga ega bo'lishi lozim.

Zamonaviy ta'limni amalga oshirishning yana bir zarur sharti o'quv fanlari bo'yicha axborot manbalari, shu jumladan, yangi axborot texnologiyalarining tez va

qulay foydalanish imkonini beruvchi turlaridan har bir talaba va o'qituvchi erkin foydalan oladigan sharoit yaratishdan iborat.

Bu yo'nalishda axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy qilish yo'nalishi deb nomlanadi. Shu axborotlarni talabalar tushuna oladigan mantiqiy shakllarda ifodalash talaba bilan o'qituvchining verbal muloqotini tashkil qiladi:

Verbal muloqot shakllari har xil bo'lib, ularning asosiylari nutq so'zlash, ma'ruza, suhbatlashish, savol so'rash, savolga javob berish, bahs, munozara, muzokara, xabar berish, kengash, maslahat, nasihat, tanbeh, tabrik, salomlashish, xayrlashish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ushbu verbal muloqot shakllarida qo'llaniladigan nutq intonatsiyalari so'zlovchining fikrlaridagi uning maqsadiga muvofiq bo'lgan ma'no-mazmunlarni chuqurlashtirish, yaqqollashtirish imkonini beradi.

Bu jarayonda talabalar diqqatini jamlash, tinglash, eshitish, anglash, tushunish, idrok qilish, mantiqiy fikrlash (tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish), xotirada saqlash, eslash bilan band bo'ladi.

Munozaralarni faol o'tkazish uslubi. har qanday yuqori saviyada o'tkazilgan ma'ruza uzoq davom etsa, talabaning eshitish qobiliyati susayadi. Bu holat talabani loqayd eshituvchiga aylantiradi. Ma'ruza qancha uzoq davom etsa, samaradorlik shuncha kamayadi.

Shuning uchun ma'ruzani kichik pedagogik texnologiya darajasida quyidagicha tashkil etish talabalar uchun qulaylik tug'diradi.

Ma'ruzachi o'z ma'ruzasini bir necha bloklarga bo'ladi. Har bir blokini 15-20 daqiqa davom ettiradi va har bir blokdan so'ng to'xtab, mavzu bilan bog'liq qisqa savol-javob, fikr almashuv olib boradi.

Ma'ruza davomida ayrim muammolarni o'rta tashlaydi. Shu vaqt oralig'ida bu muammoga talabalarning munosabatini aniqlaydi, ularning fikrlarini tinglaydi. Har bir fikr bildiruvchiga imkoniyat yaratadi. Ammo uni tanqid ostiga olmay, boshqalarning fikrlarini ham tinglaydi. Bu holat ma'ruzaga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartiradi, ma'ruzaga befarq qaramaslikka sabab bo'ladi. Talabalarni yakka tartibda suhbatga tortish 5 daqiqagacha davom etadi.

Ma'ruzachi talabalarning qiziqish, intilish, mas'uliyati oshib borishini kuzatib boradi. Ma'ruza davomida muntazam faol ishtirok etuvchilar, teran fikr bildiruvchilar ma'ruzachining tayanchiga aylanadi.

Ma'ruza davomida mavzuni sekin-asta talabaning kundalik faoliyatiga doir misollar bilan bog'lab boriladi va qisqa munozaralar orqali tegishli yechimlar topiladi.

Davra suhbatlari. Davra suhbatida o'qituvchi bosh tashkilotchi bo'lib qoladi. Davra suhbatlari ko'pincha talabalarga tanish yoki ularga ya'ni mavzularda -- (provoditsya). Davra suhbatlari mavzulari, rejalari, savollari bir necha kun avval talabalarga tarqatiladi. Bunda talabalarga mustaqil tayyorgarlik ko'rish, bir-birlari bilani avvaldan fikr almashish, kutubxona, internetdan ayrim ma'lumotlarni to'plash, qayta ishash uchun kichik matn tuzish imkoniyati yaratiladi. Davra suhbatining afzalligi shundaki, har bir talaba unga individual tayyorgarlik ko'radi. Har ikki tomon davra suhbatni (provodit) tayyorgarlik bilan keladi. Suhbatni yetakchi (prepodavatel provodit), har bir talaba o'z fikr-mulohazasini emin-erkin namoyish etishiga sharoit yaratiladi. Talaba hamda o'qituvchining shaxsiy mas'uliyati ortadi.

Munozalar o'tkazish. Munozalarni tashkil etish va o'tkazish tashkilotchidan jiddiy tayyorgarlikni talab etadi. O'qituvchi avvaldan munoazaraning mavzusini, uni o'tkazish rejasini, vaqtlarini talabalar bilan o'zaro kelishib oladi.

Munozaralar davrida vujudga keladigan muammoli masalalar ekspertlarga taklif qilinadi. Munozarani olib borishda uning ishtirokchilarini qiziqtirib, zarur yo'llanmalar berib borish lozim. Aynan munozara davrida to'g'ri xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Noverbal vositalar imo-ishora, qo'l, gavda harakatlari orqali amalga oshiriladi. Noverbal vositalar jiddiy ahamiyatga ega bo'lib, ularning o'rnini boshqa narsa bosa olmaydi. Insonning har bir harakati ma'lum ma'noga ega bo'lib, bu harakatlar turli xalqlarda turlicha tushuniladi. Bunday harakatlarni noverbal nutq deb nomlash qabul qilingan. Noverbal nutq isonning u yoki bu muskullarining harakatlari orqali amalga oshiriladi.

Vizual (ko'rgazmali) vositalar pedagogik texnologiya jarayonida talabalar ko'z bilan ko'rishlari uchun mo'ljallangan barcha vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga turli yozuv, tasvir, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar, o'quv plakatlari, fotosuratlar, tasviriy san'atlar, video, kinotasvirlar, jonivorlar, o'simliklar, tabiat ob'yektlari, turli buyumlar va boshqalar kiradi.

Ko'rgazmali vositalarning pedagogik texnologiyalarda qo'llanishi talabalarga o'rgatish kerak bo'lgan axborotga tegishli mazmunni turli shakl va usullarda ko'rsatish orqali tez, aniq va to'g'ri tushuntirish imkoniyatini beradi: Bu jarayonda talabalarining faoliyati, diqqatni jamlash, ko'rish, kuzatish, tasavvur qilish, fikrlash (tahlil, qiyos, umumlashtirish), idrok etish, xotirada saqlash va shu kabilardan iborat bo'ladi.

Audio vositalar eshitish orqali axborotni o'rganish, o'lashtirish imkoniyatini beradigan turli yozuvlar bo'lishi mumkin. Hozirda ko'proq audiovizual vositalardan ko'proq foydalanilmoqda. Bu toifalar ayrim xususiyatlari bilan farqlanadi:

Ko'rish orqali xotirada saqlovchilar-matn, sxema, diagramma, jadvallarni yaxshi eslab qoladilar, xotiralarida saqlaydilar va qayta tiklay oladilar.

Eshitish orqali xotirada saqlovchilar-matnni, uning mazmunini kimningdir ovozi orqali xotiralarida saqlab qoladilar.

Harakatlantiruvchi kuch orqali xotirada olib qoluvchilar - yozib-chizib, tasvirlab yoki qayta-qayta takrorlash orqali xotirada saqlaydilar.

Tabiiy vositalarga pedagogik texnologiya jarayonida o'rganish ko'zda tutilgan mazmunga tegishli barcha tabiiy narsalar kiradi. Bular odam va jonivorlar, o'simliklar va tabiat, asbob-uskunalar, buyumlar, mashina, mexanizmlar, inshootlar va shu kabilardan iborat.

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish mexanizmi.

Ular quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik jamoani pedagogik texnologiya asoslari bilan tanishtirish-ma'ruza. Adabiyotlar tavsiya etiladi.
2. Yangi texnologiya asosida ishlashni xohlovchi pedagoglar jamoasini aniqlash. Ular orqali o'qituvchilarga pedagogik texnologiyani qo'llashdan ko'zda tutiladigan maqsadni, uning mohiyatini yetkazish.
3. Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlamoqchi bo'lgan o'qituvchilarni shu jarayonga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshiradi:

- seminar;
- trening;
- individual maslahat berish;
- ko'rgazmali darslar tashkil etish.

4.Yangi texnologiya asosida ishlovchilarning ishlarini nazorat qilish, kuzatuv va tahlillar o'tkazish, metodik yordam ko'rstaish. Ularning hisobotlarini eshitib borish.

5.Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlovchi o'qituvchilarning metodik kengashida, pedagogik kengashlarida chiqishlarini tashkil etish.

6.Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha ishlash uchun zarur didaktik materiallar, vositalar xonasini tashkil qilish.

7.Yangi texnologiya bo'yicha ishlashning afzalliklarini, talabalar, ota-onalar, pedagogik jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlanishini oshkor etib borish.

8.Ilg'or, novator pedagogdan innovator pedagogik jamoani shakllantirish.

9.Yangilashning uzluksizligi, davomiyligini ta'minlash.

Pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llashda hisobga olinadigan ayrim tajribalar. Ayrim pedagogik tajribalar.

Pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llashda hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lgan ayrim pedagogik va psixologik tajribalarni foydali ma'lumotlar sifatida qo'llash ma'qul.

Talabalarning umumiy o'quv qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining asosi diagnostika va o'z-o'zini diagnostika qilishdir. Hozirda pedagogik texnologiyalarni to'liq amalga oshirish natijasida quyidagi ko'rsatigichlarga erishilgani ma'lum:

Bir daqiqada: 120 ta so'z o'qish (9-10 yosh); 60 ta harf yozish (10 yosh); orfografik savodxonlikni 2 marta oshirish (7-14 yosh). hisoblash qobiliyatlarini 30 raqam darajasigacha takomillashtirishga erishilgan.

Turli mashg'ulotlar turlarining imkoniyatlari har xil yangi axborotni talabalarga qanday shakllarda yetkazilishiga bog'liq ravishda bir yil davomidagi vaqt oralig'ida shu axborotning esda saqlanadigan qismi quyidagicha foizlarda ifodalanadi:

Axborotni(o'quv materialini) yetkazish shakllari	3 soatda, %	3 kunda, %	1 yilda, %
Ma'ruza, hikoya	70	10	3
Ko'rsatish, namoyish	72	20	13
Ma'ruza va ko'rsatish	85	65	33
hikoya, ko'rsatish, amaliyot	98	95	75

O'qish tezligi. Matn qancha tez o'g'ilsa, shuncha yomon o'zlashtiriladi, lekin matndagi 50-70 % so'zlarning ma'noga ta'siri kam.

O'qish tezligi bilan eslab qolish tezligi farqli. Eslab qolish sekinroq amalga oshadigan jarayon.

Tez o'qish qoidalari: ko'z ikkita so'zdan keyin to'xtaydi. Buni satrni oxirigacha to'xtamay, ya'ni bir qarashda ko'ra oladigan, so'ngra satr o'rtasidan tik yurib, bir necha satrni birdaniga ko'ra oladigan va o'qiy oladigan bo'lguncha maxsus mashqlar bajarib boriladi: lablarni qimirlatmaslik, so'zlarni ovovz chiqarib o'qimaslik. Bir daqiqada 250-500 so'z, alohida hollarda 700 va undan ortiq so'z o'qish mumkin.

Ta'lim samaradorligining ayrim omillari:

Darslar tartibini belgilashda dastlabki soatlarga nisbatan murakkabroq fanlarni qo'yish lozim: matematika, chizmachilik, tarix, fizika, xorijiy tillar...

O'qish vaqti: kechqurun mexanik yodlashga yaqin mashg'ulotlar: formulalar, xorijiy tillardagi so'zlarni o'rganish yaxshi natija beradi.

Faol o'qish yuzasidan tajriba: 1-guruhdagi talabalar berilgan materialni 4 marta o'qib chiqdi, 2-guruhdagilar 2 marta o'qib, 2 marta gapirib berdilar, 2-guruhdagilar natijalari yaxshiroqligi ma'lum.

Materialni faol o'zlashtirish yuzasidan vazifa: darslikning bir bo'limini o'qib, uning mazmunini erkin ravishda og'zaki va yozma ifodalash kerak. Buni bajarish uchun diqqat bilan o'qish va qayta gapirib berish mashqini bajarish lozim.

Kattalar ta'limida yakka holda o'qigandan so'ng, 3-4 kishilik guruhga gapirib berish (o'zini tekshirish), so'ngra mazmunni muhokama qilish yaxshi natija beradi.

Talabaning faolligi. Faollik ortiq yoki past darajada bo'ladi. Ortiq daraja aslida hayajonlanish bo'lib, o'zlashtirish sifatini pasaytiradi. Faollik darajasi bilan bevosita daxldorlik yo'q. Past faollik past, yuqori faollik esa mustahkam bilim beradi deb ta'kidlash mumkin.

Samarali o'qish uchun faollik turlicha, lekin har kim uchun optimal bo'lishi mumkin.:

- biror manzilni izlashda o'sha joyni yaxshi biladigan odam boshlab borsa, eslab qolish qiyinroq bo'ladi, lekin o'zingiz adres bo'yicha qidirib topsangiz, to'liq eslab qolasiz.

- bola uy vazifasini bajarishga qiynalganda kattalar ishlab bersa, u passiv bo'ladi; lekin uni ishlash yo'lini tushuntirib berilsa, bola faol bo'ladi.

3) tengqurlari bilan janjallashib, janjalni bolaning o'zi hal qilmay, yig'lab onasiga shikoyat qilishi uning passivligini bildiradi.

Motivatsiya ta'lim natijalari uchun katta aqmiyatga ega. **Motivatsiya**-odamni o'qishga yoki biror harakatni bajarishga undovchi turli sabalar yig'indisi. Bolalar, o'smirlar va kattalarda o'qishga undovchi sabalar turlicha bo'ladi: bolalar va o'smirlarda uchraydigan ota-onasi, o'qituvchisi uchun o'qiyapman deb o'ylash o'qishga tayyor emaslik bo'lib, bu past o'zlashtirishga olib keladi.

Kattalarda bunday sabab anglab yetilgan, shuning uchun ularning o'zlashtirish yoshlarnikidan qolishmaydi. Ular yoshi katta bo'lgani uchun o'zlashtirish qiyin kechsa-da, lekin ulardagi motiv o'qishga nisbatan to'g'ri munosabatni xosil qiladi. Bundan eslab holish darajasining motivga bog'liqligi ma'lum bo'ladi.

Salbiy motiv-bu majburlab o'qitish, lekin bunda talabaning o'qishga nisbatan befarqligi hamma harakatimizni yo'qqa chiqaradi.

Motivatsiya omillari talabani bilim olishga undovchi sabablar hisoblanadi. O'qish qobiliyatlari ko'p ko'rsatkichlardan tashkil topadi. Ular yoshga muvofiq o'zgarib boradi.

Talabaning ta'lim jarayonida o'z kamchiliklari va yutuqlarini yaqqol anglashi ijobiy natijaning jiddiy asosi hisoblanadi. Ijobiy sifatlarni mustahkamlash va salbiylarini o'zgartirish uchun talaba nimani yaxshi, nimani yomon bajarganini bilishi kerak. Uning yutuqlarini maqtash, salbiy holatlarda tanbeh berish kerak. E'tiroz va tanbeh ham o'zini yuqori baholovchiga foydali ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim pedagogik qoidalar. O'qishga o'rganish juda erta boshlanadi. Ilk emotsional taassurotlar insonning keyingi hayotida muhim iz qoldiradi. Bu yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin.

O'qishdagi qiyinchiliklarni yengish va ko'p takrorlanuvchi xatolarni yo'qotishda, biror ijobiy sifatga tayanish yaxshi natija beradi. Shaxsda qancha ko'p yaxshi sifatlarni topsak va rag'batlantirsak, salbiy sifatlarni shuncha tez bartaraf qilgan bo'lamiz.

Qayta o'qish yangidan o'qishga ko'ra doimo murakkab. Bunda ehtiyojga muvofiq ravishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

-bilimlarni o'zlashtirish;

-ayrim ko'nikmalarga o'rgatish.

Qayta o'qishning asosi uning zarur ekanligiga qat'iy ishonch xosil qilishdan iborat. Bunda ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishga jiddiy kirishish, qayta o'qishga sabab bo'lgan o'zgarishlarning to'g'riligi va zarurligiga ishonish, yangilikni o'rganishga xohish bo'lishi zarur.

Yangi ish usuliga, yangi texnikadan foydalanishga o'qish yoki yangi kasbga o'qish-qayta o'qishning asosiy shakllari hisoblanadi.

Tejamli o'zlashtirish usulida yoshlar formulalar yoki xorijiy so'zlarni tezroq o'zlashtiradilar. Lekin ko'p ko'rsatkichlar bo'yicha oldinda bo'ladilar. Chunki ular yaxshiroq motivlarga egadirlar. Xotirani doimo mashq qildirish lozim. O'qish uchun aqliy va jismoniy qobiliyatlar tengdosh katta yoshdagilar orasida o'zaro katta farq qilishi mumkin. Bunda shaxsning ijtimoiy, oilaviy axvoli, ma'lumoti, kasbi, o'z kasbiy darajasini, turmush darajasini oshirish istagi, imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Bu biologik yosh xususiyatlaridan ko'ra ahamiyatliroq bo'ladi. Shuning uchun yosh davrlarini shartli ajratish to'g'ri.

Har bir davrga xos xotira xususiyati, fikrlash qobiliyati mavjud bo'lib, bu davrlar quyidagicha shartli belgilanadi:

O'spirinlik 18-20 dan 25-30 yoshgacha.

O'rta yosh 25-30 dan 45-50 yoshgacha.

Katta yosh 45-50 dan 65-70 yoshgacha.

Keksalik 65-70 dan yuqori.

Ayrim psixologik tajribalar.

Pedagogik amaliyotda pedagogik jarayonning moddiy jihatida doimo ruhiy jarayonlar bilan qo'shilgan holda mavjud bo'lib, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydi. Bu har qanday faoliyatga tegishli, lekin ta'lim-tarbiya oluvchilar va tarbiyachilar faoliyatiga ko'proq tegishli.

Pedagogik jarayonni psixologik mexanizmlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Insonlarning bilimlarning xosil bo'lishida undagi 5 ta sezgi a'zolari vositasida qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotlar nisbati quyidagicha:

Ko'rish a'zosi orqali- 83 %.

Eshitish a'zosi orqali- 11 %.

hid bilish a'zosi orqali-3.5 %.
 Teri sezgisi orqali- 1.5 %.
 Ta'm bilish sezgisi orqali-1 %.
 Jami- 100 %.

Turli sezgi a'zolarimiz ishtirokida o'zlashtirilgan axborot oradan 2 hafta o'tgach, quyidagi miqdorlarda eslab qolinadi:

O'qiganimizning 10 %.
 Eshitganimizning 20 %.
 Ko'rganimizning 30 %.
 Ko'rgan va eshitganimizning 50 %.
 Gapirganimizning 80 %.
 Gapirgan va amalda bajarganimizning 90 %.

Bunda insonning eslab qolish qobiliyati axborotni qaysi usullarda va qaysi sezgi a'zolari vositasida o'zlashtirganiga bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi. Unutish. Eng so'nggi o'rganilgan narsa ertaroq unutiladi. Demak, so'nggi o'rganilganni ko'proq takrorlash lozim. Buni o'qiyotgan yoshi kattalar bilish zarur. Eslab qolish jarayonini faollashtirish uchun materialni ovoz chiqarib o'qish foydali. Ovoz juda past ham, juda baland ham bo'lmasligi kerak.

Sababi: past ovozda talaba e'tibori matndan chalg'ishi mumkin, baland ovozda esa o'z ovozigacha diqqat qaratib, ma'nodan uzoqlashishi mumkin.

O'rtacha baland ovozda matnni akustik idrok qilish va tilning harakatlanish faoliyati eslab qolishga yordam beradi.

Qismlarga ajratib yodlash. Talaba ertagacha 30 ta yangi chet tilidagi so'zni yodlashi kerak. Ularni 3 yoki 6 ta qismga ajratish, ya'ni avval 10 yoki 5 ta so'zni yodlash, oxirida hamma so'zlarni yoddan takrorlay oladigan darajada mustahkamlash kerak. Lekin kichik bo'limlarni birdaniga yodlash mumkin. Yodlash ikki turli bo'ladi: yuzaki, ya'ni mexanik yodlash va anglab, ma'nosini tushunib yodlash. Ularning farqlari quyidagi jadvalda ko'rsatib o'tilgan:

Mexanik yodlash	Anglab yodlash
Ko'p takrorlash yo'li bilan ma'nosini chuqur tushunmasdan yodlash. Kutilmaganda esdan chiqishi mumkin. Yosh bolalar ba'zan yodlagan she'rlarining mazmunini tushunmasliklari mumkin. Mexanik zarur hollar: telefon raqami, ismlar, ianzillar, sanalar, chet tilidagi so'zlar, formulalar, ko'paytirish jadvali va boshqalar. Ilmiy ta'rif, xulosalarni, formulalarni yodlashda bu usul foyda berishi qiyin.	Bunday yodlash shakllari-tushungan holdagi mexanik yodlash, tahlil qilish orqali mantiqiy bog'liqliklarni tushunish asosida yodlash hamda mnemotexnikadan iborat. Mnemotexnika (mneme-grekcha-«xotira»), ya'ni eslab qolishni yengillashtiruvchi yo'l, usullar. Bu eslab qolish qiyin bo'lgan ma'lumotlarni sun'iy o'xshashliklar topib yodlash: qofiya, o'xshashlik, ritm, ohang yordamida, maqollar, she'rlar; sun'iy so'z birikmalari, tarixiy sanalar, geografik nomlar, grammatika qoidalari, formulalarni.

Xotirani mashq qildirish. Darslik yoki o'quv qo'llanmadan biror bobni o'qib, o'zlashtirishdan maqsad eng asosiy shartlarni, tushuncha, tarif, qoida, bog'liqlik va shu kabilarni ajratishdan iborat bo'lishi kerak. Takrorlash maqsad emas, bayon qilingan mohiyat, ma'no-mazmunni tushunish maqsad, ya'ni takrorlash orqali tushunishga intilish kerak. Talaba eslab qolishni istashi kerak. Agar shunday maqsad bo'lmasa, natija bo'lmaydi.

Suggestopediya. Uning asoschisi bolgariyalik vrach Lozanov. Bu ta'lim jarayoni bir odam (o'qituvchi)ning boshqasi(talaba)ga psixik ta'sir ko'rsatishidan iborat. Bu usul chet tillarini jadal o'rgatishda qo'llaniladi.

Leyptsig universiteti mnemologiya laboratoriyasida chet tillari sifatida ingliz va rus tillarida 30 kunda 3200 leksik birlik, kuniga 120-140 leksik birlik o'rgatiladi. Bu boshqa jadal o'qitishlarga nisbatan 3 marta ortiq. 50 yoshgacha bo'lganlar, ba'zan undan ham katta yoshdagilar, ilgari chet tilini o'qigan bo'lsa, qabul qilinadi.

Metodikasi: talabalar fikrni jamlash uchun autogen mashqlar bajaradilar, ya'ni past ovozda sokin musiqa yordamida xotirjam holatga keltiriladi.

Formulasi: «Men batamom xotirjamman». Klassik musiqa bilan bir vaqtda o'qituvchi turli intonatsiyalarda ta'sirchan, baland, ba'zan esa juda past ovozda, lekin aniq, tushunarli qilib chet tilidagi matnni o'qib, ma'nosini ona tilida tushuntiradi. Bunda inson ongiga ma'lum axborot oson kiradi. Lekin bundan tashqari talabalar olgan bilimlaridan mashg'ulotlarda faol foydalanishlari, kunning 2-yarmida uyda to'liq takrorlab borishlari lozim. Bu usulda diqqatni to'liq jamlab anglangan, eslab qolingan axborot anglanmagan axborot bilan qo'shib, xotira imkoniyatlarini kengaytiradi: 3 oydan keyin 95 %, bir yildan keyin 85 % xotirada saqlanadi.

Suggestiya. Uyquda o'qitish (ko'proq chet tillarni). Bu usul hammaga ham to'g'ri kelavermaydi. Sababi shar kim uchun bu usul alohida chuqurlikdagi uyqu darajasidagina samara beradi. Zarur uyqu chuqurligiga erishish va uni saqlab turish qiyin.

Xotirani jamlashni mashq qildirish:

- kun tartibi nisbatan o'zgarmas bo'lishi;
- kun davomida o'qish va dam olishga aniq vaqt ajratish;
- boshlagan ishni oxiriga yetkazishga o'rgatish;
- uy vazifalari tartibli bajarilganligini nazorat qilish;
- har qanday yutuqni o'z vaqtida rag'batlantirish bilan mustahkamlash;
- murakkabroq mashg'ulotlar ertalab o'tilishi ma'qul;
- charchaganlik yaqqol bilinganda dam olish lozim.

Pedagogik texnologiyaning umumiy sxemasi

Ushbu sxemada pedagogik texnologiyaning asosiy tarkibiy tuzilishi va tarkibiy hismlari o'rtasidagi boqliklar umumiy tarzda aks ettirilgan:

Ta'lim menejmenti va marketingi pedagogik texnologiyaning zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa talablarga muvofiqligini aniqlagan holda uni loyihalash, ishlab chiqarish, amaliyotga tadbiq qilish masalalarini hal qiladi. Shuningdek, dolzarb yo'nalishlarni aniqlab, mutaxassislar uchun takliflar tayyorlaydi, tegishli tartibda biznes rejalar tuzish va ularni amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Metodist-texnolog ta'lim-tarbiya sohasidagi dolzarb yo'nalishlarni, mavzularni aniqlash, mavjud tizimning yutuq va kamchiliklarini shamda ularning xosil bo'lish sabablarini o'rganish, tahlil qilish, takliflar tayyorlash ishlarini bajaradi. Yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish, joriy qilish, olib borish va takomillashtirishda zarur yordamlar ko'rsatadi.

Ta'lim maqsadi har bir pedagogik texnologiyani yaratishdagi asosiy sabab hisoblanadi. Maqsadning zamonaviy ta'lim-tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik

bilan hal qilishga qaratilgan bo'lishi shart. Shu kabi maqsadlar yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlashga yo'naltirilishi hozirgi talablardan kelib chiqadi.

Raqobatbardoshlik har bir pedagogik texnologiyaning maqsadga muvofiqligini u o'z vazifalarini ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq bajarayotganligi darajasini belgilaydi. Raqobatbardoshlik pedagogik texnologiyaning hamma tarkibiy qismlari uchun eng zarur shart bo'lib, bunda yakuniy natijani bevosita tayyorlovchilar bo'lgan o'qituvchi va talabalarning raqobatbardoshligiga erishish asosiy ko'rsatgich hisoblanadi.

Ta'lim mazmuni belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmga ega bo'ladi. U tegishli me'yoriy qujjatlar: ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi. Ta'lim mazmuni to'g'ri belgilanishi shamda unga zarur o'zgartirishlar kiritish, yangilab borish imkoniyatlari nazarda tutilishi lozim. Belgilangan mazmun asosida o'quv fanlari, o'quv soatlari, mashg'ulot turlari va shu kabilar aniqlanadi.

Motivlar ijtimoiy, shaxsiy, oilaviy, kasbiy bo'lib, ular ota-onalarning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlari, maqsadlari, manfaatlari, qiziqishlarini ifoda etadi. Shu bilan birga o'qituvchi va pedagogik texnologiya boshqa ishtirokchilarining kasbiy ehtiyoj, maqsad, manfaatlarini ifoda etadi.

Pedagogik texnologiyani amalga oshirishda motivlar muntazam hisobga olib borilishi zarur. Pedagogik texnologiyaning takomillashib borishida motivlarning vaqt o'tishi bilan boshqa sifatga o'tib borishini jiddiy ravishda hisobga olib borish lozim.

O'qituvchi pedagogik texnologiyaning eng asosiy ishtirokchisi hisoblanadi. Shuning uchun uning kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va mahoratini muntazam oshirib borish lozim.

Talaba pedagogik texnologiyaning asosiy iste'molchisi hisoblanadi. Uning o'qituvchi rahbarligida bilimlarni o'zlashtirishi, ta'lim-tarbiya olishi, mustaqil fikrlashi va ishlashga o'rganishi jarayonida yuqori natijalarga erishishi orqali asosiy maqsad amalga oshiriladi.

Metodlar, vositalar pedagogik texnologiya jarayonini harakatga keltiruvchilar hisoblanadi. Ularning qanchalik to'g'ri va sifatli qo'llanilishi kutilayotgan natijaning qanday darajada bo'lishini hal qiladi. Ular har xil sharoitlarga moslashuvchan bo'lishi, zarur hollarda yangilanib borishi nazarda tutiladi.

Qobiliyatlar talabalarning muvaffaqiyatlari uchun zarur asos hisoblanadi.

Natijalar talabalar olgan ta'lim-tarbiya darajasi bilan belgilanadi. Buni ayrim talaba uchun alohida hamda barcha talabalar uchun umumiy o'rtacha darajalarda belgilanadi. Bu darajalar turli diagnostika ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi. Natijalar samarali bo'lsa, pedagogik texnologiyaning uzoq vaqt qo'llanilishi ta'minlanadi.

Ta'lim metodlaridan oqilona foydalanib, ilmiy dars o'tish, talabalarni hayotda o'z o'rnini topishga ongning shakllanishiga katta asos bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchining ma'lum fan ilmini talabalar ongiga yetkaza olish mahorati, shu o'quvchilarning bo'lg'usi hayot yo'nalishlarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Oldin bayon qilganimizdek, ta'limning mohiyati inson kamolotini shakllantirishga harakat qiladi. Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Metodlar talabalarning yoshiga, ta'limning mazmuniga va funktsiyasiga harab tanlanadi. Talaba o'zining shaxsiy sifati: komilligi bilan talabalarga o'rnak bo'lishi, ta'limiy maqsad bilan

tarbiyaviy maqsad mutanosibligi, fan asoslari va g'oyalarini chuqur bilish bilan talabalarga o'rnak bo'lishi talab qilinadi.

Bunday o'qituvchilardan bilim olayotgan talabalar nimani bilishi kerak ekanligini idrok qilib beradilar. Nazariy bilimlar amaliyotga ko'chirilganda uni his qilib, tasavvur qilib o'zlari amalda bajaradilar, masalalar yechadilar. (iqtisodiy, matematik, pedagogik). So'ngra bilimlar mohiyatini bilib oladilar. Shu mavzu bo'yicha aniq ko'nikmaga ega bo'ladilar. Shu asnoda boshqa fanlardan bilib olish va amaliy mashg'ulotlar evaziga ularda ko'nikmalar boyib boradi. Talabalar o'zlashtirib olgan bilimlarni imkoniyatlariga qarab sekin-asta amaliyotga qo'llay boshlaydilar. Talabalar bilan muloqotda, ularga bilim berish jarayonida o'qituvchi ta'lim – tarbiya jarayonini samarali boshqarishi lozim. Ta'lim - tarbiya jarayoni uzviy jarayondir. Ta'lim berish jarayonida tarbiyalanayotganligimizni unutmasligimiz lozim. Suxandonlik, kinoyasiz so'zlash, o'qituvchiga xos kiyinish etikasi, fikrni erkin bayon qilish va uni yetkaza olish xususiyatlari o'qituvchilar uchun amaliy ko'rgazma ekanligini unutmaslik kerak. Ta'lim berishda o'qitish metodlari asosiy o'rin egallaydi.

Metod yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l, degan ma'noni anglatadi, ya'ni maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metodlar (usullar)ni har qanday muammoni (maqsadni) uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

So'z orqali ifodalanadigan metod;

Ko'rgazmali metod;

Amaliy metod;

Metodlar quyidagi guruhlarini o'z ichiga oladi:

Birinchi guruh metodlari: - So'z orqali uzatish va informatsiyani eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar).

Ikkinchi guruh metodlari: - o'quv informatsiyasini ko'rgazmali va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish va boshqalar).

Uchinchi guruh metodlari: o'quv informatsiyasini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, pedagogik masalalarni yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Ta'limning rag'batlantirish metodlari:

1. Ta'limga qiziqishni rag'batlantirish metodi.
2. Ta'limga burch va mas'uliyatni rag'batlantirish metodi.

Ta'lim jarayoni.

Ta'lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma'noni anglatadi. Ya'ni bu: talabalarda bilim, malaka va ko'nikmalarni xosil qilish; ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish; talabalarning muayyan darajada o'qimishli, madaniyatli, tarbiyali chin inson bo'lishiga erishish; ularning qobiliyatini o'stirishdan iborat.

Ta'lim insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni talabalar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Ta'lim jarayonini uch qirrali deb qarashimiz mumkin:

1. Bilim, iqtidor va ko'nikmalarni malakalarga aylantirish.
2. Shaxsiy sifatlarni tarbiyalash.
3. Shakllangan xislatlarni rivojlantirishdan iborat.

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, talabalarning o'qish jarayonida egallab olish lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq belgilangan doirasini tushuniladi. Ta'lim mazmuni DTS o'quv rejasi, dastur va darsliklarda ifodalangan.

Davlat ta'lim standarti talabalarning umumiy tayyorgarligiga, bilimiga va saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal talabdir. DTS barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir. U ta'lim mazmunining o'zagi hisoblanadi.

Noan'anaviy dars o'tish metodlari:

- konferentsiya darsi;
- seminar darsi;
- texnika vositalari yordamida dars o'tish;
- badiiy o'qish;
- o'ylab top (evrika);
- o'yinchog'lar yordamida dars o'tish;
- kasbga bog'lab dars o'tish;
- eksperimental dars o'tish;
- bahs-munozara darsi;
- yozma ishlar olish;
- ilmiy-ommabop adabiyotlardan foydalanish.

Innovatsion usullar

Innovatsiya-lotincha so'z bo'lib, «yangilikni kiritaman, tadbiq etaman, o'zgartiraman» degan ma'nolarni bilidiradi.

- modellashtirish (trenirovka);
- namoyish qilish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- aqliy xujum;
- tanqidiy tafakkur;
- debatlar;
- nuqtai nazar;
- har kim har kimga o'rgatadi;
- rolli o'yinlar;
- muayyan holatni (vaziyatni) o'zgartirish;
- modifikatsiyalangan mavzu;
- o'yinlar;
- bingo;
- axborot texnologiyalari (kompyuter) yordamida.

O'qituvchi innovatsion usullardan foydalana bilishi va amaliyotga qo'llay olishi uchun o'qituvchi quyidagi qo'yilgan innovatika talablariga javob bera olishi lozim.

- innovatsion texnologiya tushunchasini, uning mazmunini mohiyatini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarning ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o'rni va rolini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo'yicha qo'llash tamoyillarini bilishi;
- ta'limiy va ishchanlik o'yinlarini bilishi;
- muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodlarini bilishi;
- talabalarning mstaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo'llarini bilishi;

- talabalarning o'z ustida mustaqil ishlashi mahoratini oshirish usullarini egallashi;
- ko'rgazmali o'qitish usullarini bilishi va egallashi;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab, namunaviy imitatsiya o'quv-mashg'ulotlarini o'tishi;
- ta'lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallashi kerak.

Innovatsion usul turlari

I. Modellash (trenirovka- mashq qilish)

O'qitishning bu usuli o'z ichiga real hayotni qayta tiklash uchun ishlab chiqilgan moslama, asbob yoki vaziyatni o'z ichiga oladi.

Qo'llanishi:

- turli vaziyatlarda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni qo'llashda.
- Operativ ko'nikmalar va qaror qabul qilishni amalga oshirishda;
- Ilgari o'rnatilgan tamoyillarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashda.

Afzalligi:

- talabalar faolligi va jalb qilinishini mustahkamlaydi;
- eslab qolishni kuchaytiradi.

II. Namoyish qilish

Demonstratsiya - «ko'rsataman, isbotlayman» degan ma'noni anglatadi.

Bu o'qitish usulida o'qituvchi topshiriqni bajarib, talabalarga bu topshiriqni qanday bajarish kerakligini ko'rsatadi. Bu o'qitish usulidan so'ng, talabalarga topshiriqni bajarib ko'rish imkonini berish kerak.

Qo'llanilishi:

- Topshiriqni qanday bajarishni ko'rsatish uchun;
- muammolarni hal qilish va analitik mohirlikka o'rganishda;
- texnika xavfsizligini o'rgatishda;
- texnik vosita va asboblarni bilan ishlashni o'rgatishda.

Afzalligi:

- talaba o'z ko'zi bilan ko'radi;
- tushunish va eslab qolishga yordam beradi;
- qiziqishni oshiradi;
- o'qitishning juda faol shakli ekanligi.

III Rolli o'yinlar

O'qitishning bu usulida talabalar «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Bu ularga o'z amaliy ish faoliyatlarida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarini sinab ko'rish va tekshirish imkonini beradi.

Qo'llanilishi:

- yangi turdagi faoliyatni sinash imkonini ko'rsatishda;
- talabalarni nazariyani amaliyotda qo'llab ko'rishga o'rgatishda;
- talabalar faolligini yanada oshirishda.

Afzalligi:

- «real hayot» ning qayta tiklanishi;
- talabalarning mavzuga chuqurroq jalb qilinishi;
- talabalarni muammoga boshqacha yondoshuvini ko'rish imkonini berishi.

IV. Guruh munozarasi

O'qitishning bu usuli talabalarning o'zaro muloqoti va fikr almashuviga asoslangan. Bunda guruhda tahlil qilish, baholash va tekshirish asosida muayyan mavzu yoki saviya ishlab chiqiladi.

Qo'llanilishi:

- qiziqishni kuchaytirish va boshqa usullarni mustahkamlashda;
- mavzu, o'qish va boshqa usullarni mustahkamlashda;
- mashg'ulot mazmunini asosiy qismini ishlab chiqishda;
- muammoning ko'zda tutilgan qarorini ishlab chiqishda;
- yakun yasash yoki tekshirishni amalga oshirishda;
- mavzu tushunarligini baholashda;
- talabalarni kelgusi darsga tayyorlashda;

Afzalligi:

- talabalarda qiziqishni orttirishda va darsga jalb qilinishini mustahkamlaydi;
- talabalar fikr va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

V. Modifikatsiyalangan shakli o'zgartirilgan mavzu.

Bu o'qitish usulida o'qituvchi mavzu mazmunini og'zaki nutq orqali talabalarga yetkazadi, xulosalar chiqarishda talabalar bilan muloqot olib boradi. Ammo, an'anaviy mashg'ulotdan farqi o'qituvchi va talaba o'rtasida muloqot ketadi.

Qo'llanilishi:

- talabalarga umumiy axborot berish uchun;
- fanga kirish va asosiy materiallarni berish uchun;
- qaysidir turdagi faoliyatni boshlashdan oldin, namoyish qilish, rol o'yin va boshqa turdagi usullarni qo'llashdan oldin;

Afzalligi:

- tezkorlik bilan amalga oshirilishi;
- darsga kerak bo'lgan ko'rgazmali qurollar, ko'rsatma materiallarning tayyorlanishi;
- katta guruhlarda samaraliligi;
- kam resurslarni talab qilishi;
- boshqa usullar bilan birgalikda qo'llash mumkinligi;
- vaqtni yengil boshqara olishi;
- guruhni birgalikda ushlab imkonini berishi;

VI. Muayyan holatni (vaziyatni) o'rganish

Bu o'qitish usuli real hayotdagi vaziyatni batafsil muhokama qilishdan iboratdir. Bu usul kichik guruhlarda o'tkazilib, o'qish, o'rganish, tahlil qilish, muhokama va yorqin fikr almashish hamda qaror qabul qilish va bu qarorni boshqalarga yetkazishni talab qiladi.

Qo'llanilishi:

- dars mazmuni haqida har tomonlama o'ylab so'zlashga o'rgatishda;
- muammoni hal qilish qobiliyati, tanqidiy fikrlash va fikr yuritishni shakllantirishda;
- boshqaruv tamoyillarini namoyon qilishda;

Afzalligi:

- talabalarning faolligi va jalb qilinishini mustahkamlaydi;
- ta'lim olish tugaganidan so'ng taqozo qilinadigan ijroni modellashtirishga yordam beradi;
- o'qitishni kuzatish mumkinligi.

VII. Tanqidiy tafakkur

Tanqidiy tafakkur uslubi o'qituvchi qo'ygan masala yoki muammoni talaba o'z fikrini bayon qilish, o'zgaralar fikrini tanqidiy idrok etish, o'z nuqtai-nazarini asoslab berish va saqlab qolish orqali yechish va hal etish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslangandir.

Qo'llanilishi:

- talaba o'z nuqtai nazarini shakllantirishga yo'naltirilgan holatlarda;
- talaba o'z nuqtai nazari, fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat berilishi;
- talaba talabalar bilan birgalikda turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish jarayonida .

Afzalligi:

- talaba o'z fikrini asoslaydi;
- ta'lim oluvchilarga erkin so'zlash imkonini beradi;
- barcha fikrlar erkin tahlil qilinadi

VIII. Aqliy qujum

Aqliy qujum- har bir talaba oldiga o'qituvchi qo'ygan savol yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o'quv uslubidir. Uslub mohiyati «bir kalla yaxshi, 2 tasi undan yaxshi» tamoyili bo'yicha o'qituvchi tomonidan belgilangan muammo yoki savol yuzasidan ehtimol tutiladigan hamma fikrlar variantini bir yerga jamlab olishda bo'lib, istisno tariqasida ta'lim oluvchilarning barcha fikrlari, shu jumladan, aytarli to'g'ri bo'lmaganlari ham inobatga olinadi.

Bu narsa bayon etilgan fikrlarning keyingi tahlilida talabalarning qo'yilgan savol yoki muammoni to'g'ri tushunishlariga imkon beradi.

Qo'llanilishi:

- savol, topshiriq yoki muammoni hal qilishda fikrlarni erkin aytishda;
- muammoni hal qilish qobiliyatini oshirishda;
- talabalarning faolligini oshirishda;
- fanga kirish va asosiy mazmunini bilib olishda;

Afzalligi:

- aytilgan fikrlar tanqid va muhokama qilinmasligi yoki baholanmasligi;
- talabalarni mazmunning ilmiyligiga chuqurroq jalb qilinishi;
- belgilangan vaqt doirasida barcha xohlovchilarga o'z fikrlarini bayon etish imkoniyatining berilishi.

IX. Har kim har kimga o'rgatadi.

«har kim har kimga o'rgatadi» uslubi talabalarni o'rgatuvchiga aylanishi, ma'lum bilimlarni o'zlashtirgach, o'rtoqlari bilan baham ko'rish imkonini beruvchi o'qish uslubidir. Bu uslubning maqsadi talabalarga o'qitish jarayonida zarur bo'lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda talabada axborot olish va berishga qiziqish uyg'otishdir. Shuningdek, axborot hajmini olgan talaba ma'lum vaqt mobaynida uni iloji boricha ko'proq o'rtoqlariga yetkazadi.

Qo'llanilishi:

- talabalarda axborot olish va berishga qiziqish uyg'otish uchun;
- axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolish uchun;
- sherigininng axborotini tinglab, boshqa sherik axtarish uchun;

Afzalligi:

- o'z fikrini lo'nda bayon etishi;

- tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirishi;
- fanga yoki mavzuga bo'lgan qiziqishini uyg'otishi;

X. Debatlar.

Debatlar - o'z nuqtai nazarini asoslashda sinfdagi barcha talabalarning (yoki asosiy qismning) bahslashuvida faol ishtirok etishni ta'minlovchi o'qitish uslubidir. Bu uslubdan foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. Talaba o'z nuqtai nazarini rad etish kerak. Bahs xaqiqatni yuzaga keltirgani bois o'qituvchi sinfni har ikki guruhga bo'lgan holda munozarani atayin avj oldiradi (guruhlarni bir-biriga zid nuqtai nazarni aytadi, bahsga topshiriqlar beradi). Bu usul yozma holda olib borilsa, yozma debatlar bo'ladi

Qo'llanilishi:

- bahsda talabalarning faol ishtiroki ta'minlanganda
- muammoni hal qilishda, mohirlikka o'rgatishda;
- fikrni aniq va qisqa ifodalashga imkon berilganda.

Afzalligi:

- talabalarni bahslashishga o'rgatadi;
- munozara madaniyatiga o'rgatadi; asoslab berish malakasini oshiradi.

Demak, yuqoridagilarni tajribada qo'llab, o'rganib, talabalarning ko'nikma, malaka me'yorini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Nimani o'qidim (o'qiganda)	- 10 %
2. Nimani eshitdim (eshitganda)	- 20 %
3. Nimani ko'rdim (ko'rganda)	- 30 %
4. Nimani eshitdim va ko'rdim	- 50 %
5. Muqokama, baqs munozara	- 70 %
6. Shaxsan o'zim bajardim	- 80 %
7. Ustoz bilan birga bajardim	- 90 %

“Keys - stadi” (yoki “O'quv keyslari”) metodi

”Keys-stadi” (ing. ”case” – metod, ”ctudy” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi o'quvchi (talaba)larda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o'quvchi (talaba)larni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir; ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va o'quvchi (talaba) o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

Keys-stadi texnologiyasining umumiy tuzilmasi quyidagicha;

Ta'lim maqsadi	Keys-stadi	Ta'lim shakli	Ilmiy izlanish usul va vositalari	Ta'lim natijasi
		Ta'lim metodlari	Axborotlarni to'plash usul va vositalari	
		Ta'lim vositalari	Axborotlarni ilmiy tahlil qilish usul va vositalari	
		Ta'limni boshqarish usul va vositalari	Ta'limiy usul va vositalari	

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagi bosqichlarda kechadi:

O'quv keyslari		
Yechimni yopish bo'yicha individual ishlash	Asosiy bosqichlar	Yechimni topishda jamoaviy hamkorlikka erishish
Samaradorlik		

Keys-stadi bo'yicha jamoaviy hamkorlik quyidagi tartibda amalga oshadi;

- Jamoa (guruh) a'zolari muammo, uning yechimlari yuzasidan o'zaro fikr almashadi;
- Masalaning yechimi sifatida taqdim etilgan variantlar muhokama qilinib, ularning maqbulligi baholanadi;
- Muammoli vaziyatning yechimini ta'minlaydigan aniq dastur ishlab chiqilgan;
- Masalaning yechimi to'g'risida ma'lumot beradigan taqdimot tayyorlanadi va unda namoyish etiladigan materiallar rasmiylashtiriladi.

Texnologiyani alohida o'quvchiga nisbatan qo'llash tartibi quyidagicha:

- o'quvchi (talaba)ning texnologiyaning mohiyati, uni qo'llash shartlari bilan tanishishi;
- o'quvchi (talaba) tomonidan taqdim etilgan muammoning o'rganilishi;
- muammo bo'yicha asosiy va 2-darajali masalalarni ajratish, shakllantirish, asoslash;
- taqdimot metodlarini tanlash va vaziyatni tahlil qilish;
- taqdim etilgan muammoning amaliy jihatlarini o'rganish;
- berilgan muammoni yechishning usul va vositalarini aniqlash;
- taqdim etilgan yechimni ta'lim amaliyotiga tadbiq etish chora-tadbirlarini belgilash.

Ta'limiy xarakterga ega muammoli vaziyat (o'quv keysi)ni tashkil etish maqsadi mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda jamoa o'rtasida muammoli vaziyatni yaratish, uni hal qilish yechimlari to'g'risidagi fikrlarni jamlash, muhokama qilish orqali to'g'ri qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iborat.

Texnologiya yordamida tanlangan muammoning yechimini topishga doir muhokama quyidagi bosqichlarda tashkil qilinadi:

- keys mazmuni bilan shaxsan tanishish;
- kichik guruhlarda muhokama qilish;

- jamoa o'rtasida umumiy muhokamani tashkil qilish;
- Muammoni muhokama qilishda e'tiborni quyidagilarga qaratishi zarur:**
- o'rganilayotgan muammoning asosiy maqsadini aniqlash;
- muammoli vaziyatni real holatlar bilan taqqoslashni o'rganish;
- ehtimoli bo'lgan "to'siq"lar (2-darajali masalalarni muhokama qilish, to'g'ri qarorlar qabul qilish va h.k)ni aniqlash
- auditoriya uchun tushunarsiz ma'lumotlarni aniqlash;
- muammoni yechishda muhim, ahamiyatga ega ma'lumotni aniqlash;
- muammoli vaziyatni hal qilish uchun oraliq bosqichlarni ilg'ab olish;
- muammoni hal etishning muqobil yo'llarini belgilash;
- muammoli vaziyatni muhokama qilish vaqtini aniqlashtirish;
- muhokama tugatish tartibini belgilash;
- yakuniy izohlash va muhokama natijasini xulosalash.

O'zR OVO'MTV tizimi TASHKILIY STRUKTURASI

O'zbekistonda ta'lim tizimlari faoliyati bevosita boshqaruvini ikki vazirlik - **Xalq Ta'limi Vazirligi (XTV)** va **Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi (OVO'MTV)** - amalga oshiradi. XTV maktabgacha, maktabdan tashqari muassasalar va umumiy ta'lim maktablari faoliyati uchun mas'uldir. XTV boshqaruvida o'qituvchilar malakasini oshirish 5 OTM va 16 instituti mavjud. Vazirlik joylardagi tegishli ta'lim muassasalari faoliyatini metodologik boshqaruvchi viloyat, tuman va shahar xalq ta'limi bo'limlariga ega.

OVO'MTV Respublikada oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

Vazirlik tizimiga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi, idoraviy mansub oliy o'quv yurtlari kiradi.

Davlatimiz fuqarolarining bilim olishlari O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi yoshlar tarbiyasida ta'lim muxim ahamiyat kasb etadi. Vatan ostonadan boshlanganidek, bolalarimiz ta'lim-tarbiyasi oiladan boshlanadi. Demak, kelajak avlodimiz har taraflama yetuk, sog'lom, bilimli, o'z Vataniga sadoqatli bo'lib yetishishi uchun har birimiz mas'ulmiz. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarining quyidagi turlari mavjud: universitet, akademiya, institut (ular bilan teng mavqega ega bo'lgan o'quv muassasalari).

Oliy ta'lim. Oliy ta'lim haqida.

"Oliy ta'lim" atamasi zaminida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo'llagan va o'z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi.

Oliy ta'limning asosiy **maqsadi** zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan Respublikaning ilm-fan, madaniyat,

iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta'lim tizimi.

Oliy ta'lim tizimi quyidagicha tuzilgan: xususiy yoki davlat qaramog'ida ekanligidan qat'iy nazar ta'limiy hamda kasbga tayyorlash dasturlarini davlat ta'lim standarti asosida tatbiq etuvchi oliy ta'lim muassasalari;

oliy ta'limni rivojlanishiga zarur bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-tadqiqot institutlari;

davlat tomonidan ta'limni boshqaruvchi idoralar, shuningdek, ularga qarashli bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalar.

Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat

“Ta'lim tog'risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tog'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi “Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi tog'risida Nizom” bilan, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi “Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi tog'risida Nizom” bilan belgilanadi.

Bakalavriat – fundamental bilimlar beriladigan asosiy oliy ta'lim bo'lib, to'rt yil davom etuvchi oliy ta'limning yo'nalishlaridan biri. Bakalavriyatda ishlab chiqarishdan ajratmagan holda ta'lim jarayonining davom etish muddati bir yildan kam bo'lmagan vaqtga uzayadi. Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko'ra, bakalavriyat ta'lim daturining oxirida tayyorlov yo'nalishiga ko'ra **“bakalavr”** akademik unvoni, munosib ko'krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Ta'lim dasturining tarkibiy qismiga, bakalavr tayyorlashning kerakli darajasiga, o'quv vazifalarning maksimal hajmiga, kadrlar tayyorlash sifat nazoratining protsedura va mexanizmlariga umumiy talablar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 16 avgust 2001 yilda tasdiqlangan № 343-chi “Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. Asosiy nizomlar” qarori bilan belgilanadi. (№ 15-16, O'zbekiston Respublikasi qonunlar majmuasi, 104 bet).

Bakalavrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o'quv fanlari bo'yicha talablar, ta'lim dasturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish aniq tayyorlov yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standartlari orqali belgilanadi.

Bakalavriyatning mos yo'nalishlari uchun, davlat ta'lim standartlari asosida, oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar, o'quv fanlari ishlab chiqiladi.

Bakalavriyatda bir xil profilli (umumiy kasb xunar tayyorgarligi o'xshash) o'rta maxsus, kasb hunar ta'limiga ega bo'lgan shaxslarga, oliy ta'limning shu yo'nalishidagi o'quv rejalariga bog'liq (ketma-ketlikni ta'minlovchi) ta'lim dasturini to'liq egallashning tezkor imkoniyatlari beriladi.

O'quv rejasiga bog'liq yo'nalish ro'yxati va kadrlar tayyorlash sharoitlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bakalavr:

- yo'nalish bo'yicha lavozimga tayyorlangan oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar bilan almashtirilishi kerak bo'lgan ishga;
- bakalavriyatning mos keluvchi yo'nalishlar doirasida tanlagan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;
- qo'shimcha professional ta'limni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida olishga tayyor.

Bakalavrlarni yangi yo'nalishlari bo'yicha tayyorlash huquqi oliy ta'lim muassalarining oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlat vakolatli organi rasmiy iltimosiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Magistratura

“Ta'lim tog'risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tog'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga talabalarni qabul qilish tartibi “Oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga qabul qilish tartibi tog'risida Nizom” bilan belgilanadi.

Magistratura – bakalavriyat asosidagi ikki yildan kam bo'lmagan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limning davomi hisoblanadi. Magistraturada o'qishning davomiyligi ishlab chiqarishdan ajralmagan xolda olti oydan kam bo'lmagan vaqtga uzayadi.

Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko'ra, magistratura ta'lim daturining oxirida aniq mutaxassislik bo'yicha “**magistr**” akademik unvoni, munosib ko'krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Ta'lim dasturining tarkibiy qismiga, magistr tayyorlashning kerakli darajasiga, o'quv vazifalarning maksimal hajmiga, kadrlar tayyorlash sifat nazoratining protsedura va mexanizmlariga umumiy talablar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 16 avgust 2001 yilda tasdiqlangan № 343-chi “Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. Asosiy nizomlar” qarori bilan belgilanadi. (№ 15-16, O'zbekiston Respublikasi qonunlar majmuasi, 2001 yil, 104 bet) .

Magistrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o'quv fanlari bo'yicha talablar, ta'lim dasturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish magistraturaning aniq mutaxassisligi bo'yicha davlat ta'lim standartlari orqali belgilanadi.

Magistraturaning mos mutaxassisligi uchun, davlat ta'lim standartlari asosida, oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlar, o'quv fanlari ishlab chiqiladi.

Magistr:

- aniq mutaxassislik bo'yicha mustaqil ilmiy tadqiqot, ilmiy pedagogik va boshqaruv, professional faoliyatini olib borishga;
- magistraturaning mos keluvchi mutaxassisligi doirasida oliy ta'limidan keyingi aspiranturada davom ettirishga;
- qo'shimcha professional ta'limni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida olishga tayyor.

Oliy ta'lim muassasasida magistratura yo'nalishini ochishning asosiy sharti – bu o'quv tarbiyaviy jarayon bilan bog'liq va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlanishini ta'minlovchi mos kafedralarning ilmiy pedagogik potentsiali mavjudligi va ilmiy tadqiqot ishlarini yuqori darajada olib borish imkoniyatining bo'lishi.

Magistrlarni yangi mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash huquqi oliy ta'lim muassalarining oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlat vakolatli organi rasmiy iltimosiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Oliy ta'lim muassasasi strukturasida magistraturaning maxsus bo'limi (fakultet, markaz) ochiladi va unga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- talabalarning o'quv-tarbiyaviy jaraenini tashkillashtirish va nazorat qilish, o'quv-uslubiy xujjatlar va o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish;
- magistrlar yetishtirib beruvchi kafedrlar faoliyatini koordinatsiyalash;
- magistrlar tayyorlash protsessining monitoringi.

Davlat namunasidagi bakalavr va magistr diplomlari diplom egalariga mutaxassisliklari bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki o'quv muassasasida kelgusida o'qishni davom ettirish imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalari

Oliy ta'lim muassasalari yuridik maqomga ega. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining quyidagi ko'rinishlari bor:

Universitet — oliy ta'lim dasturini bajarishda talabalarga egallayotgan sohasi bo'yicha yoki keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun keng qamrovli bilim berishga e'tibor qaratiladi;

- oliy va undan keyingi ta'lim uchun ta'limni bir necha yo'nalishda beradi;
- turli sohalaridagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;
- fanning turli yo'nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi;
- ilm sohasi bilan chambarchas bog'liq ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Akademiya — oliy ta'lim dasturini bajarishda oliy ta'lim berish bilan bir qatorda keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun aniq bir yo'nalishga tayyorlaydi;

- ta'lim sohasida ma'lum belgilangan oliy va oliy ta'limdan so'nggi ta'lim berishga mo'ljallangan o'quv dasturini bajaradi;
- mutaxassislarning bilimlarini belgilangan tartibda malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;
- fan, madaniyat, san'at sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi;
- o'z faoliyati doirasida yetakchi ilmiy, metodik markazi hisoblanadi.

Institut — barcha oliy ta'lim muassasalari kabi oliy ta'lim dasturini bajaradi, bilim berishda bir yo'nalishga qaratilgan bilim beriladi;

- oliy va oliy ta'limdan keyingi o'quv dasturlarini bajarishni ta'lim va fanning ma'lum bir me'yorida amalga oshiradi;
- mutaxassislarni ma'lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi;
- fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Oliy ta'lim olish uchun nodavlat muassasalarini tuzishga qonunchilik ruxsat beradi. Ushbu muassasaga davlat akkreditatsiyani attestatsiyadan tegishli tartibda o'tgachgina bersa u o'qitish huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasalarining Attestatsiyasi u davlatga tegishli yoki xususiyligidan qat'iy nazar, kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish Boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tasdiqlagan, Davlat test markazi tomonidan qabul qilingan pedagogik kadrlar va ta'lim muassasalarining attestatsiyadan o'tkazish Nizomi asosida oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar jamoasi attestatsiyasidan o'tkaziladi. Attestatsiya natijalariga ko'ra istalgan oliy o'quv muassasasi davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Eksternat — oliy ta'lim dasturiga muvofiq oliy ta'lim muassasasining o'qitiluvchi tartibini keyingi (joriy va yakuniy) attestatsiyagacha tanlangan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha mustaqil o'rganish.

Masofaviy ta'lim — asosiy faoliyatdan uzilmagan holda ta'lim muassasasidan uzoqda o'quv dasturidagi mavjud bilimlarni o'zlashtirish. U zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyaning texnik vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Kunduzgi o'qitish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashning yo'nalishlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Oliy ta'limning maqsad va vazifalari

Oliy ta'limning asosiy **maqsadi** zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta'limning asosiy **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- davlat ta'lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida o'qitishning sifatini ta'minlash;
- oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;
- ilm-fan, madaniyat, iqtisodning zamonaviy yutuqlari, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy istiqbolini yutuqlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- oliy ta'limning insonparvarligini ta'minlash maqsadida yoshlar tarbiyasiga milliy istiqbol g'oyasi asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatanga, oilaga, atrof-muhitga muhabbatni singdirish;
- o'qitishning interfaol usullarini, pedagogik innovatsion hamda axborot kompyuter texnologiyalarini, mustaqil ta'lim olish, masofaviy ta'lim tizimini amaliyotga joriy qilish;
- oliy ta'limda fan va ishlab chiqarish mexanizmlarining uyg'unligi mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash;
- ilmiy-pedagogik kadrlar va talim oluvchilarning ilmiy- ijodiy faoliyati, ilmiy tadqiqotlari yordamida fan, texnika, texnologiyalarni rivojlantirish, ta'lim jarayoni orqali mamlakat iqtisodining rivojlanishiga hissa qo'shish;
- davlat va nodavlat oliy o'quv muassasalarini rivojlantirish asosida ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni yuzaga keltirish;

- oliy o'quv muassasalarini boshqarish va kengaytirishni takomillashtirish uchun jamoat boshqaruvining vasiylik va kuzatuvchi kengashlarni kiritish ;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini tekshirish uchun marketing tadqiqotlarini olib borish, yo'nalishi bo'yicha belgilangan mehnat bilan ta'minlash monitoringini tuzish;
- oliy ta'lim sohasida ikki tomonlama foydali xalqaro aloqalarni rivojlantirish.

Oliy ta'limning tuzilishi

Oliy ta'lim tizimi quyidagicha tuzilgan:

- davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim dasturining bajarilishi davlat ta'lim standartiga muvofiq yo'nalishlar va mutaxassisliklar asosida olib boriladi;
- ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy tadqiqot ishlarini oliy ta'limni huquqiy-normativ va ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash uchun yuritishadi;
- oliy ta'limni boshqarish davlat organlarining vakillari, shuningdek, ularga tegishli korxona, muassasa, tashkilotlar orqali amalga oshiriladi.

ta'lim sohasida ma'lum belgilangan oliy va oliy ta'limdan so'nggi ta'lim berishga mo'ljallangan o'quv dasturini bajaradi;

mutaxassislarning bilimlarini belgilangan tartibda malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;

fan, madaniyat, san'at sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi;

o'z faoliyati doirasida yetakchi ilmiy, metodik markazi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasining davlat ta'lim standartini mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha bajarilishini, kadrlar tayyorlash sifati davlat tomonidan tayinlangan organ oliy ta'lim boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi. Pedagogik kadrlar va o'quv muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, kadrlar tayyorgarligi sifatini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat test markazi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim tizimini boshqarish

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining boshqaruvi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida oliy ta'limni boshqarish davlat vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim boshqaruv organi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi hisoblanadi.

Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligiga, tarkibida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirliklar va boshqarmalar bilan birgalikda quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- bakalavr yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun davlat ta'lim standartlarini, o'quv reja va o'quv fanlari dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va bosqichma-bosqich kiritib borish, hamda respublika oliy ta'lim muassasalarini ular bilan ta'minlash;
- oliy ta'lim yo'nalish va mutaxassislik Klassifikatoriga zarur bo'lganda O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish;
- oliy ta'lim muassasi faoliyatining normativ-huquqiy ta'minotini ishlab chiqish va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish;

- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari o'quv-uslubiy boshqaruvini amalga oshirish;
- oliy va o'rta maxsus kasb hunar ta'limi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarini muvofiqlashtirish;
- Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning normativ-uslubiy integratsiyasini ta'minlash.

Oliy ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy shakllarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining rektorlar kengashi tashkil qilingan bo'lib, uning faoliyati belgilangan nizom bilan tartibga solinadi.

Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur nizom asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasining bevosita boshqaruvi rektor tomonidan amalga oshiriladi. Davlat oliy ta'lim muassasasi rektori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan, nodavlat oliy ta'lim muassasalari rektorlari ta'sischi tomonidan tayinlanadi.

Oliy ta'lim muassasasining ish natijalari uchun to'liq javobgarlik rektor zimmasida turadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va oliy ta'lim muassasa Nizomiga ko'ra, rektor oliy ta'lim muassasasi nomidan barcha organ va tashkilotlarda faoliyat yuritadi, mol-mulkga belgilangan tartibda egalik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalarni taqdim etadi, bankda oliy ta'lim muassasasining hisob raqamini ochadi va kreditlar boshqaruvchisi hisoblanadi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini amalga oshirilishining alohida javobgarligi rektor zimmasiga yuklatilgan.

Oliy ta'lim muassasasi vakolatlari doirasida **rektor**:

- oliy ta'lim muassasasi ishchilar va talabalari uchun majburiy bo'lgan buyruq va topshiriqlarni chiqaradi;
- prorektorlarning aniq majburiyatlarini va mas'uliyatlarini belgilab beradi;
- ishchi va xizmatchilarni, hamda ilmiy pedagogik xizmatchilarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilagan tartibda ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi;
- oliy ta'lim muassasa tarkibiga kiruvchi boshqa tashkilotlar va bo'limlarining ilmiy tadqiqot, tajribviy-eksperimental kompetentsiyasini aniqlab beradi, va ularning nizomlarini tasdiqlaydi;
- oliy ta'lim muassasalari ishchilari lavozimli maoshlarini orttiradi yoki qo'shimcha to'lovlarni belgilab beradi;
- kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki boshqa davlat organi bilan kelishilgan holda ishchilarning ichki tartib qonun qoidalarini tasdiqlaydi;
- qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa vakolatlarni bajaradi.

Rektor byudjetdan ajratilgan va oylik maosh fondi mablag'lari chegarasida, oliy ta'lim muassasasi xizmatchilarining lavozim maoshlari tarif setkasi va oyliklarga o'rnatilgan limitlardan kelib chiqqan holda:

- oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi bilan kelishilgan holda ilmiy kengashning maslahatiga ko'ra fakultetlarni ochish va yopish huquqiga ega;
- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga ajratilgan shtatlarga dekan va dekan o'rinbosarlarini tayinlash huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun ilmiy kengash tashkil qilinadi.

Ilmiy Kengashning tarkibi, vakolatlari, tartibi va faoliyati oliy ta'imni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan qarori bilan tartibga solinadi.

Oliy ta'lim muassasasida ijtimoiy boshqaruv organi bo'lgan vasiylar kengashi tashkil qilinadi. Uning tarkibiga ta'sischi, mahalliy hokimiyat organlari, vazirlik va idora sohalari, muassasa va tashkilotlar, boshqa ta'lim muassasalari, ijtimoiy tashkilotlar, fondlar va xomiyatlarning vakillari kiradi.

Oliy ta'lim muassasasi shu oliy ta'lim muassasasi qoshida tashkil topgan akademik litseylarning boshqaruvini va bir xil profilli kasb-xunar kollejlarning homiyligini amalga oshiradi.

Oliy ta'lim muassasasi haqidagi amaldagi qonunchiligiga va Nizomiga ko'ra unda ijtimoiy tashkilotlar, ilmiy va ko'ngilli jamiyatlar, dissertatsiyani himoya qilish kengashlari, ilmiy-uslubiy va ilmiy-texnik kengashlar, hamda yosh olimlar kengashini va shunga o'xshashlarni tashkil qilinishi taqiqlanadi.

Oliy ta'lim muassasasi tasdiqlangan ishchilar miqdori va byudjet chegarasida (davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lar), talabalarning miqdoridan kelib chiqqan holda belgilangan tartibda o'z strukturasi shakllantiradi.

Xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tizimi. Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimini o'rganish maqsadida AQSh, Frantsiya, Yaponiya davlatlarining ta'lim tizimi tarkibini yoritmoqchimiz.

Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha tarbiya muassasalari - 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi;
- boshlang'ich maktablar (1-8-sinflar) - 6 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar;
- o'rta maktablar (9-12-sinflar) - 14 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'lim olishlari uchun imkoniyat yaratadi. O'rta maktab quyi va yuqori bosqichdan iborat.
- oliy ta'lim - 2 yoki 4 yil mobaynida kollejlarda hamda universitetlarda amalga oshiriladi.

Universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari tarkibida tashkil etiladigan aspirantura va doktoranturadir.

AQShda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan o'quv yurtlari davlat, jamoa, xususiy tasarruflar hamda diniy muassasalarga tegishli bo'lishi mumkin. Amerika Qo'shma Shtatlarining maktablari uchun yagona o'quv rejasi yo'q. Har bir shtat o'z o'quv rejasiga ega. Shunga ko'ra Shtatlarda boshlang'ich ta'lim 4, 5, 6 va 8 yillik bo'lishi mumkin.

Yaponiya ta'lim tizimi o'z ichiga maktabgacha tarbiya muassasalari, boshlang'ich maktablar, yuqori o'rta maktablar hamda oliy ta'lim beradigan universitetlarni oladi.

Bolalar bog'chalariga bolalar 3-5 yoshlarida boradilar va 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar.

Boshlang'ich maktabga bolalar 6 yoshdan boradi va 6 yil o'qiydi. Boshlang'ich maktabni tugatgandan keyin kichik, o'rta maktabda 3 yil ta'lim oladilar. Yaponiyada 9

yillik bu ta'lim majburiy bo'lib, barcha bolalar bepul o'qitiladi, ular tekin darsliklardan foydalanadilar.

Yuqori bosqich o'rta maktab Yaponiyada ixtiyoriy bo'lib, uning kunduzgi, kechki va sirtqi turlari mavjud. O'qish muddati 3 yil.

Oliy ta'limga yuqori bosqich o'rta maktablarni tugatgan bitiruvchilar qabul qilinadilar. Oliy ta'limni universitetlarda olish mumkin. Oliy ta'lim tizimiga kirgan bo'lsada, o'rta maxsus ta'lim beradigan kichik kollej, texnik kollej, maxsus tayyorgarlikdan o'tish imkonini beruvchi kollejlari ham mavjud. Yaponiyada faoliyat olib borayotgan 460 ta universitetning yarmidan ko'pi xususiydir.

Frantsiyada ta'lim tizimi quyidagi bosqichlar asosida shakllangan:

- Maktabgacha tarbiya - 2 yoshdan 6 yoshgacha bolalarni o'z ichiga oladi.
- Boshlang'ich ta'lim - 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalarning 3 bosqichda ta'lim olishlariga imkon beradi. Tayyorlov bosqichi uchun 1 yil, elementar kurslar uchun 2 yil ta'lim muddati belgilangan. Boshlang'ich ta'limning 3-bosqichi 2 yillik chuqurlashtirilgan bosqichdir.
- O'rta ta'lim ikki bosqichda beriladi. O'rta ta'limning birinchi bosqichi 4 yillik ta'lim beruvchi kollejlari, ikkinchi bosqich esa 3 yillik ta'lim beruvchi litseylarda amalga oshiriladi. 3 yillik litseyni tugatgan bitiruvchilar «**Bakalavr**» darajasini olish uchun imtihon topshiradilar.

Oliy ta'lim universitetlar va oliy ixtisoslik maktablarida olib boriladi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Internet yoki biror bir kommunikativ moslama (masalan, lokal) tarmoq orqali sizga qulay bo'lgan vaqtda o'qitish nima deb ataladi?

- A) masofadan o'qitish, B) internet tarmoqlararo, S) lector o'qitish, D) innovatsion o'qitish

2. Pedagog modeli nimalardan iborat?

- A) ta'lim berish mahorati, ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholash, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib o'rish, o'z bilim va mahoratini doimiy oshirib borish, B) ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish, talabchanlik va adolatlilik, S) ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bo'rish, bilim va mahoratini doimiy oshirib borish D) talabchanlik va adolatlilik, bilim va mahoratini doimiy oshirib borish

3. Masofadan o'qitishning tarkibiy belgilari...

- A) o'qituvchi-kommunikatsiya-o'quvchi, B) o'quvchi-o'qituvchi-kommunikatsiya S) kommunikatsiya-o'quvchi-o'qituvchi, D) o'qituvchi-o'quvchi-kommunikatsiya

4. "Test" nima?

- A) sinov, B) insho, S) tekshirish, D) baholash

5. An'anaviy yondashuvning asosiy xususiyati nimada?

- A) gapirib berish, tushuntirish, talaba esa bu axborotni xotirada saqlaydi B) Ijodiy yondashuv, S) nazorat turlari (ON,JN,YaN), D) o'zaro ta'sirlar

6. "Texnologiya" so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) "texne"-mahorat, san'at, "logos"-tushuncha, ta'limot, B) "texne"-mehnat, san'at, "logos"-tushuncha, bilim, S) "texne"-qobiliyat, san'at, "logos"-tushuncha, ta'lim, D) "texne"- san'at, "logos"-tushuncha, o'qitish

7. Qaysi amerikalik olim oily o'quv yurtlari uchun pedagogic texnologiyaning

individuallashtirilgan metod tizimini ishlab chiqdi?

A) F.Keller, B) R.Ganye, S) A.Romishevskiy, S) A.Romishevskiy

8. Pedagogik texnologiyaning samaradorligi nimada?

A) bilimlarni o'zlashtirishda, avvalgi bilim va tajribalarning rolini oshishi,
B) o'qituvchilarning deyarli bir xil natijaga erishishi, S) Talaba bilan hamkorlikda ishlash,

D) kompyuter texnologiyasidan keng foydalanish

9. O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi komponentlari ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

A) Texnologik, pedagogik, psixologik, prospektiv, B) Motivasion, kreativ, pedagogik,

S) Texnologik, reflektiv, pedagogik, D) Motivasion, kreativ, texnologik, reflektiv

10. Pedagogik test sinovlari birinchi marta kim tomonidan ishlab chiqildi?

A) angliyalik psixolog F.Gamelton tomonidan, B) amerikalik psixolog E.Torndayk tomonidan S) amerikalik psixolog U.Shramm tomonidan,

D) chex pedagogi Ya. Komenskiy tomonidan


“Blits – so'rov” Nazorat savollari:

1. Texnologiya so'zining ma'nosi nima?
2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga test metodi qachon kirib keldi?
3. Test nima va u qaysi olim tomonidan birinchi bo'lib ishlab chiqilgan va qo'llangan?
4. Test necha turda bo'ladi?
5. Ilmiy adabiyotlarda pedagogik texnologiyaning uch aspekti to'g'risida fikr yuritilgan, bular qaysilar?
6. Pedagogik texnologiyaga bag'ishlangan birinchi xalqaro konferensiya YuNESKO tomonidan qachon va qayerda o'tkazilgan?
7. Pedagogik test sinovlari birinchi marta kim tomonidan ishlab chiqildi?
8. O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi komponentlari nimalardan iborat?
9. Internet yoki biror bir kommunikativ moslama (masalan, lokal) tarmoq orqali sizga qulay bo'lgan vaqtda o'qitish nima deb ataladi?
10. "Keys-stadi" so'zining ma'nosi va uni qo'llanish tartibi qanday?

ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov. «O'zbekistonnig o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li». T.: «O'zbekiston», 1994 yil.
2. Islom Karimov. «Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik». T.: «O'zbekiston» 1994 yil.
3. Islom Karimov. «Halollik va fidoiylik – faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin». –T.: «O'zbekiston» 1994 yil.
4. Islom Karimov. «Istiqlol va ma'naviyat». – T.: «O'zbekiston».
5. Islom Karimov. «Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili». T. «O'zbekiston» 1995 yil.
6. Islom Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». – T.: «O'zbekiston» 1995 yil.
7. Islom Karimov. «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqlolining asosiy tamoyillari». – T.: «O'zbekiston».
8. Islom Karimov. «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T. Sharq, 1997.
9. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «O'zbekiston», 2000 yil.
10. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni.
11. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». «Ma'rifat» gazetasi. 15 sentyabr' 1997 yil.
12. A.Zunnunov, A.U.Mahkamov. «Didaktika». T. «Sharq» 2006 yil.
13. A.Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq», «O'qituvchi» nashriyoti., T. 1993 yil.
14. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri» «A.Qodiriy» nashriyoti. T. 1993 yil.
15. A.Navoiy. «Mahbub ul-qulub». Asarlar. O'n besh tomlik. 13-tom. T. Adabiyot va san'at nashriyoti 1996 yil.
16. A.Q. Munavvarov. «Pedagogika». «O'qituvchi» nashriyoti. T. 1996 y.
17. B.Ziyomammedova, Sh.Abdullaeva. «Pedagogika» «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» nashriyoti. T. 2000 yil.
18. Betti Readon. «Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam». «YUNESKO» 2002 yil.
19. D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova «Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi», metodik qo'llanma, T. 2014
20. J.G'. Yo'ldoshev. «Xorijda ta'lim». Sharq – Matba konserni. 1995 yil.
21. J.G'.Yo'ldoshev. «O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish». T. «Ma'rifat-madadkor» 2001 yil.
22. J.Hasanboyev, X.Toraqulov, va boshq, "Pedagogika", darslik, T.: "Noshir", 2011
23. J.Hasanboyev, va boshq, "Pedagogika", o'quv qo'llanma, T.: "Fan", 2006
24. Z.Mirtursunov. «Xalq pedagogikasi». T.1994 yil.
25. Imom Ismoil al-Buxoriy. «Al-adab, al-mufral». Odob durdonalari. T. «O'zbekiston». 1990 yil.
26. I.P. Podlasiy «Pedagogika». I-II t. –M.: Vlados, 1999 yil.


27. **I.Alqarov.** "Shaxs va oila tarbiyasi pedagogikasi" o'quv qo'llanma
28. K.Xoshimov, S.Nishonov va boshqalar. «Pedagogika tarixi». T. «O'qituvchi» 1996 yil.
29. **K.Xoshimov,** «Pedagogika tarixi». 2-qism darslik. T. «O'qituvchi» 1996 yil.
30. K.Xoshimov, Safo Ochil. «O'zbek pedagogikasi antologiyasi». «O'qituvchi» nashriyoti. T. 2000 yil.
31. M. Abdurasulov. «O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm ma'rifat haqida». T. «O'qituvchi» 1981 yil.
32. M.Inamova. «Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi». Birinchi Toshkent bosmaxonasi. 1999 yil.
33. M. Ochilov. «Muallim qalb me'mori» T. «O'qituvchi» 2001 yil.
34. **M.Ye.Ahmedova.** "Pedagogika nazariyasi va tarixi" o'quv qo'llanma
35. N.N.Azizxo'jayeva. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat", (barcha mutaxassislik magistratura yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma), Toshkent, 2003
36. N.Saidahmedov «Yangi pedagogik texnologiyalar». T. Moliya 2003 yil.
37. O.Musulmonova. «Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi». «O'qituvchi» nashriyoti.T. 1996 yil.
38. O.Xasanboyeva. «Pedagogika tarixidan xrestomatiya». «O'qituvchi» nashriyoti. T. 1993 yil.
39. R.Mavlonova va boshqalar. «Pedagogika» T. «O'qituvchi» 2001 yil.
40. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev, "Ta'limda innovatsion texnologiyalar", (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar), Toshkent, 2008
41. Safo Ochil. «Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari» «O'qituvchi» nashriyoti. T. 1995 yil.
42. S.Tursunov, B.Nishonaliyev «Pedagogka». «O'qituvchi» nashriyoti. T.1996 yil.
43. S.S.G'ulomov. «Oliy ta'lim lug'at ma'lumotnoma». T. Moliya 2003 yil.
44. T.T. Rizqiyev umumiy tahriri ostida «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi» .T. «Sharq» 2002 yil.
45. Farberman B. «Ilg'or pedagogik texnologiyalar». T. Fan. 2000 yil.
46. Yu.N. Abdullayev. «Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil». G'.G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» 2001 yil.
47. Yusuf Xos Hojib. «Qutadg'u bilig» (so'z boshi muallifi B.Tuxliyev). T. Yulduzcha. 1990 yil.
48. O'.Aliqulov, R.Omonboyev. Jomiy va davoniy ta'lim tarbiya haqida. T. «O'qituvchi» 1981 yil.
49. O'.Asqarova. «Milliy g'urur». T. «O'qituvchi» 2003 yil.
50. O'.Asqarova. «Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar». T. «Istiqlol» 2005 yil.
46. G'.B.Shoumarov. I.O.Haydarov. "Oila psixologiyasi", T,: "Sharq", 2008



B/BX/B JADVALI

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

«Nima uchun?» sxemasi – o’qituvchini dars jarayonida SAMARADORLIKKA ERISHA OLMASLIK SABABLARI.



M U N D A R I J A :

1-mavzu: Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.	3 – 14
2-mavzu: Pedagogika tarixi. G`arb va Rossiya olimlarining ta'lim-tarbiya ilmidagi faoliyatlari.	15 – 29
3-mavzu: Sharq mutafakkirlarining ta'lim va tarbiyaga qo'shgan hissalar.	30 - 44
4-mavzu: Tarbiya jarayoni. Tarbiya turlari va metodlari.	44 - 61
5-mavzu: Shaxs shakllanishiga turlicha yondoshuvlar.	62 - 73
6-mavzu: Ta'lim jarayoni. O'qitishning asosiy metod, shakl va vositalari.	73-103
7-mavzu: O'zbekistonda xalq ta'limi tizimi va uni tashkil etish tamoyillari.	103-116
8-mavzu: Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Xorijiy mamlakatlar pedagogikasi.	116– 186
Foydalanilgan adabiyotlar	187 - 188
Ilovalar	189 - 190

